TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

SAZOIY QORAQO‘CH

JO‘SHQIN QORABULUT

ALI OQBOSH

53






SAZOIY QORAQO‘CH

JO‘SHQIN QORABULUT

ALI OQBOSH







“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.161-1
KBK 84(5Turk)-5
S 20

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton – hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Boboxon Muhammad Sharif, Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

Tɵ‘plovchi va nashrgà tayyorlovchi

Lola Fattoyeva

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.


Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.


Mazkur keng ko‘lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8725-0-9
©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022

SAZOIY QORAQO‘CH





SO‘Z TAROVATI

XX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshi turk she’riyatida alohida o‘rin tutgan taniqli shoir Sazoiy Qoraqo‘ch 1933-yilda Turkiya Jumhuriyati Diyorbakr shahri Ergani tumanida tug‘ildi. 1955-yilda Anqara universiteti Siyosiy fanlar fakulteti moliya va iqtisod bo‘limini tamomladi. 1956–1965 yillarda tegishli idoralarda moliya boshqaruvi nazoratchisi vazifasida ishladi. 1965-yildan boshlab jurnalistika va matbuot sohasida faoliyat olib bordi. Adib 2021-yilda 88 yoshida vafot etdi. Shoirning “Ko‘rfaz”, “Shohtomir”, “Xizr bilan qirq soat”, “Ovozlar”, “Taxaning kitobi”, “She’rlar”, “Marosimlar”, “Layli va Majnun”, “Olovli raqs”, “Taqdir soati” kabi ko‘plab she’riy to‘plamlari chop etilgan.

Sazoiy Qoraqo‘chning o‘zbek o‘quvchilariga yaxshi tanish Mehmet Akif Ersoy, Yahyo Kamol, Najib Fozil Qisakurak kabi taniqli turk shoirlaridan farqi shundaki, shoir 50–60-yillarda turk she’riyatida o‘rtaga chiqqan, g‘arb adabiy an’analarining ilg‘or tendensiyalarini o‘zida aks ettirgan “Ikkinchi yangi” adabiy oqimiga tobe bo‘lgan holda, diniy mavzularga shaklan va mazmunan yangicha yondashganini ko‘ramiz. Buni shoir she’riyatida shaklda sarbast vazn, mazmunda ma’nolarning ramziylikka asoslanganligi bilan izohlash mumkin. “Ikkinchi yangi” adabiy oqimi namoyandalari asosiy e’tiborni moddiy dunyoga qaratgan bo‘lsalar, Sazoiy Qoraqo‘ch ijodida moddiyat metafizik mohiyatga burkanadi. Shu jihatdan shoir she’rlari didaktik ahamiyat kasb etadi.

Adib asarlarining deyarli barchasida u yoki bu darajada sharq va g‘arb madaniyatining o‘ziga xosliklari qiyoslanadi. Qolaversa, bu davr turk shoirlari ijodida g‘arb simvolist shoirlari G.Apoliner, Luis Aragon, Andre Breton, Pol Elyuar, Pyer Reverdi, Rene Shar, Tomas Eliot, Ezra Pound, Reyne Mariya Rilke hamda ekzistensialist faylasuf adiblar Frans Kafka, Albert Kamyu, Poul Sartr, Kerkegor, Haydeger, shuningdek, Van Gog, Matiz, Pikasso kabi ras-

somlarning asarlari ilhom manbai bo'lganini aytib o'tish joiz. Shu ma'noda, Sazoiy Qoraqo'ch ijodida shaklda g'arb she'riyati unsurlari yetakchilik qilsa, mazmunda sharq mutafakkir adibi Jaloliddin Rumiy falsafiy qarashlari ta'siri seziladi. Buni adibning deyarli har bir asarida hayot, o'lim, qiyomat, tirilish kabi baqo va fano masalalari keng yoritilganligi ham tasdiqlaydi.

Shoir o'zi mansub bo'lgan "Ikkinchi yangi" adabiy oqimiga xos ifoda mavhumligi, jumboq to'la ma'no qorishiqligi haqida so'z yuritarkan, jumladan shunday deydi:

"Yangi she'riyatda ma'no o'z vazifasini yo'qotadi. Xuddi uyqusirab xotirasini yo'qotgan kimsadek... Garchi yangi she'riyat o'rni-o'rni bilan mavhumlikka e'tibor qaratib, ma'no bo'shliqlari qoldirsa-da, biroq butunlay ma'nosiz deb bo'lmaydi". Uslub borasidagi mazkur qarashlar uning o'z she'riyatiga ham taalluqli desak xato bo'lmaydi.

Sazoiy Qoraqo'chning she'rlarida ma'no shaklga emas, balki shakl ma'noga tobe ko'rinish oladi. Shu ma'noda shakl ba'zan bir so'zdan, ba'zan esa butun boshli uzun satrdan iborat bo'ladi. Satrlar yanada jozibali tus olishi uchun shoir ba'zan qofiya, ichki qofiya, so'z o'yini hamda aliteratsiya — ohang uyg'unligidan unumli foydalanadi.

Sazoiy Qoraqo'ch milliy urf-odatlar, an'analar, islom dini, sharq madaniyati hamda asotiru afsonalarga bog'liq shoir sifatida, "Layli va Majnun" ishq dostonida o'ziga xos yo'ldan boradi. Asarda mazkur ishq afsonasining turli variantlaridan foydalanarkan, ayni paytda butunlay yangicha qarash va talqinlarni ilgari suradi. Ma'lum bir obraz yoxud voqelik borasida xuddi shu tarzdagi asarlardan farqli ravishda, o'zgacha natija va xulosalar yasaydi. Asarda Layli va Majnunning hayoti o'z istak va orzulariga ko'ra yakun topmasa-da, biroq qahramonlar taqdir bitigiga isyon qilmay, rozi-rizolik ko'rsatishadi.

"Xizr bilan qirq soat" doston tarzidagi uzun asarda Xizr (alayhissalom) timsolida dunyoga hayrat va ibrat ko'zi bilan boqib, voqea-hodisalarni bayon qilish, izohlash yo'lidan boradi. Asarda uzoq o'tmishdan bugungi kungacha insoniyat bosib o'tgan yo'lga Qur'on ta'limoti asosida ko'z tashlanib, botil e'tiqod va holatlar

mazkur shaxs tomonidan tanqid ostiga olinadi. Shuningdek, turli qazo-yu balolarga, haqsizlik va adolatsizliklarga duchor bo'lganlar Uning himoyasi ostida bo'ladi. Shoir mazkur asarda o'z zamonasi-yu undagi insonlarni qator muqaddas dinlarning talqini hamda Qur'oni Karimda ilgari surilgan axloq-odob ta'limoti nuqtayi nazaridan chig'irdan o'tkazadi. Asar davomida Xizr (alayhissalom) ba'zan o'zi, ba'zan ko'rib guvoh bo'lganlari haqida so'z yuritadi. Ko'p o'rinlarda Ilyos, Iso, Muso, Zulfikul, Ayub, Nuh payg'ambarlar bilan bo'lgan suhbatlarini izohlab, hikmatomuz o'gitlar beradi.

Xulosa qilib aytganda, turk adabiyotida o'z ovozi, o'ziga xos uslubi bilan muxlislar qalbidan chuqur joy egallagan Sazoiy Qorako'ch qaysi mavzuga qo'l urmasin, ashrafi maxluqot bo'lmish insonning yashashdan maqsadi, imon-e'tiqod, Haq, haqiqat, boringki, olam va odam o'rtasidagi mutanosiblik borasida so'z yuritib, kishini adoqsiz o'yga toldiradi. Garchi shoir o'z asarlarida ochiqdan-ochin pand-nasihat yo'liga o'tmasa-da, zukko o'quvchi har bir so'z, ramz, satr ostida yashiringan ma'no injularini payqamay qolmaydi. Zero, shoir she'riyatining ta'sir kuchi-yu joziba qudrati ham shundadir.

Shermurod Subhon,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

EY SEVGILI

Sening qalbingdan surgun bo‘ldim dastlab
Barcha surgunliklar ayni surgunning davomidir aslida
Barcha bayramlardan kechib
Senga keldim oyoqlaringga tiz cho‘kmoqqa
Afv tilashga keldim garchi bunga loyiq bo‘lmasam-da
Uzaytirma dunyo surgunimni mening
Quyoshni bahordan tortib olib
Ishqning bu eng yengilmasidan tortib olib
Bir tuz buluti kabi
Sovrulgan yuragimga
Eh uzaytirma dunyo surgunimni mening
Necha toliqqanlarim oyoq kiyimimdan emas
Oyoqlarimdan ma’lum
Chiroqlar egri
Oynalar chayon malagi
Vaqt to‘qnashgan otning so‘nggi orzusi
Uy meros emas merosning xayoloti
Ey ko‘nglimda tug‘ilib ulg‘aygan
Qush patidan
Va qush sutidan
Kecha va kunduzlarda
Insoniyatga yodgorlik kabi yuksaltirgan
Sevgili
Eng sevgili
Ey sevgili
Uzaytirma dunyo surgunimni mening
barcha she’rlarda tilga olganim sensan
Shul deganim sensan, Layli deganim sensan
Seni sir tutish uchun xayollaridan foydalandim

Salomu Bilqisning

Behuda edi sir tutishim aslida
shunday ham oshkor eding sen
Qushlar uchar ko‘ngling topmoq uchun
Qo‘llaringdan to‘plar bahor gullarin
Dengiz ko‘zlaringdan oladi cheksizlik xabarini
Ey ko‘ngillarning eng yumshog‘i
Sevgili
Eng sevgili
Ey sevgili
Uzaytirma dunyo surgunimni mening
Yillar o‘tdi abas noxush iz qoldirdi tuproqda
Yulduzlarga uzanib mudom seni so‘radim tunda
Tomlarda yerto‘la qavatlarida
Soyang edi kechamni yoritgan tengsiz chiroq
Doim Qonlichada Emirgonda
Qadillining qo‘rg‘oshiniy shafaqlarida
Sen bilan so‘zlashib turdim umrimning bahorida yozida
Endi uning nogoh kelgan kuzida
Senga keldim oyoqlaringga tiz cho‘kmoqqa
Afv tilashga keldim garchi bunga loyiq bo‘lmasam-da
Ey chog‘dosh Quddus (Maryam)
Ey sirini ko‘nglida tashigan Misr (Zulayho)
Ey ipaklarga yumshoqlik bag‘ishlagan marhamatning qalbi
Sevgili
Eng sevgili
Ey sevgili
Uzaytirma dunyo surgunimni mening

SULTON AHMAD CHASHMASI

Suv o‘rnida bezak oqmoqda
Jo‘mraklaridan
Egilib o‘limsiz nozik bilakli
Kanizaklar boqmoqda
Uzoqlardan kelmoqda ovozlari
Yonida to‘qqiz minora
Oynalar qadar yorug‘ yuragi
Cherkov ko‘kargan nari tomonida
Chuqur sukutga cho‘mib
O‘zgartirmoqda tusin
Tramvayning chekkalari sariqdir
O‘rtasida o‘tirar baxtli bir sag‘ir
Butun kun turku[1] chorlar
Erir chashmaning ikki ko‘z qorachig‘i

Men o‘sha qonli qizishgan
Ko‘z yoshlariman chashmaning.

YON

Sen kelib bir yonimda turding
Bulutlar turdi bir yonimda
Marhamatning asl o‘zi edi ko‘zlaring
Sochlaringni ho‘l qilgan sokin yomg‘ir edi
Bulutlar edi to‘xtagan uning ostida
Gap boshlarkan quyoshdan
G‘aroyib eding ayni damda sen

[1] **Turku** — milliy qo‘shiq.

Tip-tiniq ovozing bor edi
Bu shunday bir ovoz ediki
Bu ovoz sochlaringni ho'l qilgan qor edi

Hovli — o'pilgan bola yuzlari
Quyoshga ochilgan oynalar
Keskin iforli hovlining
Ichidan o'tilgan oynalar.

Sen kelib bir yonimda turding
Bulutlar turdi bir yonimda
Marhamatning asl o'zi edi ko'zlaring.

KO'PIKDAN

Qor erirkan yo'l olardik qonlar bilan
Shimolga g'arbga tog'ga tomon
Yuzimizni kesardi beayov sovuq
Suv chetida saf tortardik yondan olddan ortdan nur
Ka'ba uzuklarida nur
Kir yuvardi ayollar qizlar
Biz bolalar suvga borardik qishda
Kattalardan bizga yuqqan o'lim eshkaklarini
Yuvardik isinardik
Qizlarga urilgan nur
Faqat u nur ortardi.
Onalarning manglayida chuqurlashgan qizlik chiziqlari
Biz bolalar bug'li
Qop va suv
Tog' saslari daryolar qo'y gullari
Faqat erkaklar bozorda yosin tutar
Kasallar yotoqlarga bog'liq
Bahor bo'yi kiyim yuvib osardi ayollar qizlar...
Ey bokira suv
Pishloq tayyorlagan Maryamlaring bilan

Nurga boqqan nurli qizlarning soyasin
Suvga itargan biz bola Isolaring bilan
Seni eslarkan o‘lmadim
U ayollar cho‘kkalagan holda
U qizlar egilgan holda
U bolalar oyoqda
Barcha ayni tomonga boqarkan
Barcha sharqli yomg‘ir jangiga yuzlanarkan
Faqat u abadiy pishloqlar xotiramda
Chaqmoqlarning daryo qirg‘og‘iga
biriktirgan u qizlar
Suvning oyoqlarini silagan u bolalar
Har kiyim osishida birgina so‘z
Aytardi qirg‘oq daraxtlariga u ayollar
Yotoqlarda mog‘or bosgan kasallar
Erigan qorlar ichimda savdolashgan
U bozor yemishi erkaklar
Faqat shu birgina tasvir o‘zgarmagan xayolimda chin.

YOPIQ CHORSU

O‘z yostiqlariga soya solmasin
Bolalarining o‘pishlari
Ularga anglat yomg‘ir muqobil yog‘ar
Ruhlar ichra musiqa ila muqobil
Yopiq chorsu ichra bir tamaki
Bir kamon g‘ilofi sening sochlaringga suringan
Ularga anglat ayollarning ichidan o‘tar
Yopiq chorsu va Yopiq chorsuga eltgan soat
Bir inju shodasi tutuni ichra qopqora
Anglamoqqa boshlagan og‘ir va
yechilmas kalimalar ichra tog‘
Sening suvrating inju shoda qora porloqligi ichra nurli
Nurli nursiz yondan va o‘ngdan nursiz ortdan va
ichdan nurli

Ularga anglatki inson kalimalardan va she'rdan yaratilmadi
Junlar ichra kelgan yangi dunyo
Bir kursi qadar hur bo'lgan kun
Sen juma kunining hurriyat qadar muqaddas ekanin
anglat ularga
Mening ko'zgumni kichraytirib kattalashtirgan ular
Mening ko'zgumni ko'zgulikdan chiqargan
Yopiq chorsular ichra fikr va haqiqatga
Nima nimalar qildi anglarsan ular
Soyabonlar kabi
Falokatlarning eng hazilkashiga ochilayozgan ular
Yoz yostiqlariga tushmasin
Do'stlarining xonimlari ustidagi soyasi ularga anglat
Yopiq chorsular ichra
Ochiq va keskin yumshoq va go'zal Qur'on saslari
Yopiq Chorsu ichra yopiq ro'yo chorsulari
Yopiq Chorsu ichra g'azab va afv chorsulari
Yopiq Chorsuga borganing mahal
Bir yong'in so'ngrasi xabarlarin o'qiding...

YANA OQSHOM

Yana oqshom oqshom bo'ldi,
Yolg'izlik mix qoqdi ko'ksimga yana,
Uzoqlik ayni garchi,
Har yerda bor bo'lgan uzoqliging o'zgarmadi,
Yana oqshom bo'ldi u yerda bo'lgani kabi,
Ko'ra olayapman seni bu yerdan ham,
Aynisi edi u yerda ekan-da,
Uzoqlikdan qo'rqmayman balki-da,
U yerda ham ayni edi uzoqlik garchi
Xiralashgan bo'ldi endi bu,
Bir shu qadar-da huzunli romanlar kabi,
Ehtimol men boshdan yengilganman,
Balki-da men boshdan qozonganman, insonlik yengilgan...

SEN QISH QUYOSHIMISAN

Sen qish quyoshimisan
Yoqasan isitmaysan

Bir irmoqning o‘rtasimi yo‘qsa
Seni eslaymanmi

Bu dunyoda bo‘lib o‘tganlarning
Bo‘lib bitmagan bo‘lishi uchun
Ne qilmoqdasan
Sizning uyning devorlari toshdan
Tumani ham toshdanmi

Seni do‘stlaringdan
Sevinch ko‘zyoshlari ichra
O‘pgan bo‘lmasmi

Yod olganing she’r
Kutganing odam

CHASHMALAR

I

Mening yolg‘izligimdan
Tomizilgan chashmalar
Qurigan unutilgan
Chashmalarning oqishiman
Insoniyat aro

Oy ko‘rmas ularni ular oyni ko‘rar
Oydan xabardordirlar
Aytganlarining ko‘pi
Oy haqidadir
Oyga oid
Oyning tarixiga

Findiklilik Mehmet Og‘a
Chashmasi
“Silohdor tarixi”ning muallifi
Yeyilmas tarvuzlar
Achchiq bodringlar yuvgandim suvida
Ichib bo‘lmas
Turib qolgan suvida
Tunda
Oy nurida
Yoz oy va men
Unutilishga yuz tutgan yozni
O‘limni hijolagandik
O‘rtalikni to‘ldirgan ovozda
To... quyilarda bo‘lgan ruhoniyga
Bir turku kuylardi
O‘limdan nari ochilgan
Binafshalar haqida

O‘lik edi insonlar
Yolg‘iz yashardi ruhoniy
Va u chashma
Hamda men
Sirotni eslatgan bir chiziqda
So‘lmoqda edim quladim qulayman
Hayot va o‘lim-la birga
Ayni o‘tmaslik va o‘zgarmaslikda
Ayni yangilik va tozalikda
Hurkib uchmoqda edi ko‘rshapalaklar
Uzoqlardan
Beyo‘g‘li[1]ga telegramma kabi
Yo‘llab turib xabar bir-biriga

II

Eski davrning tashrif qog‘ozlari
Kabi nogoh uzaygan oldimda
Nogoh hech o‘ylamagan bir paytda
Va hech kutilmagan bir paytda
Birdan paydo bo‘lgan bir chekkada
Birdan yonimga kelib qolgan
Tark etilgan unutilgan
Eski davr chashmalari
Ruhimning iyerogliflari
Ko‘nglimning sirli parollari
Boqiy rivojlanishning
— Eh, qanday ziddiyat —
Abadiy kitobalari
Cheksizlikning mozor toshlari
Chashmalar
Endi anglamoqdaman
Eski shoirlar nega
Ular o‘rnatilgan dam

[1] Istanbuldagi tuman nomi.

"Tarix" bitganlarini
O'ziga o'xshaganini
Bilardi shoir chashmaning
Uning tug'ilishini qutlardi
Shu tarzda she'rlar bitib

Bilardi chashmalar ham
O'zlari kabi
Omma o'rtasida
Sharillab turishin shoirlarning

U insonlarning chanqog'in bostirar
Tin berar qo'llari-yu oyoqlariga
Shoir ham ketkizar ruh chanqog'in
Yuvar qoraga botgan inson ruhin

Ammo ikkalasin ham manglay
yozuvi oxir-oqibat
Unutilish tark etilish
Sir bo'lish
Oid hisoblanish eski taraqqiyotlarga

III

Eski davrlarning to'xtagan soatlaridir
Qachon to'xtadilar
Kim to'xtatdi ularni
Kim o'chirdi bu quvnoq bolalarning ovozin
Kim jim qoldirdi u aziz chashmalarni
Ruh va taqdirning quyosh soatlari
Ovozlari soz edi madaniyatning
Ado bo'lmas zamonaviylikning
Kechalari o'ynagan ko'lankalarida
Ruhim ichra tinmay
Ochiqdek turgan g'arbga
Faqat sharq bilan gaplashgan chashmalar

Eski davr injaliklari eshigi
Sharq g‘arb eshigi chashmalar
Bir yomg‘ir tomchilar ruhimga

IV

Yunon shoirlarin bilmayman biroq
— Ular chin mutaxassisidir daryolarning —
Chashmalarning tilin tushunardi
Lotin shoirlari

Ba’zi tillar qush ovozi
Ba’zi til chashma tutuni
Eski madaniyatlar chashmasi
Ruhim
Quyosh botar u tug‘ilar

Qon izi
Dahshatli bir kecha chirog‘i kabi
Nogoh paydo bo‘lar yonimda
Chashmalar va ruhim Ulug‘ shaharda
Bir chekkaga burilarkan yop-yolg‘iz
Yarim kecha

Davrni ortda qoldirgan
Va yosun
Va g‘or
Chashma bir oynadir taraqqiyotga
Chashmalar yopiq eshiklari eski kunlarning

Og‘a jome machiti yonidagi
Baklava[1] shakli
Tashqariga tomon yo‘nalgan
Bardosh bu

[1] **Baklava** — shirinlik turi.

Bir valining karomati kabi
Zamondan tashqari emas
Zamon ochgan zamon oshgan
Zamonni ortda qoldirgan

Va shu payt Uskudar to‘pxona
Qabotosh va Volida Chashma
Sulton Ahmad Fidoyilar
Har yerda va har zamonda
Yodgorlik kabi tikka
Tura olgan

Toshini sindirasiz chashmalarning
Boshin olgandek
Shoirlarning
Biroq ular
Yomg‘ir bilan qarindoshdirlar
Yer mehmonidir ko‘klarning

Xabar olib kelishar
Tublaridan tog‘larning

Ovozli chiroqdir
Sehrli chirog‘i tarixning

Manglaylarida
Tug‘rolari sultonlarning
Sulton Ahmadiy Solisning
Sulton Homidiy Soniyning

V

Ovoz va shafaq
Yer va ta’lim va boshoq
Kecha ta’limidan kumush patlar bilan qaytish
Yana bir bor yuksalgan chashma

Buyumda gul yondirilgan g‘amgin ayyomda
Qahramon
Mozorga chiziq tortgan sabr tadbirida
Bag‘rimizdagi qorong‘u ufqni
Muqaddas bir kitob kengligida
Ziyo taratgan tirilish zilzilasida
Zafarda

Qorong‘u yuzli qahramon
Tadbirin yangilab eski chashmada
Nurga ko‘mgan o‘zin va so‘nggi otni
U otki zafar nishoni

U otki der
Tunni tingla
So‘zga amal qil
Qalb so‘ziga
U otki der
Yangi iz
Yomg‘irdan oldin keladi
Oyni parchalar
Tuxum kabi
Va to‘kar ustiga
Erigan marmarni
Kumush tanli chashmalarning
Oy qorishar siynalariga

Chashmalar buyumning ort qismin
Rasmga olar
Voqea o‘tmish
Omma va tarixning
U ot chashma bilan birlashib
Xor bo‘ladi
Va xor ovozin balandlatadi:
Quyosh alohida yoqqan
Yaproqlarin qizillashtirgan

Kashtan jo‘ka va qora daraxtlar ila qoplangan
Ayasofiyani ham qo‘sh “Ruhning tirilish shahri”
She’ri orasiga
Ko‘rkam to‘la tarixiy va metafizik tasvir
Singdirish uchun g‘oyangga

(Sahna orti I:
Deraza boshqa bir unsur bo‘la olardi she’rga
Oraga kirib
Bir dunyodan boshqa bir dunyoga o‘tish emasmi?
Kapalak oynani sindirolmas ammo
Uni dunyosiga qovushtira oladi
Deraza oshib gizli va qutlug‘ bir qo‘l
Qulfli bir tortmani
Mujavharot jovonini buzib)

(Sahna orti II:
Tug‘il o‘z chashmangdan o‘z madaniyatingdan
Daraxt yerdan
Gul daraxtdan
Suv tog‘dan tug‘ilgani kabi)

Chashmaning shoh tomirini
Yana bir bor qiynamoqda
Tarix devori

VI

Va xor ovozin balandlatar:
Kel! Sen dengizsan nega chekinding
Ishonmaydi hech kim sening qurishingga
Sening tugaganingga ishonmas hech kim
Bir kishi o‘zidan
Va o‘z atrofida aylanishidan
O‘rtaga chiqqan
Tush halqalaridan iboratmi

Inson bir qahatmi yoki barakat
Nening qahati yoxud barakati
Avval chashmalardan uzoqlashtirib
So‘ngra chashmalarga yaqinlashtirib
Chashmalar atrofida aylantirib
Chashma tajribalarida qovurib
Insonga o‘zin toptirar erishganlar

Va tushlarida chashma tomon yelar darvishlar
Bilaman ko‘kda tug‘ildi ular
Chaqmoq va momoqaldiroqlar doyalik qildi
Quyoshlar oylar enaga ularga
Ko‘k urug‘i kabi tarqaldilar yer yuziga
Tuproq tublarida oqib pishdilar
Yig‘ilib ulg‘aydilar
So‘ngra bir chiqish yo‘li izladilar
Sog‘inganlari quyosh va ko‘klamga

VII

Ba’zan-da chashmalar
Qorako‘zni ham shoirlashtirar
Va qorako‘z so‘z orasida qistirar
“Shoshqaloq suvchi dastidan nelar
chekar esiz chashmalar”

VIII

Yo men borib bir chashmaga yopilsam
Yo chashma menga ochilsa
Yo chashma kelib menda yopilsa
Yo birgalikda aza tutsak
Qurigan bir aza
Qurigan bir qon kabi
Insonga va shaharga

Kadiko‘y[1]da Usmonog‘a Machiti yonidagi
G‘ijimlangan bir qog‘oz kabi
Chirigan sabzavot-u mevalar ila
Siylangan
Ruhim oynasi
Uzra hid taratgan
Isyon yozuvi osilgan
Mushuk it bolalari onasi
Hech kim e’tibor bermagan Ulug‘ chashma
Loyiq emasmiz biz sendan afv tilashga ham

Va sen Qonuniy Sulton Sulaymon nomini olgan
U kabi kamtarin to‘rt yuz yillik chashma
Tashimoqdasan har yeringda
“Ta’mirlanadi” lavhalarin
Plastik yoki naylondan zanglagan tunuka va
mayda-chuydadan
Bir shoda yangi zamon marjonlarin
Asir bo‘lganga zanjir tashish yarashar
bilasan sen
Hech bilmaganing bir hayotni o‘rganyapsan
Qullik va shogirdlik yerto‘lasin yashirin darsi
Yopishtiriladi chilla bolmumi bilan u
muqaddas manglayiga
Qatl farmoning kabi

[1] Istanbuldagi tuman nomi.

LAYLI VA MAJNUN

(Doston)

YO‘LLAR TAQDIM ETGAN

(Cho‘l. Kecha. Oy. Chodir. Dasturxonda Ota va keksa yo‘lovchi.)

Ota:
Mehmon, bizga biror nima deng.

Yo‘lovchi:
Sizga nima dey
Noningizni yedim
Yaxshilik tilayman har dam.

Ota:
Bilishni istaymiz biroz kelajakni
Ko‘pni ko‘rdingiz
Katta shaharlarni kezdingiz
Biroz ocha olasizmi
Biz uchun
Vaqt yopgan pardalarni?

Yo‘lovchi:
Menga ishonyapsiz, rahmat
Ko‘p o‘lkalar kezib,
Ko‘p shaharlarda bo‘ldim.
Ko‘p taxir so‘zlar eshitdim.
Ko‘p yorug‘ yuzlar ko‘rdim
Ammo hech qayerda
Band etmadi qalbimni
Bir tuyg‘u
Bu yerlardan o‘tarkan
Meni anglagan tuyg‘ular kabi

Ufqda bir chang bor qiyomat go‘yoki
Ochilgan gulning qizilligidagi ta’sir
Hayot va mamotning bunday yarashgani
Ko‘rilmagan ertaklarda ham balki
Bir saboq malaklardagi bilgi
Bir ma’ruza, qush tili
Bir tabassum gul titrog‘i
Bir yig‘i, to bag‘irdagi
Suyak erishi
Ko‘ngilga oqqan ko‘z yoshlari
Qon tomchilari
Bir kurash, zafar hisoblash yengilishni
Na oldga borib bo‘lar
Na ortga qaytib
Bir yurish — cho‘lning eng ulkan mahorati
Qanday baxtlisiz, eslanasiz
Yer yuzi vaqt yuzida
Quruq mevalarga evrilgunga qadar
Botgunga qadar insoniyatning taqdir quyoshi
Biroq ne afsuski, siz tortasiz
Balki butun insoniyat
Tortishi kerak bo‘lgan azobni
Juda qisqa vaqt ichida
Oy do‘nar, siz to‘shakda do‘nasiz.
Bahor kelar, siz o‘lgan bo‘lasiz tirilishsiz
Otlaringiz ustida uchgan qanday taqdir parilari
Sharq yo‘llamoqda chaqmoqdan jinlarini
G‘arbning kun otashida pishgan devlari
Sizning ustingizdan o‘tadi
Guldiraklar kabi
Ammo har yerda zabarjad, yoqut jaranglaydi
Qum tilla kabi yog‘moqda ko‘ngillarga
Bir nur kirmoqda qorong‘u o‘lkalarga
Ichganingiz kavsardir,
yeganingiz bol va shakar
Butun bu davr mobaynida

Hamma narsa to‘la
Vaqt bor ekan
Tering tera olguningizcha
Abadiylik gullarin

Ota:
Rahmat. Bizga ajoyib so‘zlar aytdingiz.
Anglash qiyin g‘aroyib xabarlar berdingiz.
Bir hikoya bayon etdingiz
O‘tli quyoshdan yanada o‘tli balki
Ammo
Bilganimdek
Oxiri xayrli

Yo‘lovchi:
Ha, oxiri xayrli
Qoraygan o‘choq toshlari
Chodir oynalari
Burishgan manglay
Bir chekkaga sig‘ingan dallilar
Cheksizlikka egilgan xurmo
Burgut chalgan cholg‘ular
G‘arbga yo‘l olgan qarg‘alar
Va kelajak shaharlarida
Cho‘lning sof sog‘inchini
Insonni oshgan sevgi ovozini
Tuygan tinglagan shoirlar
Uchun

Ota:
Unday bo‘lsa biz ham
Ichaylik cho‘l kavsari
Qo‘ylarning issiq sutlarin
Hikoya va xabarlaringiz
Hamda kelajakda
Bizdan xotira qoldirish uchun

Ko‘z yoshlar-u terlarin
Yuraklariga oqitgan shoirlar uchun
Ko‘ngil binafshalarin
Sof ovoz-la hayqirgan
Hech unutib bo‘lmas sadolar-la chinqirib
Bo‘shalgan, tumansizlashgan cho‘llar tomon uloqtirgan
Shoirlar uchun

I BOB

TUG‘ILISH

(Laylining tug‘ilgani haqida Majnunning aytganlari)

I

Shabnam tushdi ko‘klardan
Va bir bahor kuni tug‘ilding sen

Kabutarlar o‘tdi binafshalardan
Va bir bahor kuni tug‘ilding sen

O‘z-o‘ziga oyna bo‘lgan nargizlardan
Lilak gullarining tong otishi titrog‘idan
Nilufarlarning qiyo-qiyo boqishidan
Kelding sen
Va yellar qor supurganda
Va insonni telba aylagan qush ovozlari eshitilgan dam
Nogoh porladi onangning yuzi
Va bir bahor kuni tug‘ilding sen

Dastlab xo‘rozlarning ko‘ziga ko‘rinding
Dunyoga xabar berdilar naridan
Otang endi qaytgandi uyga yiroqlardan
Nogoh porladi onangning yuzi
Va bir bahor kuni tug‘ilding sen

Martga qaragan bilardi kelishin
Aprelga qaragan ko‘rardi sarg‘ish ranglarni
Qizil va ko‘k saharlarni
Mayga qaragan topdi seni
Va bir bahor kuni tug‘ilding sen

Senga Layli dedim Suna dedim she’rlarda qo‘shiqlarda
Haqiqiy noming shivir kabi qoldi og‘izlarda dudoqlarda

Yorilar yuragim anor kabi u sirni eslab
Ovunaman tug‘ilishingdan kelgan xush armug‘onlar-la
Farishtalar keldi ko‘kdan armug‘onlar-la
Va bir bahor kuni tug‘ilding sen

Bir bahor kuni tug‘ilding sen
Bahorning naq o‘zi bo‘lding sen
Endi har bahorda tug‘ilgan bolalar-la
Sen eng porloq bo‘yoq tanlaringda sochlaringda
Sen ko‘rinishing bilan ufqlarda
Qorlar erir erir qochar qochar-da
Ko‘klar yomg‘ir bo‘lib kular yig‘lar yig‘lar-da
Quyosh maqtanib aks etar aks etar-da suvlarda
Kelasan har bahorda
Bir jonlanish kabi o‘lik dunyoga
O‘liklar soyangdan olov ola-ola
Ekilib terilib akslana-akslana
Yoz jaziramasidan
Chiqdilar bir-bir ko‘nglimizning oynasiga dalasiga
Ki bir bahor kuni tug‘ilding sen

Gullar aylandi yotoq choyshablariga
Lilak gullari yaqinlashdi qo‘rqa-qo‘rqa
Nargislar menligimiz aro boqa-boqa
Kelib fon bo‘ldilar insonning
Yana bir bor
Senda qayta yaratilishiga
Bir bahor holi yaratishiga

Bir bahor kuni tug‘ilding sen
Bahorning naq o‘zi bo‘lding sen

II

Kuz mening o‘limim qizil-qizil
yonishim qoradarxtlarda
To‘plab kelishim kuzni butun sariqlarim-la xiraligim-la

Chirigan so‘lgan koinotning qarshi qo‘yishi
Sening bahorda tug‘ilishing xotirasiga

Eh u ne bezgakdir quyoshdagi bezgak bahorda
Har on sening tug‘ilishingga
guvoh bo‘lishdan o‘rtaga chiqqan
Va kuzning quyoshda bir qurish bir tarqalish
Mening o‘limimdan kelgan hayqirish va yig‘lashlar-la
Bir umr bo‘ldim bor-yo‘q o‘lim suyagi
Porlash uchun sening tug‘ilishingdan
paydo bo‘lgan fosforlar-la
Uyga kirishga kech qolgan bolalar ko‘rar kecha
Ishq bahorin sassiz ovozin
yonib turgan
chiroqlarda
Yoz quyoshi birikarkan
Kuz yaproqlarda telba bo‘larkan
Qish chuqur chizgilari ila qularkan
Bahor gul qo‘shini ila
chechak shalolalari ila namoyon bo‘larkan
Va bir bahor kuni tug‘ilding sen

(Laylining tug‘ilishi munosabati bilan bir yer yaratig‘ining aytgan she’ri)

SARA[1]

Dunyoni ayri rangga
Bo‘yagan qonli matoh
O‘tishing mushuklar-la
Uzoq chin bog‘laridan

Uxlab bokiralarga
Qo‘shilmishsan bir sehrga
Ko‘nikib gullarga
Qutulib qo‘rquvlardan

[1] **Sara** — ism.

Seni na sehrlar na gullar
Yetkazar butun ishqlarga
Ko‘niktirar xira ishqlarga
Olib so‘nggi yorug‘ligimdan

Seni na sehrlar na gullar
Saqlab qolar ishq xazonidan
Ko‘niktirib yolvorilmagan
Uyquda kezar ishqlariga

Yumshoq boqishing menga
Uzoq chin bog‘laridan
O‘tishing mushuklar-la
Telba qush dalasidan

(Laylining tug‘ilishi munosabati bilan bir ko‘k yaratig‘ining aytgan she’ri)

PARILI SHE’R

Bir parimidi bir parimidi
Sevgilim bir parimidi
Tirilish dedim tirilish dedi
O‘t dedim o‘t dedi

Ko‘zlari yumuq bir parimidi
Bir parimidi ko‘zlari yumuq
Uyquda kezuvchi biri kabi
Biri kabi uyquda kezuvchi

Chashmalarning aksimidi
Aksimidi chashmalarning
Tashlab ketdi-ku meni
Ketdi-ku tashlab meni

Bahorning ko‘zlarimidi
Ko‘zlarimidi bahorning
Qirlardan boqdi menga
Boqdi menga qirlardan

Nurning ukasimidi
Ukasimidi nurning
Kipriklarimni ko‘rdi
Ko‘rdi kipriklarimni

Ruhimning shabnamimidi
Shabnamimidi ruhimning
Ko‘zyoshlarimga yog‘di
Yog‘di ko‘zyoshlarimga

Bir parimidi bir parimidi
Sevgilim bir parimidi
Tirilish dedim tirilish dedi
O‘t dedim o‘t dedi

(*Yelning tilidan*)

ALLA

Malaklar cho‘l shahriga tarqalsin
Laylining uxlash payti keldi
Butun chig‘iriqlarni buzsinlar
Laylining uxlash payti keldi
Jim bo‘lsin qumursqalar
Jim bo‘lsin butun cho‘l
Laylining uxlash payti keldi

Unutma cho‘l ulug‘ bir shahardir

Xurmolar ro‘yolarda
Yopiq kipriklari Laylining

Otlar kishnab turadi
Yopiq kipriklari Laylining

Cho'l men uchun xos shahardir

Layli juda horg'in uxlashi lozim
Layli juda uzoqlardan keldi
Hech kutilmaganda
Layli nogoh so'zga keldi
Onasining yuzida cheksiz tabassum
Laylining sochlariga quyosh qo'ndi

Cho'ldan o'tish Layliga erishish uchundir

Qushlar sayradi Layli uchun
Gullar ochildi Layli tufayli
Uyqu bir bahorga do'ndi
Layli oy va yulduzlarning
O'rtasida bo'lishildi
Talashildi orada
Jim qolsin butun dunyo shahar
chuqur uyqudadir Layli

Gullar Laylining uyqusida yetilar
Laylining tushlaridan rang olar qushlar

TUG'ILISH

Cho'lga vahiy tushdi: to'g'ri bo'l va hozirlan
Qumlaring tuzat suving tomiz va yellaring bahorga dɔ'nsin
Bir kun "Keladigan"ga ishora bo'lsin deya
Ko'ngil nishoni bir bolaga homilasan

Ko'ngil pokligi "Oldindagi haqiqat"ga yotoq bo'ladi
Vaqti kelib zimistonda yolg'izgina nur sochgan bu dur
Kelajakning javhar to'la yulduzlari orasiga qo'shiladi

Ayni damda kelasi zamon uchun
Tog‘ boshida cho‘l o‘rtasida yongan bu nur
Bir kun bu yerdan o‘tadi “Ulug‘ karvon” uchun
Bu bir olov ustuni kun uchun zamon uchun
Ozodlik sog‘inchidagi
Vaqt quli inson uchun
Jahannamning ildizi qurisin deya
Ilk tebranish shu bo‘lsin
Tutning ilk silkinishi
Dudoqlarda tatib ko‘rguli ziyofat bo‘lsin
Bundan so‘ngra
Ulug‘ cho‘l tug‘gan har bolasiga Majnun desin

Yulduz yo‘l ko‘rsatsin u yorqin yulduz
Tangri ishorat qo‘ygan yulduz
Yo‘lovchilar yulduzi yolg‘izlar nuri

Yo‘l ochilsin kelajak Xabarchiga bir nuqta
Undan bir ifor kabi

Undan bir sado bir xonish
U Yomg‘irdan bir tomchi
U Shamoldan bir nafas
Bir tong darakchisi
Ko‘rinsin ufqlarda
Bu bir qum zarrasidir U Dengizdan,
U Sohildan
Bir ziyo U Quyosh yo‘lidan
Bir pog‘ona Olloh Yo‘lida Otajak Tomirda
Bir tomchi qon, oqqan Shahid Ko‘ksidan
Ko‘nglida bir musiqa shodyona-i shariflardan
Ruhida bir ohang masjid qubbalaridan
Ko‘ksida bir alomat minoralardan

Xurmolar sollanib u yoqqa bu yoqqa
Olqishlasinlar bu tug‘iladiganni

16.9.16

Karvonlarda ishonch lutfidir u
Tuyalar ham bildirgan inja bir she'r kabi
Uzoqlarda qanday xush yurgan tikanlardir
Tuyalar shaharlardan shaharlarga yetib borgan xazinalardir
Manglay yozuvlarining yopiq qutilari
Kelinlar kutgan xabarlardir
Xabar xazinalaridir kutilgan tuyalar-ki
Har tuya xabar shahri hayot va ishq shahri
Cho'l ipagini yirtgan sevgili qaychilar-ki
Go'yo qizlar uchun bichilgan o'limsiz kiyimlardir yonlaridagi
Bilar har bir shajara faylasuflari kabi
Tug'ilgan tug'iladigan bolalarning o'tmish-u kelajagin
Ha ular faqat o'tmishning emas kelajakning
Faqat urug'larning emas ruhlarning ham
Shajaralarining bilimdoni va donishmandidirlar
Ular uchun har tug'ilish bir cho'l bezgagi kabidir
To'yib-to'yib icharlar chumolilarning zakovat piyolasidan...

Va ufqlarda ko'ringan otliqlar
Jangning lochin qanotini samoviy qalqonlar kabi tashidilar
Qabila kurashlari nihoyasiga yetadigandek
Shoshilmoqdalar oldirmaslik uchun nasibalarin
Yetakchisi kelmoqda kurashlarni oxiriga yetkazadigan
Kelmoqda dastlabkisi ipak qurtiga aylanajak kapalaklarning
Tabiat tabiatini do'ndirgan to'g'rilardan bu
Nurga xushxabar bo'lgan g'ira-shiraliklardan bu
Yonaroq olovga aylanaroq

Yonaroq olovga aylanaroq otlilar u poyga atrofida
Sinab ko'rdilar yana bir bor o'z-o'zlarini
Boshdan-oyoq uchdilar bir ufqdan boshqa bir ufqga
O'ch va cho'l bir-biriga tobe ikki halqa edi
Otni va otliqni bir-biriga va saharga bog'lagan marmar edi
Uyg'onardi har birining ruhida shafaq chog'i
To minglab yillar oldin kelgan ayni titroq
Rim ustunlari Vizantiya tizmalari

Chinning qamishdan va ipakdan hordiqqa xos
Va o‘zini tinglashga oid yerlari
Choy afyon va ibodatxona qo‘shilishi
Bular faqatgina afsonalardir
Tog‘lardan aks etgan afsonalardir
Cho‘l esa inson bo‘yniga o‘ralgan ilon kamardir
Cho‘l ot nallarining ostida jaranglagan temirdir.
Cho‘l sherdek uxlaydi, qoplondek xirillar
Teri holiga kelgan zar holiga kelgan
Kaltakesak va chigirtka ilon va kiyikdan bir-biriga
o‘tgan shahardir

Tamaki qog‘ozi kabi yupqa
Uxlagan mushuk kabi ichga o‘ralgan
Jim turgan bir vulqon
Biroq ba’zan
Nogoh sakrab turib
bir otliqni u
Tutadi oyog‘idan va uloqtirar yerga
Ha.. otliqlar doim ketadi
Bo‘yiga ketadi
Cho‘lda
Narigi o‘lkaga
U doim oldinda
Ko‘zlarga bir surma
Bir boshoq
Bir xurmo shoxi
Bir suv shiviri
Bir oy salqini kabi urgan
U o‘lkaga
U o‘lka tomon ketarlar
G‘oyib bo‘lib cheksiz so‘zsiz tiriklikning narisiga

Nogoh sayrar bir cho‘l qushi qizil peshinda
Chodirlar qimirlar va ko‘kda bir ol o‘zgarish
Ayollar turdilar nazr-niyoz kabi bir chekkada

Erkaklar tashqarida ko‘zlari jazirama titrashlarida
Qumlarda yangi bir iz behuda qoldirilgan otlarning ipidan
Ne ma’noga kelardi bu. Ne demoq edi bu ko‘ch sarg‘ayishi
Mavsumda vaqtida quyosh tropiklarida
Qurigan bir yaproq kabi gir aylangan telba tuya
Nima degani edi bu ajabo kelardi ne ma’noga

Va bir cho‘l qushi kabi chinqirdi qutlug‘ tush mahali
Bir qimirlashmi bu o‘lik shoirlarning tepaliklar ustida
Sarob ortishi
Yangi bir moyalanish xurmo qoldig‘ida maydonda
Fosforlandi kecha vaqti nogoh cho‘ldagi yagona KITOBA
Va ko‘zlarga ko‘rinar bo‘ldi kecha-kunduz
Quladi va uyg‘oq ekan ulug‘ va muqaddas Ka’ba

Tovus chetga burildi quyrug‘in urib olib chodir ustuniga
Kutilmagan tovus g‘oyib bo‘lgan jannat mehmoni
Ko‘zlaridan shudring sepib nari-beriga
Qizlar tashigan suvga tikila-tikila
Umidsiz uchib ketdi uzoqlarda bo‘ronlardan nari
tuproqsiz bir o‘lkaga

Ana shunday tug‘ildi bola bir jihatdan
So‘rashingiz mumkin ko‘zga tashlangan
Favqulodda nima bor edi deya
O‘zgarish yo‘q balki bir tayyorgarlik bor edi oldindagi
o‘zgarishga
Nom qo‘ydilar ammo ne foyda
o‘zgartirilardi bu nom
Yaxshi choptirsin va minsin deya
Qilichga va otga qo‘lin tegizdilar
Biroq ne nafi bor edi buning

Ot va qilichni insonga qarshi qo‘llarmidi u
Boshqalarning qonin qanday to‘ka olardi
O‘z tomirida qon qoldirmagan kimsa

KUNLAR

I

Ulg‘aymoqda edi Layli
Ulg‘aymoqda edi Qays nomli Majnun
Qabilalari aro durkun
Cho‘lning hur suti ila
Tuya ot qo‘y va kiyik tufayli
Cho‘lni qalbga singdirib
Chigirtka ovozlari ila qush va yaproq
Shudring va qirov qum va xurmo
Sarob va suv bulut va shamol
Jang va talon-taroj
Ko‘chish va qo‘nim topish
Aro kun sari ilgarilab
Sof va toza havo ila
Bola o‘yinlari ila
Ulg‘ayib
Maktab yoshiga yetdilar

Cho‘l maktabi o‘ziga rom etdi ularni ham
Butun qabila ilg‘orlarining bolalaridek
O‘rgandilar yozuvni yangi bir tildek
Yodladilar she’r va ertaklarni
Ko‘ngillariga o‘t yoqqan qiziqishlari
Tangri va inson haqida eski ma’lumotlardan
qolgan so‘zlar
Payg‘ambarlardan keltirilgan so‘zlar
Oralarida Ka’baning uzoq shahar kabi
chizgilari yondi
Kecha-yu kunduz Qoratosh lov-lov yondi
O‘rgandilar eski va yangi bilimlarni
Urf-odatlarni, marosim va tadbirlarni
Yigitlik nomus g‘urur va to‘g‘rilik borasida
To‘ldi lug‘atlari eng asl so‘z va hikoyatlar ila

Yaqin va uzoq qabilalar bilindi
Urug‘-aymoq o‘zaro kurash qon da’volari o‘rganildi
Kimdan kimga qolgan o‘ch bor
Kimlar afv etiladi
Hech bir kamchilik qolmadi
O‘rganiladiganlardan
Otga minish tuyaga suv berishdan
Quyosh oy yulduzlar va shamollar
Bo‘ronlar va bo‘lib o‘tgan
Ilohiy jazo va g‘azablar haqida
Cho‘l ma’lumoti aniqdir
Na ortar na kamayar
Va har bola tomonidan aniq-tiniq bilinar
Layli va Qays ham o‘rgandi
Bir-birlarin taniganlaridek
Bilimning barcha haqiqatlariga erishdilar
Ayonki sevgilari maktabda emas
Ilk ko‘rishganlarida o‘rtaga chiqmish
Garchi u iqlimlarda erta yetishar inson
Tag‘in maktab yoshida osholmas u devorni inson
Biroq ishqki azaliy bir tanishlikdir
Tug‘ilmasdan oldin boshlanganlikdir
Ilk boqish va ilk tanishuvda
Ma’lum qilmaydimi o‘zin
Va kun sayin kuchaymaydimi
Mamadagi bir bola kabi
Ular ham shubhasiz bir-birlarin u
yerda ayirdilar narigilardan
Joy berdilar ularga ayri
Manglay yozuvlarin ilk tamal toshlari
Bilimlari kabi ishq aynan u
yerda nish otdi qalblarida
Joy topgan yengil qush kabi
Cho‘lda uxlagan inson ko‘ksidan
Bahorlarda his qildilar yaqinlikning ortganin
Tomirlarda iliq irmoq yoyilganin

II

Kunlar o‘tgan sari
Ulg‘ayib katta bo‘ldi
Qays ila Layli
To‘yib ulg‘aydilar odatda quyosh yulduz hamda oyga
To‘siqlarga qarshi mardona yo‘l tutdilar
Mehmon kelsa saxovatdan o‘rnak ko‘rsatdilar
To‘y bo‘lsa o‘ynab-kuldilar
O‘lganlar oldida ont ichdilar
Yoz va qish aro
Ko‘chib yashadilar ayri-ayri
To‘y kurash o‘lim
Ziyofat bayram
Marosim va tadbirlar
Sabab bo‘ldi goho birga bo‘lishlariga
Qays tushunib yetdi oxir
Layli ko‘nglin zabt etganin
Qays ham boshlagan edi
Layli ko‘nglidan joy olmoqni
Vaqtdek sekin biroq ichdan
Yaralanmoqda edilar to yurakdan
Tomchi-tomchi birikkan bir nima bor edi
Bir kun kelib portlashi aniq
Ishq taqdir kabi birikmoqda edi manglay yozuvlarida
Bir tog‘ning ufqida birikkan qor kabi go‘yo
Va qorning asta-sekin qalbga ta’siri kabi
Va kuni kelganda tuproqdan o‘t-o‘lan va
gul mujdalagani kabi
Bir-birlariga nisbatan tuygan tuyg‘u
Yanada kuchaygandan kuchaydi
Hech kimga bayon etolmasdilar buni
Hatto sir tutdilar o‘zlaridan ham

Umr shunday oqib o‘tmoqda edi
Ammo bir narsa Qaysni juda o‘yga toldirardi

Kim bilar balki bir kun Laylini yo‘ldan urar
biri chiqar...
Yoki bir kun uzatilishi vojib bo‘lar
Aslida Qays o‘zin Layliga loyiq ko‘rmasdi
Aslida kim ham loyiq bo‘la olardi Unga
Hech kim loyiq bo‘lolmasdi Unga
Har nafas g‘ubor keltirardi u ko‘zguga
Har sel bulg‘ardi u billur irmoqni
Har tosh sindirardi u shisha chiroqni
Har qo‘l egardi u gulning shoxin
Uzardi va so‘ldirardi
Qays kechalardan ham qizg‘anmoqda edi
Tun qo‘yniga olarkan Uni
Biroq qarashlari yetilgandi Laylining
Kuni kelgandi o‘zni qo‘lga olishning
Qalbda sir tutilib-da hech kimga aytilmagan,
Asta-sekin aql-hushdan ayirar
Aql tashdan xush ko‘ringan luqma kabi
Biroq ichdan qurt yeb tugatgandek edi go‘yo
Layli ketar, aytolmas endi Unga
Aytajak so‘zin to o‘lguncha
Layli ketar, balki qayta ko‘rolmas Uni
Layli ketar, U bilan ketar ruh bokiraligi
Xayollar o‘zaro suhbatlar sitamlar va shu kabilar
Borgan sari kuchayib butun bu shubhalar
Qaysni asta-sekin chig‘irdan chiqarmoqda edi
Bir joyda turolmas holga kelgandi endi
Uni Laylining ovuli chorlardi o‘ziga mudom
Bahonalar topib o‘zin ovutib
Tez-tez paydo bo‘lardi Layli ovulida
U qayerda bo‘lsa u ham o‘sha yerda bo‘lardi
U qayerga borsa o‘sha yerdan yo‘qlardi
Bahor kelishi bilanoq
Suvlar o‘zgachalashib gullar telbalasharkan
Go‘yo tavof qilgudek
Qays kezmoqda edi Layli kezgan yerlarni

QAYSNING ISHQ KO‘YIDA MAJNUN DEB NOM OLISHI

Kun kelib Qaysning tugadi-ku bardoshi
Qalbidagi sevgi tuprog‘i berdi xush meva
U shunday yaratilgandi:
sevish va sevgiga o‘zni bag‘ishlash uchun
Sevgida yonish, yo‘q bo‘lish va qayta tirilish uchun
Eski payg‘ambarlar davrida ilk mo‘mindek edi u
Va insonni sevishdan uzoq turardi u
Biroq uzoqda edi eski payg‘ambarlar
Va hali ko‘rinmasdi So‘nggi Payg‘ambar
Eski ketgan, yangi kelmagan edi
Eski uchi so‘ngan, yangi uchi mujdalamagandi
Cho‘l o‘z talabin qo‘yardi o‘rtaga
Qon o‘z urg‘usi bilan chayqalmoqda edi
Sevgining naq o‘zi, moyasi kabi Qays ko‘ngli
Shunday ilindi bir boshqa ko‘ngil changaliga
Duch kelmay xayrixohlik xayrsizlik qarshiligiga
Biroq ich erkinlikda chopqillarkan ishqqa sevgiga
Tash bog‘liq edi minglab yillar qabila odatlariga
Kun kelajak odatlarning noxushligin
Ul Payg‘ambar yo‘q qilar
Hali uzoq edi u kunlardan,
ne afsuski, Qaysning davri
Kun kelajak shaharlar qabilalar-la aloqa o‘rnatajak
Va yumshar qoyalardan bino bo‘lgan qattiqliklar
Ammo, ne afsuski, zamon hali u zamondan uzoq edi
Tashda juda qattiq qabila qoidalari...
Ichda esa ishqning cheksiz erk saltanati
Tashqi bog‘ning ich erkinlik ila qilich qilichga kelishi
Qaysning endi kundan-kunga tugab borardi bardoshi
O‘yu hayollar, bo‘ronlar toliqtirdi Uni
Dastlab, “tolg‘in!” nomiga qovushtirdi Uni
Borgan sari har “tolg‘in!” so‘zi mazax bilan qorishib
Har yerda aytilar bo‘ldi maydon chodir ot sirti

Ikki tuya orasida quloqlardan niqob kabi foydalanib
Shivirlashdi Qaysga bir nimalar bo'lganin
Qarindosh-u ahboblar
Qaysga bu hol kuch berdi jasorat berdi go'yo
Layli qabilasi atrofida kezardi endi gir
Tolg'in, mahzun, arazli... erimoqda edi
Borgan sari bu hol yanada ayon bo'lmoqda edi
O'tgan-qaytgandan xabar so'rardi mudom
Har voqea-hodisa solardi ko'ngliga gumon
— Ha! Laylilarga yaqin joydami, Laylining qabilasidami?
Shu kulba atrofidami... shu chodir yaqinidami?
Shu ot va shu tuya tufaylimi?
Deya Layli ismin tilga olmay
Hamma narsani U bilan bog'lardi qanday bo'lmasin
Shunday qilib bu hol unda bir ma'no kasb etgandi
Bu mijoz Unda boshqa bir til yaratgandi
Shu sababli Unda o'zgachalik ko'rdilar
Sababin bilmasalar-da bir nimalar sezdilar
O'zgarish ma'no yoxud so'zda qolmay
Qaysning barcha xatti-harakatlariga ko'chdi
Bir kun ayon bo'ldiki, Qays jazirama kunda
Qavat-qavat jun kiyimlar kiygandi
Va bir kun qish sovug'ida bo'ron boshlangan mahal
G'oyat yupqa ko'ylak ichra dir-dir titrardi
Har kim bu holga aqlga sig'mas izoh berardi
Ko'paygan sari bu hol Ommaga g'alat kelardi
Shu boiskim Qaysning oti Majnun bo'ldi

OTA-ONANING HOLI — MAJNUNNI TUSHUNISHLARI

Majnunning dardi kundan-kunga ortarkan
Avvalgi holatin izlashi bekor edi
Avvalgidek uyg'onmoq, istagani har tongda
Avvalgidan battar edi har yangi kun ey voh!

Istardiki tong chog‘i uyg‘onganda
Go‘yo avvalgi kunlardaki kabi uyg‘onsa
Biroq boshlardi o‘y-u xayollar yoqib-ado qilishga
Uyg‘onishi bilanoq
Kun go‘yo sehr quyosh sehrboz
Ilingandi bir gal afsunsiz suvlar og‘usiga
Aql ojiz qolib unda, o‘rgimchaklar to‘riga
Ruhiga yozilgandi o‘chmas manglay yozuvi ila
Bir ishq nafratdan va sevgidan nari odatda
Xurmolar-la tillashdi oyga arzi-hol qildi
Hech biri anglamadi bu iyeroglif tilini
Kasal emas edi, tuzalish uchun uzoq shaharga yo‘l olsa
Sog‘lom emas edi, ot choptirsa suruv sursa
Bir uzilish, bir qulash edi bu hayot ostonasida
Hamma narsa ko‘rshapalak uchishida boyqush ovozida
Bosinqirashni ters aboday kiygandek bir azob,
Bitmas-tuganmas maktub satrlari kabi
tuyulardi unga yomg‘ir ham
Ko‘p o‘yladi dardin aytishni uzoq-yaqinga
Biroq bilardiki, hech kim anglamasdi uni sira ham
Cho‘lni o‘zgartirib bo‘lmas, cho‘l insonin ham
O‘qib yozib ham yo‘qotib bo‘lmasdi bu tafovutni
Yozuvlardan kelgan zaharlanish edi bu
O‘q zaharli edi bu davosiz bir og‘u
Ba’zan o‘zimni beg‘am tutay, ne bo‘lsa bo‘lar derdi
Ammo ichidagi qurt kecha-kunduz tinmay
Yeb ado qilmoqda edi
Bir kun o‘yga toldi borib boshimni uray
Ka’baning eshigiga
Chunki faqat uni bilardi ishonchga loyiq
Lekin bu shunday bir dard ediki qutilib bo‘lmas
Layli fikridan qaytargan choraga ko‘z tikilmas
Qutulish qutulmaslik bo‘lar hatto qutulmaslikdan badtar
Laylisiz hayot Majnun bo‘lishdan badtar
Butun bu o‘ylar uni Majnunga aylantirgandan beri
Sir bo‘lib qololmasdi tashga ayon etardi holi

Yupqalashgan nina ipiga aylanmish
Dunyo ishiga mayli so‘nmish
Nima ish buyurilsa na rad etar, na qabul
Na jangga qo‘shiladi, na bosqinda bo‘ladi
Qabila ishlariga yo‘q unda zarracha havas
Yolg‘izlik tanholik ichra kezar edi har yon
Ona sezdi dastlab nelardir bo‘lganin
Ona yuragi bu: ayon bo‘ldi unga bu hol
Gumon ichra o‘ylar ekan o‘g‘lini
Bir kun Majnunning otasi undan so‘radi:
“Nedir Qaysning bu holi? Hech yoqmadi menga
Dunyoga qo‘l siltagandek go‘yo: seningcha nedir bu hol?
Rohiblik odati yo‘qdir qabilalar ichida
Zotan, bu rohiblikdan ham boshqa narsadir
So‘zni anglamoqda: telbalik deb bo‘lmas
Faqat tinglamayapti... aqllilikka o‘xshamas
Birovga ko‘ngil berdimi nima deysan
O‘g‘lingning bu holiga sen ne izoh berasan?”
Onasi: “Siz aytgandek bo‘lsa kerak” der
“Men ham shunday deb o‘ylayman aytsam rostin
Kim bo‘lishi mumkin bu qiz nega aytmaydi.”
Otasi esa hamon: “So‘rab ko‘r-chi qani
Balki biror neni bilib olarsan” der.

ONANING O‘G‘LI KO‘NGLIGA QO‘L SOLISHI

Onasi bir kun Majnunni biroz yaxshi kayfiyatda ko‘rdi
“O‘g‘lim dedi, bilasanmi vaqti keldi
Uylanish bir odatdir, insonlik odati
Hatto biz ko‘chmanchilarda zaruriyatning zaruriyati
Ertaroq yor tanlash kerak
Bu sinovdan ham o‘tish kerak
O‘ylaymanki endi uylanish payti
Otang ham shunday fikrda buni bilishing kerak

O‘lmay turib ko‘raylik deymiz muruvvatini
O‘g‘limizning to‘y-u tomosha saodatini
Nevaralarimiz bo‘lsin to‘lib-toshsin qabilamiz
Qurquvga tushsin dushmanlarimiz
Otlar atrofida kezgan toylar bir kun ulg‘ayajak
Ular ham o‘zlariga minadiganlarni kutishar
Tong otarkan billur voha suvlariga
Tilla sochli qizlar borar suv boshlariga
Bu odatdir bu odatni hech kim o‘zgartirolmas
Ayt kimga moyilsan, sir tutish befoydadir
Bu qabila va yon-atrof qabila qizlaridan
Kim ko‘nglingga yaqindir ayt sir tutma onangdan
Biroq nima desa ham so‘z ololmadi Majnundan
Majnun go‘yo sassiz toshdan bir ustun
Bu gal bir-bir sanab chiqarkan bilgan qizlarni
Ko‘zdan qochirmadi lek o‘g‘lin yuziga boqishga
Majnun taqdir o‘yi, g‘am-g‘ussaga botgandi
Go‘yo ruhida boshdan-oyoq bir jasad uzangandi
Biroq Layli nomi tilga olinganda beixtiyor
Bir ajab qarash qildi onasiga cho‘g‘li kuldan ham o‘tli
Onasi bir nimalarni payqab, so‘z ochmadi qayta
Gumonini borib aytdi otasiga so‘ng

OTA UMIDI

Ayon bo‘ldi nihoyat Majnun ko‘nglin da’vosi
Tashqi belgilari ila kun tutilishin mojarosi
Ovoz ovozga yetishdi aks aksga sado berdi
Xurmolar shivirladi cho‘llar tilga kirdi
Tuyalar ham yotsiramadi ma’noli imolardan
Yuz tutib bari o‘rab oldi voha suvlarin
Shudring tomchilarida yuvinib qushlar
Layli iziga ko‘zgu tutdilar
Aruzning sehrli elchiligi bilan
Yetdi qalbdan qalbga dard

Kuy-qo‘shiqlar, g‘azallar cho‘lning kundaligi kabi
Bu bedavo ishqdan xabar berdi
Barcha bildi hech kim bilmagan
Oshkor sirlarning shudir nasibi
Barcha bilar bilmagan faqat sensan
Barcha bilganin bir sen bilmassan
Xabar yetib bordi qabiladan qabilaga
Karvonlar ila yo‘l oldi tugamagan hikoya
Yoz kechalarida har qo‘noqlagan yerda
Sovuq mavsumlarda tunagan shaharlarda
Ayni hikoya edi bir-biriga bog‘lagan
Karvon to‘dalari
Cho‘l bag‘ridan otilgan bir afsona qiyomati
Ko‘zga ko‘rinmas zarbalarning mahshari
Ertaklarning guldastasida
Ochmoqda edi boshqasiga joy
Cho‘l odami xush ko‘rar tushuntirmoqni batafsil
Ammo butunning soyasidan ayrilmas aslo
Go‘yoki atirgul binafshaning nilufar nastarinning
yoniga kelib
Bo‘ldi do‘stdan do‘stga suniladigan dasta gul
Gul changlarini uzoqlarga tashiganidek shamol
Vaqt — usta ko‘rdi jaranglaganin ko‘zga
ko‘rinmas xotiralarning

Ana shunday yuz berdi tengdosh taqdir dostoni
Qilichdan o‘tkir cho‘l himmatin qurboni
Majnunning otasi o‘zga bir makonda
Voqif bo‘ldi bir kun shu so‘ngsiz dardga
Yuragi tub-tubidan yaralangandi faqat
Aql ila ish tutish payti kelgandi shu dam
O‘g‘il sevgisi ila bo‘lib o‘tganlarin unutdi
Bor kuch-qudratin to‘plab mavridin kutdi
Va yor-u do‘stga so‘z ochib shunday qarorga keldi
Ko‘ngli mudom Qays ila Layliga yon ber derdi
Biroq bunda to‘xtamaslik kerakdir aslo

Vaqtni yo‘qotish baxtni yo‘qotish illo
Qabilaning ilg‘orlari ila birga
Bordi narigi tomon Laylini istashga
Garchi xush kutib olishdi odat ijobi
Yeb-ichirishdi rosa mezbonning ta’bi...
Biroq gap ochilishi lozim bo‘lgan damda
Shirin damlar, she’rlar mardlik
Bir chetga surilib qalb-u ahd rad etildi
Go‘yo cho‘lning tappotida porlab yondi
Qinidan chiqarilgan o‘tkir qilichlar
Omon bermas beshafqat qilichlar
Tinchlikni unutgan darg‘azab qilichlar
Ma’sum qoniga chanqagan butun qilichlar
Mehmondo‘stlik gullari so‘lib to‘kildi
Yaproqlar sarg‘aydi go‘yo kuz kuldi
Do‘stlik bahorin yozin kechib qishga yetishdilar
Qof tog‘i oldi ochilmas kengliklarga yetishdilar
Qush uchmas qoyaliklardan burgutlar kabi
Bir-birlariga gap ochib chuqurlashtirdilar
o‘zaro suhbatni
Biri sharqda esa, unisi g‘arbda
Biri quyoshda esa unisi yulduz ko‘shkida
“Senga jonim fido” dedi Laylining otasi
Biroq bu borada bo‘lmas zarra fidosi
Ota bo‘lishning yuzni berkitgan tomoni
Senga bizning qadrimizni unuttirgan ko‘rinadi
Yo‘qsa sen bizdan ham ko‘p o‘ylarding bizni
Bunday bir taklif ila yiqmasding uyimizni
O‘g‘lon aytishi qiyin biroq haqiqat shuki
Aqlin yot yellarga omonat qilmish go‘yo
Tillarga tushganin bilmagan bormi
Bor uni bu darddan qutqar
Hakimlardan kohinlardan
Suvlardan ko‘klardan va yellardan
Unga bir davo izlaylik
Barcha birga tiz cho‘kib

Tangriga yolvoraylik
Mehmonimsan men eshitmadim aytganlaringni
Sen ham unut va qayta eslama aytganlaringni
Tag‘in otlarga minildi tuyalar yo‘lga tushdi
Qo‘llar silkindi do‘stlarcha ayrilish salomi berildi
Cho‘l shamoli olib kelgan qumlar bilan
Ko‘mdi bu so‘nggi umidni ham so‘ndi chiroq
Chodir chetida olib kelingan sovg‘alar
Oshiq ko‘ngli kabi mahzun qoldilar
Majnunning otasi ko‘ngli xira qaytmoqda edi
Bir hayot uchun kelgan bir o‘lim eltmoqda edi
Bo‘lmasa edi bir parcha donolik fazilati
Yuragida otalardan qolgan tinchlik odati
Qon oqitishga yaqin — moyil bo‘lardi
G‘azabini bo‘ridan qushdan olardi
Ammo urush-janjaldan ne foyda edi
O‘limda tiriltirishga chora bormidi
Shuurida gir aylanardi Qaysning “Qutqaring!” sasi
Go‘yo tiriklayin ko‘milgan inson nidosi

NOXUSH TUSH

Tasvir tasvirni ovoz ovozni yer
Ishq deganlari ana shunday bir yer
Hammadek bo‘lish bo‘lmagan bir hol
Hammadek bo‘lish bo‘lmagandek hol
Laylini xayoldan chiqarish har istalganda
Aybdan va gunohdan badtar va nari
Bir bo‘shliqqa dumalamoqda edi Majnun
Go‘yo oyda sovuq qotib,
quyoshda yonmoqda edi Majnun
Kecha billur bir pichoq kabi
Uchishga tayyor ruh kabutarin
To bo‘g‘zidan yaralab
Bo‘ynin qizil marjon ila bog‘lab

Kunduzning azobiga tark etmoqda edi navbatni
Va nayzali zirhli kun nuri timsoli
Har shudring tomchisidan qilich sollardi
Har qurigan changida qalqoni bor edi
Kun yaraga o‘ralgan bir yamoq
Kecha jahannamga tikilgan zafar taqinchog‘i
Ruhning idrokidan tutagan malaklarning
Haykal-haykal uyatdan yo‘nilgan jinlarning
Tinmay kurashishi kecha-yu kunduz
Eh ruhning o‘limi boshlanar naq
Eh o‘lgan o‘lganga ichimizda va tashimizda
Ko‘rilmagan bosqin, eshitilmagan talon-taroj
O‘ylamoqda edi Majnun qandayin karvonman
Arilari jannat ufqida g‘oyib bo‘lgan inman
Qandayin yoy ko‘zimga ko‘ringan bu kamalak
Ostidan o‘tar o‘tmas jannat bo‘lar jahannam qa’ri
Jim-jit sokin havoda ishonch bilan borarkan
Cho‘lning xartumiga ilindimmi yo‘qsa nogoh
Sharqqa borib-da, quyoshga yaqinlashsammi
Bir olov toshi kabi yonib bo‘lsam gar ko‘zgu
Uni Laylining to‘yiga sovg‘a qilishadimi
Yo‘qsa bunda ham Majnundan asar bor deydilarmi
Sindirib otadilarmi kulimning taftidan yaratilgan ko‘zguni
Meni eslatadi deya quvadilarmi oqshom
O‘lkalaridan, o‘choq va chiroqlaridan
La’natlanarmi o‘nlab menga shohid bo‘ldi deya vaqt
Menga va ming bir boshli yozig‘imga shohid bo‘lgan payt
Menga tushimga va xayolotimga aza bo‘lgan dam
Deya ular quyosh soatini sindiradilarmi
Bo‘shalgan shoxlari bilan vaqtni ayon etgan xurmolarni
Tuyalarning qumda ag‘anashi yaxshilikka yo‘yilmaydi
Derlar: Majnun kabi bu tuya ishga yaramaydi
Otlar kishnab xo‘rsinsa gar o‘z o‘rnida
Derlar: Majnunni tushida ko‘rganmi bu ot yo‘qsa
Yo‘q, yo‘q bularning bari mening o‘ylab topganlarim
Kimga nima ahamiyati bor

Mening iztiroblarim mening ovunishlarim
Umrim bo‘yi mazax qilganlari kabi
O‘limim bilan unitib yo‘qlikka ko‘mishar meni
Nomimning eslanishi ham bir ayb bo‘ladi
Nomim eslanishi bilan unutilar
Ota-onamga qavmim va qabilamga
Nimam qolar meros qoldirsam gar
Qoldirar bo‘lsam uyatni meros qoldira olaman
Va birda ketmas dog‘dek bir kuy, bilaman
Boshimga tuya tikanidan bir toj taqarlar
“Dallilar o‘lkasining sultoni!” deb atarlar
Maqollariga ham o‘taman biroq nega
Ushalmas orzularning misoli uchun
Qays ana shunday mahzun o‘y-u xayolda
Ketib borarkan cho‘lda bo‘ldi tush mahali
Qalbidagi otash ila tashidagi otash birlashib
Yoqib qovuradigan olov yaratdi go‘yo
Majnunni olib ketdi bu aynitadigan xartum
Yoqib kuydiradigan dardlarning jarga qulatuvchisi
Tashladi o‘lik bir xurmoning ko‘lankasiga
Go‘yoki uni otdi suv Nuhning najot kemasiga
O‘zini yo‘qotib Qays boshdan-oyoq yerga uzandi
Ruhi Arshning pardasi kabi uzaydi
Bir tush ko‘rdi yarim uxloq yarim uyg‘oq
Otasi kurashardi qip-qizil qonga bo‘yalib
Burgutlar va bo‘rilar ila dev kabi ilonlar ila
Qirq oyoqli, qurt-qumursqa, chayonlar ila
Chodirlar uchib g‘oyib bo‘lgan o‘choq izlari
Chalingan shaytonlar tomonidan parilarning gizlari
O‘rtada ko‘r jaylonlar kezar
Har biri sirtida bir sirtlonni tashir
Ko‘k yuzin to‘ldirgan qilichlar gurzilar
Ustiga qo‘nadigan insonni ko‘zlar
To‘ng‘iz shakliga kirgan ufq
Shafaq qo‘rqinchli tush zindonida tutuq
So‘ngra asta-sekin qish qopladi cho‘lni

Necha zamon qoldi shunday hechlikka ko‘milgan
Derkan shu payt mis qopqoq olinar ustlaridan
O‘liklar tirilar o‘tlar ko‘karar qayta
Bir bahor kelib yashilga do‘nar dashtu tepada
Faqat ikki quruq daraxt qolar naq o‘rta yerda
Qushlar arilar qumursqalar va kapalaklar
Faqat ularning atrofida aylanmoqdalar
Faqat ularga boqar barcha gullar
Hamma narsa ular tomon intilar
Behollar faqat ulardan kutar
Jon olib tirilishni
Kim bilar qanchalar uxladi ekan
So‘ngra nogahon uyg‘ondi Majnun
Yozning bosinqirashi tugagan edi tarqagandi
kadari biroz bo‘lsa-da

YULDUZ FOLI

Bir kecha oy yirtdi Layli chodirin
Tashidi ko‘klarga ul bokira sirin
Tishlari orasiga olib go‘yo uni yumshoq bir chaqmoq
Ipak kiyim kabi tan burmalarida titroboq
Somon yo‘lin ochilmagan qum tepalari uzra to‘shab
Olib bordi uni tushida ham ko‘rmagan yerga
Kuydirmagan bir olov ho‘l qilmagan bir yomg‘ir
Bir daryoning olovi olov daryosiga urilar
Shalola ichra o‘t olmish o‘choqlar
Olov uzra so‘ndirmay oqqan suvlar
Yuzi ma’lum noma’lum bir arslonni eslatgan
Cheksizning bosqinidan yassilashgan bir lavha: zamon
Cho‘l uzayib uzayib go‘yo erigan bir ot
Yo‘llarda chang to‘zon ichra yo‘qolgan saltanat
Xurmolar bulutlashib qizil ufqlarga yoyilgan
Dono tuyalar eng qiyin muammo uchun
ko‘k toqiga yig‘ilgan

Ota-ona aka-uka qarindoshlar
Va g‘urur bergan barcha narsalar ajab mashina
Bari bir toifa xayollarga aylanib ketgan
O‘tgan zamon xayollari xotiralar tugab bitgan
Na kiyimga havas na ufqqa tomon talosh
Na bosqin qo‘rquvi na yag‘mo na kurash
Na sevinch na-da qayg‘u na azob na sarob na suv
Hatto na borliq idroki va na hechlik tuyg‘usi
Go‘yo ruh qildan nozik qilichlar bilan qiyila qiyila
Eshitilmas chuqur qazishlar ila qazila-qazila
Aqlning tushning moslashish moslashmasligi oldida
Yetib bo‘lmas so‘nggi ma’noga yanada narisiga
Vujud bo‘lishilgan yulduzlar orasida
Bir hovuch nur kabi olovdan qizlar orasida
Hamma narsa abadiy tiriklikdan tug‘ilgan
Buloqlar hayot suvi kamarlar elakdan o‘tkazilgan
O‘tmish odatda butunlay g‘oyib bo‘lgan ayni dam
Bor edi ko‘z-u ko‘ngildan ketmagan bir ko‘lanka
Uning ko‘lankasi Majnun deganlari
Qaysning aksi ko‘rinishi
Javobsiz bir savol qavs kabi insonni kul
qilgan ovozi va hikoyasi
Hayot va o‘lim bu qavsda bu muammoning hal qilinishida
Bo‘lish yoki bo‘lmaslik bu yoy bukilishida bu
hal qilish tugunida
Na uni sevganini ayta olardi na sevmaganini
Na anglaganini ayta olardi na anglamaganini deganini
Ichidan chiqib bo‘lmas gir aylanali vodiy
Aslida ojiz qolardi uni vasflantirishga ishq so‘zi oti
Yiroq tog‘lar yaqinlashib-yaqinlashib
qabilalar kulbasin bossa
Bundan-da ulkan bo‘lmasdi yurak tashvishi
Oy Zuhra Mars yoki Merkuriy
Mana shu parilar va yo malaklarga oid
Joyda ham yana oldida faqat u bor
Ruhida va xayolida faqat u bor

Qutulib bo‘lmas Qaysdan Majnundan
Ishq emas bu bir yoziq bilingani kabi
Na undan qochish bir ishga yarar
Na unga borish ila tarqalar zimiston
Nur ila soya suv ila serob sharob va mastlik
Bir-biridan ayrilmaganidek, shunday bo‘ldik
Dedi o‘z-o‘ziga Layli u makon va zamondan tashqari
Oy quyosh va yulduzlarning bir-biriga to‘qnashishida
Qulagan yuksalgan toygan yo‘qolgan qayta tug‘ilgan
O‘lgan tirilgan u ulkan moddalar va
sirlarning ochilishidan
Ruhining yarasin tindirgan malham darmon izladi
Qalbiga sokinlik berguchi Maryamni Luqmonni izladi
Biroq doim oldidan chiqardi ehrom kabi devor
Manglay yozuvi devori sfinks yuzidagi asror
Shunda o‘chirdi butun ruhidan zamon va makonni
Tushunchani shubhani umidi bo‘lgan bo‘lmaganni
Taslim bo‘lishdan o‘zga chora yo‘q edi aslo yoziqqa
Laylini ayni maqomga erishtirdi ilhomni
eslatgan bu Xizrli ro‘yo

NAVFAL

TAQDIR DEVORLARI OLDIDA QILICHLAR

Cho‘lning ham o‘ziga xos Davlati bordir
Odatda qabilalardan biri hukmdordir
Bu Davlat albat na o‘xshar biz bilgan Davlatga
Na federativ na konfederativ bir hukumatga
Qabilalar orasida bir qabila bosh kabidir
Uning ham boshi cho‘l yuzida qosh kabidir
Cho‘lning ozod insonlarini ko‘p ham bog‘lash to‘g‘ri emas
Uning birlik ehromi tig‘iz yasalar va buyruqlar ila yuksalmas
Faqat ba’zan-ba’zan ustun va tanlangan qobiliyati ila

Bir qabilaning boshlig‘i bildirar o‘zini eng
qo‘pol badaviyga ham
U odatda ularning boshi emas do‘stidir
Otasi aka-ukasi sirdoshidir
Ko‘p bora qiyinchilik tug‘dirmay yo‘lin topib yarashtirar
Kurashish uchun emas tinchlik uchun bahsga chorlar
Jo‘mardlik fidokorlik va’daga sodiq qolish
Kabi ularning o‘ziga xos fazilatlar eshigini taqillatish
U boshlar boshining vazifasi bo‘ladi
Murosa olovining chaqnoq o‘ti bo‘ladi
Muqaddas Uydir bu vazifaning manbasi
Qo‘pmasin deya bir bor cho‘lda ko‘ngillar bog‘i
Do‘stlik bir bor dushmanlikka aylanmasin
Ikki qabila orasiga qon da’vosi deyilgan dinamit
Inson qoni bilan to‘yingan u shayton
Inson qoniga chanqoq u ajdarho
To‘yish nima bilmagan zolim ishtaha
Yeb bitirar necha yigitni mardni
So‘ndirar o‘choqlarni qulatar tirgaklarni
Cho‘lning terisi nozikdir tomirlari ipakdan
Saqlanish kerak eng mayda suiiste’moldan
Qon oqmay ko‘rsin endi to‘xtatib bo‘lmas
Oxiriga qadar o‘ch bilan bular to‘xtamas
Shundandirki zamona ulug‘lari
Quloq tutarlar cho‘lning har yoniga mudom
Qon da’vosi urug‘idan boshqa nima bor
Uni o‘z vaqtida o‘nglashga intiladilar
Yo‘qsa bir uchqun qayerdan chiqsa chiqsin
Butun qabilalarni chambariga olar yong‘in
Hamma va har yer lov-lov yonar
Yong‘inning o‘z qoidasi to‘xta degunicha
Insonning g‘ayrati emas narsaning tabiati
Belgilar faqat olovning so‘nadigan soatini

Qaysning qabilasi bilan Laylining qabilasi
Shubhalar ishoralar she’r aytishlar silsilasi

Bilan to‘lib-toshgandi go‘yoki bir vahima va
qo‘rquv minorasi
Ishqning g‘iybatning gap tashishning vasvasasi
Yangi bir da’voning ishorati edi
Odatda kelgan zilzilaning alomati edi
U yerda bu yerda tortishishlar janjallar
Mayda-chuyda voqealar mazax qilishlar
Xabar berardi yangi bir janjaldan
Bitish nima bilmagan bir da’vodan
Keksa tajribali kimsalar farqiga borgach buning
Tutdilar vaqtida falokatning oldini olish yo‘lin
U davrda Nejdda boshlar boshi atrofida
Bir bosh hukm surardi Navfal nomida
Yigit edi jo‘mard edi ko‘zlar edi adolatni
Ta’minlashga harakat qilardi ozmi ko‘pmi salomatni
Dono kishilar oldinni ko‘ra oladigan keksa boshliqlar
Unga murojaat qilib bo‘lib o‘tgandan so‘z yuritdilar
Navfal yuraklarda saqlangan qo‘rquvni ko‘rib bildi
Dahshatli chinqiriqlarni eshitib ko‘zlardagi yoshlarin artdi
Ishga aralashishdan boshqa chora yo‘qligin angladi
Yo‘qsa botib ketardi u mashhur oti
mehmonlarning barini kuzatib ovuntirdi
Bir chora topish uchun va’dalar berdi
Avval Majnunni u yerdan bu yerdan izlatib topdi
Shaharga olib keltirib nazorati ostiga oldi
Shu ishqqa tushishdan tashqari ko‘rdi u qahramon
Majnun deganlarin ko‘rdi favqulodda bir inson
Uni o‘ziga donishmand va do‘st ayladi
Majnun esa shunda xizmat ne’matidan huzur topdi
Tinchlik haq adolatni qo‘lidan kelgunicha
O‘rniga keltirishga intildi har ikkisi ham
Qays va Layli qabilalaridan kelgan xabarlar
Kundan-kun kamaymadi. Ko‘paydi aksincha. Taqdir!
Bir kun Navfal nima qilish kerak dedi Donishmandiga
Qo‘rqinch janjal boshlanish arafasida sizning u yerlarda
Majnun aslida biroz bosilgan yetilgandi

Omma yo‘lida o‘z manfaatidan kechgan edi
O‘z o‘chi emas kelajak falokatlarni
O‘nglamoq uchun Navfalga maslahat soldi
Navfal yonida Majnun va oqinchilari
Yurib ketdi ortda qoldirib vodi-yu kulbalarni
Laylining qabilasiga borib yetdi qo‘shin
Bunday bir qo‘shinga qarshi turib bo‘lmas deb bilinardi
Holbuki bu kelish va kelishishni qabila g‘urur deb bildi
Kelishishga bormay kurash yo‘lin tanladi
Voz kechib bo‘lmas holga kelib tortildi-ku qilichlar
Oqqan qonning hisobini kim so‘rar
Cho‘l urushi davom etgani qadar
O‘lim sochdi ikki tomondan ham qurollar
Oxirida ikki tomon ham ortga chekindi
Ma’lum bo‘lmadi kim yengdi kim yengildi
Qo‘rqinch urush ana shunday tugagach
Navfalda ko‘rildi bir g‘aroyib o‘zgarish
Arazlaboq ikkinchi urushni boshlatdi
Qaysning o‘lchovlilik o‘gitin bir tomon surdi
Yana qarshi turdi Layli qabilasi
Ammo bu gal bekorga edi ovoz g‘ulg‘ula kuch va hiylasi
Yoqdi-yiqdi qabilani mahv bo‘ldi qarshidagilar
Shunda yondi Qaysning yuragi yaxshigina sovudi Navfaldan
Qabila ulug‘lari to‘planib Navfal huzuriga bordilar
Oldida bosh egib turganlar tanbeh eshitib ozorlandilar
Gapni uzatishdan ne hojat hamma bilar
Yengilganlarning boshiga nelar kelar
Ular ham kam azob chekmadilar
G‘ururlarining jazosi qimmatga tushdi
Navfal alamin olgach, jahldan tushdi
Uzr-ma’zurlarni qabul qilib afv yo‘lin tanladi
Qayta gap-so‘z chiqarmaslikka so‘z berdilar
So‘ngra har mavzuga to‘xtab o‘tildi bir-bir
Navfal Qays uchun ham murojaat qildi Laylining otasiga
Biroq u bu baxsizlik olib kelishiga ishontirdi uni
Asl maqsadga yarashishga erishdim deb o‘yladi Navfal

U yerlardan va ulardan tezda toliqdi Navfal
Turib ketish uchun askarini to‘pladi
Qays oxirin chirik ko‘rib sababin ochiqladi
Men uchun emas, bir yo‘la tinchlik uchun chora ko‘r dedi
Kerak bo‘lsa, ma’lum muddat shu yerlarda qol dedi
Biroq endi Navfalga ma’nosiz kelib bu jang
Qo‘shin askarlariga ortga qaytishni buyurdi
Barcha bu janjallar bekorga ketgan edi
Najddagi umid so‘nib bo‘lgandi
Navfal bilan birga bormadi barcha ishontirishlariga qaramay
Undan ayrilib o‘z yolg‘izligiga qaytdi Majnun
Achchiq qismatining izsizligi yanada yaxshi edi Navfaldan
Cho‘lga yaramasdi shahar nafasi;
nafas, oq ko‘ngillarni kirlatgan
Sahro tomon burildi, dedi gunoh bo‘ldi kunga
Odatda sog‘liq yeli qayta urildi yuziga
Navfal saqlay olmagani uchun bu tinchlikni
Qisqa vaqtda boshlandi ikki qabila urushi
Laylining qabilasi ila Qaysning qabilasi
Bir-birlariga qarshi kurashdilar jonga qasd qilgan kabi
Urush cho‘zilgach, Qaysning otasi
Ijobat bo‘lgay deya Qaysning duosi
Borib uni cho‘lda chuqur tafakkurga tolgan ko‘rdi
O‘zgarib butunlay boshqa holga kelgan Qaysga duch keldi
Nima degan bo‘lsa kutilmagan bir javob oldi[1]

---

[1] *Ota* — Qays duo qil bizni
Majnun — Nega duo qilay
Ota — Laylining qabilasi yengilishi uchun
Majnun — Laylining qabilasi yengilmasdir
Layli nastarindan yaratilgan
Ustidan shamol o‘tsa
Nastarinning rangi o‘zgarmas
Layli kechalarning temiridan
Qilichlaringiz unga o‘tmas
Har kun otgan tong
Uning izida go‘yoki
Ming yil to‘g‘ilsa yana unga yetisholmas
Otlaringizning qulog‘ida uning ovozi

Uning yorug‘ligida bor bo‘lgan parilarning ovozi
Doim Layliga tomon borarlar ammo
Layliga osonlik bilan borib bo‘lmas
Layli tog‘larning ishorati karomati
Cho‘llar dashtlar tog‘larning tepalariga yetishib bo‘lmas
Layli qaerda ekan
Har kecha chodirimizning qoq o‘rtasida balki
Siz uni cheksiz ufqlar izlab borolmaysiz
Har kecha xurmolarning ustida
Oy Layliga qo‘l bermasmi
Vodiylardan kelgan suvlar bahorda
Ichganlarni Laylining ko‘zlari ila mast qilmasmi
Eng oliy bilgilar ila yuksaltirilgan Layli qabilasi
Yuksak bir qabilaki Tangri soyasi
Go‘yo kelajakning Xuroson eranlaridan dono
Qiliq qo‘llanadilar turk yigitlari kabi
Bordir butun bulardan ham narida
Laylining ko‘zga ko‘rinmas askarlari
Eng katta qo‘shin Laylining ko‘zlari
Tongda chashmalarni to‘ldirgan kumush parilar
Sizni to yuragingizdan yaralar
Nogoh boqasiz
Ko‘ksingizning o‘rtasida
Bir bichoq yarasi kabi
Chidab bo‘lmas bir og‘riq
Mahkam bog‘lar
Ming tuzoq kabi
Laylining sochlari sizni
Laylining qabilasi
Yer osti suvlari kabi
Sharillar balanddan baland
Sizni bug‘ar bir tilla sehr mahshariga
Keling sig‘ining bir avf hujjati kabi
Tangriga ochilgan Laylining qo‘llari
Men u qo‘llarning yorug‘ligida
Yurimoqdaman tug‘ilgan kunimdan beri
Topaman yo‘limni u bilan oydan mahrum
Yulduzdan mahrum eng qorong‘u qish kechalari
Laylining ayrolig‘i eng sovuq qish o‘rtasi kabi
Va borligi yoquvchi yoz tappotining quyoshi
Boring yoning qovruling siz ham men kabi
Siz ey sabrsiz qumlarning chigirtkalari

Ota — O‘g‘lim sen bizga duo emas
Badduo qilding
Majnun — Tilla tillaga borar, miss misga tomon
Ipak tilla bilan barobardir
Kurk dildorlarning bo‘ynida
Duo jannat o‘lkasiga oid
Badduo la'natlanganlar uchun
Layliga nisbatan xayoldan kechgan har qora fikr
Jahannamning me'mori bo‘lar biz uchun
Jahannam biz uchun biz la'natlanganlar uchun
O‘z qo‘limiz bilan o‘zimiz
Jahannamga aylantirdik ichimizni
Sizni bilmadim
Ammo jahannamimdan mamnunman men
Balki olov to‘kilgan derazalarimdan
Bir ozodlik ishorasi olaman
Layli o‘lkasidan
Yonsin qo‘llarim qo‘llarim oyoqlarim
Balki shunda
Bir qanotga erishaman meni Layliga eltajak
Ko‘zlarim kulga aylanmasdan
Ko‘rinmagan bir dunyoning sog‘lig‘iga
Erishaman-da
Ko‘kdan yerdan
Kun va oy kabi
Taqdirimizga yo‘l ko‘rsatgan
Tangri ne'mati yulduzlar kabi
Menga kelar Layli
Laylining ko‘zlari
Ota — Sen bu so‘zlaring bilan Laylidan o‘zib ketding
Majnun — Laylidan o‘zib bo‘lmas
Layli Qof tog‘i va Chin saddi
Laylining narisida malaklar ham yonib-kuygan
So‘nggi hududlar o‘lkasi
Yaratilishning so‘ngi undan nari
Layli o‘limiga chanqagan
Birining ichishi kabi
So‘nggi qultumni piyoladagi
Layli bir chashma kabi
Kim qurita olar ichib turib
Cho‘llarga hukm o‘tkazgan suvlarni bir manbadagi

Ishq va jazava oldida aql va mantiq yerga uzanib qoldi
So‘ngra Uni olib Ka’baga olib bordi tiz cho‘kdilar
Birga yig‘lab ko‘z yosh to‘kdilar
Biroq biri yig‘lamoqda edi o‘g‘li qavmi qabilasi uchun
Narigisi esa Layli va Laylining oilasi uchun
Barcha uchun o‘zining va Laylining qabilasi uchun
Butun insoniyat uchun insoniyat oilasi uchun
Bekorga ketgan umidlar to‘kilgan qonlar uchun
Birda hech evaziga qulagan arslonlar uchun
Kechaga aylangan kunlik quyoshlik dam uchun
Ko‘z yosh to‘kdi Majnun o‘lik uchun sog‘ uchun
Ota-o‘g‘ilning ko‘z yoshi qorishdi bir-biriga
Nari tomonda urush to‘xtadi birdaniga
Ikki tomon tarqaldi tugagach urush hamon
Majnun, otasi va qabilalar bo‘ldilar yo‘lga ravon

II BOB

KIRISH

1. CHO‘L HIKOYASI

Cho‘l kengligiga salom
Cho‘l kattaligiga olqish
Cho‘l chuqurligiga salom
Cho‘l balandligiga olqish
Cho‘l buyukligiga salom
Cho‘l nozikligiga olqish
Cho‘l guliga salom
Cho‘l tikaniga olqish
Cho‘lga salom
Cho‘lga olqish
Majnunni adashtirgan cho‘lga salom
Majnunga quchoq ochgan cho‘lga olqish
Cho‘lda kun botgan mahal
Majnunga salom Majnunga olqish
Cho‘lda oy chiqqan mahal

Majnunga salom Majnunga olqish
Majnun hikoyasin yana bir bor boshlatgan
Qaytadan qayta boshdan boshlatgan
Shoirlarni yana bir bor dunyoni qayta
Qurishga
Yangi bir dunyo qurishga chorlagan
Cho‘lga salom cho‘lga olqish
Qayta ostin-ustun bo‘lgan aqlini
G‘ubor bosgan qalbini
Cho‘lda mis bir tova kabi qizargan
Quyoshning bag‘riga uzangan
Motam aro qumlarning cheksizligiga sig‘ingan
Insoniyat dunyosidan zanjir kabi bo‘shalgan
Insondan naridagi yaratiqlarning oshnoligiga sig‘ingan
Uzoq masofa emas
Ko‘z va qo‘l erishgan
Yurak urishidan ilhomlangan
Yerlarning buyuk koshifi
Majnunga sevgi Majnunga salom
Shamolni bulbul aylagan
Har titroq shoxda
Fonadan shivirlagan
(Fono! Cho‘lda yasharib cho‘lda gul ochgan
Qizil eshik ortida cho‘kkalagan
Chayonda ming yillik zahar biriktirgan
Qizg‘in tosh ustida qimirlagan har kaltakesakdan
Oddiy ilondan tuyaqushidan va jirafadan
Olmosdan
Abadiylikka doir
Paradokslar biriktirgan
Orzuli raddiya o‘zgarmaslikka
Noroziligi bilan cheksizlikka ishtahali
Haqiqatda
Mudom abadiylikka moyil mudom abadiylikka och)
Cho‘l,
Muhtoj bo‘lgan quyosh, ruh yerto‘lasining

Har savol tog‘ining javob to‘g‘riligi
Har zindon qochog‘ining saroy xayoli
Baqir baqira olganing qadar
Ovozing toyib ketar
Quyosh botgan yerga yetar
Bir lavhadir mix yozuvidan xiyerogliflardan
O‘tmishi kelajagi noma’lum
Bir vaqtga tarjima qilgan
Cho‘l porlar cho‘l so‘lar cho‘l qizarar
Yozni va bahorni ko‘kka sochgan
Boshi va oxiri yo‘q bir kuzdir
Yerga sochilgan bir oyna
Qulagan bir parda
Tortilgan bir ip
Ezilgan bir kamar
Qurigan bir sardoba
Yonishga shay gugurt
Yopilgan ufqqa so‘nggi uchqun
Tadbir suv daraxtlarning
Fol omad qurbonlarning narisida
Sariq bir ayozli
Havo gazi va chiroq
O‘limning tasviri kabi
Qimirlagan turg‘un suvda
Naqadar yorqin shohiddir u
Vaqt deb atalgan
Chaqmog‘ida bulutida
Nastarin ko‘zasi Laylining
— Sumbul, bir intilish
Xurmoda ko‘kargan sochiga —
Va guldiraklar Majnun qalbi kabi
Chiq-chiq jonlantirar soatni
U tuzatib bo‘lmas soatni
Olov va po‘rtananing
Bir tegirmon kabi yanchgan
Nola bug‘doylarining

O‘rgan dardli chodir sadosi
Bir qanotdir cho‘l burgut keng yoygan
Tashish uchun qismatning so‘nggi dostonin
Tong shudringlari kabi to‘plash uchundir
Beshafqat bir sinovga botgan
Shoirlarning qonini
Cho‘l bir ovchidir
Shoir yuragi bilan to‘yingan
Ko‘z qorachiqlarini
Uzugiga toshdek taqqan
Jigarlarini
Ochib yaproq yaproq
Kundaligini tutgan
Qovurg‘a suyaklarini o‘qdek uloqtirgan
Zimiston ishq lavhasiga
Va shoir Xizrga do‘st
Ob-i hayot yo‘liga chiqqan
Tilida uzuq-yuluq hijolar
Dante Virjil Beatris
Romeo va Julyetta
Firdavsiy Hofiz Jomiy
Fuzuliy va Nizomiy
Layli va Majnun
Qof va Nun suralaridan
Ozuq to‘plagan yo‘lovchi
Cho‘lning sir tuzoqlarin
Asror shaharlarin oshish uchun
Tangri tilidan
Madad kutib
Ko‘mak istagan

2. SHOIRNING SHUBHASI

Ozod cho‘llarda ming yil birikkan
Ishq va she’rning qildan mayin
Qilichdan o‘tkir saflaridan o‘tgan

Sof badaviy turkularidan javhar tanlagan
Nizomiy Mulla Jomiy Fuzuliy
Yana qancha ulug‘ shoir qalami bilan
Yodgorlik obidalarining eng kattalaridan
Eng toza egilmas bukilmas
O‘xshashi yo‘q o‘zgarmas qaytmas
Ming zirh va qalqon ichra
Ipak kabi toyg‘oq
Po‘latdan bir ko‘kda
Burch ortida burch
Qal’a narisida qal’a
Yoz kunduzidan ochiq
Gizli qish kechasidan kecha
Bir hikoya oldida qanday turding
Nega o‘zingni bu tik yo‘lga urding
Yanada yaxshisini yozasanmi samimiylikda Fuzuliydan
Yana oldinga borasanmi xayolda Nizomiydan
Yana tubga tushasanmi Jomiydan
Zamonaning moddiy manfaatlari bor ekan
Bu o‘tdan ishga kirishding nega?
Degan gumon yedi bu asar shoirin
Boshdan kechirdi odatda Layli va Majnun hikoyasini
Oylar yillar o‘tdi yozolmadi bir misra ham
Go‘yo oldi yopiq edi baland tog‘lar bilan
Go‘yo ma’n qilingan ko‘lankaga kirgan edi
Quyoshning ko‘zin qamashtirgan ko‘lankaga kirgan edi
Zimiston g‘ordagi so‘nggi shamda so‘ngan
Atrof tartibsizlik koinoti holiga kelgan
Kunlar kunlarga ulashdi bunday bir qarzni
Yarim qolgan asarni butunlash ishtiyoqi
Yarim qoldirmagan edi hozirgacha hech bir ishni
Bitirishi lozim kishi kirishgan ishin
Biroq so‘z va yozuvning o‘rnini tutgan
U yashab o‘tilmagan damlar qoplagandi ufqni
Shoirlar boshlaridan kechira olmaganlarin yozishar
Biroq u yoziladiganlarni boshlaridan kechirsalar jim qolishar

Til qimirlamaydi og‘iz yopiq
Qalam cho‘ntakda mog‘orlamaydigandek saqlangan
Tushundiki bu hikoya boshqa bir hikoya
Na she’r ishi birgina na-da turku[1]
Layli va Majnun do‘nib boqmoqdalar jannatdan
Bir ishora ila mudom jim bo‘l demoqdalar
Jim bo‘l, yozma, sindir qalamni, atrofingga boq
Qo‘rqmay tol hayot-mamot ko‘z qorachiqlariga
Nimalarni ko‘rasan ularni tingla
Anglata olsang ularni anglat
Mana shudir bizning hikoyamiz
Oyoqlar ostida toptalgan sevgilar
Sindirilgan g‘ururlar...
Shudir bizning hikoyamiz
Zindonlarda bo‘shalar qadahimiz
Och suvsiz va tepilgan
Bechora hayvonlarning boqishlarida
Yorilgan yuragimizning qalovi yonar
Yetimning ufqida xayollarimiz uchishar
Tullar yetimlar
Qullar asirlar
Yo‘qsul va nochorning
Ko‘nglidagi dard-alam
Bizning xotiramizdir
Aytgan bo‘lsang bularning barin
Biz haqimizda aytgan bo‘lasan
Biroq shoir o‘yga tolgandi tag‘in
Yarim qolgan sarob hikoyaga
Hilol davrini oshgan biroq
To‘lin oy bo‘lolmagan
Bir oy albat to‘lmoq istar
Ammo qalamda bu mo‘jiza qudrati
Va ko‘klarga xos kuch ne kezar?
Bir yerdasanki na ortga qayta olasan
Na-da bir odim oldinga keta olasan

[1] **Turku** — milliy qo‘shiq.

Na-da turgan joyingda tura olasan
Tuyish tushunchada tushuncha tuyg‘uda
Uxlatilgan sirli bir uyquda
Bir tushning to‘qnashishiga guvoh bo‘lish
Malaklarning chashmaga aks etishidan
Tug‘ilgan nur va olovlarning titrashi
Kabi atrofdan o‘tgan o‘tgan zamon xayollarining
Ko‘z yosh to‘ktirgan mahkumligini totmoq
Va birdan yozmayapman dedi
Sen majbur qil meni
Sen vazifalarning vazifasi
Sen majbur qil tun kapalagi
Namoz ado etilishining sirli tili
Ro‘za asr namozlarining shahri

Sen majbur qil meni
Inson sabog‘i

So‘zlarni olib kel
Jabroilning shogirdi

Qog‘ozni oqla ko‘zyosh duosi ila bolam
Olovdan o‘tkaz qalamni
Birgina do‘stim

Sevgilim
Chilla nomli pari
Har ulkan o‘zgarishning
Sahari
Har oxirni bir boshlang‘ich aylagan
Yuksak bir maqomga chiqargan har safarni

Va yozmayman dedi
Layli va Majnun yoz demaguncha
Hayvonot bog‘laridagi
Asr kiyiklarning ko‘zlarida
Va shahid qonida bir abjad kabi

Bir kod bir parol
Menga ayon bo‘lmaguncha
Chinorlar, sarvlar va dengiz
Men chorlamaguncha
Qaytadan
Suhbatning eng qizg‘iniga
Va yer baqirmaguncha
So‘yilgan bir qurbon kabi

Va ruh tebranishlar jahannamini
Oshib o‘tmaguncha
Qanoti ho‘l bo‘lmasdan.

3. QAVS

O‘rtaga tushgan bir tanqid mardi
Adabiyot Partiyasining Doimiy Muxolifat Yetakchisi
E’tibor berilmaydigan hamma narsaga e’tibor bergan
Va bir qalamda kechgan e’tibor berish kerak bo‘lganlarni
Nimadir bu yohu
Sening qilganing dedi
Bir kitobni yarimlagan ekan
Nega birdan boshiga qaytyapsan
Birinchi aytiladigan narsalarni
Endi aytyapsan
Uni ham to‘la aytmayapsan

Sababi — muallif-i kitob dedim
Sabr qilsayding aytardim
Biroq sabr qilmading

Javob berdi: kitobning yozilish sababi noma’lum esa
Qanday yozishga kirishasan
Eski fe’ling bu sening
Eskilarga qarshi munojaatlarni ham
Oxirida qoldirgan eding
Eski kitoblaringda

Yo‘q, dedim, bu ish unchalik oson emas
Boq, senga aytay bir-bir
Albatta kitob boshlanganida
Yozilish sababi bo‘lgan bo‘lishi kerak ammo
So‘z holida emas ma’no holida
So‘z qizib cho‘g‘ holiga kelguncha
Ko‘rildi va kristallandi u ma’nolar ham
So‘zlar bichimida
Suv ostidan chiqdi suv yuzasiga
Izlangan kutilgan umid qilingan dalil
Sezgi tilga keldi aytildi
Sezganimiz bilganimiz bo‘ldi
Ilgarigilar haqlidir boshlarkan gapga
Umidlari katta kitobga yakun yasamoqda
Biroq bu davrda, bu qisqa yo‘llarda
Juda ehtiyotli bo‘lish kerak dastlab
Asar ozmi-ko‘pmi yozilmasdan
Yozilish sababi yozilmasligi lozim
Eski kitoblarimda ham, Tangriga yolvorishlar
Joy olarlar bunga yaqin bir sabab ila
Kitob boshida emas, oxirida
Eskilar yashar edi yetuk bir jamiyatda
Barcha Tangri ila bo‘ladigan bir maqomda
Shu sababli
Kitob boshidan joy olar
Tavhidlar munojotlar
Ular Tangrini ulug‘lash bilan boshlanar
Tayyor bo‘lganlar hammasiga oldindan
Va hamma har on to‘la sof islom bilan
Biz esa nido qilmoqdamiz jahannamdan
Botqoqlik va har turli kir ichidan
Inkor pisand qilmaslik ko‘rlik
Har turli butlashtirish va moddaga topinish
Dastlab bu yomonlik to‘rin yirtish kerak
Qullikning po‘lat zanjirin parchalash
Ruhlarni chorlab yetaklash yangi bir dunyoga

Eritib yo‘q qilish yuksak o‘choq cho‘g‘ida
Har turli toshqol zangdan mosuvo bo‘lishi lozim ma’dan
Mosuvolik, ulkan mosuvolik kelishi lozim olovdan
Ruh mosuvo bo‘la-bo‘la erkin bo‘lishi lozim
Tangriga yaqinlashish yo‘lin topishi lozim
Kitobning bir vazifasi shu
Davrdan olib abadiy davrga olib borish o‘yini
Namoz uchun obdast lozim bo‘lgani kabi
Va o‘qigan asar so‘ngida topar nasibni
So‘nggi kelgan Ulug‘ topinoqqa borganlar
Yozgan va o‘qigan
Olloh yonida sajdaga borganlar
Parda yopilarkan bu sahna
Tag‘in yarashmaydimi kunimizga
Eskilar baxtli kishilar edi har on va har zamonda
Tangriga yolvoradigan bir holda va holatda
Bir davrdamizki eskilar boshlagani bizning nihoyamizdir
Nihoyamiz bo‘lsa yana naqadar baxtlimiz
Do‘stim yetar o‘zingni bunchalar urintirganing
Ko‘zoynaging chiqar boq yon-atrofga
Shunda va faqatgina shunda
U yerga bu yerga tarqalgan
Haqiqat mozaikalarin
Uzilmas bir butunning parchalarin
Ruhingda to‘plab joyiga o‘tqazasan
Haqaqatda bir o‘zgarish yo‘q deb
Gumonlarning baridan qutulasan

Do‘stim kel uzmaylik gulni
Shoxida tomosha qilaylik
Uning ilhomi bilan kelgan ifori bilan kifoyalanaylik

Na olisla na-da yaqinlash ko‘proq
Bu manzaraga ko‘z tashla istagan masofadan

4. QAYTISH

Ming davr kechdi
dasturxon ishq va o‘lim xulosasi
Tadrij rivojlanish inqilob aslida ne o‘zgardi
Urush va tinchlik mudom oshgan toqatni
Bir vaqt ninasi cho‘qqilagan soatni
Bir chang zarrasi
To‘xtatar zambarakni
Mayda bir tosh sindirar tishni eng nafis ovqatda
Va to‘plar asrlik dasturxonni qora bir xabar nogoh
Eng yorug‘ kunda ayrilar yo‘llar
Ishq guli hali yetilmasdan yegan ming bo‘ri bor

Har eshikni o‘lim berkitar o‘lim ochar
Bo‘lmas basubadalmavt[1] ne’mati faqat
Buzilmas qulf erimas kalit
Temir zanglar xira tortadi olmos
Har qaynagan sut ko‘pik bog‘lar
Yashil tog‘lar sarg‘ayar kun so‘lar
Inson uchun ne telbalik g‘ururlanish illati
Eng so‘ng chiqib kelar kamtarlik navbati
Eng boy dasturxon sovurilar bir yel bilan
Eng uzoq turgan gul ko‘char kuzda
Va o‘lim doim osig‘liq o‘tkir qilich bosh uchlarida
Va yopilar ochilar ulug‘ bir parda har yuz yilda
Quyosh chekingan yerlarga kecha tushar
Va kecha qarigan joylarda suv sado berar
Tilla saroylarning xayoli ustunlari
Kun botishida xarobalarda titrar

Qular tiklanar sochar o‘rtaga marjon
Tushgan toshlar ochilgan tirilish mozorlari

Marmarda tug‘ilgan oynalar ichra
Qorong‘ulikda porlar mudom Yangi bino ko‘zlari

[1] **basubadalmavt** — o‘limdan so‘ngra qayta tirilish

Qulagan har ulug‘ shahar qayta bino etilgandir
Har oxir, taqdirda bir boshlang‘ichdir
Necha qush oqshom qo‘nar suvga tushgan kabi
O‘qqa nishon bo‘lgandek go‘yo sochilgan patlari
Uchish horg‘inligi jirkantirar uni besamar hechlikdan
Bor bo‘lish qayg‘usin bekitmoq istar
Kecha va o‘limning bir-biriga teng yaproqlaridan
O‘rilma — jun bir-biriga o‘tish arg‘imchog‘ida
Sen qushni o‘ldi deb bilasan mayli shunday bil
Biroq dam olish har kirni yuvar kumushdan manbalari ila
Chirigan ohakni ilhom sayqali ila tozalar
Necha ming bor totib ko‘rdim tugash sharbatin
Necha bor tishladim o‘lim etin
Kun botdi go‘yo qiyomat botishi ila
Dunyo parchalandi mahshar jarangi ila
Ammo tug‘ilish bor
Yana bir tug‘ilish bor
Dedi bir chumchuq qushi
Qo‘ngan yupqagina shoxga

Ha, tug‘ildi yana
Tug‘ilmaydi deb o‘ylaganim quyosh
Keldi kelmaydi deganim xabar
Har jahannam bir jannatga ishora
Har qora suvning narisi bir oq Kavsar
Quladi qurildi sochdi o‘rtaga marjon
Qulagan toshlar ochilgan tirilish mozorlari

Boshlash kerak qayta hayotga
Dedi tunda chirangan soat
Senga qayta yaqinlashadi
Qo‘rqma
Uzoqqa qochgan begonalashgan tabiat

Tushuncha va san’at
Sen uchun qanot

Sen uchun hayotdir dedi
Bir eski zamon piri
Bir eski zamon pirining xayoli

Va birdan Majnunning devorga chizilganin ko‘rdim
Ko‘lankalari ichida ko‘rdim
Eng sof shakli edi
Bo‘linmas tabassumning

Endi ashyo oppoq sahifa kabi edi

O‘lmish ruhning — ruhimning — qimirlaganin eshitdim

Ortga qaytdim Qof tog‘idan Chin saddidan
Burgutlarning skeletidan
Yoy tayyorlangan yerlardan
Ichidan chiqilmas vositali yo‘llardan
Burilishlardan
O‘tib o‘tib
Yo‘lga chiqilgan dastlabki joyga
Ortga qaytdim

Jamiyat insoniyat vaqt
Va o‘limning jasadida
Uyg‘ona oladigan yagona nuqta

Bir nina uchi
Izlanmoqda edi
Zamondan nari yer tashi
Va inson ustlari hududi
Ziyoratchilari tomonidan

Otgan bir tomir
Izlamoqda edik go‘yo butun vujudda
Bir ovoz
Chiq-chiq degan
Koinotda

Ilk nuqta
Boshlang‘ich nuqtasi
Haqiqatga

Biri dedi
Ilq nuqta ishqdir
Va narigisi dedi
Ayni paytda
So‘nggi nuqta

Qayta yo‘lga chiqish kerak dedik
Nol nuqtasidan

Biri dedi xo‘p
Tarixning qaysi asridan
Qaysi shaxsdan shaxslardan

Birdan to‘kildi dudoqlarimdan
Layli ila Majnun

Uzoqlasharkan u yuksak xayollar
Tasdiqladilar meni
Va “ha” dedilar abadiy bir aks kabi:
Layli va Majnundan
Layli va Majnundan
Layli va Majnundan

MAJNUN TAG‘IN CHO‘LDA

Bir kun Majnun ochdi ko‘zlarin
Cheksiz cho‘lda ekanin angladi darhol
Necha kundir bilmasdi qayerga borayotganin
Nima qilayotganin va nima yeganin
Kuchli esankirash ostida
Jasad kabi kezinardi u yerdan bu yerga
Demak uni yana cho‘l o‘ziga tortgandi
Kel o‘z yurtingga qayt degandi

Bir moddaning o‘z jinsidan boshqa moddani
Tortgani kabi
Tan bergandi taqdiriga
Yana
Ohanrabo bog‘liqligi
Go‘yoki cheksizlikka va ishqqa
Qaytgan bir namuna edi u
Cho‘l telbasi bir majnun edi u
Uzilgandi tag‘in bir bor
Rishtalardan qaydlardan va ahdlardan
Vujud siqqan ruh chayqagan iplardan
Ozod edi cho‘l yeli qadar ozod
Va yosh edi hech kimga o‘xshamagan
Qor kabi erimoqda edi butun dardlar
Yoshlik tafti oldida
Ichida olovdan yongan bir yara
Tashqaridan hammadan yuvosh ko‘rinar
Ichida yashagan to‘siq bo‘lolmasdi tashda yashaganga
Shunday bir yoshda ediki badal edi bir necha insonga
Har biri alohida qobiliyatda va yetuklikda bir necha inson
Majnunda bir joyda to‘planmoqda edi g‘uj-g‘uj har on
Har yerga yelib bora olardi endi
Har yerda bir boshqa bo‘la olardi
Yo‘l ko‘rsata olardi cho‘lda yo‘lin yo‘qotganlarga
Chanqaganlarga suv
Och qolganlarga ozuqa tashiy olardi
Katta va yagona donishmandi u edi cho‘lning
Yulduz yo‘l ko‘rsatgichi va yo‘l boshlovchisi g‘oyib ko‘lning
Qayerda edi ko‘lankasi ila qutqargan u yagona daraxt
Qahramon hamda haqiqiy qahramon
Xaloskor xurmo daraxtlari qayerda
Ishonchli qasrlar suv boshlari sarob o‘nglagan
Har turli kasallik tabiblari
Majnun edi bu telba sayyohlikning yagona rahbari
Mehmon deb bilardi cho‘ldan o‘tganni
Oshnosi edi uning har cho‘ldan o‘tgan

Bir-birin quvlagan qabilalarni
Hayrat-la oldini olardi janjallarning
Yarash ilinjida nimalar demas edi eh nimalar
Birining tilidan narigisiga madhiyalar
Uchrar edi ba'zida ovullarga
Chek qo'yish uchun kutilmagan ziddiyatlarga
Cho'lning necha yeriga tosh o'rnatgan edi
Bular yo'lin yo'qotganlarga belgi edi
Bo'ri qushlar uchun suv tashirdi
Yaralarini davolar edi
Oqsoq hayvonlarni tuzatar
Eski sog'liqlarini tiklar
Shu sababli uni izlardi kiyiklar tog' echkilari
Yovoyi eshaklar cho'l mushuklari
Cheksiz cho'lning abadiy bekchilari
Tuya qushlari va jirafalar
Majnunning bu vahshatdan
Madaniy bir qo'shini bor
Bari itoatkor va beozor
Sof nigohli va toza yurakli
Har biri bir musiqa parchasi kabi
Tashkil etardi ulkan do'stlik va sevgi qo'shig'in
Bilib-bilmay Majnun edi
Bu tinchlik qal'asining memori
Yana bir bor
Boshqa holatda
Boshqa maydonda
Tajalli etgandi Tangri xalifaligi
Insonda

O'ZGARISH

Majnun telba-telba tog'larda cho'lda
Kezarkan arslonlar va kiyiklar ila
Insonlik ta'limin yoymoqda edi

O‘zi bilgan va ko‘rgani qadar
Turli nomlar ostida
Turli holat va turli qiyofada
Eng qarshi bo‘lgani
Qon da’vosi
Insonga qarshi inson da’vosi
Pinhon-pinhon singdirmoqda edi sevgini
Sevgi umum va yagona qutilish rangi
Bir o‘zgarish bor edi endi u yerda bu yerda
Osonlikcha farqiga borib bo‘lmasa-da
Majnun edi kamtarlik-la daf aylagan
Ziddiyatlarni
Va so‘qmoqlarni katta yo‘llarga yetaklagan
Endi havo o‘zgarmoqda ko‘rgan ko‘z uchun
Insonlik ortga qaytmoqda ko‘ngillar uchun
Biroq Majnun vafot etgach
Ufqlarga qo‘l uzatgaydir katta da’vo
Hayotining bu ikkinchi sahifasida
Majnun qanday yashamoqda olmoqda nafas
Bir necha sahifa misol keltiray
Aniq va jonli lavhalar ko‘rsatay

MAJNUN VA QAROQCHI

Bir kun Majnun qaroqchi qiyofasida
Kezardi cho‘lning ulkan yolg‘izligida
Bir odam bir odamni mushtlaganin ko‘rdi
Va qoya kabi paydo bo‘ldi oldlarida
Biri qul edi narigisi sohibi
Ilk boqishda bo‘lgandi ma’lum
Majun (shiddat bilan):
— Urma u qulni

Qul sohibi:
— Sen kimsan?

Majnun:
— Men qaroqchiman
Qul sohibi:
— Qaroqchi!. Men ham qaroqchiman
Va qurolim haqqi o‘laroq
Bu asir, hukmim ostiga kirgan.
Majnun:
— Ma’lum, qaroqchisan!
Biroq, eng avvalo insonsan.
Asirdir ma’lum!
Biroq, eng avvalo insondir.
Bu qo‘llarni ezgulik uchun ham qo‘llay olarding
Yurtidan uzoq do‘stu yorlaridan uzoq bu
qardoshimiz uchun
Haqiqiy qaroqchining qo‘li faqat jangda qurol tutgay
Barmoqlari yumshoq bo‘lgay sulh payti
Bir jangchi teng shartlar ila jang qilgay
Pastkashlik bilar bundan boshqasin
Bir jangchi doim quyoshga boqgay
Qalbida quyoshlar oylar
Chiqgay va botgay
Tinchlik o‘lkasiga eng katta armug‘oni.
Men ham jangchiman ammo
To‘kmadim hech kimning qonin
Mening qonimni ham hech kim to‘kolmas
Qo‘yib yubor u qulni ey jangchi

(G‘oyib bo‘lar)

Qul sohibi (hayron qolar):
— Kim edi u ajabo?
Qul:
— Xizr edi balki
Qul sohibi:
— Sen uchun Xizr
Qul:
— Sen uchun ham

Menga bir xabar kabi keldi ovozi
Ko‘zlarimda jonlandi yurtim o‘chog‘im
Ko‘rdim bolalarimning beg‘ubor kulishlarin
Tashrifin qalbimda mo‘jiza bildim
Xo‘jayin istasang ta’zirimni ber
Sening bu ta’ziringdan tutar
bir ozodlik o‘chog‘i

Qul sohibi:
— Mening ham qo‘llarim bog‘landi go‘yoki
Ko‘kdan bir kumush zanjir tushdi
U azizning buyrug‘iga qarshi borsam
Bir xanjar qalbimni tilar bildim

(Tinchlanib g‘oyib bo‘ladilar)

MAJNUN VA ROHIB

Bir kun bir tog‘ sokinligida
Xurmo shoxlaridan bir cherkovda
Bir rohibga duch keldi Majnun
So‘radi:
— Nimani kutyapsan
Yo‘l kechmas karvon kechmas bu yerdan
Rohib dedi:
— Kutyapman, bir kun
Bu yerdan o‘tadiganni
Butun insoniyatga yo‘l ko‘rsatadiganlarni
Tanlaydiganni
Kutyapman dedi rohib
Bu yerdan
Boshida bir bulut
O‘tadiganni
Ruhida xabar umid
O‘tadiganni
Rohib dedi kutyapman

Barmog‘i ila oyni
Ikkiga bo‘ladiganni
Ko‘klarga yuksalib
Jannat-u jahannamni bilib
Qaytadiganni
Qiyomat soatining
Chiq-chiqlarini
Quloqlarga
Eshittiradiganni
Kutyapman o‘liklar diyorining
Tirilish kalitini
Mahshar qanotlarini
Cho‘ntagida tashiganni.
Majnun so‘radi:
— Yaxshi biroq
Qachon keladi U
— Bilmayman, — dedi rohib
Ammo
Qiyomatgacha sursa bu kutish
Arziydi.
“Bo‘pti. Ishoratlar?” dedi Majnun.
“Ishoratlar ma’lum bo‘ldi:
Ko‘k ishorat berdi
Yer ishorat berdi
Uni chorlamoqda
Bilib-bilmay
Insoniyatning holi
Xilqatning dudoqlari
Yorildi chanqashdan
U rahmat Kavsariga
Daraxtlar quridi
Sarg‘aydi yaproqlar
U Marhamat Yomg‘irin
Kutib turmoqda
Va o‘lgan tabiat
Bir hayot buluti

Umid qilmoqda
U Rahmat Yelidan
Majnun dedi:
— Ko‘ryapman
Bir rohib bo‘lganing holda
Tasvir yo‘q hujrangda
— Tasvir yo‘q, — dedi rohib
Va bo‘lmaydi ham
Butun budlarni yiqajak
Insonni qayta Tangriga yetkazajak
U sheriksiz Yagona Tangriga
Qaytarajak bo‘lganni
Kutgan qulning
Turgan joyida
Majnun dedi:
-Rahmat
Koshki men ham ko‘rsaydim
U Yo‘l Boshlovchini
Men ham oldida
Tiz cho‘ksaydim
Rohib dedi:
— Xafa bo‘lma
Sening ko‘ngling
Asl mo‘minidir Uning
Bir kun Uning ummati
Eng ko‘p eslagay seni
Bayon etgay hikoyangni
Eng unli shoirlari
Seni sof ishqning
Namunasi deya ko‘rsatgaylar
G‘oyib bo‘lmish mozoringdan
O‘limsiz chechaklar
Gullar binafshalar tergaylar
Va ularni to‘shagaylar
Noumid ko‘ngillarning poyiga
Ular bilan o‘lgan ruhlarga

Tirilish sunib jon bergaylar
Sen ishq otashisan
Hayot qilichisan
Osig‘liq o‘lim tepasida
Va jonlanish uchqunisan
So‘nish bor bo‘lgan har yerda

MAJNUN VA CHANG-TO‘ZON BULUTI

Bir kun Majnun
Yolg‘iz va horg‘in
Oldinda chang-to‘zon buluti ko‘rdi
Go‘yo uni yutish uchun kelayotgandi
Dedi to‘xta ey chang-to‘zon buluti
Qorong‘ulikning barakati o‘lim o‘ti
Shoshilma vaqt bor
Sanoqlidir soatlar-u daqiqalar
Azroil ham sendan sabrlidir
Bu yerda sening kabi mening ham ishim bor
Orzuyim shuki vazifam tugab kun to‘lsin
Mening ham taqdirim baxtiyor
Bir chang zarrasi bo‘lsin

MAJNUN MUM VA PARVONA

Bir kecha Majnun yoqqan
Bir mum atrofida
Gir aylanmoqda edi
Nozikkina bir parvona
Mum esa ag‘anamoqchi bo‘lardi
Parvona o‘rniga
Majnunning ustiga

Sevgili mum
Dedi Majnun
Sevdim seni
Achinganing uchun parvonaga
Men ham maslahat berardim
Taqdir izn bersa edi
Meni yoqishingga
Uning o‘rniga
Biroq shoshilma vaqt bor
Sanoqlidir soatlar-u daqiqalar
Azroil ham sendan sabrlidir
Bu yerda sening kabi mening ham ishim bor
Men barcha uchun
Farqli va boshqa dozada
Ma’naviy tarjimayi holman
Hamma yashagan bir ich tarix
Hammaning qalbidan o‘tgan bir jug‘rofiya
Bora-bora boradiganlari
Faqat yetisha olmaydiganlari
Bir panorama
Taqdirning goh-goh
Qavargan qonlarga qo‘llagan
Tarh nuqtalari botgan
Oq bir qorong‘ulikka botgan
Baxtli-baxtsiz bir topografiya

So‘ngra tun bitdi mum so‘ndi
Bu gap-so‘zlar bilan tong otarkan
Parvona Majnunga
Majnun parvonaga aylandi

KARVON

Majnun ulg‘aygan bu damlarda
Yugurdi karvondan karvon tomon
Xizmat qilib insonlarga

Erishdi tasalli bulog‘iga
Vaqtdan xotiraga qarshi qo‘llandi
Ishqqa nisbatan haqiqatga burkandi
Shafqat marhamat va haqiqat
Ishqqa nisbatan ishq-la birlik qurol va ot
Va Tangrining saltanati yagona saltanat
Bu qarash-la qorishib insonlarga
Topdi ko‘plikda birgina manzara
Har ishning boshi va so‘ngi Tangri
Manglay yozuvimizning haykaltaroshi Tangri
Yagona bor bo‘lgan U... qolgani ko‘lanka

Tongda uyg‘onib kutib olish yangini
Ufqlarga boqib kutmoq kelganni
Quddusni ko‘rdi Shomga bordi
Biri quyoshning parcha bo‘lishi
Biri oydan tushgan bir mozor edi
Biri sarv bir chinor edi
Biri oyna bir devor edi
Karvonlarni shaharlarga shaharlarni karvonlarga
Aylantirib ichida surib ketdi bu mojaro
Ashyoda olovlanib-olovlanib so‘nish
Kezib-kezib Tangriga qaytish
Tanho qolgan dam chodirlarda
Qalbiga tushardi bol rangli bir lavha
Yangi bir yozuvni o‘qishga harakat qilgani
Insonlarga yopiq harflar edi kurashgani

Bir kun Laylining to‘yi bo‘lganin eshitdi
Ichida bir ovoz dedi: naqadar achchiq to‘y bu
Isyon qildi bu ovozga: yo‘q, yo‘q dedi
O‘zingga shaytonga qarshi hayqir dedi
Dog‘lari ketdi dog‘lanmas ismning
Unday bo‘lsa olqishla unday bo‘lsa Majnun sevin
Kechalar, yulduzlar, yaqin yulduzlar
To‘planing Laylining yonida yulduzlar

Soching sochiga gullar yulduzlar
Mendan bir chaqmoq chizing havoga
Bir tegib-tegmas kabi bir esish kabi
Yaxshi tilaklarim yetkazing yulduzlar
So‘ngra qayta-qayta boqing yulduzlar
Ana shunday quvonchu qayg‘u oralig‘ida
Necha kun to‘y oqida qo‘rqinch tush qorasida
Qiynadi hayot ila mamot sarhadlarin
Naridan beri bor ila yo‘q bo‘lish sirlarin

Ona o‘limi ota o‘limi
Eng qora xabarlar tuguni
Keldi-ketdi yiqdi Majnunni
Oylar davomida tirnadi Uni
Necha ming bor qulatdi yerga
Po‘latlashdi biroq Qays mana shunday

Va ko‘nikdi butun bu bo‘lib o‘tganlarga
Yoz qish turg‘unlik va po‘rtana
Ayni bor bo‘lishning qaytishlari
Kun o‘zgarishining oynadagi tahlillari
Kabi ta’sirga aylandi Unda
Ana shunday sharhga erishdi so‘ngida
U va Layli ayni taqdirga chanqamoqda edilar
Birga bo‘lsalar-da ayri bo‘lsalar-da
Ayni kunning bir kechasi bir kunduzi
Ayni manglay yozuvining javhari va yuzi
Sevgi ko‘zda emas ko‘ngildadir
Vujud emas ruhdir ishqqa qodir
Hamma narsa havoda chang kabi aylanib turar-da
Yo‘q bo‘lar so‘ngida Tangri borlig‘ida
Yashash Tangri yo‘lida Tangri uchundir
Ortda nima bor bo‘lsa taxtdan tushir
Ruh hurdir Tangri sevgisi ila
Bog‘liq emas vaqt va yer e’tibori ila
Endi uchrashgandirlar Tangri qatida

Makon va zamondan mosuvo saltanatda
Hech vaqo o‘zgarmaydi Layli kelsa-da kelmasa-da
Farqi yo‘q borsa-da bormasa-da Majnun Unga

LAYLI TOMONDA

Bir ko‘raylik-chi Layli tomonda
Ishqning ayol nomli ko‘zgusida
Topshirgandi o‘zni taqdir hukmiga
Sukunat va sabr-u bardosh degan jonga
Turmush qurgandi va ko‘rinishda baxtli
Hozirda mamnun va kelajakdan umidli
Faqat bir xavotiri bor edi yomon
Qalbi bezovta edi hamon
Majnunga ne bo‘ldi va u qayerda
Ahvoli qanday nimalar qilmoqda
Kechalari xira ko‘lankalar orasida
Qum tepalarda oy yarasida
Majnunga o‘xshab xayollar qurardi
Bunday paytda go‘yo qalbi to‘xtardi
Bitgan ish yana qayta boshlanarmi?
Na chora boshlangan boshlanmagan
Bitgan bitmagandek ko‘rinardi Unga
Qo‘rquv kechgan biroq topolmagandi huzur
Qorong‘ulik bitgan biroq qovusholmagandi nurga
Oy tutilib-tutilib qutulgandi
Ko‘ngli goh-gohida xuruj qilardi
Kun sindirgandi qora girdini
Bo‘lgan edi nuri ila nari berisini
Qo‘rquv ila hurpaygan chodirlarda
Bugun tartib va ishonch, ammo ertaga!
Modomiki ertaga ishonch yo‘q omon
Nimaga yarar bunday bir hozir zamon
Achchiq bo‘lsa ham liq to‘la bo‘lgan hayot
Bo‘shalgandi zambaragi bo‘shalgan bir soat

Kabi. Aylangandi bo‘m-bo‘sh bir qog‘ozga
Og‘zidagi ta’m o‘xshamaydi eski ta’mga
Irmoq qurigan shamol esmaydi
O‘tli quyoshga bir parcha bulut
ham soya bo‘lmaydi
Orzu va qo‘rquv ikki zimiston tuyg‘u
Yuragida bir-birin quvlashib turardi
Eh, bir kun ortga qaytsa Majnun
Yana ostin-ustun bo‘lsa o‘rtalik butun
Yaxshi bo‘ladimi yoki yomon bilmasdi
Bir umid bor edi ko‘ngildan kamaymasdi
Goho xafa bo‘lardi o‘zidan ozorlardi o‘zin
Yopmoqchi edi ichida eskining qulfin
Eski mahv bo‘ldi deylik biroq ne edi yangi
Va qanday eskirtirish kerak eskirmaganni
Qanday o‘ldirish kerak o‘lmaganni
Qanday tirik hisoblarsan o‘lik bo‘lganni
Eski bir zahar edi balki biroq yangi
Eslatardi mazasiz tuzsiz bir ovqatni
Kutish nimani kutganini bilmasdan
Kun kunni oy oyni quvalarkan
Kutish bir vaqtning to‘lishini
O‘ch olmish taqdirning zolim o‘yini
Hamma narsa aql bilan qurilgan
Aql bilan tartibli
Biroq aqlning ichida
Bo‘lishi kerak ziravor kabi
Bir parcha telbalik
Holbuki Majnun butun dallilikni olib ketgan
Qup-quruq bir hayot qolgan odatda o‘yin bitgan
Orzu qilingan boylik, ot matoh va ziyofat
Yetmay qolar insonga bir kun albat
Inson doim bir narsani umid qilar kutar
Nima ekanin bilmaydi biroq
Faqat so‘ngradan tan berdi Layli
Tavakkul ila huzur topdi Layli

Ruhda qo‘pchigan po‘rtanalar tindi
Ko‘kdan ko‘ngilga sukunat tushdi
Angladiki achchiq totli sovuq issiq
O‘tmish va kelajak ayrilmoq va qovushmoq
Doim bor bo‘lishning takrorlari
Oydinlashishlari va so‘nishlari
Barchasi havoda aylanib turar
So‘ngida Tangri borlig‘ida yo‘q bo‘lar
Ruh hurdir vujud asir
Ruh boldir badan zahar
Ruh hurdir Tangri ishqi ila
Bog‘liq emas yer va vaqt qaydi ila
Farqi yo‘q kelsa-kelmasa Qays Unga
Borsa-bormasa Unga Layli
Tangri qatida uchrashgaydirlar
Haqiqat yurtiga qovushganlar

III BOB

O‘LIM

Aytib berardim o‘limlarini
Bir xazon hamrohligida
Bir qish quyoshligida
Faqat boqdim bu o‘lim emas tirilishdir
G‘ayritabiiy bir bildirishdir
Na kuz na sariq rang bu
ko‘chishni anglatar
Bu qon rangi bu qip-qizil o‘chni anglatar
Ko‘rinishda qizil haqiqatda yashil
Ko‘rinishda o‘ch haqiqatda emas
Foniyning so‘ngsiz-la yarashishi
Avfning mag‘firat-la bahslashishi
Yaproqning tushishi emas bu tuproqqa
Bir chaqmoqning tushishidir tog‘ga

Xazon emas bu bahordir
O‘limdan so‘ngra abadiy hayot bordir
Bulut tarqalar quyosh chiqar
Yomg‘ir tomchilari dur donalarga do‘nar
Dengiz chayqalib sochar xazinasin
Bildim ular o‘lmaslar
O‘lim nomiga
O‘lim niqobin taqib
Aylangaylar bir nurga

MAJNUNNING NURGA AYLANISHI

Yillar o‘tdi: va bir kun Majnun
Uzoqlashib yo‘l-u karvon qabilalardan
Sarob yoxud chin suv istiqbolli dashtlardan
Shoxlarida umid marjonlari osig‘liq xurmolardan
Ot: tuya: ko‘pak: insoniyatga do‘stlik sunganlardan
Qush: ko‘lanka: va butun sharpa g‘azablaridan
Uzuq-yuluq fojia xotiralardan
Qon tomchilari kabi ko‘ngilda qotgan
xayollardan savollardan
Tinglash-u tushunchadan ovozdan
ruhda tomizilgan qanoatdan
Judo bo‘lib
to‘xtadi oyoq bosilmagan joyida cho‘lning
Yonida edi endi bo‘linmagan Butun
Shaxsiyga qal’a olib bo‘lmas ko‘ringan Umum
Ochiq eshiklarni yopgan yopiqlarni ochgan Qo‘l
Ma’summi? Endi na bahor na kuz
Bu yerda endi na yoz na qish bor
O‘t unmagan tuproq, vahshatni-da ko‘mgan
Kechaga tobut kunduzga kafan
Quyoshga taqqan g‘ilofdan hurkib chekingan
Bu sfinks niqoblarin eng qo‘rqinchi eng battari

Majnun to‘xtab to‘rt tomon boqdi
Qalbin eng otashin shamin yoqdi
Bir nur bo‘lib ko‘kka tomon
Bir yulduz bo‘lib yulduzlar tomon
Bir chaqmoqdek chaqib, yulduz bo‘lib oqdi.

LAYLINING NURGA AYLANISHI

Majnun bilan ayni damdami
Biroz oldinmi biroz so‘ngrami
Eng yashil vohalar barakotida
Bir nurga aylandi Layli — shahzoda
Uydan yuksalgan bir nur uchquni
Yuksalib yoritdi nurga do‘ngan Majnunni
Ko‘rdi barcha yorishdi ko‘kda ikki nur
Bir-biriga qovushdi ikki nur

NAZR NURI

Issiq yoz ko‘klarida
Oldinda uzaygan dashtda
Birdan bir nur o‘ngdan
Bir nur so‘ldan chiqar
Va bular
Chaqmoq tezligida bir-biriga yetishar
Buni xalq nazr uchun omad hisoblar
Derlar: Layli ila Majnun uchrashdilar
Bu ko‘z ochib-yumish onida
Ne bor bo‘lsa tila murodingga
Albatta yetishasan orzuyingga
Yerda qovushmaganlar ko‘kda qovushar
Va bir omadli damda
Qovushmoq istaganlarni qovushtirar...

Oxiri

XIZR BILAN QIRQ SOAT

1

Bu g‘oyat mustahkam qo‘rg‘onli shahardan ham o‘tdim
Meni faqat ko‘rshapalaklar tanidi
Sal qolsa bir bog‘ qorovuli meni qo‘lga olardi
Nomim o‘g‘riga chiqardi
Har uyda muqaddas kitoblar osig‘liq edi
O‘qigan kimsani ko‘rmadim
O‘qisa ham tushunganni ko‘rmadim
Qonunlarini qog‘ozga yozgan ekanlar
Mening xotiralarim kabi
Toshga qoyaga suv chizig‘iga
Ko‘k qirg‘og‘iga gul devoriga emas
Mushuk bolalaridan boshqa
— Uning ham hali ko‘zlari ochilmagan
bo‘lganlaridan boshqa —
Qo‘l uzatishga arziydi
Nafas oladigan bir mavjudot topolmadim
Bir kun yana o‘ldi
Ey g‘arb g‘orlari
Meni afyoningiz bog‘lasa-da
Uxlasaydim qani
Bu dag‘al bu qattiq shaharga koshki kelmasaydim
Bir necha eski o‘likning suyagini fosforladim
Nurlarini orttirdim ming yil keyingi bolalar uchun
Keksa bir odamning shapkasin tushirdim
Tarvuz uzdim
Tog‘dan tosh yumaladim
Irmoqda yuvindim
Boqiy kiyimlar kiydim
Mix yozuvi ila yozilgan toshda o‘tirdim
Yonimdan arka qurgan ishchilar va sayyohlar o‘tdi
Juda eski bir shoirning (menmi yo‘qsa)
Xayolimga qattiq o‘rnashgan shunday bir to‘rtligini:

“Kiyganlaring shunday boqiy tortilganki
Seni bir piyolada qaynagan
Obi hayot deb o‘yladim
Qo‘lim uzanganicha qoldi”

Hozir oyni kutyapman
Oy chiqqach uni o‘rnimga ko‘zlovchi qilib qo‘yaman

Izlaganim bu o‘lkada ham yo‘q

Toshlar xotira yozilmaydigan darajada
Ancha qoraygan

2

Ey yashil sallali ulug‘ ustozlar buni menga o‘rgatmadingiz
Bu qisqa raqsga qarshi menga hech nima o‘rgatmadingiz
Ayolning ustun bo‘lgani ammo baxtli bo‘lmagani
Kunlarga keldim buni menga o‘rgatmadingiz
Hukmdorning hukmdorligi uchun xalqqa yolvorgan
Biroq yanada qattiq zulmlar qilingan davrlarga yetdim
Buni menga aytmadingiz
Insonlar havoda uchdi biroq yerda o‘ldilar
Buni menga o‘rgatmadingiz
Ukam Ibrohim menga marmar butlarni
Qanday qulatishni o‘rgatgan edi
Men ham biror kun yo‘qki birin qulatmagan bo‘lsam
Ammo siz qog‘ozdagilarni va kalimalardagini va
so‘zlardagini qanday o‘chirishni o‘rgatmadingiz
Yana bir shahardan o‘tdim
Bug‘doylarni yoqmoqda edilar
Yeganlari guruch edi
Bir-birlariga ochilgan mo‘rilar kabi puflamoqda edilar
So‘ngra bir-birlaridan mo‘rilar kabi chiqmoqda edilar
Guruch kabi ko‘paymoqda edilar
Otlarin faqat otlarin jonga yaqin bildim
O‘pdim yollarin

3

Bir meni eslagan tug‘gan ayollar qoldi
Olmalarin tishladim g‘azab ila
Shamoliga bir chipqon urug‘i ekdim
Shunday qilib iz qoldirdim
Mening merosimga yer yuzida
Yel chipqoni chiqarganlar qo‘narlar bilmay
Mening o‘g‘illarim ulardir
Sahifalarimni ular o‘qirlar
Ular tashirlar qo‘llarida
Maqtalgan gullarni
Tashirlar yuraklarida
Tif xollarini
O‘pib turgan malaklarni
Uylanmaydiganlar ulardir
Dengiz yarasin davolagan
Dengizlarga tabib bo‘lgan ulardir
Janglarda shahidlarning
Jasadin olib qochgan ulardir

Ey ulug‘lar siz menga o‘rgatmaganingizni
Men vaqtdan o‘rgandim
Qurigan xurmo shoxidan o‘rgandim
Tomizilgan yoqilg‘idan o‘rgandim
Qurshab olingan yarmi yoniq
Sanjoqlardan o‘rgandim
Qulagan tosh kamarlardan o‘rgandim
Xarob xonadon ko‘priklardan o‘rgandim

Ey ulug‘lar siz menga o‘rgatmaganingizni
Men yorilgan oyga ham o‘rgatdim
Durkun otashlarga o‘rgatdim
Eng umidsiz bo‘ydoqlarga o‘rgatdim
Taglikdagi chaqaloqlarga o‘rgatdim
O‘rgatdim echkilarga echki yo‘llariga

4

Men yomonlarga yaxshilik sochaman
Bu jazo bo‘ladi
Yaxshilarga yaxshilik
Yomonlarga yomonlik
Qiladigan darajada kuchli va sarobli bo‘lolmayman
Yaxshi bir shaharda
Machitda namoz qilgan
Yelkalari bir-biriga tayangan
Ikki musulmonning orasidan o‘tdim farqiga bormadilar
Xutbada imomning so‘zlari orasiga birgina so‘z
Qorishtirdim birgina so‘z
Bir necha kishi hayrat tuydi
Qolganlar chanqadi-chanqadi
Chiqishlari bilan shachmalarga tomon yugurdilar
Biroq suv begona va sho‘r keldi
Bolalarini ko‘rgach u vaqt
Tindi ich irmoq akslari

5

HISOBOT

Men Xizr... kun... falon soatda... yerda
Nazorat olib bordim
Ona aybsiz edi va o‘ldi
Ota aybsiz edi eski anjirlar kabi shitirlardi
Kichik bola aybsiz edi
Bol rangi aqldan ozgan biriga bag‘ishlandi
Narigilar aybdor edi
Gulga endi navbatga turgan edilar
Aybdor men edim
Kech qolgandim
Uyning yomon tushi balkonga og‘gan edi
Qo‘shni uylarda tadbir boshlanmagan edi

O‘zimni ikki yuz yil inson o‘g‘liga
ko‘rinmaslikka mahkum qildim
Imzo Xizr
Markasiz
Tarix chin devoridan so‘ngra 5000
Shahidlarning bari o‘g‘illarim

6

Qog‘oz industriyasida
Ajoyib chekinish texnikasi
Popirus
Marmar
G‘isht
Jaylon terisi
Ipak
Mato
O‘tin
Somon
Kepak

7

Bugun ikki bola suhbatiga quloq tutdim
Biri meni narigisiga ta’riflamoqda edi
Xizrning chizgilari terandir demoqda edi
Suv shildirashidir qorong‘ulikda ko‘zlari
O‘ng qo‘lining chizgisi porlasa
Tongda bir palma kabi
So‘l qo‘li qorong‘u qish kechasi
Yoshi doim oltmish uch
Yuzi hozir kelgan vahiy kabi
Ko‘zlari o‘ngida doim rahmon surasi jonlanar
Qalbi mudom Yosin o‘qir
Qulog‘ida ilk oyatlar zilzilasi
Men Xizrni ko‘rdim qardoshim
Erishganlar uchun to‘plamoqda edi zaytunlarni

Gapirishi hind ilohiysi
Xavotiri bola chillasi
Odatda tog‘ havosin tashigan biri
Tanovuli gulning tirilishi

8

Mening aytganlarim
Chin yozuvlari kabi
Atrof mening aytganlarimni qayd qilar
Ammo qayd qilmas o‘ziga so‘z aytganlarimni
Toshlarning qalb otishin eshitganlar
Faqat ular o‘qir mening aytganlarimni
Qoyalar taqvim varoqlarimdir mening
Oy necha bor guvohliq qildi
Tashiganim yo‘qsul ayollar tobutiga
Qul bozorida bo‘ldim ko‘p bor
Oz qutqarmadim inson sotilarkan
Inson olinarkan oz ko‘z kezdirmadim
Necha qarmoq sindirdim baliq ovida
Necha ip kesdim qatl dasturxonida
Necha yilni oradan o‘tkazdim
Taqvim hisobida
Necha quloch suv kechdim
Qurbon tadbirida
Necha bola qochirdim
Kitob pashshalarining
Tilsim epidemiyasidan
Ko‘magim tufayli
Zulkuful menga dedi
Sen suv ber men ovqat berayin
Sen jon ber men qon berayin
Sen sog‘ni chaqir men shahidni chaqirayin
Sen qirga tush men tog‘ga chiqayin
Qanday qutlug‘ hamkorlik edi bu
Zulkuful menga dedi

Yer ostida ovozim bor
Zulkuful menga dedi
Tug‘ganlar mendandir
Ona ovozi mendandir
Sirli to‘lovimdir o‘choq
Tush gilos bog‘lariga tush
Giloslarning aksin tingla
Dengizni giloslarda izla
O‘lim bilan giloslar orasida...
Bir munosabat o‘rnat
G‘orlarda tortilgan quralarda
Yamyam[1]ning orzusida
Kabaquloq[2]da ham
Bir bilgi izla

Xizr Xizr ishchi demoq
Malakka taqlid demoq

Mening kitobim shu qadar
Yozuvim qisqa
Xotiram yo‘qdir
Bahor sening yetakching
Kuz mening ortchim
Yoz Isoning
Qish Yahyoning
Bahor yoz kuz qish
Men sen Iso va Yahyo
Bir gulni yetishtirish uchun
Yaratilganmiz
Shukr Tangriga

9

O‘lgandan so‘ngra qanday tirilsa
O‘lmasdan men shunday tirildim

[1] **Yamyam** — bosqinchi.
[2] Quloq kasalligi turi

Necha kamalak ostidan kechdim
Bolaligimda ko‘p ko‘zladim somon yo‘llarin
Yoz chayonlari ham ko‘z tikmay turolmagan
somon yo‘llarin
Nech bor yedim sharq tonglari
Yoz oylarida yorgan anorlarin
Kelinlar olib ketilarkan payshanba oqshomlari
Necha bor joyida to‘xtatdim kuyov otlarin
Bahorda o‘tloqlarda dumalarkan vaqt cho‘ponlari
Soatlarni sindira-sindira ildamlagan mangu hayot vaqti
Jabroil mangu hayot vakili
Bir bo‘zqir kabi yaqinlashar qurshar meni
Zimistonda uzoqlarda inson suhbatlari
Eslatar chigirtkalarni
Orada — Sharob! — deya bir sas yuksalar
Bir qadah portlar olov lovullar chaqmoq tog‘laridan
Qurbon hidi yuksalar
Shovqin bilan kechar qof qabilalari
Qora anjir sutidan
Zaharlangan keksa ayollarning
Dostonin kuylar xachir hangrashlari
Iftor dasturxonida ochilgan kumush tabaqa
Qarzdor ota ovozi
Oy chiqqan shiypondagi qo‘shnilar-la
Toshbaqa ortgan eng shirin uzumlar-la
Ey qurshalgan dasturxon soati
Jabroilga tushuntirganim ana shu edi
Jabroil menga nima sovg‘a qildi bilasizmi nima sovg‘a qildi
Dunyo irmoqlari manbalaridan bir to‘plam
Dijla[1]ning uchoq yoqilg‘isi moviyligini
Firot[2]ning yoqilg‘i yashilini
Nilning kulrang bulut tarziga
Obi hayot bir kokteylmi
Kokteyl balki biroq qanaqa kokteyl

[1] Daryo nomi
[2] Daryo nomi.

OBI HAYOT XORI

Biz bir Xizrmiz biroq balki ming Xizr kabi
Bilamiz yer yuzida obi hayot ellarin
Namozda yuramiz yorug‘ mash’alalar bilan
Ro‘zada oydinlikmiz Iso bilan Maryam bilan
Qulog‘imizda doim Zabur to‘ylari
Tushimizda Injil tabdirlari
Ufqimizda Tavrot o‘lkalari
Sino tog‘idan yaproqlar
Va Qur’on qo‘shinin
Poytaxtlarga olib borgan bir qo‘mondon kabi
Eng zotli arab oti ustida
Tim-tik turgan bir boshliq kabi
Obi hayot oldida

Bir ko‘chmanchi qush yetakchisidir obi hayot
Bahorda kelar dunyoga
Qishda ko‘char oyga
Qish yaraning o‘ralgan dokasi

Yusuf ko‘ylagi yuvilgan chashma undandir
Misr eshiklari u bilan ochilar
Dovud temirin eritgan u
Chumoli qornida gapirgan
Hudhud uning ustidan yetti bor uchgan

Tadrij kunlik suv bilan
Inqilob yiring bilan qon bilan
Ammo biz tirilishni ko‘zlamoqdamiz
Obi hayot obi hayot qayna va tosh

10

Shuaybning ko‘rinmagani menman
Men o‘rgatdim Musoga bisotning narisin
Sharobsiz tamakisiz metafizikani
Itni

Yo‘qsul devorin qulatib qo‘rigan menman
Baliqchi qayig‘in teshib
Bolalarni tunda
Oyoqlari ters qaytariqli
Chaqirgan va so‘ngsiz qor cho‘llariga olib borgan
Mening odamlarim emasmi
Do‘stlari qilig‘ida
Do‘stlari ovoz chiqarib
Qizil olma megalo idea[1]
Zanjini osgan bo‘yoq
Ayollar bir nur dog‘i shiftda
Rembo[2] eng ko‘plik nurga
Bitga va ovozga
Ag‘ri[3]da
— 40 mantig‘ida
Ko‘satog‘i bilan gaplashdim
+40 da ham ko‘p pingvinli va
katta bir xachirli qabila bilan
Yuzlari quyoshdan yongan qabila
Ulug‘ qozonli qabilalar bilan
Chiqdim-ketdim jiyda anor qovun dalalaridan
Oz gapirmoqda edilar
Xachir oyoqlari sadosi to‘ldirmoqda edi
tush mahalini
Yurgan faqat ulug‘ bir kitob edi go‘yo
Faqat Raisning soyaboni bor edi
U ham quyoshdan qo‘rqqanidan emas
Kattaligin namoyish etmoq uchun
Barchamiz qirq yoshli erkaklar edik
Boshimiz ichra ari vizillashi
Yanada oydinlik va keskinlik
Bir buyruqqa tutilgandik izohlanmagan

---

[1] Qadimda Yunonistonda “Buyuk fikr yoki orzu” shiori ostida olib borilgan siyosat.

[2] **Artur Rembo** — fransiyalik simvolist shoir.

[3] Tog‘ nomi.

Kuchli edik sog‘lom edik po‘lat edik
Ko‘p irmoq oshdik
Emanlarda hudhudlar ko‘rdik
Qoyalarda eskilarning manglay yozuvlari
Orada bir, bir otli ilgarilamoqda
Bir otli chekinmoqda edi
Yangi buyruqlar berilmoqda edi jimgina
Bayroqlar aylanmoqda edi ustimizda shitob
Burgutimiz bor edi
Eski avlod o‘laroq
Maymun o‘lkalaridan o‘tdik
Inson tumanlaridan oshdik
Malak istehkomlarigą yaqinlashdik
Shaharlarida ham chashmalarida ham
Qadahlar sindirdik chil-chil
Marmarlari bulut kabi yuzimizni qoraytirdi
Kun tutilganga aylandik
So‘ngra Qur’on o‘qidilar o‘zimizga keldik
Shunday nurga to‘ldikki
Sharqdan ham g‘arbdan ham
Birdan kun tug‘ilgandi go‘yo
Ikki quyosh to‘rt oyda-da
Birdan tug‘ilgandi go‘yo
Shu dam ayollar paydo bo‘ldi
Barining ismi Maryam edi
Ilk bor turmushga chiqdilar bizga
Tag‘in ko‘p yurdik
Biroq qanday tushuntiray
Narisini

11

Asr paytidir suvlarimning biati
Qo‘lini o‘pgan kunim ustasi
Qora bir sas qoldirib ortlarida
Hazil qilayotgandek go‘yo

Hayotga ko‘nikkan echki bolalari bilan
Yozda Dijla qirg‘oqlaridagi qumga
Ko‘milgan eshakdan yana ko‘p nima bor
Kuldiradigan bolalarni
Bilmaganga olgandek otalari
Eshak qurigan bir Dijlaning aksi kabi
Butun bir O‘rta Sharq demak edi
O‘qiganlar o‘qigandir eshakning bo‘yin
chizig‘ida o‘g‘il yozuvin
Ayol o‘g‘lidan ololmagan maktubi ya’ni
Eshakdir bilgan eman yaproqlaridagi
Yolg‘onchi qudrat holvasin ma’nosini
Qo‘ylarning tushdan keyinida eshak ham ketdi
Qasabadan u mashhur o‘lik ham o‘tdi
Ko‘zalar ko‘chalarga bo‘shatardi yashirin bir saharni
Bu o‘lik qaysi botgan imperiyaning bayrog‘i
Olib borilmoqda ochiq muzeyga
Yerga botgan saroyiga
Olinib takbiri
Yer osti jamesida
Menman men men Xizr
Chanqirgan[1]man men
Hammom sovutgan
Ko‘rkam nigohlarga kecha oralagan
Tuxumda kutgan
Qoratoshlarin asragan
Bog‘larda...
Otash ovchisi donishmand tuyalarning
O‘pkasin kun botishlariga tashigan
Keksa yoshligi yoshga yosh
Qor ko‘chkisi
Qoya otuvchisi
Tog‘ni bo‘lgan
Zilzilaning o‘zi
Chaqmoq moyasi

[1] Turkiyaning Adana shahridagi bir sulola nomi.

Hardal hidi
Chigirtka sabri
Ari vahiyi
O‘lik ta’siri
Qo‘shilgan xonadagi bo‘shliq
Jahon urushlarining ilk besh yozuvi
Ilk inson
So‘nggi maqbara
Men
Xizr

12

Ey ayol shivirlagaylar senga xushxabar
Tutunajaksan tug‘magan ayol kabi xurmo daraxtiga
Cho‘l aro yuksalgan bol va chigirtka qorishig‘i
Tuya sezgirligi bilan yukli sarobsiz to‘xtashlar bilan
Ey ayol shivirlagaylar senga xushxabar

Senki toliqding kir yuvishdan bir irmoq chetida
Ko‘p quyosh olgan nurni g‘oringga urgan
U yumshoq suvdan bilib olding xushxabarni
U oddiy kiyimli yoshi noma’lum olimlarki
O‘tmish ajdodlarning turli tilida gaplashdilar-da
Sen birgina so‘z aytolmading necha yildir
O‘ng devor gapirdi so‘l devor bilan
Suv xurmo bilan
Oy echkilar bilan qo‘ylar bilan
Sen xayolan gaplashdim deb o‘ylading
ichingdagi bola bilan
Har til sen uchun zamonaviy bo‘ldi
O‘lik hisoblangan eng eski ibroniy tili
Xitit va xammerlar tili
So‘ngra bayram tugab barcha tillar chekingach
Qalbing anordek qizardi u sokinlikda
Mana shunda bola tug‘gn so‘z keldi

Tug‘ilmasdan gapirishni o‘rgangan inson keldi
U tug‘ilmasdan sen bilan gaplashgan kishi edi
Uzun qishdan so‘ngra kelgan ilk kun nuri kabi
Uzun qishdan so‘ngra kelgan u ilk so‘zni
Bir inson kabi bir mard kabi ko‘rgan
Kutib olib qo‘noqlagan ayol xushxabar senga
O‘t olgan kuni kichik rasmiy yaproqlar kabi
Bir tog‘ uchiga yig‘ilgan u shaharki
Seni eng qiyshiq bir dushmanlik bilan
Kutib olishga tayyorlanmoqda
Unday bo‘lsa ey bir so‘z tug‘gan ayol

Xushxabar senga

Aks-sado bergan qutlug‘ ayol xushxabar senga
Malakning bir so‘zidan homilali bo‘lgan qutlug‘ ayol
Ayriliq shiddatidan homilali bo‘lding
Yorug‘lik ortishidan bo‘ldi Iso
Endi chiqa olasan iyul tappot[1]iga biroq
Uch kun katta ro‘zaga qarzdor qilinding
Eng ko‘p gapirishing kerak bo‘lgan damda
Ayozli oynalarda bo‘y ko‘rsatgan
Shumtol o‘rmoni kabi g‘azablangan olomon
Oldida u ulug‘ nutqni irod etarkan
Bir yaratish sukunatiga tayinlanding
Faqat ishorani erkin qo‘yib bergan
Tug‘iradigan jinsidan bir ro‘zaga qarzdor bo‘lding
Bola o‘g‘lon edi
Suv to‘xtadi
Xushxabar senga
Hadrianusning kutubxona marmari
Chashma bo‘ldi yorug‘ erta tong kitobiga
Bolaning mo‘jiza alfavitiga
Tund oraliqlarda
Kumush tovoqlarda
Guruch tozalagan qo‘shni ayollar mahoratiga
Ki oy uy oldlarida

1 **Tappot** — issiq, garmsel.

Jiydalarga botardi
G‘ira-shiralikda xushxabar senga

13

Ilyos bilan uchrashdikmi uchrashdik to
Eng inja holatda edi po‘stlog‘i bilan tuxum
Bir qo‘ng‘iroq kabi jaranglamoqda edi o‘tlar esa
Qo‘limiz chang‘idan bo‘shamasdi quvnoq
qo‘ziqorinlar bilan
Tog‘larda so‘nggi qorlarni surmoqda edi suvlar esa
Ilyos dedim
Ey eng yumshoq ismli inim
Kabutarni sharqqa uchiramizmi avval
Sharq u yer sening ona o‘g‘il mamlakating
Osma yaproqlarini sog‘indingmi
Ichingdagi ovozlar qo‘rqitmoqdami suyaklaring
O‘qimadingmi fevralga sado bergan
Bevaqt hujjatini jinlarning
Ayub Zulkuful Yusha va sening qonamaganingiz
Shit narisi ilg‘ab bo‘lmas izlari bog‘langanlarning
Yahyoga guvohlik qilgan ari qoyalarning
Qaytadan chalqanishi menmi deysan

Ilyos mehmonni yaxshi kutib olmadik
Tujjor kun yorishmasdan ketdi
Sir bo‘lgandan beri yaxshi berilmadi
Qo‘riqchi vaqtida o‘zgartirilmadi
Ot tulpori otga o‘xshatilmadi...
Isroil bir tarixni kecha kezib o‘tkazdi
Tillani tilla bildi
Kumushni kumush bildi
Elchini elchi bilolmadi
So‘ngra Iso keldi
Avval bola bo‘lib dedi
So‘ngra ulg‘ayib dedi
Mana shularning barini sen bilding bir-da men bildim

Sharq birikti birikti birikti
Cho‘pon dediki
Asl arab qabilasining arab tili kabi
Bir sut buyurdim sizga
Bu eng dono echkimning armug‘oni
Bu xayriya ro‘zalardan ro‘zalarga o‘tkazildi
Oyning bir ninaga aylanganini ko‘rgach kezardi
Tog‘ning chiqilmagan yerlarida

So‘ngra cho‘pon erta tong g‘ira-shiraligida
Kasal bir qo‘zi uyiga bordi
Uzoq vaqt nuri so‘nmadi
Ilyosning sabri kabi

Men va Ilyos uzoq vaqt
Sut orzusida yondik
Qo‘llarimiz va yuzimiz uyg‘oq ekan
Vujud haroratimiz ortdi ammo
Ko‘zlarimizga nima bo‘ldi bilmasman

Ey ismini ummon ko‘piklaridan
Olgan aziz inim,
O‘lgan inson
Olga bo‘yanmish tuproqni olqishlamasdan
Biz yashilning bir yilligini nishonlaylik
Bahordan xushxabar beraylik
Eniga bo‘yiga
Sabr qo‘rg‘oniga
Ismi Muhammad bo‘lgan bolaga
Ajoyib bir ruhning tabibi kabi

14

Men qishda kafan kelini
Qarag‘aylarning tirik o‘lim jamoasidan ham
Uzum donalarining o‘xshashligidagi yolg‘izligidan
ham osmalarning

Qutulibman qaynagan bir cho‘lman balki
Birdan tug‘ilib ulg‘aygan hamda ichida inson ovozi aralashgan
So‘ngra nogoh kichrayib g‘oyib bo‘lgan
Qum tepalari
Shahid insonning birdan menga evrilishi
Bir qancha machit me’morining ko‘rinmagan donishmandi
Odatda men o‘yaman ko‘kka minoralarni
Bilimim ko‘pligidan vaqt qisqaligidan
Ishim boshimdan oshib-toshganidan
Anchayin boshdan kechirolmadim yolg‘izlik sarguzashtlarin

Tog‘dan ko‘zlagan bir Xizr bor qasabani
Buni eng yaxshi bilgan
Ayollariga ko‘nikolmagan isinolmagan bir qasaba begi
Har kecha muqaddas bilar kutilmagan chashmani
Mudom yo‘qsul emasman ba’zan boydirman balki
Suvlarning bulog‘idaman
Gul iforida
Olma terida
Shafaqda uyqu bilan uyg‘onish ichra
Bir yonib bir so‘naman
Uzaygan bir mash’alaman
Jangda jabhadaman
Yaralarning lattasi menman
Tutqundan yiroq bir kimsaman
Chunki tutqunning qalbidaman
Qon emasman qondan ham naridaman
Ozodman biroq yolg‘iz emasman
Ey inson chig‘iriqlari
Sizdan uzoq emasman
Ilyos mening qizil narigim
Men sizning siyohrang narigingizman
Men eng ko‘p xo‘rozlar bilan kezgan biriman
Kechalari namozman
Erta tongda azonman

15

Nuhning bir ishchisi edim
Kunligimni biriktirdim taxta oralarida
Topilsa Nuh kemasidan bir parcha yog‘och
Ichida tilla bor demak
Bu bir ishoradir senga
Tilla ustida Nuh muhri
Dunyoning eng ibtidoiy yozuvi
Ibtidoiy ammo oddiy ibtidoiy ammo jonli
Ibtidoiy ammo go‘zalligi ila jazb etar kishini
Men Ibrohimning sir kotibi
Yoqubning sarguzashti
Yusufning mahbuslikdagi do‘sti
Tush ta’biri o‘qituvchisi
Biroq ko‘rmadim botir bir o‘quvchi
Porloq qilichlarning shalolasi
Musa kabi

O‘rgatmasaydim devorini qulatib yo‘qsulni qutqarishni
Chiqara olarmidi Muso
Misrdan Isroilni
Teshmasaydim bir yo‘qsulning maqtangan qayig‘ini
O‘tkaza olarmidi Muso
Qizildengizdan Isroilni
Bir urishda o‘n buloq
Chiqara olarmidi chaqmoqtosh qoyalardan
O‘ldirmasaydim hech achinmay
Barcha aybsiz bolalarning qotili
Fir’avnni bo‘g‘armidi hali endi qurigan bir dengiz

Muso suruvni Shuaybdan o‘rgangan bo‘lsa
Yo‘lni tog‘ni yaylovni mendan o‘rgandi
Shuaybdan o‘rgangan bo‘lsa itni
Bo‘rini mendan o‘rgandi
Men bilan qahva ichdi kechalari

U bilan namoz qilgan bo‘lsa ertalablari
Men bilan duo qildi oqshomlari
Undan olgan bo‘lsa Tangri sevgisin
Mendan oldi qo‘rquvni
Ammo men zimistonda g‘oyib bo‘ldim
Muso nurga bordi
“Qirqlar yedilar keldilar
Meni olib ketdilar
Bir necha joyni kezdirib
So‘ngra ortga qaytardilar”
Desa edi Muso faqat meni tushuntirgan bo‘lardi

16

Shakarga ko‘nikkan chayonni o‘ldirmasang
Shakardan zahar tayyorlar
Bolalaring uchun buni yaxshi bil
Bu o‘ldirganing bola uchun bir namunadir
Har yoz bog‘larda minglab chayon o‘ldiriladi
Sayyohatga chiqqan bolalar uchun
Kun ko‘rmagan binafshalar tiriladi
Bahori kechikkan shaharlar uchun
Qurbon bayramida o‘rtalik yorishmasdan uyg‘onilar
chiroqlar yoqilar
qo‘ylar ustiga bir nur tushar tog‘ nuridan oldin
Qurbon pichoq ovozini eshitar xo‘roz ovozidan oldin

Soatlaringni tez tugat ey ulug‘ kecha
Qurbon bayramidir eng katta bayram menimcha

Bular qanday itoatkor yaratiqlardirki
Kilometrlar davomida
Kunlar davomida
Yo‘l osharlar sahar tong tush payti
Asr payti va cho‘ldadirlar oqshomlari
Va so‘ngra toliqib to‘ldirarlar bozorlarni

Va to‘p portillamasdan oldin
Har birining boshi kun sharqiga qaragan
Bir uy oldidadir
Bolalar oldida
Bola qo‘lidan olarlar dunyo yashilligin
Bir hayot suvi kabi icharlar
So‘nggi suvlarin

Soatlaringni tez tugat ey qutlug‘ kecha
Qurbon bayramidir eng katta bayram menimcha

Qur’on tinglagan va shu sababli bo‘yin egganlar go‘yo
Hayot siriga bizdan oldin erishganlar go‘yo
O‘zlarin bir ovoz yo‘lida qurbon berganlar go‘yo
O‘lmasdan oldin o‘limdan keyinini ko‘rganlar go‘yo
Tog‘larda aks etganlar daryolarda oqarganlar go‘yo
Tushlarida Makkaga borganlar go‘yo

Soatlaringni tez tugat oyingni va yulduzlaringni yoq
ey kecha
Qalbimizdagi qurbonlar kechilmasdan oldin

17

Po‘rtana Lutga oid
Sochlarim yomg‘irda uzayar
Ko‘zlarim oydinlanar chashma suvlarida
Ovqatim pishar yer osti iliqliklarida
Bug‘doyda yorishaman qorayaman somonda
Yozligim somon yo‘llarida
Qishligim ovchi bilan ov orasida
Bahorim qayiq bilan qayiqchi orasida
Kuzim baliq bilan baliqchi orasida
Samumlar soyamga oyna
Zafar nishonim kamalak
Iching sharobimni shotutlarda sinmas qadahlarda
Sharobim bodi sabo

Yunusga oiddir nahang
Tish va taroq Yunusga oid
Temir va zabur va tovush va g‘azab Dovudga oid
Va dard va sabr va yara
Va yaraga chidash san’ati Ayubning ishi
Zulkufuldir tong otmasdan
Ortga qaytadiganlarning kafili
Bu xalqning hiylasin eng yaxshi Yusha bildi
Ana shunda olov eng keskin bir shuur ila
O‘rtasiga yo‘naldi g‘animatning

Bir shaharga kirdimmi bahor yomg‘iri kabi kiraman
Yellarning do‘sti otlar kabi
O‘stiraman gullarini
Mosuvo qilaman suvlarini
Boqaman marmarlari homilami
Tobutlari tunukami
Yorug‘likmi nonlari
Chirkinmi yuvilganmi ko‘ylaklari
Kuzni eslatadimi ko‘z qorachiqlari
Tin oladimi olxo‘ri daraxtlarida
Yangi yil kapalaklari bahor kapalaklari
Gugurtmi sochilgan bog‘lariga
Ko‘zlardan oqqan bir ohakmi

Boshoq esa menga oid
Bola mening o‘lkamdir
Ona qorni kelajakning hujjati

18

Kunlarni tashlab taqvim bilan shug‘ullandingiz
Suvni sog‘indingiz-da izlamadingiz
Horut va Morutni tilsiz qilgan
Sochlaridan payg‘ambarga sehr o‘rgan
Uyqu bilan bog‘liq suv va quduq bilgilarini

Toshlarni teshar-teshar-da suv kelar
O‘q ilon kabi
Jazavaga kelgan tuya
Ari to‘dasi kabi aylana-aylana
Tangri mahkumin izlar
Suv izlagan odam emas
Suv seni izlagan odam bo‘l sen ham
Sen sharq bo‘lsang quyosh senga kelar
Sen qushlik bo‘lsang qush senda sayrar
Sen quduqda o‘tirajak dars toshi topsang
Bir qabrni tashqaridan o‘yib yo‘ngan emas
Ichidan inson shaklida chinqiratgan bo‘lasan
Har chiroqning bir qudug‘i bor
U yerdan olgani bilan yorishar
Quduqsiz Badr Badrmidir
Badr qudug‘i to‘ldirilmasdan oldin
Quraysh ulug‘lari
Sog‘ ekan eshitgan bilganmikanlar
Ey ziyolanish soatlari
O‘lik bilan gaplashilgan soatlar
Tobutda damlangan sharoblar
Eski soliqlardan tomizilgan vizkilar
Qadahlarni sindirgan shampanlar
Bir quduqqa baliq bo‘lgan haydutlar
G‘orlarga eshik bo‘lgan devor bo‘lgan
Quduqlarga devor bo‘lgan
Istehkom bo‘lgan qoyalar

Quduq zaytun anor
Ko‘kargan quduq izlar
Vaqtning arabi telbalar

19

Hovlida uxlagan bolani
Yuziga urgan
Kipriklarini hino-hino kabi bo‘yagan

Kun uyg‘otolmas-da
Ona uyg‘otar
Jiyda va gul iforlari chashma kumushlari
Xom xurmo chumchuq nurlari ila
Bahor uyg‘otolmas-da
Kunlik sut uchun oyoqlangan
Uyning echkisi qo‘yi sigiri uyg‘otar
Cho‘pon suruvini keng bir qushlik maydonida to‘plagan
Nonlar va oyliklar olingan
Ba’zi yo‘qsullar ham ichlari titrab
Cho‘ponning bo‘lishishiga qo‘shilib
Past ovozda yolvorish ila
Biroz yana vaqtdan yutganlar
Tog‘ hozirdir
Kecha qamashishlaridan qutulgan
Suruvga shahar bo‘lajakdir
Suruv qushlikda tutajakdir etagin
Tashlangan bog‘larin
Qo‘pol bir qishloqlikka aylangan archa daraxtlarini
Egilgan emanlarini
Ayiq nafasida sarg‘aygan do‘lanalarini
...Echkilar qo‘ylar va sigirlar
Avloddan avlodga yetkazadigan bilgilarni
Kunduzlari tog‘da to‘playdilar
Uylarda qolmaydigandek yozadilar kechalarni
Bular qir papiruslari
Bir she’rning ipak sahifalaridir
Suv tushmagan bir makonda saqlaydilar uni
So‘ngra quyosh chiqqach
U sahifa og‘izlarida
Takror chiqarlar o‘tloqlarga
Mening rangimni Xizr rangini bo‘yashga
Yuzma-yuz bir-biriga yaqinlashgan qo‘ylarni ko‘rasan
Sahifalarini qalb ovozlari ila solishtirgandir ular
Har biri o‘z sahifasini narigisiga o‘qimoqdadir
Unutmaslik uchun bilgilarini

Ba'zan o'zlariga takrorlamoqdadir
Bola suruv endi harakatga tusharkan
Quyosh quvlagan bir yo'lda chopqillab
O'z kichik suruvin katta suruvga qo'shar
Ana shu damda qutular og'irligidan uyning
Qo'rquv ila uyat ila umid ila g'ubor tarqalar
O'z-o'ziga gapirishning yemishi
Bolani shaharga qaytarar
Yanada ustun yanada ulg'aygan va yanada yangi
Bir-da bordir tog'dan suruv-la tushib
Bolani mavsum kabi chaqiradigan
Qora mayizdan yuksalgan
Cho'ponning oyoq changida
Kun og'dirgan
Qo'y echki sigir
Va ko'pakdan
Oyoq ostlarida ezilgan qumursqalardan
Yangi bir shift qurgan
Oqshom soatlari

20

— Yopdingmi yaxshilab toshni
— Tosh o'z-o'zidan yopildi
— U uchqun sochgan nimadir ichkarida
— Ko'zlarimizdir
— Shahar bizning nogoh g'oyib bo'lishimizga nima der ekan

Shahar uylarini kengaytirdi
Bo'yog'ini yangilaydi
O'chog'ini yopadi yangi o'choqlar ochadi
Sut sog'adi
Ko'piklanadi
Sharobning qiyomida yangiliklar
To'ntarishlar qiladi
Va bizni unutar

— Bizni unutmas
Har bek o‘zgarishida
Har a’zo tanlovida
Har bola o‘limida
Har sahifa ochishda
Har kitob nashr qilinishida
Har kitob yoqishida
Har suruv qaytishida
Bizni eslaydi
Har suv qurishida
Har ochlikda
Har vaboda
Har chaqmoq chaqishida
Cherkov ovozin balandlatgan
Ko‘k shovqinida
Marmar yorgan zilzilada
Bizni eslaydi
Har xazina topilishida bizni unutsa-da
Yer ostidan har lavha chiqishida
Bizni eslaydi
Homilalar bizni yanglish his qilar
Tug‘ilgach yaqqol bilar
Bola atrofidagi nur
— Ki uni faqat onalar ko‘rar —
U nur bizdandir buni bilishar
Bolalar fevral oyida
Qorda kezgan bo‘ri izida
Bizni eslashar
Yurakka ingan mix bichimida
— Bizni unutishar
Senat saylovlarida
Dasturxonda emas balki bayramda
Biz qayerdamiz do‘stlar to‘y qayerda
Biz mehmonmiz bayramda
Biroq kun bo‘ladi eslanmaymiz
Monastirda ham

— Ey faqat ko‘z uchqunini payqay olganim do‘st
Xo‘sh bizning u borliq nuqtasi
Ko‘pak qayerda
BARI BIRDAN (bir qo‘rquv bilan):
— Ha ko‘pak qayerda
— Ko‘pak na tashqarida na ichkarida
Qoyaning o‘zidir balki
G‘orimizni borliqdan ayirgan
Qaysardan va Qaysar shahridan ayirgan
Zar parda hujjatning naq o‘zi
Tong yulduzi porlar ekan tashqaridadir
Kun chiqarkan ichkaridadir
Bir ayol tug‘sa tashqaridadir
Bir ota o‘lsa ichkaridadir
Bir urush bo‘lsa ichkaridadir
Dengiz chiqsa tashqaridadir
Cho‘pon cho‘pon ichkaridadir
Suruv suruv tashqaridadir
Bari birdan (qurquv bilan, hadik bilan, jo‘shqinlik bilan,
Azroilni ko‘rgandek, Isrofil surini eshitgandek):
— Xo‘sh, ko‘pak qayerda
— Do‘stlar sizni g‘ira-shiralik uyqusiga chorlayman
Ko‘pak suyakdan qilingan
Ustiga sahifalar yozilgan bir teridir
U topilgan damda biz ham topilamiz
Topilib bilinamiz demakdir
Tengsizmiz demakdir
G‘orimizni qilichlar qo‘riqlaydi demakdir
Shahar pul o‘choq va olov o‘zgaradi
Ichiga bizning manglay yozuvimiz qorishadi demakdir
Kun soatini bizning o‘rnimizga
Tim-tik quradi demakdir
It bir kun bizga
U bo‘z rang junlari bilan
Ho‘l tili bilan
Bir bola ovozini

Eslatgan ovozi bilan
Bolamiz kabi
Ortga qaytadi
Bir kulning ichida yuz yillab turgan
Bichimini qo‘lga kiritib ortga qaytadi
Dengiz qirg‘og‘ida qayiq qurib
Yosh qizlarning nurlarin
tashiydi daryolarga
Va cho‘lda ildamlagan ming tonnalik bir tuya
Kabi bizga bir shaharni ortib qaytadi
Kun chiqqan damda g‘or uzra
Bizdan olingan vaqt qaytib beriladi
Chaynalmagan o‘tloqlardan
Yig‘ib olingan o‘tlar yuzimizga suriladi
Bir qo‘l uzanishi bilan
Kelajak davrlarga zamondosh bo‘lamiz
Uyqumizni eng ulug‘ dars o‘laroq o‘qitadilar bolalarga
Uyqumiz qo‘rquvning narisida
Yangi bir siljish demak taraqqiyotlarga

Uxladilar ovoz chiqarmay shag‘al toshlarda
Quyoshda pishmagan bir tuxum
Ibodatxonalar uchun kesilgan toshlar shaklida
Ko‘kdan kabi dengizdan ham ma’lum kechaning kelishida
So‘lgan ayollarda erigan gulda
Uxladilar uxlab turib tuzatdilar
Yuritdilar inson yuragini
Shaharlar botdi shaharlar chiqdi uxladilar
G‘or og‘zini berkitgan qoya
Tegirmon toshi kabi aylandi yuz yillar davomida
Eng kam kerakli kun yorug‘ini berib ichkariga
Eng muhim hayot uchun kerakli
Bosinqirashlarni supurgan umid uchun kerakli
Tush ko‘rgan bosinqiragan miya uchun kerakli
Qurbon san’atining shahidi qo‘llar uchun kerakli
So‘zni durbin kabi kelajakka qaratgan

Tog‘dek tillar uchun kerakli
Tanlari bir Xizr mehmoni kabi yashil va ol
Uxladilar yoshlikning g‘or mehmonlari

21

Chaqir-chaqir suv qirg‘og‘iga chaqir
Shirin itoatli bir irmoqni eslatgan
Qayiqlarga yarashgan bir sohil parchasiga
Fevral tez o‘tishin istarding
Borilmasligi kerak edi chunki boshqalar bilan
Qorong‘ulik tashiganlar bilan vujudlarida
Chang‘ilar bilan qorli tog‘larga
Martda qish tuzog‘i yechilishida
Kun yorug‘i bilan tog‘lardan
Billur madrasa oynalarini
Aytolmaganlarini aytdirarding nastarinlarga
Mayda
Jiydalarga aprelda
Chaqir u tepa tushsin suv qirg‘og‘iga
Sen unga aytganlaringni
U dengizga aytsin dengiz senga
She’r kechalari
Katta qandolatxonada quloqqa chalinganlar
Shahar sayyohati
Rasmga tushilarkan qo‘lda tutilgan bir piyola suv
— Qo‘ldan chiqib yuzga urilgan gulmohi balig‘i yorug‘ligi
Iso ovozi Maryam avlodi
Va sendagi u mashhur Yahyo aks-sadosi
Ho‘l bir o‘rta asr yo‘lini eslatgan ich ko‘chalar
Kir
Qo‘ldan toshib yuzni o‘yib sochlarni ko‘mirlashtirib o‘tgan o‘yin kiri
Ichingda tashib-da bir navi qutula olmaganing dasht chayoni
Ey, ust qavatlarni titratgan vaqt echki bolasi
Chin farang madaniyat markazi

Chaqir-chaqir u shamol kelsin
Balki ichingda bir shivir topa olasan
Dengizga yuklarsan
U ham bir bahor ochilishida
Qisr ayollarga bag‘ishlar
Va dengiz qirg‘og‘iga tushganingiz
Hech o‘zgarmasin
Chaqir-chaqir oqshomni
Yoshlikda birga kezganing
Tashiganing umidsizlik bilan birga
Chiroqdan hayiqqan
Yorug‘likni hayotning oxiri bilgan
Yotoq kotibi hasharotlariga
Chaqir u yo‘lovchiliklarni
Seni olib borgan qayta olib kelgan poyezdni
Bitmas bir qoya oqimining
Ma’nosin tushuntirganni
U arshdan tushgan
Indamaslikdan
Dudoqlari qurigan qoyalar
Va qizlarning suvlarga urilgan nurlaridan
Sachragan chiziqlarga chanqagan qoyalar
Naqadar yoqtirardi bu suvning
Qumni ostiga to‘shagan bu suvning
Bir baland o‘choq bo‘lgan
Gavdasiga urilishin
Chaqir yuzingdagi dardni
Bahor shudringi tushishi bilan
Har kun hovlisidan
Gul terishni istagan u otani
Sen uchun gulga sabrsizlashgan onani
Onaning sog‘lom kunlarini
Uloqtir-uloqtir dengiz tubiga uloqtir
Gul o‘rniga qo‘lida hujjat bilan kelgan
Hanuz otlarning hididan qutulmagan
Eski nardalardan siniq

Kasalxonalarning pastgi qavatlarin
Qal'a tublarin
Eng ko'p havo istarkan
Havodan uzoqlashtirilgan
Qalb kasallarining
Yo'qsul o'chin
Ularning sevgisin
O'chga aylantirgan yoshlik o'tishin
Butun sevgilarni sen o'zing uchun o'chga aylantirding
Va ustiga katta harflar bilan yozding

BOSHQA JOYDA QO'LLANILMAYDI

Boshqa joyda qo'llanilmaydigan bu dengiz
Ortidan yetaklaganing la'natlarni
Bir kitob varog'iga aylantirishdan
Sen bu suvni tushunmading hali
Obihayotdan afzal ne bor dunyoda
Yer yuzidan yanada katta joy egallar u
Kir yuvin ichida suz nariga
Kez ustida qadim baliqchilar kabi
E etidan qo'sh gavdangga
Chiqar tubidagi durni
Ki u sening yoshlikdagi sevgingdir
Sevgiling seni dardga yetaklagan u nasihatlarni
Sendan uzoqlashtirib o'zin
Bir temirchi kabi urdi tinmay temirin
Qura olding o'zingda va atrofingda
U temirdan o'z Madinangni
Chorla-chorla bu suvga Madina kelsin
Bag'ridagi soatidan bir ovoz yuksalsin
Cho'l o'chsin yo'l tugasin
Xurmo xayolotlari ayon bo'lsin
Tuya shodon bo'lib ilgarilasin

Bir Imrulqays aruzi kabi ilgarilasin
Atrofimiz u mehmonlar bilan to‘lsin
Choy ham xafa qilishi mumkin ularni
Bu yumshoq suv qirg‘oqlari ularni tilga keltirsin
Sen aqlli bola bo‘lib tingla
To‘lib toshib quruqlikdan dengizdan kelgan bilan
Samovar bug‘ida titragan uylar bilan
Dengizdan quruqlikka oqqan ko‘piklarning uzun
oqqushi bilan
Tingla sen erishmasang ham
Bir erishganga erisha olasan
Erishgan bir so‘zing bo‘lmasa ham
Bir erishganning so‘zini eshitasan
Chorlashni bilsang keladi
Sharqni g‘arbni bilgan keladi
Bir o‘limdan keyingi
Tush issig‘idagi sabil kabi
Kun keladi suv qirg‘og‘idagi u maqbara yorishadi
Bursadagi Ulug‘jomening
Eng sokin toshlari ham gapiradi

22

Uyga qaytish kechasi qanday kecha edi
Eshak ustida qo‘shiq aytding
Qishloq ahli ham payqadi sevinching
Yulduzlar baxtli bir dasturxonda
Yuksalib tushgan kumush qoshiqlar edi go‘yo
Yo mehmonxonaning yorug‘ holati
Ammo birdan oldimizga chiqqan
Ichingizni bir anjir yaprog‘i kabi tirnagan
Ukadagi u ko‘z og‘rig‘i
Ona xavotiri
Bolaga boqib chorasiz qotgan
Sizga boqib umid bilan porlagan ko‘zlar
Sizki tabibdan ham yaxshi bir tabib edingiz

Tog‘lardan tushgan ko‘z tabibi edingiz
Xo‘p, necha kun so‘ngra u ko‘z og‘rig‘ini
U yuqoridan tushgan ko‘rish bezgagini
Tuxum isitmasini
Nima bilan kestingiz nima bilan tindirdingiz
Endi uni mendan tinglay olarding
Ammo yillar so‘ngra
U ko‘z og‘rig‘ining asorati kabi kelgan
Bir quloq bir tish og‘rig‘i
Olib ketdi ukani
La’natli bir pari
Yo‘l ko‘rsatmoqda edi yorug‘lik tutmoqda edi go‘yo
Obi hayotning aksi
Quruq bir suv qirg‘og‘iga
Bir ari ini dunyosiga
Anor savdosiga

Dam u bolaligi-ki
Qorli qurbon bayramlarini
Mayiz uzum iftorlarini
Boqqa toshgan uy ovozlarini
Dam dam-ki
Ozodlikka endi erisharsan balki
Ichingdan quyoshga yuksalgan ovoz
Otadir kunduzlari
Oyni uyg‘otgan ovoz onadir kechalari
Qanday baxtiyorsan
Topsang insonlarda
Eslatgan bir qancha chiziq
Kun botmasdan oldingi aka-ukalardagi
Tong otgan paytdagi qushlikdagi
Tushdagi asr paytidagi

Bir baliq ko‘rgach qanday chirpinsa baliqchi qush
Kun botgach bug‘ilgan qush kabi
Chirpinganidek dengiz

Bolasi o‘lgach shunday chirpinar ona
Onasi o‘lgach bir bola shunday chirpinar
Chirpina-chirpina ko‘rarsan balki o‘limdan narisin
Sening kasbing qay bir ma’noda o‘lim kasbi
Buzilgan soatlarni o‘lim bilan tuzatish
O‘lim bilan ochish qurigan dudoqlarni
O‘lim bilan ochish yopilgan ko‘zlarni
O‘lganni o‘lim bilan tiriltirish
O‘lim bilan sog‘ tutish sog‘lom bo‘lganni
O‘limning yorug‘i bilan ko‘rish
Qorong‘u kechada
Zimistondagi
Qora chumolini

23

Na jannat na jahannam na dunyo
Arofman men
Jannat demoqdir mendan biroz ildamlasang
Ortda qoldirganim otash qoyalari
Dunyo jahannamdir
Arof dunyoning jannatga yaqinligi
Dunyo arofdan bu yerga uzangan bir tishdek
Arofni men kezdiraman yer yuzida
Bir daraxt shiviri kabi
Toshlar maymunga tayanadi
Daraxtlar ovoz chiqaradi
Kel tingla bog‘dagi eski osmalarni
Sindir oqshom botgan uzum qadahin
Aylantir harf chiroqlariga
Ov suvlarini ovlangan suvlarni
Yoqilg‘ida yuz-qo‘lning yuvilishidan
Tutaydi buxurdoni shiddat ishchisining
Bir kiyik qornida qonida erir bir qaroqchining o‘qi
Va qaroqchining qonida jo‘sh urar
jandarmlarning yigitligi

Sel olar tog‘dan tushirar bizni
Ustimiz bo‘yalar osh qizili loy bilan
Qaroqchi durbinida ko‘rinamiz ammo
Oramizga yomg‘ir kirar
Qarzdormiz nogoh yog‘gan bu yomg‘irdan
Arslonni itoat ettirgan
Osilganni ho‘l qilgan bu yomg‘irdan
Toshlar yaqinlashgan to‘y dunyosida
Soyani katta qilding sen bo‘yiga
Sharob yerto‘lasiga qaytding
Yoniq bir ozuq bo‘lding ezik chaqmoqlarga
Ona zinadan tushdi yolvorishlar ila
Do‘stning o‘limin eshitgan kimsadek edi endi ota
Yuz chiziqlari chuqur edi zotan yana chuqur bo‘ldi
Oyoq kiyimi chiqarilmasdan kiyildi qayta
Unutildi tamoman qushlik asr payti
— Qushlik qushlik edi biroq asr payti kabi —
Olib ketmoqda u do‘st shubhasiz
Birga bo‘yaganimiz ipliklarni endi demakki
Ketmoqda birөq kim kabi
Zakariyo kabimi yoki Iso kabimi
Ota o‘ylayapti
Yangi bir Dijla qirg‘og‘idan qaytgandek
Sirtida qirlarning ilk irmoq izlari
Bu yurish bir tushunish kabi
Boshning bir devoridan bir devoriga
Qasaba shimolining zuluk bilan chizilgan suvlariga
Chumoli qishloqlariga jin yurtlariga
Xizr ko‘nglidan o‘tishga intilgan shaytonga
Bola va sut deb umid qilingan pari yurti bir buloqqa
Dushanbadan yakshanbaga
Shanbadan jumaga
Uyga qaytilganda
Ichida bir yunon haykali uzangandek
O‘limning chetida g‘ijimlangan yopinchiqlar
Yopinchiqlar nogoh ortar ko‘payar go‘yoki bolalar

Bir ko‘z endi yopilgan bo‘lsa sizga
Sen chiqarding butun bularni
Uydan bir yil uzoqlashgan bir otaning
Kelishi bilan chiqib qasabaning
Narigi tomoniga borishidan
Tush ta’biri ustaliging shunday boshlandi zotan
Bir tog‘ yarata olasan dashtdan
Gul to‘play olasan chipqondan
Anor binafsha chaynay olasan bir qurbondan
Bir azizni qutqarasan bir Rim yong‘inidan
Bir machit yarata olasan bir cherkovdan
Sen qanday dengizlar ko‘rding
Quyoshning botishida
Kesilgan damdagi bir qurbon kabi
Tipirchilagan
Va qarag‘aylarga urilgan yaralangan
Oyna parchalagan qarg‘alardan
Bir qo‘ng‘iroq chalinmoqda
Butun eski ko‘priklarida Ovrupaning
Bir bayroq qayg‘ulanmoqda
Sanchig‘idan dunyoning
Mardlari endi-endi joylashmoqda joylariga A’rofning
Nurlari yana bir bor porlamoqda jannatdagi da’voning

24

Dasturxon dasturxonga arziydi dasturxon dasturxonga
Dasturxon dasturxonga boqar yaqinlashar
dasturxon dasturxonga
Shu tarzda ko‘kdan dasturxon tushar tog‘ga
Shoirlikdan keyin boshlangan oziqlar bilan
Sharob deb atalsa-da sharobni oshgan sharob bilan
Suvsiz tuproqsiz va ildizsiz o‘sgan bug‘doydan
Pishirilgan non bilan to‘ldirilgan dasturxon
Qonsiz va etsiz dasturxon
Na mushuk na it dasturxon der bunga

Na hind na rum dasturxon der bunga
Xizr oviga chiqqan obi hayotga
Obi hayot bosinqirashiga aldangan inson
dasturxon der bunga
Sen ham kunlik dasturxonni bir necha bor
Eng ko‘p bolalikda u kuz ro‘zalarining
Iftor damlarida deb o‘ylading bunday dasturxonni
Sharqdan kelgan nog‘oralar bilan saharlikda
Dasturxonni shunday bir dasturxon deb bilding
Uyning soati ko‘rsatdi doim bunday dasturxonni
Asr payti Qur’onidan keyingi dasturxonlarga
Ko‘shdi vaqtidan bir vaqt balki
Qonga aylangan sharob emas
Duoga aylangan bir sharob ichildi u dasturxonda
Tan bo‘lgan bir non bo‘lagi emas
Ko‘ngil ozug‘i bo‘lgan non yeyildi u dasturxonda
Zaytun esa ham yorug‘lik berdi ham dasturxon fayzi
Idris Ishoq va Shit ozug‘i
Ilyos soyasi
Bir Yusuf oqshomi
Oldinda obi hayot to‘ldirilishi uchun
Bunyaminning yukiga saqlangan
Kumush suv qadahi
Yoqubning qo‘y po‘sti
Ibrohim atlasi
Qo‘riqchi esa Musoning hassasi
Mana shunday tadbirda ochildi ko‘k dasturxoni
Bu bir motam edimi to‘y edimi
Katta shahardan o‘tgan
Qasaba halqasi
Tugamoqda demoq edi bir tog‘ davri
U yerda tushuntirildi yarim kecha
Bir ich chorlovi kabi dasturxondan
Va Isodan yuksalgan
Havoriyunda aks sado bergan
Kelajakning Makka da’vati

Kelajak davrlarning machitlari qurilsin deya
Ular yiqmoqda edilar mehrobida
Budparast otashlar yoqilgan
O‘ng jabhasi joyidan qo‘zg‘algan ibodatxona
U yerda bayon etildi Jabroilning varoqlari
U yerda qo‘shildilar Badr jangiga
Yashil bayroq tutdilar
Qadaldi bayroq
U yerda ham hilpiradi olqishlandi
Xandak jangida
Qoyalarning uchqunlarida
Yonib-so‘ngani kabi
Istanbul va Rimning sharpalari
Va oldlarida
Yashil bayroqli sulton tug‘lari
Yeri talangan
Arshi kiyingan askar
Chaqmoq bilan qulagan buqa kabi
Yerga to‘shalgan ko‘rfaz
So‘ngra “ayrilish” nutqida
Jim qoldi Iso
Jim qoldi Isoda har havoriy
Jim qoldi 120 ming sahobiy
Jim qoldi vaqt jim qoldi obi hayot
Suv sundilar yarali sahobaga
To‘xtadi maydon chumolilari
Jim qoldi arsh ovozi
To‘xtadi tuyalar ustida quyosh
Xurmolar bir vodiydan bir vodiyga borib keldilar
Va to‘xtadi varoqlari
To‘rt kitob to‘xtadi va tingladi
“Shohid bo‘l yo Rab!”
Ovozi qoldi faqat o‘rtada
Ular ha o‘sha dasturxonda
Biz kabi shohid bo‘ldilar

25

Shomdamiz
Mavlono va Masnaviy
Muhiddin va Yosin
Shams va Fusus
Shams qanday o‘zgartirdi
Obi hayot sardobalaridan o‘tkazib
Mavlono Jaloliddinni
Va Yosin bir yigit ko‘rinishida
Og‘ir o‘lim kasalligida
Qanday davoladi Ibn-i Arabiyni
Makka tomida Fusus va
Futuhot sahifalarin varoqlagan
Quyosh yomg‘ir va shamolning yordamchisi kim edi

Shom bozorlarida Shamsga duch kelmadimi
Yo‘lning bir chekkasida bu narigi chekkasida u
Shams bir savol edi
Bir javob edi Mavlono
O‘xshashardi bir joyda
Kishining o‘zi bilan qilgan suhbatga
Muhiddinning Ibnurrushdga degani kabi
Bir ha bir yo‘q demadi Mavlono
Doim ha dedi Shamsga bu suhbatda

Shom bozorlarida Mavlono
Izlab turdi Shamsni
Bir yo‘qotib bir topdi Shamsni
Shams bir obi hayot edi Unga

Mavlono Shomda Muhiddin bilan gaplashdi
Undan Shamsni so‘radi
Muhiddin qabrini ochib
Sabr kitobidan bir bet varoqlab
Shamsning o‘zini ko‘rsatdi

So‘ngra horg‘in bir shom tush paytida
Issiqda chigirtkalar qovrularkan
Cho‘kkaladi bir suv chetida
Xizrni ko‘rdi ol yashilni ko‘rdi suvda
Shamsni ko‘rdi va topdi o‘zini

Shom bozorlarida Shams olindi Mavlonodan
Unga Masnaviy berildi

Ko‘kdan bir burgut uchib o‘tsa
Va yerga tushsa soyasi
Bu ajabo Shamsning soyasimi

Yer ostidan kelsa
Suvning sharillagan ovozi
Bu ovoz Shamsning ovozimi

Cho‘llarda qumda bor bo‘lsa
Qaynoq bir oyoq izi
Bu iz Shamsning izimi
Mana shunday tuzdi Masnaviyni
Shamsning ayrilig‘i
Dudoqlarga teginib-da
Og‘izga qo‘nolmagan
Bir obi hayot kabi

26

Bag‘doddamiz
Aylanib turibmiz yirtqich qushlar kabi
Atrofida bir dor og‘ochining
Qo‘pora olamizmi ajabo
Etidan chillali etidan
Qiymalangan jigaridan bir parcha
Xalloj-i Mansurning
Qur’on o‘qigan yuragidan

Bir nur ololamizmi
Erigan ko‘zlaridan
Bir nigoh kecharmi ichimizdan
Bir tosh otib
Bir gul ololamizmi
Qo‘lida tuggan
Kunlik nonini yarimlatib yegan
Odam ham kelgan edi u yerga
Yomg‘irda qolgan bir odam ham kelgan edi u yerga
Olim sehrgar suvchilar
Qul savdogarlari qo‘ng‘iroq ustalari ham
Sulton sochini taragan ayol
Eski bir xazina izlovchisi
Matematika kashshofi
Fusus o‘quvchisi
Shayx G‘olib xabarchisi
Xazinador va kutubxona xodimi
Barcha-barchamiz o‘sha yerda edik
Bu paxtadan yengil insonni tortolmagan
Dor og‘ochiga yordamchi edik
Yanada barchamizdan og‘ir keldi
Xalloj-i Mansurning vujudi

Dijla qirg‘og‘ida otliqlar ko‘rdik
Kiyimlari oldingi davrlarning kiyimlari
Barchamiz bo‘shagan edik
Oqshom uyga qaytgan ishchilar kabi
Har tomonimizdan tilla oqmoqda edi go‘yo
Quyosh so‘lmoqda edi tug‘adigan sigirdek chiqdi

Ochildi Muhiddinning qabri
“Hayiqma Mansur, menman” dedi
Bir dengiz qavardi go‘yo...
Kimdadir bir parchasi qoldi Mansurning
Kimdadir dor og‘ochining izi

27

Mursiyada Tunisda Misrda
Quddusda Makkada Qo‘nyoda
Malatyada Shomdamiz
Yo‘llarni bir arqon kabi
Oyog‘iga o‘ragan Muhiddinmiz
Quyosh mudom ortda biz olddamiz
Tinmay ochilgan bir qabrmiz
Surlar uchun fido bo‘lgan jasadmiz
Devorlarga ko‘chgan tirikmiz
Boshliq yetakchi poytaxtida
Bir dor og‘ochi borki
Uning yonidan o‘tarkan
Bir damda
Mansur bo‘lib osilgan Muhiddinmiz
Xizr bo‘lib suvda
Onado‘lida
Bir ovoz eshitib
Aylanib turgan
Xizrni ko‘rib Shams degan
Mavlono bo‘lgan
Bir darvishmiz
O‘zini muqaddas varoqlar kabi
Uchadigan deb bilgan emasmizmi
Kitob toshlarini eritgan
O‘rniga minora xayoli
Qubba moyasi qo‘shgan
Xizr xantalidan malham tayyorlagan
tutqanoqlarga
Vaqtning telbalashganlarini
Qo‘ng‘iroqlarning tovushidan
Aflotun sehrining aksidan qutqargan
Kitoblarini Ka’ba uzugiga aylantirgan
Bir shahar qurgan tong yelidan
Bir taraqqiyot sajdadan

Kutubxonalarni malaklantirgan
Muhiddin-i Arabiy emasmizmi

Sharq anqosi
G‘arb anqosi
Sh harfi bilan kelishgan S tovushi
Yangi bir vaqt alfaviti
Xizrning so‘z nazoratchisi
Parol bog‘lovchisi
Kelasi zamon fe’llarining mutaxassisi
Soatning ma’nosi
Ayasofiya shalolasi
Mana sizga bir necha ko‘rinish
Oq-qora dunyosidan
Muhiddinning

28

Endi esa ehromlar o‘lkasidamiz
O‘ngda Musoning bayrog‘i tikilgan
So‘lda Fir’avnning
Vaqt sehr-jodu vaqti
Bir sehrning narigi jodudan ayrilish vaqti
Istirohat oqshomi
Dengizni bir yugurishda otga aylantirish ishlovi
Oq qo‘lning qo‘yindan chiqish vaqti
O‘lik daraxtning ilonga aylanish vaqti
Ilonga muqaddas vazifa yuklangan soat
Ki ilon shunday qilib eski gunohini yuvardi
Ehromlarning o‘lim soati
Ko‘z davri
Yahyo soati emas Iso soati emas
Muso soati
Yer ustida
Chang ichra qilinadigan bir narsa bor
Bir o‘zgarish

Bir o‘zgarish soati xullas
Inson topinuvchilaridan
Misr ayollaridan
Ajabtovur tilla bilakuzuklari
Qayta berilmaydigandek
Qarz olingan soat
Fir’avn oyog‘i ostidan
Sakradi bir qora mushuk
Va u va uning xalqi
Buni yomon alomat bildi

Yarim kecha Nilda
Fosfordan bir timsoh nola chekdi
Fir’avn va xalqi
Buni yomon alomat bildi

Bir ehrom quladi
Misr bozorlaridan
O‘tgan sog‘ bir chinlik aqldan ozdi
Fir’avn va xalqi
Buni yomon alomat deb hisobladi

Ko‘kda vaqtidan oldin kulgan
Bir to‘linoy paydo bo‘ldi
Isroil
O‘ziga endi endi kelgan Isroil
Buni omad deb bildi

Shahar xo‘rozlari
Butun bir kun
Qichqirib turdi tinmay
Fir’avn va xalqi
Buni omadsizlik deb bildi

Bir kema botdi O‘rtayer dengizida
Fir’avn va xalqi buni omadsizlik deb bildi

Ortga qaytmadi lochin ovchisi
Qirolichaning ordonasi
Fir'avn va xalqi
Buni omadsizlik deb bildi

Nil uzra uchdi
Uchoq kattaligida yashil kapalaklar
Qizil dengiz yashil irmoq bo'ldi bir tush payti
Endi-endi o'ziga kelgan Isroil
Buni bir omad xushxabar bildi

Bir bola tug'ildi
Va tug'ilishi bilanoq kuldi
Endi-endi tug'ilgan Isroil
Buni bir omad bildi

Bir olim yarim tunda
Anjir yaproqlari ostida
Ibrohimdan qolgan
Bir varoqni qo'lga oldi
Va oyoqqa turgan
Muso qamchisi bilan tirilgan Isroil
Qabrini yirtgan Isroil
Xirmoniga burkangan Yusuf urug'i
Buni ham so'nggi va xushxabar bildi

Muso bilan afsungarlar yuzma-yuz keldi
Isroil va Misr yuzma-yuz keldi
Qizil dengiz bir jaylon terisi kabi kerildi
Qurigan bo'lsa-da daraxtda
Shunday bir jon bor ediki
U jonni jonlantirishni
Musoning qo'li bildi
Va daraxt simobni yengdi
Ishonch yengdi bilgini

29

Eng qiyin jangda bo‘ldimmi u kecha
Ikki dunyo jangi undan bir yaproq edi go‘yo
Dastlab ona o‘limini qo‘llab keldi ustimga
So‘ngra aqli noqis bir uka yetagida
Na ona ona edi na uka uka edi chindan
Ona va qardosh holida
Bilmadim qaysi o‘lkadan yo‘llangan ikki ishora
O‘z xayolidan ikki parcha edi balkida
Biroq men ishonmadim bu ro‘yolarga
Taslim bo‘lmadim baribir

So‘ngra bir xartum bo‘lib meni tortdi tortgan esa-da
Qulamadim etning o‘tli mahshariga
Qo‘llarim uzayiboq qoldi palmalarga
Boshim urildi bir-bir teraklarga
Yuksaldim jin to‘zonida aylana-aylana
Surgalandim eng vahshiy dengizlardan timsoh
xandaqlariga
Xayolimdan kechmadi biroq
Bayroq tushirish
Taslim bo‘lish aslo
So‘ngra qaytdim tag‘in asl joyimga

So‘ngra bir tirnoq qatroni kabi oqdi atrofimda
Eridi qo‘l-oyoqlarim eng kuchli kislotada
Oynaga burib gavdamni-da
O‘qishga harakat qildi eng mudhish shubhalarimni
Biroq bir nuqta bor-ki
Yuragimning yuragimning yuragimning yuragida
U bilan o‘rdim o‘zimni qayta
Endi menga ayta olasan
Qayta o‘z-o‘zin o‘rgan deya
Taslim bo‘lish biroq
Sira kelmadi xayolga
So‘ngra tosh bo‘ldi tuproq bo‘ldi bo‘ldi ma’dan

Olqishlar bilan keldi ezilib-to‘zib yonimda
Olovlar ulkan olovlar yoqdi men uchun tepalarda
Dengizni itoatkor suv kabi oqitdi oldimda
Kecha va kunduz
Oydan va quyoshdan
Va oqshomdan va tushdan
Dasturxonlar bezadi
O‘tkir ichki tayyorladi asrdan
Saharni sundi oddiy qahva kabi
Nomimga yodgorliklar o‘rnatdi shaharlardan
Sayqallangan marmardan
Aldansam balki shunga aldanardim
Biroq unga tosh yog‘dirdim
To‘rt burchak va to‘rt tomondan
Ortimda va yonimda
Kuchli qal’alar bor edi suralardan
Uning noxush ovozin aks ettirmasdan
O‘ziga qayta yo‘llagan

Shunday es-hushdan ayiruvchi ediki yuzi
Hozir haydalgan deya olardingiz Jannatdan
Patin yoygan tovusdan
Teri tashlagan ilondan
Tug‘ilgandek sharqdan
Bir to‘qnashish insondan
Bir terslik malakdan
Insonni ilg‘ab yiqar
Bir ovoz kabi dengizdan
Boqishdir arslondan
Idrok etishdir o‘rmondan
Sovuq bir kechaning
Yorug‘ yuzli oyidan
Ne timsollar timsollar
Ne quroqlar ne tikilganlar
Ne suluklar va sardobalar
Olib keldi bir shamanning ko‘pikli olamidan

Yanada bir tiriklik
Topolmadim bularda men
Olni qizilni ko‘rdim unda biroq
Qorani va sariqni ko‘rdim
Ko‘rmadim unda asar
Moviydan oqdan yashildan
Shu tarz qutuldim birdan
Uning tartiblaridan
Bolaligimda o‘rgatgan edi onam
Aldanishga qarshi turishni
Ko‘prikdan qulamaslikni
Shiftlarda osonlik bilan kezishni
Ilon zahrini
Yorilmagan lablar bilan emishni
Talonchilikda talanmaslikni
Uchoqdan qulasa ham o‘lmaslikni
Sehr farqiga borishni turfa bilgilardan
Bir so‘z bilan
Ulug‘ bir so‘z bilan
Unli ism bilan

Ilon bo‘lib atrofimda aylanib turdi u kecha
Puflab oyna ustasi kabi karavot temiridan
Yuzganim dengizni oshishim uchun
Qayiqlar ko‘z qisardi joynamozdan
Kechani chaqirib derazadan
Qurumni to‘plab mo‘ridan
Qo‘rquvlarimdan o‘rgan bo‘lsa-da ulug‘ bir kafan
Yotoqni qabr qilib bir o‘lik kabi turdim
Yetar bir vaqtning doimiy ovida
Tirildim bir o‘rnak kabi mahshardan
Tushundi menda meni oshgan qudratni
Chiqib ketdi eshikdan
Bir tahsildor kabi
Uzoq-uzoq chidab-da
Qo‘li bo‘sh qaytgan

30

Mis manqallarda
Oshxonalarda
Qizargan vaqtni tushuntir
Bir ulug‘ machit hovlisida
Soyasida quyosh soatining salqinlagani
Tush payti issig‘ida
Jamoa namozini kutgan
Bir ari ini kabi vizillagan
Jang xotiralari bilan
Yozgi hovliga yo‘l olgan uy eshagi kabi
Bolalar bilan o‘ralgan
Ichidagini hozirdan buza boshlagan
Bir tobutning vaqtini tushuntir
Tobut emas bir qabila chodiridir balki
Qum olib keling ozod cho‘llar qumini
Solishtirish uchun bardoshini
Bosh tomonida turgan bir shohin
Ko‘kka ochiq turishi bilan izohlasin
Olma qizarish soatining
Ov chorlovini
Bir xurjin osing oyoq uchiga
Bu ham bo‘shligi bilan chumoli chinqirig‘i bilan
Anglatsin bizga
Uzoq o‘lkalarga qaratilgan
U sayohat to‘qnashuvini
Onaning huzursiz tayyorligini
Dengiz qirg‘og‘ida turgandek
Boqqan bolalarning
Qalb urishini
So‘nggi ichilgan ertalabki qahvasiga
Tushgan so‘roqli ot ko‘zlarini
Ayollar tomonidan
Sirli ochtirilgan
Elaklar-la

Lo‘li follarini
Va bir ro‘mol ustida
Halabda
U keksa savdogarning armug‘oni
Tog‘larda qarshi qo‘yilish uchun
Shimol yellariga
Savdo-sotiqdan so‘ngra
Do‘konning xira yorug‘ida
Aytilgan tog‘ hikoyalarining
Ta’siri ila oralangan armug‘on dami
Ey shimol savollari
Ey janub javoblari
Ey g‘arb akslari
Ey sharq sanchiqlari
Ayon eting Urfa
Nizip Belejik Jizrada
Ulkan Dijla qirg‘og‘ida
Yoz kechalari
Oldinga borilmas
Va ortga qaytilmas
Bir sevgi bekatida
Pastqam tomlarda
Nogoh porlagan
Bir tunuka benzini
Bir uydan qochgan
Ichida sir tutgan ism bilan birga
Bir qizning so‘nggi orzusini
Tomlardan tomlarga yuguriladi
Oyparast kabi tilga olinadi
Baqiriladi dahshatli tush to‘sig‘idan
Oshib o‘tilar qon da’volarining sim to‘rlaridan
Dala janjallaridan
Suvlarning bo‘lishilmasligidan
Oshib o‘tilar ham biroq
Borib bo‘lmas olovlarning narisida
U yosh qizning olovda

Ishqning boqiy geometriyasi
Kesilgan so‘nggi ko‘rinishiga
Yillar so‘ngra bir kun
Bir bahor kechasi
Ochar asl yoshlik sandiqlarini
Sochlari dard bilan oqargan ona
Bir janubiy-sharqiylik ayol
Da’vosiz xotirani
Birinchi jahon urushining
Duch kelgan bir qiz kiyimiga
Artar obi-hayotdan ari
Ko‘z yoshlarini
Anglat-anglat bu ko‘zyoshlarini anglat
Bir gul kabi ochilgan
Har bolada
Vaqti kelgach
Sharq chipqonlarini
G‘azabga to‘lgan ota ovozini
Anjir daraxtlarini titratgan
Kuz qushlarining chopqillashlarini
Qo‘shni ellardan kelgan
Unli mehmonlar uchun yoqilgan
Hovlini yoritgan lyuks chiroqlarini
Bir tuman quzg‘uni o‘laroq
G‘arbdan kelib shaharlarimizga qo‘ngan
Zavodlarni

31

Oyning shitrlashiga yeldilar
Oyoqning zafarini qutlarkan
Tilla parchasi shag‘allar
Ilk bolasini tug‘gan
Bir ayoldan yanada ko‘p ol tutgan edilar

Oqshom sutin sog‘ib ayollar
Pastqam tom chekkasida to‘plandilar

Shitirlamoqda edi eman yaproqlari
Tomizilgan edi hali endi
Uyquning ilk ayozida bolalar
Ular ham shovqindan titradilar

Oy zilzila ishorasi edi u kecha
Kutilgan bir zilzila xurmolar ustida

Shahar qo'noqlari nazoratchi bo'ldi
Ulug'lardan biri so'zchi bo'ldi
Bizga oyni bo'l dedilar
Oyni bo'l ishontir bizni dedilar

Birining qilichi mash'ala kabi
Yondi kecha

Biri bir Rim senatori kabi
Burkangan edi xirmoniga
Biri cho'lga burilgandi
Cho'l uzaygan bir yoshlik edi

Yangi bir she'rga tashna bo'lgandek
Tuyalar ham oyga boqmoqda edilar
Oy ular uchun ham
Yangi bir aruz edi bu jamoada
Bizga oyni bo'l dedilar
Oyni bo'l parchala bizni ishontir dedilar

Oyni bo'l parchala dunyo bo'ylab yoyaylik
Sening yangi bayrog'ingni
Rimga bu gal biz o't qo'yaylik
Xalijni qurshab olaylik
Zanjir uzib qul qutqaraylik
Cho'l otini ummon tomon suraylik

Arabning oyog'ini
Buyuk dengizlarda yuvdiraylik

Bizni vaqtga shivirlaganni
Biz dudoqlarimiz bilan emas
Yuraklarimiz bilan shivirlaylik

Ey oy bo‘lin ey to‘linoy bo‘lin
Sharqdan g‘arbdan
Mudom ko‘rin
Senga aytganlarim anglagan bo‘lsang
Anglagan bo‘lsang nedir yerdagi bu mojaro
Bizni eng chuqur dengiz tubi
Yosunlari kabi
Gir aylantirgan
Bu mojaro
Ne ekanin anglagan bo‘lsang
Bo‘lin

Bo‘l oyni qulataylik oy va Uy ichidagi binolarni
Otalardan meros bisotlarni
Tozalaylik oq ohakni
Aylantiraylik uzumni uzum hududiga
Qonni qon hududiga
Ona deylik opa singil deylik ayollarga
Yuzda yuz tutaylik foizni
Ko‘mmaylik tuproqqa
Borligidan uyalganimiz qiz bolani
Bo‘l oyni qutqar tutqanoqlarni
Oy urganlarni

Bir tustovuq
Kabi qo‘lim senga qaytsa
Oy bo‘lin
Bir gulning
Olovdan o‘tishida
Ne tashiganini qalbida
Esla bo‘lin
O‘choqlarning motamini aks ettir

Otasiz qolgan bolalar uchun
Oy bo‘lin
Qo‘ydan ayrilgan qo‘zilar uchun
Bahorda
Tangri ishqi uchun bo‘lin

Bizga oyni bo‘l dedilar
Oyni bo‘l bizni ishontir dedilar

Oyni yerda o‘lchagan
Afsungarlardan
Bir durbin tog‘i qurmasdan
Oy ayrilar
Oy oqar
Anjir yaprog‘idagi sut kabi
Ikki qo‘limizga

Oy jang ko‘ylagidir
Yirtilar qilichimiz uchidagi
Tezlik g‘uboridan

Oy yoyilar
Tug‘ilishimizning sharqiga

Oy bir tilak suyagi
Sinar ikki barmog‘imiz orasida
Bu ziyofatda

Oy bir yoydir
O‘rgimchak to‘ri kabi ipakdan
Qular bir qush tuynugidan
Yo‘qsulga un maydalagan
Qush patiday shokilali tegirmon
Bo‘lgan quchog‘imizga

Oy yangi tug‘ilgan
O‘lik onali

Bir bola kabi
Topshirilgandir bizga

Biz o‘limdan
Va o‘tdan aritdik
Oy egallagaydir
O‘rnimizni

Oydan
Buralib buralib kelgan
Bir yumshoq mushtdir
Yomg‘ir sizga

Oyni
Cherkov shiftidan ko‘zlagan
Gaplashmay gaplashmay unutgan tildan
Nari
Bir ovoz ko‘zlagan
Ovozimizni tinglagan ufqda
Rohiblar anglar
Biroz aniq-noaniq
Yozning ilk oylarida
Tunlari yetilgan oyda
Giloslar bilar biroz

Oy bir otning toyida to‘yida

Oyni bo‘l oyni parchala dedilar
Oyni bo‘l bizni ishontir dedilar
Oyni bo‘lish uchun yetar bir boqishimiz
Bir qo‘l uzatishimiz
Bir so‘z aytishimiz
Oyni yuragimizda jonlantirishimiz
Aksida aks etishimiz suvda
O‘limni eslashimiz oy nurida
Xizr bilan halollashishimiz

Bir obi hayot mahtobida
Bir dengizga erishishimiz

Oy bo‘lindi bir qasabada
Yuridik tepaliklarda
Kitob o‘qidik oy yorug‘ida
Onalar so‘nggi ovqat izini yuvishda
Bolalar kunduz
Qoldirganini izlarkan daraxtlarda
Quyosh hali botishda
Bir kun yana so‘lishda
Haykallar yaproq-yaproq qurishda

Oy bir iftor kabi uzum shingilida
Kezgan bir me’mor marmar bir minbarda
Aylana-aylana tushgan
Bir minoradan
Oyning bo‘linishidan tug‘ilgan Elhamro
Oy bir zaytun shoxi
Qurtubada
Misrda nurli bir xurmo

Shunday bir ichkilik ichildiki
Singan oy qadahida
Ostimizdagi otlar
Nafas oldilar
Osiyo sharqida
Afrika Ovrupa g‘arbida

Qurigan shaharlar bor
Xizr
Oy bo‘linishidan to‘kilgan
Ustunlar tashir ularga
Va u shaharlar
Bir oqshom
Yosharar

Og‘rigan ko‘zlarga
Oyning changi suriladi

Sutdan qolgan
Po‘rsiq ona
Oyning parchalanishidagi
Issiqlik bilan
Qaytar ilk ish kuniga
Janglarda Qur’on o‘qiganlar
Oyni parchalarga bo‘ladilar
Ikki oy parchasidan
Tushar qo‘shinlar tushar askar

Cho‘pon bor
Qoyalarga o‘tirar
Qo‘zilarga tekkan tayog‘i bilan
Oyni bo‘lar
Oy bo‘linar
Ochilarkan gullar

Oyni
Bu dunyoning yashili
Ikkiga bo‘lar
Narigi dunyoning
Oqi

Biz oyni bo‘lsak
Oy bo‘yiga bo‘linadi demakdir

Oy
To‘lqinli bir suvda
Qanday sinsa
Bizning
Obi hayot bulog‘i
Qo‘limizda ham
Shunday
Bo‘linadi

Oy bo‘lindi kechki sayrimiz kabi
Yorilmaslik uchun uringan anorchalik
ham bardosh berolmadi
So‘lida o‘lgan bola Xirasima Nagasaki
O‘ngida bir Jabroil kapalagi
Qur’on o‘rgan pilla qurti
Shaharlarga yaylovlarga
Sano sadolariga azaldan ko‘nikkan tog‘larga
Sirtida bir koinot tashigan
Sadaf tanli otlarga
Oy ko‘pigi otlarga
Inson ufqida oqargan
Yangi orolga

Kecha uyga qaytilarkan
Kavsardan
Obi hayotdan
Piyola piyola ichgandek
Har ko‘rgan yorilgan oyni
Mast edi
Yarali edi
Yarim yarimga
Chin yurt muddaosidan

Butun bular
Doim tilsim dedilar
Oy bo‘lindi
Bu ham bir tilsim dedilar
Kir yotoq tilsimdir
Qisqarib stolga otilgan
Haki ko‘ylak tilsimdir
G‘arb sharqqa kun egriligida
Po‘latning yuksak o‘chog‘ida oqargan bir tilsimdir
Oqargan kun tilsimdir

Eshikni taqqilatishadi oy deb
Derazaning oynasin kesdi

Bir Xizr oqshomining olmasi
Bola va singil ichkarida
Bir kuz kabi
Bir kuz bog‘i kabi
Buzildi qalam
Qog‘oz parchalari otildi bir yodgorlikka
Yo‘lovchining jo‘shishida
Bekorga hukm qilingan
Bir yo‘lning chorrahasida

Yoq yulduzlaringni oyingni ey qutlug‘ kecha
Bir qurbon kabi qayta boshlash kerak ishga

32

Yaqinlashtir qiyomatni
Bu yerda bir ayol o‘lmoqda
Uzoqlashtir qiyomatni
Bu yerda bir ayol o‘lmoqda
Jon bermoqda Galata minorasi
Bu yerda bir ayol o‘lmoqda

Ishga yaramas bo‘ldi ko‘krak quvuri
Nega dezinfeksiya qiladilar krovatlarni
O‘liklarga maxsus
Slavyan cherkovlarini eslatgan
Kasalxonalarda
Suv bir bezakdir ko‘zalarda
Iyun jirkanch bir mavsum bu yerlarda
Bu yillarda
Bir ayol o‘lmoqda

Tosh otmang dengizga
Toshingizni so‘ngra
Qishda qaytib beradi sizga
Yurak kasallarini

Chiqaring eng yuksaklarga
Olib keling og‘izlariga
Eng toza havoni aylantira-aylantira
Muzqaymoq berar kabi bolalarga
Bering o‘lgan u keksa ayollarga

Yaqinlashtir qiyomatni
Bu yerda bir ayol o‘lmoqda
Eslab bolaligingdagi
Anjirlarning yonida turgan onani
Manglay yozuvi o‘yilgan
Hovlili o‘choq toshlarini
Yuvilgan kiyimlarni darhol quritgan quyoshni
Oila ahlining toliqishlarida
Kir kiyim yutgan sigirlarni
Ko‘pincha bir ayol qo‘lida qolar yarmi ko‘ylakning
Sigirning qursog‘ida rang bermoqdadir yarmi
Inson kiyimi yegan sigir
Ichiga inson hidini singdirgan cho‘pon ahli
Nimani o‘ylmoqda deysan

Qo‘y bu shubha-yu tushunchalarni
Yaqinlashtir qiyomatni
Uzoqlashtir qiyomatni
Bu kecha
Ko‘kka chiqish mo‘jizasi
Me’roj kechasi
Yo‘q Makka ko‘chalarida
Shitirlagan biror bir tovush
Endi paytidir
Jinlarning dunyo uzra
Qur’on tinglashi
Yaqinlashsalar yonishlari
Uzoqlashsalar muzlashlari
Bir ins va jins qiyomati
Suvlarning kecha porlash soati

Chig‘anoqlarning ochilish payti
Yosh ayollarda sut ortish mavsumi

Yaqinlashtir qiyomatni
Uzoqlashtir qiyomatni
Bu kecha
Meroj kechasi

Uch kishi borib sharqda turdi
O‘rnatdi yashil ustunlar
Mash’alalar yoqdilar
Ko‘z bo‘ldilar ko‘rdilar
Quloq bo‘lib tingladilar
Shuur bo‘lib bildilar

Baxtli Arabiston tuprog‘ida
Yuksalarkan saharda bir tuproq hidi
Ki zotli tuyalardir uning ilk mukkasidan ketgani
Shom bilan Makka orasida
Suv sarob xurmo va olov orasida
Yo‘l olgan shafaq karvonlari
Bilarmidi
Bir ko‘k sayyohining ko‘zlaganini
Ortda qoldirgan izlarini
Qo‘noqlagan qo‘noqlarini
Yegan ovqatlarini
Savdo-sotiqlarini
Qullarini
Chag‘alaylar ham ucharkan
Yaxshi biladi dengiz tubini

Payg‘ambarlar ham
Bir dengiz ovchisi emasmidi

Quddusda
Tayyorlandi qoya
Yerdan yuksalish uchun bir parcha

Otga mingan suvoriyga
Ilk tayanch va ilk qurbon
Shahid ketishiga qasaba toshlarining qo‘shilishi

Iso ham kelgan edi
Ortida fosfor chizig‘i
Muso ham kelgan edi
Atrofi olovli chambar edi
Zaytun edi o‘ngi Quddusning
So‘li vulqon edi
Yusuf ham kelgan edi
O‘ng tomonida Bunyamin edi
Sulaymon ham kelgan edi
Kelishini qadim bir chumoli ma’lum qilgan edi
Dovud ham kelgan edi
Aks etgandi
Baland bir temir sadosi bilan
Masjid-i Aqsoda
Oyoq tovushi
Ayub ham kelgan edi
Quddus ko‘rkamlashgan edi
Lut ham kelgan edi
Tuz deb baqirgan edi
Havoda bulut
Solih ko‘k shovqinini —
Xabarchi yo‘llagandi
Zulkuful edi bostirgan
Quddus kechasiga
Yer sevgisin rangi misoli
Yashil kapalaklarni

Jomiyning oldida ortida
Malaklar bor edi kumush daftarli
Kumush qalamli
Payg‘ambar imom edi
Qildilar namoz

Malaklar va payg‘ambarlar bilan
Me’roj kechasi
Ko‘rshapalaksiz bir kecha edi
Yaqinlashtir qiyomatni
Uzoqlashtir pushmonlikni
Uzayotir soatni
Bu kecha
Me’roj kechasi

So‘ngra hammasi chekindi o‘z o‘rniga
Bir cho‘l oldida
Yolg‘iz qolgan payg‘ambar edi
Naq umidsizlik payti edi go‘yo
Ismoilning ustiga aylangan pichoq soati
Shisning etagi ko‘ringani
Saqlangan zaytun ichida
Zakaryoning so‘z ro‘zasi
Foydasiz qolgan vaqt edi deysan
Birdan ko‘rindi Buroq

Buroq oldi va ketdi payg‘ambarni
Chaqmoq tortgan paratoner[1] kabi
Bu yurish titratmoqda edi Jabroilni
Hayratga solgandi u vahiy mardini
Eritmoqda edi so‘zlarni
Emmoqda edi bahor boshoqlaridagi
Sado sutini ko‘kning shiddatli chigirtkalari
Yolg‘iz sabr boshqarmoqda edi tadbirni
Shiddat bilan o‘tmoqda edi ko‘z oldidan
Panoramali Iso Muso hujjatlari

So‘ngra bir bo‘shliqqa borildi
Tez tugagandi Buroqning soati

Buroq xamirdan sug‘urilgan qildek sug‘urildi
Jabroil tag‘in bir-ikki odim otdi so‘ngra ortga chekindi

[1] Chaqmoq tayoqchasi

Bardosh ila yengdi bu otash o‘tida yonishni
Chunki yuksalmoqda edi qarshidan
Sirli ma’volarning shakl-shamoyili
Yurmoqda edi inson uzra
To‘rt qo‘ldan irmoq-irmoq
Olov shahri
Asl o‘lka vulqoni
Payg‘ambar yelday kechdi
Olov ichra o‘t ichra
Tinchlantirdi qavargan suvlarni
Zirh ayladi suralarni
Har biri manglayida dur donalari
Ter edi
Zafar edi bu
Zafar edi
Oqarmoqda sharq
Yaman tongi
Kabi tong edi bu
Olov ham bodi sabo edi
Suvlar ham bodi sabo edi
Yel bodi sabo edi
Suralar yashil bodi sabo edi

So‘ngra
Yel ham to‘xtadi ortga chekindi
Payg‘ambar o‘tdi otildi oldinga
Oldinga oldinga ustunlardan oldinga
Tosh haykallardan oldinga
Kalimalardan oldinda
Tong otishidan sharqidan oldinga
Qalbdan nari oldinga
Tushunchadan oldinga
Yolg‘iz ishq edi sevgi edi uning matosi
Manglayin artgan ona qo‘li
So‘ngra ko‘rdi va bildi Ko‘ringanni
Ko‘rinmagan ko‘ringanni

Kechib barcha ko‘priklarni
Totdi u Yagona Dengizni

Yaqinlashtir qiyomatni
Uzoqlashtir qiyomatni
Bu kecha Ummuxonining uyida
Bir bayram borki
Xabar bering insonlarga
Payg‘ambar borib keldi
Bu bir tush edi tush emas edi
Siz yashagan tush edi balki
Tush emas edi ammo uniki
Tushdan uyg‘onish edi
Bir tirilish edi tuproqda
Xabar bering insonlarga
Tong otishi bilan
Xo‘rozlar bundan keyin
Boshqacha qichqirsinlar
Va yoying do‘stlarga
Ko‘k armug‘oni
Namozni
Besh mahal
Kunlik bir me’roj kabi
Ki borib kelganiga
Eng katta shohid edi

33

Ustunlar cho‘ksa nima deysiz
Sava ko‘li qurisa
Nima deysiz
So‘nmas olov so‘nsa
Kiyiklar to‘xtasa Yazbul tog‘ida
Cho‘lning nog‘orasi chalinsa chalinsa
Qabila sut qabilalari tuyg‘ularida
Tog‘lar oqarsa

Boshoqlar sarg‘aysa
Nima deysiz

Bir bola tug‘ildi Amerikada
Bir zanji zanjirining she’ri
Va bir bola Ovrupada
Radio ixtirochisining bobosi
Urush qo‘porgan bolalar
Shoirlar sultonlar munajjimlar
Bu kecha tug‘ildi
Tongda bordilar
Makkada
Kichik bir uyda
Zaytun yog‘li bir chiroq
Xonalarda
Aylanib turgan keksa ayollar bilan
Xira bir mehmonxonada
Kutgan bobo
Amakilar tog‘alar
Bir sir aytgan keksa bir odam ham bor

Kecha yongan ona
Yorug‘ bir qadah uzandi
Oq bir yostiq chetidan
Xizr qo‘li bilan ichilgan suvdan
Maryam eshitgan so‘z kabi
Qavarmoqda edi
Ichida asta-sekin
Sog‘ bolaning belgilari
Tilla keltirgan dengiz kabi
Oshilmoqda edi qadam baqadam
kuz tepaliklari

Arofatdagi gullardan
Kelgan bir oqshom edi xonaga
Yumshoq tanli rohib bilgan

Hozirlik bo‘lsin deb bu holga
Xurmodan shahar ovozini eshitgan
Maryam choyshablarni ochmoqda edi
Suvga tashlangan bolani
Qutqargan ayol Osiya
Qochirmoqda edi ol ayollarini tashqariga
Ko‘p malak bor ediki
Tug‘ilgan kunning yuzini tozalamoqda edi
Oyning yuzini jilolamoqda edi
Olovini tozalamoqda edi
Jinlarning bokiralari
To‘ppaymoqda edi
Ichida asta-sekin
Sog‘ bolaning belgilari
Tilla keltirgan dengiz kabi

Og‘ir ma’danini eshitdi
Otlar
Nur Tog‘ining
Yollari uzaydi
Oldindagi urushlar tufayli
Tuyalar esa
Ko‘pik sochmoqda edi og‘izlaridan
Yuksak bilgi sarxushligidan
To‘ylarda

Oqqan suvning ovozi o‘zgardi
Esgan shamollarning yo‘lida
Kun qaytdi
Ochildi mavsum
Oqib to‘ldirdi
Qon bo‘shlig‘ini gul
Vulqon bo‘shlig‘ini gul
Sharobni ko‘piklarga
To‘ldirib o‘tgan sut
Sut to‘ntarishi

Istanbulda bir baliqchi
Xalijda bir ro‘yo ko‘rdi
Uyga borib
Ko‘rpa-to‘shaklarin titdi
Vizantiya saroyida
Billur bir qadah sindi

Buzildi-qoldi
Quyosh soati
Quddusda

Rimda
Zindonda
Olovlardan o‘tgan bir odam
Sira gapirmagan yillar bo‘yi
Tik oyoqqa turdi
Yuzi oy bo‘lib yorishdi
Xayrli kun dedi
Xayrli kun

Ey qutlug‘ ona xayrli tong
Ey tug‘ilgan bola xayrli tong
Yuksalgan dengiz
Xayrli kun
Yelib-yugurgan xushxabar quli
Xayrli tong
Xayrli tong barcha insonlar
Xayrli tong yer yuzining oq yuzi musulmonlar
Xayrli tong
Qur’on Jabroil
Xayrli tong
Sur Isrofil

Xayrli tong boshliqlar
Fath surasi
Tashkil etgan qo‘shinlar

Mavlud yozgan shoirlar
Umidsiz inson uchun
Ufqlarda
Chang qo‘porgan valilar
Yuragida bir dengizni
Chayqalagan ayollar

Xayrli tong
Manglayida ter birikkan
Nonin o‘z
Qo‘li bilan topgan
Ishchilar
Sabr yaproqlari
Xayrli tong

Qur’onni shaharlarga singdirgan
Kimsa sulh vaqti
Muborak bo‘lsin
Xayrli tong

Qonini sovurgan chanqagan shamolga
Urush vaqti
Bayroqni
Qonining harorati ila
Tim-tik tutgan
Shahid
Xayrli tong

Xayrli tong Tavrotni aslidan o‘qigan
Injilning asl ovozini eshitganlar
Haqiqiy musaviy haqiqiy isoviy
Haqiqiy nasoro
Sinagoglarda
Cherkovlarda
O‘zlarini olib chiqqanlar to‘dadan
Kun yuzini sog‘inganlar

Xayrli tong
Badrda Yermukda
Handaqda Uhudda
Birinchi jahon urushida
Yamanda Kavkazlarda
Jon berganda ham
Salovat keltirgan
Shahid bo'larkan
Takbirlardan
Bir jannat shahrin yuksaltirgan
Dudoqlarida

34

Diyorbakrda
Kamarlar singandir issiqdan
Kunduzda ham
Bir chang bor yoz ko'rshapalaklaridan
Bir chayon qavartirishi qal'alarda Asurdan
Quyoshni bir tosh kabi uloqtirgan
Dijlaning ko'pikli dudoqlaridan
Arslon boshli chashmalardan
Tojli quyoshli arslon haykallaridan
Lotin harflari bilan yozilgan
Necha kitob kelgan bo'lsa Vizantiyadan
Eriydi mis kabi mahzanlarda
Qoraytiradi varoqlarini
Yuksalgan bir tuman oni yerto'lalardan

Bol oqdi anjirlardan
Yog' oqdi zaytunlardan
Yangi bir o'lka topdi anorlarda
Turli kasallikning qo'riqchisi arilar
Eng kichik zarra zikrdir chumolilar
Qaynoq toshlar ustida
Tizilishar tasbeh kabi

Kurraviy tasbehdir
Nuh to‘fonining armug‘oni
Arilar chumolilar
Fillar kabutarlar
Judiy[1] tepalaridan
Yoyilgan oqqan
Mesapatomiyaga
Dunyoga
Qandayki
Fillar ko‘rsa tushlarida
Hindistonni
Va cho‘lni uy tuyalari
Bir shaman kabi jo‘shib
Hayqirib ip uzarlar
Saroy yiqarlar
Og‘izdan oq bir ko‘pik kabi sovurarlar
Ichlarida sarob biriktirganlari
Sog‘inch g‘azabini

Eron qalqon kabi urilar
Rim dog‘lanar nayza kabi
Osiyo chayqalanar
Ovrupa bug‘lanar xira
sinagoglar sollanar
Cherkovlar sharoblanar

Yangi bir tuxum fabrikalarida

Xo‘rozlarning og‘izlaridan
Orada bir chiqar inson so‘zlari

G‘ordagi suvni
Shivirlar gullar
Yangi bir so‘z bor
Doim tog‘lar bulutlar tomon yurar oyparastlar

[1] **Judiy** — Turkiyadagi tog‘ nomi

Qarindosh izlar vodiylarda
Yangi bir qarindosh moxovlar
Bir najot kutar ufqlardan
Tutqunlikda keksaygan qullar
Cho‘zilgan shimol bog‘larida
Mog‘orlagan uzum kafanlari
Culuk sabillari
Sehr davlatining ustunlari

Barchamiz uchun tort azobni
Ey Makka tonglari qo‘nog‘i
Ichimizda yog‘gan yomg‘irdan
Sochlarimizdagi namdan
Bir hovuz tashigan qoya kovaklarida
Ibrohim chekka bir joylarda
Varoq-varoq ochib o‘qigan Hironi
U yerda qabul qilgan ilk so‘zni
O‘qituvchi kabi dars bergan o‘quvchi Jabroilni
Jabroil eng yuksak matematik
Yo‘q qilgan geometriyalarni
Bir ramz o‘lkasi bir jabr eli
Arilarga bol tayyorlatgan
Sharob to‘ldirtirgan aslzoda boshchanog‘iga
Bola tug‘dirgan
Uch yuz yillik uyqularni
Qal’a kabi burchlar kabi yuksaltirgan
O‘likni tiriltirgan
Chumolini gapirtirgan
Oyni bo‘lgan bir donishmandning tili
Tangri ovozi
Tangri deyishi

Saharni bir elektrik toki aylarkan Jabroil
Bir bayroq kabi tushirarkan shafaqni
Zanjir kabi bo‘shalarkan qubbalarning qiyomati
Barchamiz uchun tort azobni

Ey otasiz ulg‘aygan
Ko‘rinib g‘oyib bo‘lgan bir xayol kabi
yo‘qotgan onani
Ikki dunyo
Jin va malak begi
Shoirlar yopinchig‘iga intilgan
Soyasiz payg‘ambar

Chek biz uchun ham dard
Olib kel barcha qayg‘ularni
Ko‘z va qalbdagi yaralarga
Po‘latdan davo bo‘lgan u ilk so‘zni
Hironing miniaturasi
Ham eng kuchli tabibdir bizga

Bu bezgak boshqa bezgak
Ey ayol yopina olasan yopina olganing
qadar yopinchiqlarni
Bu shamollash na kuz na bahor shamolashi
Na qish na yoz shamollashi
Na bulut na dengiz
Na tog‘ na irmoq shamollashi
Yangi bir kitobning
Bir yo‘lovchilikdan qaytishning
Bir varoq varoqlanishining
Mavsumning ilk yemishi yeyilishining
Anor totib ko‘rish tarvuz kesishning
Kavsar
Jodu buzish
Olov so‘ndirish va yoqishning
Suv quritish sharillatish
Soya ajrashish shamollashi

Qalq ey yopinchiqlarga
Burkangan payg‘ambar
Ot ustindan
Seni o‘lkalardan orzulardan

Ayirgan yopinchiqlarni
Qalq ey
Yopinchiqlarga burkangan payg‘ambar
Bu bezgak bilan davolaysan
Tiflarni vabolarni
Insoniyatni varoq-varoq
Burishtirgan moxovlarni
Qo‘ng‘iroq tutqanog‘ini
Sinagog xirmonini
Osmon bilan muborak bo‘lgan Harran[1]ni
Sepkilli qozon Iskandariyani
Sen tiriltirasan
Otlariga ummonlarda suv berasan
Sen berasan obi hayotlarini
So‘nggi chanqashlarida shahidlarning
Qaytib berasan
Antik davrlarda olingan haqqini marmarning
Iso Muso Ibrohimning
Safo va Marvaning
Hajar-i asvadning
Jannatlardan sharillagan
Nil Firot Dijlaning
Sen aritasan
Bu so‘zlarning lavalari bilan
La’nat vulqonlarini
Sen to‘playsan binafshalarni
Eng ulkan tog‘ cho‘qqilarida
Ko‘zlarning qanotlarning
Kecha sajdalarining
Xushxabar xandaqlarining
Ilk kundaligini
Sen chop ettirasan
Sen qurasan
Shahar bolalarining
Yagona kentini

[1] **Harran** — Turkiyaning Shonliurfa hududiga qarashli joy nomi

Sen bildirasan
Dunyo bunyod bo‘lgandan buyon
Eng muhim xabarni

35

Otam o‘ylagan edi bir paytlar Badrni
Xandaqni Uhudni Hunayni
Makkaning olinishini
Rusyada asir ekan
Birinchi Jahon urushida
Qor yog‘moqda edi Bakuda
Avval biz olgan
So‘ngra qaytib berganimiz Bakuda
To‘lmayotgan edi ochiq derazadan
Bir janub oyi va bahori...
Faqat to uzoqlardan eshitilgan
Bir zindonda nurli eshiklar ochgan
Qur’on edi yagona ovunish yagona umid
yagona tushuncha
Himoya qilmoqda edi
Tutqunlikda uni
Eng aniq dalillar bilan
Baxmaldan malaklar bilan
Namozlari ichra yurgan
Badrning qilichlar xori
Xandaqning kent olib kelgan uchquni
Qurshab olmasa edi atrofini
Bo‘lmasaydi qo‘rigan bir to‘sin
Makkaga kirish va qaytishdan bir tinchlik nishoni
Bir tot qoldirmasa edi og‘zida
Kavsar nekbinligidan
Suralar bir obi hayot bo‘lib
Oqmasaydi qo‘llaridan boshidan yuzidan
Chiday olarmidi
Ezilgan singan qilichdan o‘tkazilgan
Bir asir qo‘nog‘idan

Nigohlari darddan muzlagan Bakuda
Iso va Maryam nomiga shamlar yoqilarkan
Non va tenglik nomidan boshlar kesilarkan
Borliq ham bu qiyomatga
Qo'shilarkan do'l bilan qor bilan chaqmoq bilan
.....
Aka ukani o'ldirmish biroq Badrda
Chin qardoshliklar o'rnatilmish
Gullar ochilib bahor kelmish
Bolalar qutilmish
Qilich oqib ortga xurmo olib kelmish
Bir qilich Firotni olib kelmish
Qon oqmish biroq suvlar to'xtamish yiring
to'xtamish
Bir qilich Dijlani tashimish uchida
To Makkaga qadar
Bir qilich Nilni ikkiga bo'lmish
Ichida Fir'avn qazilma qoldiqlari bormish
Payg'ambar Arofatda
Tashimoqda edi bu qorlar
Endi aytilayotgan nidolarni
"Ka'baga kirgan qutilgandir
Menga kelgan qutilgandir
Bu uyga kirgan qutilgandir"
Kirmoqda edi u qilich o'g'li qilich
U so'nggi otash usmonlisi
Rus tutqunligi falon eshitmay
Ka'badan ichkari
Qaytmoqda edi horg'in rus askari
Abraxaning fili kabi
Titrab va hadiksirab
Qal'a eshigi oldidan ortga
Otam esa o'qimoqda edi tinmay
Fath surasini
Fath surasini
Zotan yo'qdir yengilish surasi

Har sura aslida fath surasi
Har oyat bir o‘lkaga badal bir askar
Har sura jahonga bir badaldir
Qur’on esa arshning namoyishi
Radning raddi e’tirozi
Har yigiti Xizr hisoblangan qo‘shin
Boshbug‘ — boshliqlarning boshlig‘i
O‘ch emas o‘chni mahv qilgandir
Sevgidir
Borliqning siynasidan sevgi sog‘gandir
.....
Bolalikda o‘qilgan jang hikoyalarini
Haybar eshigi ochilishi qiyinligining so‘zlar
orasida
Qish kechalari otadan so‘ralgan savollarning
Izohi tushunib bo‘lmas eski bir so‘zning
Eng so‘nggi damda
Kelib qutqargan Ali xayolining
Duldulning oyoq changining
Zulfiqor ipagining
Kavkazlarda
Jangda va tutqunlikda
To‘rning baliqni tortib olishi
To‘plashi kabi dengizdan
Olishi bo‘larmish
Hali o‘lim kelmasdan
O‘lim kabi kelgan
Umidsizlik qironidan
Qo‘rquv vasvasasidan
O‘lim samumidan
.....
Bu cho‘lda bu tartibsiz borliq ma’vosida
Mard bo‘lgan askar bo‘lgan faqat bizmiz
Badr va Qur’onning askarlarimiz
Armug‘on olib boramiz shaharlarga
Ko‘k armug‘oni Qur’onni

Ochamiz dunyo oldida
Bu dasturxonni
Kimki Tangriga tayanmaskan tayanmaydi o‘ziga
Yoqamiz o‘zini ham shahrini ham
Kimki sherik bo‘lmish yo‘qsulning yarim noniga
O‘zini bir yerda topadi
Og‘zini non bilan birga boshqa bir yerda
Kimki Tangri qullariga boqsa tepadan
Burgutlar kabi tushishimizni ko‘radi nogoh tepadan
Kimki ovozini balandlatishni istasa Tangri ovozidan
Deymiz, ey shamol oldidagi pashsha,
mana Basra ko‘rfazi
Marhamat yer yuzi jahannami
Marhamat ko‘k yuzi jahannami
Kimki yanada baland bunyod etar devorini
Ka’badan
Biz bir qo‘shinmiz yorilgan yer, yorilgan qoya
Otilib chiqqan qaynar suv zilzilasidan
Bilagimizda Haybarning nishonalari
Yuzimizda oqgul Badr guldastalari
Sochimizdagi hino Handaq gullari
Belimizda eng mustahkam kamar
Makka fathining kamari

36

Oyat-oyat sura-sura yurdilar
Makkadan Madinaga yetishdilar
Kun bo‘ldi g‘orga kirdilar
O‘rgimchak to‘rini osdi bir kechada ming yillik
Kabutar bir yo‘la qo‘ydi toza tuxum
Yangi tug‘ilish tuxumi bir yillik
Ishonchsizlar sadafsizlar kelib-kelib qaytdilar
O‘zgarishi katta qaytishni
Tosh ichidagi otgan bir juft qalbni
Ko‘rolmadilar eshitolmadilar sezolmadilar

Ular esa oyat-oyat sura-sura yurdilar
Sokin bir qiyomat kabi yurdilar
Umar ham kun yorug‘ida
Qilichin beliga bog‘lab
Yoy tortdi butun tarangligi bilan
Yigitlikning eng ulug‘ namoyishi kabi
Maydonlarda savlat to‘kib ko‘krak kerdi
Yotgan esa Ali edi payg‘ambarning yotog‘ida
O‘limni qo‘shni kabi kutib olgan qutlug‘ to‘shakda
Olovga tayangani kabi Ibrohim
Sabr qildi ilon zahriga Abubakr
Ilon zahri qamish shakari kabi tuyuldi unga
Zotan ilon ham
Naqshinkor oynali
Aldamchi po‘stli
Biroq shu bilan birga
Ichidan jannat ko‘ringan
Bir qamish emasmidi
Ularki bir nay kabi chalarlar ilonlarni
Ichidan o‘qiydilar oyna ichida oyna uzaygan
bir Masnaviy

Ochib ikki oq qanot
Bordi ortlaridan Usmon
Bari o‘tib bir chilla g‘oridan
Qardosh va o‘g‘il ota-onani
Ota o‘chog‘ini ota yurtini
Yoshlik bog‘larini
Otib bir bora bir chetga
Yuraklarida bir yurt sog‘inchi tuysalar ham
Cho‘lning qaynoq toshlarini
Yopishtirib ko‘rganlari sog‘inch orzulariga
Yurdilar va bordilar ortlaridan
Yo‘l co‘qmoq tog‘ va g‘or
Begona echkilarning nazr davri
Nihoyasiga yetgach
Har turli azob otashi yengilib ortga chekingach

Tugagach saroblaru jodular
KO‘CH TUGADI

(Ko‘rindi ko‘ngil suvlarida
Uyg‘ondi totli bir tong havosi
Va kutib oldilar ularni
Yo‘llarda
Shahar ko‘chalarida
Barvasta chin yigitlar
Tomlarda ufqni kiyingan ayollar
Ko‘k yuzining malaklari bolalar
Yangi bir yurish
Yer yuzin qoplab ko‘kni titratgan
Yurak yumshatgan yurish marshi ila
“Bir kun oy tug‘ildi boshimiz uzra
Ufqdan yuksalib mudom porlagan”)

37

Siz bir shirinlikxonada o‘tirib qiyomatni kutasiz
Onasining o‘limdan oldin tobutlashgan
Yotog‘i boshi uchida
Bir yoz xafaqonida
Xohlab xohlamay o‘zin
Qiyomatga ko‘niktirgan
Bir qizdan
Yanada epchilmisiz
Tosh sindirganning mangalayidan oqqan
Terda
Nordonsimon qalampirona qiyomat
Asarning dardli chizgisi
Ortib to‘kilgan sharob qoldig‘ini
Yalagan itning yurak ezgisi
Quddusda bayroq o‘zgarishi
Yig‘lash devoridan
Kulib turib yaqinlashgan askar mavsumi
Iso nomiga Iso

Oqshomning billuriy ibodatxonalarida
Chormixga tortilmoqdadir bo‘yiga
Ikki ming yil oldin emas
Aslida endi
Bir zaytunga va bir sulhga
Olib bormoqchi bo‘lgan Muso
Nomiga aslida endi
Qon va urush o‘pishtirmoqda
Falastinda Isroil
Va non nomiga yerga otilgan o‘ch urug‘i
Sharqdan boshlab
Yetishtirar qoramug‘[1]ini
Bug‘doy jim qoladi
Gapiradi qoramuq avlodi
Ko‘k yorilmasdan
Suv tugamasdan
Ona unutmasdan bolasini
Tog‘lar otilmasdan
Shularmidi qiyomatning ishorati
Tug‘ilgan kun der yaqin
Botgan kun der yaqin
Oqshom tanishim der
Kelmoqchi bo‘lganga
Qo‘shiladi asosga
Qoya ichidagi ayol iziga
Suvlarning tepalardan guldirak-la tushishiga
Sag‘ir bir sharsharaning
Ko‘ksiz bir zilzilaga to‘fonga
Bolaning sharqqa
Yotog‘idagi issiqlikning g‘arbga otilishiga
Ey suv to‘xta to‘xtaki
Men ham sen kabi
Guvoh bo‘layin
Keladigan
Marjonga boqay-da

[1] **Qoramuq** — tanada qora shishlar paydo qiladigan kasallik

Shimgichni tortay-da
Durbini bo‘layin bir soatning
Mastona gapirgan tuyalarning
Otlar sakrab chiqqan yugurish chiziqlarin
Yerlashtiray dengizdagi idishga
Singan haykallarni-da
Qoldirarlar ort-ortga suvlar
Dijlaga va Firotga
Qora anjir sharbatiga
Qo‘shadilar aqlning moyasini
Tarix qatronini
Men dengizlarni ko‘p ko‘rdim
Tush paytlari kutganini u haykallarni
Dengizning oyparastligini bosinqiraganini u
marmar sindirish davrini
Yotoqda bir qiyomatni kutgan
Chinor kabi emas
Pechaklar kabi keksayib
Ko‘zlari ko‘rmas
Qo‘llari tutmas bo‘lgan
Urush ko‘rib ozodlik hujjati izlagan
Eski askarlar bor
Tut to‘plarkan
O‘lgan erini
Va bolalarini
Bir qiyomat kabi o‘ylagan
Keksa buvilar
Og‘izning yolg‘onchi tirilishi muzqaymoq
Chekingan qo‘shin kabi uzoqlashgan
Oqshom tepalarining bog‘ barakati
Ichidagi o‘likdan ko‘p
Tashqarisidagi tosh yopinchig‘iga e’tibor berilgan
qabr safolati
Tuprog‘i o‘lik bilan qoplangan bulangan emas
O‘likni tuproqqa tenglashtirgan unutishning qora qishi
Qish yana keldi

Qora qish yana keldi
Beton uylar titradi
Asfalt eshak tirnog‘ida eridi
Xachirlardan kutilmagan bir ovoz yuksaldi
Dengizlarning quruqlikka yetgan uchi
Bir la’nat chinqirog‘i kabi
Qarg‘ish marjonini tashidi yaraga

38

Qiyomatdan oldin
Xizr chekinadi yer yuzidan
So‘ngra yashilliklari yaylovlarning
Eski davr devorlari kabi yuksalgan chinorlarning
Chinnilarning miniaturalarning duoni eslatgan
bo‘yoqlarning
Quyoshda bir qush kabi chirpingan qasabalarning
Ko‘z og‘rig‘idan qolgan changlarning
Yashili qizili sarig‘i chekinadi avval
Uylarda hovlilarda eshitiladi bir kamayish
Yo‘ldan bir o‘lik olib o‘tishmoqda ekan to
sezganlar kabi
Chiqadilar tashqariga biroq
Yo‘llar yolg‘izdir cheksizlikka qadar
Xizrning ketishi bilan
Yo‘l yolg‘izligi ortadi
Boshdan o‘tkazgandi buni bir damda
Torgina bir xonada
Payg‘ambarning bosh uchida
Ali
Payg‘ambarni yuvarkan burishgan edi dunyo
Dengiz kabi vahshiy marjonlar kabi yoqmoqda edi
qo‘lini issiq suv
Umar bir xo‘roz deb bildi dunyoni
Bo‘g‘zida o‘tkir pichoq
Vafotida payg‘ambarning

Abubakr to‘rt tomonida chirpinganini eshitdi
qanotini Jabroilning
Yerdan yuksalishini surning
Ichki xonalarda
Parda ortlarida
Yig‘larkan payg‘ambar ayollari
Eshitdilar qiyomatni bir damda
Torgina bir soatda

So‘ngra Ali xonaning yolg‘izligidan
To‘rt devordan bir shivir eshitdi
Ko‘rindi bayroqlarning eng yashili
Va qo‘shini bilan birga Mahdi
Ma’lum bir vaqt kechiktirgan qiyomatni
Qiyomat qo‘lida bir hujjat
Bir patdek yengillatgan qiyomatni
Mahdi
Shahidlik qilgan o‘limni qiyomatni
Mahdi
Barakatning qayta kelishi
Qiyomatning birinchi fajri
Xizrning etga suyakka qovushishi
Bir qadr kechasi
Tanlanganlar tanlandilar

39

Bir qadr kechasi
Qayta boshladi taqdiri
Yer yuzida
Chumoli azobiga duchor qilingan musulmonlarning
Eng yo‘qsuli insonlarning
Eng ko‘p ezilgani
Ezilganlarning ham ezgani
Achinishlaridan yengilishlari
Jim qolgan jim qoldirilgan
O‘zgartirilib qaytarilgan

Tarixi taxirlashtirilgan
Foydalanilgan shalolasidan
Biroq ichiladigan suvdan mosuvo etilgan
So‘tilib otilgan jug‘rofiyasidan
Uzum terish mavsumi mantig‘idan
Bolalariga tushuncha changi sepilgan
Qushlikda shubhali
Peshin yayragan
Bir olomonga aylantirilgan xalqni
Olib borib jar yoqasiga
Bir o‘lik quzg‘un kabi tashlab ketilgan shaharni
Quyoshning botishga erta kirishishi
Har kun so‘nggi oqshom kabi tuyilgan oqshomda
Oyna kesishi qo‘noqda
Hayot-mamot mojarosida
Bir gul nogoh portilab ochiladi bir tuvakda
Va qalqajak bir inson oyoqqa
Va nur nur nur
Ortida o‘ngida va so‘lida
Va uzatadi qo‘llarini tashqari
Eh bu qanday oq qanday oq
Muso qo‘llari
Va yuzi Iso yuzining o‘xshashi
So‘ngra bir o‘zgarish tag‘in
Tag‘in bir o‘zgarish
Barcha payg‘ambarlarni o‘zida aks ettirgan
So‘nggi payg‘ambarning o‘zi go‘yo
Xizr esa ishi tugab-da to oradan chiqqan ko‘priklarning
eng yuksagi

Mahdi

40

Gapiradi Mahdi
Keldi to‘planish kuni
To‘planish saralanish vaqti

Endi har kun har kecha
Bir qadr kuni va kechasi
Qur'on tushmoqda tog'lardan tepalardan
Yomg'ir uning yetagida
Xo'rozlar eng keskin ovozlari bilan qichqirmoqda
Qo'ylar yaltiramoqda junlarida
Yangi va o'tkir donolik echkilarda
Sharqdan g'arbga bir chaqmoq otlardan
Bir ko'tarilish bir pasayishlar-la tushib chiqqan
Bir kamalak tuyalardan
Ayollar o'ranadilar Maryam yopinchiqlarini
Mo'rilar qayta tutaydi
O'tinlarning eng qattig'ining yonishidan
Purkab ko'k yuziga o'choq tutuni
Tog'larda boshqa bir jo'shqinlik jo'shadi
Binafshada shudringda kekikda sado bor
Bir vahiy nidosi arilarda
Chumolilarda hikmat sokinligi
Tinchlik: mehnatsevarlik va idrok etishning
To'planish saralanish tirilish vaqti
Keldi
Yuksaldi bir oqarish musulmon ufqlardan
Musulmon mavsum va iqlimlardan
So'zlar sachradi yillar bo'yi kutishgandi toshlarda
Bir o'zgachalik bo'ldi yozuvlarda
Ovozlar tingan joyda
Pinhon surgan oyat so'ngi yumshoqligi
Turishlar bir suradan tushgandek kamtarona
Xatti-harakatlar o'lchovli hisobli
Katta qaytish boshlanmasdan oldin
O'zni qo'yib berish borliq intilgan u Butunga
Bir qanot qoqilishi bilan qorishgani Borliqqa
Tuzatib dunyoni qayta
Xaloyiqni tiriltirgan insonni erishtirgan
Shaytonni devor uchida siqishtirgan
Tom ustlarida quvlab


Eski hududiga qulatgan
Shaharlarga baxtni
Bir asr dami xotirasi kabi olib kelgan
Har uyga marmar tarqatgan
Shalola bo‘lishtirgan
Qon kanali uzatgan
Og‘ir homilalikda
Yotog‘idan qo‘rqqan ayollarga

Sut bering sut bering bolalarga
Uzib anor anjir kabi mevalardan
Shit uyi kulbasi zaytunlardan
Maryamning tayanchi xurmodan
Iste’mol qiling bor bo‘ling borlig‘i bilan Borliqning
Ki ko‘rasiz ochiq-oydin
Yuzingizni qay tomon bursangiz buring
Udir bor bo‘lgan bor qilgan
Shakl bergan o‘zgartirgan
Tarqatgan to‘plagan
Hech bo‘lmaganga aylantirgan
Bir hamlada
O‘tmishga aylantirgan vaqtni
Ovozga ovoz bergan yerni yerlashtirgan
So‘ngra ochib yelni yurgan bir qabr kabi
Ichiga yerni yerlashtirgan ko‘mgan
Bir qon laxtasidan manidan
Bir inson yaratgan
So‘ngra uni ulg‘aytirgan
So‘ziga quloq baxsh etgan og‘iz baxsh etgan
Ishiga o‘nda bir qobiliyat ato etgan
Ishonch bergan sabr bergan
Qur’onga ham shaytonga ham
Juft yaratgan yo‘ldosh yaratgan qatorida
Bir yopinchiq kabi birdan ochgan dunyoni
So‘ngra birdan to‘plagan bor mavjudotni
Eng katta ko‘rgazma sohibi

Bosh chanoqlaridan suyaklardan
Quyoshdan oydan yulduzlardan
Jannat va jahannamlarning
G‘oyib bo‘lgan paydo bo‘lgan girdobidan
Har davr bir boshqa sado
Eshitilgan mizrobidan
Tug‘ilmagan va o‘lmagan
Kelmagan va ketmagan

JO‘SHQIN QORABULUT





SHUUR OSTI EPKINLARI

Jo'shqin Qorabulut 1956-yilda Turkiya Jumhuriyatining Ona-do'li vohasiga qarashli Sariqamish qishlog'ida tug'ildi. 1980-yilda Hojattepa universiteti sotsiologiya fakultetini bitirdi. Shundan so'ngra Mersin, Adana, Fathiya va Qushadasi kabi shaharlarda turli bank idoralarida faoliyat yuritdi. 2004–2014-yillar davomida Fathiya O'likdengiz tuman boshqarmasi "Madaniyat uyi" rahbari vazifasida ishladi.

Shoirning turli yillarda chop etilgan "Taramoq ko'k yuzini", "Bizga oid nima borki", "Xayolimda sen", "Chizgi", "Meni vaqtsiz qoldir", "Qayerdan qayerga", "Anjir danagi" kabi she'riy to'plamlari turk she'riyatida o'ziga xos voqelik hisoblanadi.

Xalqda "kasalni yashirsang isitmasi oshkor etadi" degan naql bor. Yaratganning in'omi o'laroq ato etilgan iste'dod ham ana shunday bir dardki, ertami kechmi albatta o'zini namoyon etadi. Buni ijoddan uzilmay turli sohalarda faoliyat yuritgan Jo'shqin Qorabulut taqdiri misolida ham ko'rish mumkin.

Shoir she'riyati haqida gap ketganda, bir tomondan, o'tgan asrning ilk choragida o'rtaga chiqqan "Birinchi yangi she'riyat", boshqacha nomi bilan aytganda, "G'arib" yo'nalishi namunalarini eslatsa, ikkinchi tomondan, XX asr oxiri hamda XXI asr boshi turk she'riyatida chuqur ildiz otgan shuur osti tuyg'ularini aks ettiruvchi shoirlar ijodidan rang olganini ko'ramiz.

Jo'shqin Qorabulut she'rlaridan birida shaklda sarbast vazni asosida qisqa va lo'nda ifodalashni, mazmunda esa quyi tabaqa insonlarining dard-u alamlari, armonlarini kuylashni dasturil amal bilgan "G'arib" oqimi yetakchisi O'rxon Valining:

O'ylama,
Orzu qil faqat!
Boq, qumursqalar ham shunday qilar

sentimintal ruhdagi satrlariga ishora qilarkan,

doim orzu qilardim
seni o'pmoq hidlamoq
soatlarcha quchib
quchog'ingda uxlamoqni

deb turib, orzulari sarobga aylanganini bayon etadi:

orzularim chindan ham
orzuga aylandi bari...

"Tushunchali she'r" deb nomlangan boshqa bir ijod namunasida shoirning ishq, sevgi-muhabbat mavzusiga e'tiborni qaratib, zamonaviy she'riyatda keng qo'llanilgan so'z o'yini, qaytariq, alliteratsiya, paradoks kabi badiiy vositalardan unimli foydalanganiga guvoh bo'lamiz:

Seni o'ylamoq naqadar go'zal
Sening meni o'ylashing undan-da go'zal

Sening meni o'ylashingni o'ylamoq esa
Yanada go'zal

Ammo baridan go'zali
Sening meni o'ylashingni o'ylashimni o'ylashing

Shoirning ijodda ko'proq qisqalikka e'tibor berishining tag'in bir sababini, she'rlar chuqur ma'noga ega bo'lgan holda, shuur osti tuyg'u va tushunchalar turlicha talqin qilinishini ma'qul ko'rishi bilan izohlash mumkin. Qolaversa, adib o'z ijodiy kredosi haqida so'z yurita turib, jumladan shunday deydi:

"Aniq, lo'nda hamda hayotdan olingan falsafiy qarashlarni o'z ichiga olgan teran, biroq ko'z-ko'z qilishdan yiroq taftli she'riyatdir".

Jo'shqin Qorabulut barchaga ayon so'z-u iboralardan shunday mahorat bilan foydalanadiki, alal-oqibat hech kim kutmagan va o'ylamagan o'zgacha ma'nolar o'rtaga chiqadi. Boshqacha aytganda so'zlar nutqda biror bir voqelik yoxud holatni ifodalash bilan kifoyalansa, she'rda muayyan badiiy estetik vazifani ado etadi.

"She'r va men" she'ridagi:

Bir guldir she'r,
Suvi tuprog'i mendan.
O'xshamas o'lim tuprog'iga...

satrlari ana shunday maqsadda bitilganidan darak beradi.

Yolg'izlik, vaqt, borliq, yo'qlik tushunchalari insonni hayotga uyg'oq ko'z bilan boqishga, o'zlikni anglashga chorlaydi. E'tiborli jihati har bir shoir buni o'ziga xos tarzda ifodalaydi. Jo'shqin Qorabulut bitiklarida bu hol quyidagicha ko'rinish oladi:

"Juda uzoqman o'zimdan ustam,
Yolg'izligim shundandir."

She'riyatda shakldan ko'ra ma'noga ko'proq e'tibor qaratish, qay bir ma'noda, tashqi olamga nisbatan botiniy go'zallikni afzal bilish bilan barobardir. Shuurosti tuyg'u va tushunchalar o'quvchiga yanada tushunarli bo'lishi, yanada tezroq yetib borishi uchun shoir she'rlarida o'rni kelganda xalq jonli tilida keng qo'llanilgan "Saqla somonni kelar zamoni", "Tosh o'z o'rnida og'ir", "Sevgining ko'zi cho'g'dir" kabi qator maqol, matal hamda iboralardan foydalanadi.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, Jo'shqin Qorabulut bitiklari zamonaviy turk she'riyatida o'ziga xos o'rin tutadi. Bu esa o'z so'zi va uslubiga ega shoirning munosib taqdir bitigi demakdir.

Shermurod Subhon,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

CHIZGI

barchaning bir tavri bor hayotda
o‘z to‘g‘ri chizgisida
oqib ketar hayoti

kulmoq bir chizgi
yig‘lamoq egri chizgi
savdo yuksalgan
nafrat pasaygan chizgi

nozli-nozli yurish
qanday go‘zal chizgi
qovushmoq sevgiliga
kesishgan chizgi

o‘qish, noziklashish hassos bir chizgi
tepsa-tebranmas bo‘lish;
u ham bir chizgi

bir chizgi guldastasidir yashash
o‘lim: barchasining ustiga bir chizgi

* * *

YOLG‘IZLIK

to‘g‘ri narsalarni o‘ylab
xato joylarda to‘xtadim doim
ju-u-uda uzoqman o‘zimdan ustam
yolg‘izligim shundandir

HAR YONIM SOMON

“saqla somonni
kelar zamoni”
demish otalarimiz

yanglish anglagan ekanman demak
zamonni saqlab
somonni kutdim doim

har yonim somon endi
men poya kabi o‘rtada

“G‘IQ”

tovuq tuxumdan chiqadimi
tuxum tovuqdanmi
bilmadim

birgina bilganim
dunyo yonsa bu o‘lkada
tuxum eshikka kelmay
hech kimning g‘iqi chiqmas

ADOLAT

eng adolatli narsa dunyoda
soyasidir insonning
zanjisi qora
oqi ham

ISHQ

ishq birining
yerning tortish kuchin unutib

uchishga shaylanishidir
so‘ngra
bosh ko‘z hamda
yurakning kulga aylanishi

ISHQ SHO‘RVASI

ishtaham ochildi tag‘in
o‘tirib vaqt oshxonasida
ishq sho‘rvasi ichishga

me’dam aynidi har gal
chivin chiqdi ichidan
sanchqi qo‘limda qoldi
mudom

BADAL

uchishni sen o‘rgatding menga
uchish zarofatini

qanotlarim olib endi
ketyapsan qayga

ISTE’FODAGI ELAK

unim elab
devorga osdim elakni

bunga ko‘nikkan elak
qaydan bilsin unning tugaganin
tebrana-tebrana
qulab tushadi nogoh

ichida un bordek go‘yo
elagandek bo‘laman ba’zan
so‘ngra tag‘in osaman devorga
maqsad ko‘ngil qo‘ymasin...

BIR ISHQ ERTAGI

bir ertak boshlagandik sen bilan
...
birdan
ko‘kdan uch olma tushdi
uchalasi ham boshimga tushdi
omadga boq!.

CHUNKI SEN

gaplasharkan sen bilan
shoshilishni istamayman
orada qaynamasin aytganlarim
tayyor bo‘l! buyruq berganimda
yuzin senga burib
asl holiga kelishi lozim dunyo

bir mening ovozim eshitilishi lozim
bir-da sen tomon yugurarkan
og‘zimdan chiqqan so‘zlarning
quvonch sadolari

tugagach aytganlarim
erkin! buyrug‘im ila
ortga qaytishi lozim dunyo
va hamma o‘z ishiga

TAFOVUT

yig‘lay-yig‘lay keldim dunyoga
yig‘lata-yig‘lata ketmoqdaman
shu ajab ishga boqing

keyingi bir safar
kulib-kulib kelaman

va siz achinasiz kulib
ketishimga

ILG‘OR

“sen oldindan bor,
xavotirlanma ortingda biz bormiz”
dedilar

oz yurdim soz yurdim
daryo qir osha yurdim
ortga do‘nib qarasam
na kelgan bor
na ketgan

ochdim og‘zimni yumdim ko‘zimni
bu gal to‘g‘ri yurdim

TO‘LG‘OQ

bosh ustimda olomon
kimdir yig‘lamoqda
kim uchundir
o‘lgan birisi bor aniq
xavotirlandim kim ekan deya
meni ko‘rdim uzatilgan

doyani kutmoqda edim holbuki
doyani chaqiring demoqchi bo‘ldim
iyagimni bog‘ladilar
gapirolmadim

imomni chaqirdilar

TEGADIGAN SHE’RLAR

shunchalar ko‘niktirdingki
qo‘l tegizmaslikka
suvga sovunga ham
qo‘l tegizolmas bo‘ldim

* * *

senga tega olmaslik
juda teginmoqda menga

* * *

teginilgan suv ichdimmi nima
hamma narsa tegib ketmoqda menga
sendan boshqa

TEGINISH

teginsam senga
dunyo yonadi
teginmasam men

teginish shartmi deysan
shart emas albatta
yashash ham shart emas aslida
shunchaki eski bir odat

QO‘LIM BIR HOLDA

qo‘lga hovuchga sig‘masding bir paytlar
qachon uzatsam qo‘limni senga
sen qo‘llarga uzatarding qo‘lingni
na qo‘lim

endi sen qo‘lga hovuchga sig‘a boshlading
bu safar-da
mening qo‘lu hovuchimda hech nima qolmadi
bu yanada qo‘lim!

DIMYATGA SAYYOHAT

na yor qoldi na do‘st
shunday bir muddatki seni sevmoq
qayga borsam yolg‘izlik
nimaga uzansam sensizlik

yolg‘iz qolganman kechalar
xayoling kelib
uni ham olib ketar

KEYINGA SURILGAN ORZULAR

eng katta orzum hayotda
tong otmasdan uyg‘onmoq
tushgacha uxlash esa
eng katta zavqim

har ishim
har holim
har onim shunday

tushuning axir

FARQ

mening yoqtirganlarim
she'r kabi
seniki ertak

KECHALAR

barcha o'lib-tirilib kechgan
kecha cho'lidan
kelmoqdaman axir
yiqilib-turib
chang ichra

ertalablari kech qolishim shundan
siz kelganimga shukr qiling

HAVO OLISH

Havo shoxdan uzib
olmani Odamga bergach
jannatdan quvildi
ikkisi birdan

sen shingilni uzib novdasidan
uzimni menga bergach
men o'zimni topdim
Oydin[1] elida
Bilganingdek go'zalim
quvilmoq mayli
nohaqlik bor bu ishda
Odam oldi Havosini
men oldim Oydin Havosini...

[1] **Oydin** — shahar nomi.

EY OLLOHIM!..

"Istanbulni tinglayman
ko'zlarim yopiq"
degan ekan shoir

men esa
qachon Istanbulga borsam
ko'zlarimni yumish u yoqda tursin
mijja qoqishga ham vaqt topolmayman
Ey Ollohim!..

DOIM BIR XIL

tugagandan keyin tovog'i
qo'li bol barmog'ini yalaydi
bir ajoyib

shunday bir zamonga keldikki
bol tayorlagan
barmog'ini yalaydi

eh bu ham ajoyib

SHADDOD

hayot
bir lavha kabi
ismin yozib ketmoqda
har kelgan

zamon
sho'x bir bola
o'chirib barin
o'z ismini yozadi
shaddod

AYOLNING ISMI BOR

ayolning ismi yo‘q
deganlarga ishonmayman

zero
qayerga borsam
oyimning ismini so‘radilar
doim

BEKINMACHOQ

sensiz o‘tmas damlarda
sen yonimda bo‘lmaysan
tushundim

tushundimki
yolg‘iz qolgan kechalar
o‘z-o‘zimga yetishni o‘rganib
urina urina tug‘dirganim kunning
doyasi bo‘laman

sen esa hamma kabi
kun yorishgandan keyin kelib
yo‘qligingda kun qanday
tug‘ilganini bilmay
barchasini o‘yin deb bilib
bekinmachoq o‘ynaysan men bilan

ne ajab adashgan bo‘lsam-da
bila turib har gal
jon kuydiraman isinish uchun senga
attang

SHUUR OSTI

hamma
hamma borgan joyga
har doim boradi-da
birov birovni ko‘rmaydi
qanday go‘zal yer u yer
shuning uchun har kun
hamma boradi

O‘YINLAR

men ko‘k yuziman
sen yer yuzi

men uchishga shayman
sen yelib-yugurishga
bir butunni to‘ldirgan
kabimiz

SARIQQAMISH SOG‘INCHI

aslida
o‘limdan qo‘rqmayman unchalik
o‘limdan keyinidan ham
qayerga borishim tashvishlantiradi ko‘proq

borar joyimda
biroz Sariqqamish havosi
bir damlik choy bo‘lsa yetar
yonida esa
biroz sariyog‘
biroz qaymoq
biroz-da sho‘rtang pishlog‘i “ko‘kargan”

bir-da ayb bo‘lmasa agar
ikki parcha g‘oz go‘shti
bir tilim qotgan non

yonimda shular bo‘lsa
ortga qaytsam agar
nomardman

ISHORALAR

koshki ishoralar
qo‘ysam edi
yo‘llarga

endi men
qanday qayta olaman
yo‘qolmay

ortga
o‘zimga

SO‘Z TIKUVCHISI

so‘z tikuvchisiman
kiyim tikaman so‘zlardan
nozikdir g‘oyat ishim

issiqda sovuq qotganlarga
kiyim kiydiraman
Parqutdan...

"SHE'RIM MENGA O'XSHAYDI" kitobidan

KET

"Endi sen ketmoqdasan. Ket"
faqat sen ketsang mayli edi
xotiralar ham ketmoqda
qadr ketmoqda
g'urur ketmoqda
go'zalliklar baxtlar
nimaiki yaxshi bo'lsa
ketmoqda bari

sen
aldov
yolg'on
qabohat ramzi
uch chaqalik zavqlar uchun
ketar bo'lsang ket
ketguchi faqat sen bo'lsang
qasam bo'lsinki achinmasdim
biroq qara nimalar ketmoqda
yurak ketmoqda
do'stlik ketmoqda
insonlik ketmoqda qo'ldan

ketguchi sen bo'lsang
ko'k ketmoqda ko'k

DOIM SEN BILAN

kecha dengizni tomosha qildik sen bilan birga
biroq sen bilmading

dengiz bunchalar moviy
to‘lqinlar bunchalar silaguvchi
bo‘lmagan edi hech
bu juda xush yoqdi menga
sen bilmading biroq

bugun tag‘in bordim u yerga
tomosha qildim dengizni to‘yib
ko‘rganim faqat sen eding asli
to‘lqinlar seni olib kelmoqda edi
oldinma ketin
dengiz bilmadi

bunchalar hech yaqin bo‘lmaganding menga
va hech bunchalar uzundan uzoq
tomosha qilmagan edim dengizni
sevdim seni
ko‘ksingga bosh qo‘ydim
ufqlarga toldim
ko‘rmadi dengiz
“aldattim shunday qilib” to‘lqinlarni
“aldatdim” dengizni
aldatmadim faqat
meni sevmagan seni

BU ISHQ HAM BITADI BIR KUN

bilaman bu ishq ham bitadi bir kun
bir ishq qanday bitsa shunday

payhon bo‘ladi sehri umrning
asliga qaytadi hamma narsa
o‘z o‘rnida bo‘ladi raftori dunyoning
surgundan qaytarkan bir kun
usta sarroflar

nima qipti
mensiz otsa tong
shamol essa mensiz
yolg‘iz aylansa bu yer
kim qanday anglasa shunday

yana-da
yo‘g‘irib butun ishqlarni
o‘zimni va dunyoni
sening gul yuzingga do‘ndirmoq kammi

va dunyoning bulutini
bir juft ko‘zga sig‘dirib
nigohlar qoldirish
Yomg‘ir totida

kammi sevgili

bilaman bu ishq ham bitadi bir kun
va men boshim olib ketaman
bir shoir qanday ketsa shunday

BIZGA OID NIMA BORKI

bizga oid nima borki
ortda qolsa bizdan so‘ngra

havo olov suv tuproq
aylanajak bir kun xarobaga
kimmiz o‘zi bu dunyoga kelib
kim bo‘ldik tug‘ilib yoki o‘lib
sevgan kim sevilgan kim
bo‘salardan ne qolar

ne qolar tuyg‘ulardan
dardlardan

sevinchlardan
sog‘inchlardan ne qolar

huzun to‘la bir nigoh
hurkak bir tabassumdan
borliqning asosi sevgidir deya
hayot-mamot otishli
dard to‘labir yurakdan
savdolardan ne qolar

bizga oid nima borki
ortda qolsa bizdan so‘ngra

yuzi so‘lg‘in vaqtning qo‘lida
sentabr kutib olar bizni eshikda
soch to‘kilar bel bukilar yuz so‘lar
ko‘zgular keksayar biz bilan go‘yo
yillar ortgan sari kamaytirar bizni
naqadar ko‘p yolg‘izlik qolar oxir

istasak-istamasak hukm shunday
jarga boshlarlar hayot deya
mana shu qolar neni ko‘p istagan
bo‘lsak yoki nimaga mahv bo‘lgan
bo‘lsak oshiq bo‘lsak
mudom boshqa vaqtlarga keyinga qolar
eng go‘zal hayotlar qursoqda qolar

yarim qolgan savdolardan ham shunday
bir she’r qolar

bizga oid nima borki
chindan bizga ne qolar

NIMA DEB O‘YLAYAPSIZ

siz endi
barchasini o‘zim qilyapman
deb o‘ylayapsizmi

o‘zim o‘ylab
o‘zim rejalashtirib
o‘zim qaror berayapman
deb o‘ylayapsizmi

tong otganda qanday uyg‘onishingizga
nima bilan yuvinib,
nima bilan taranishingizga
noningiz ustiga nima surishingizga
nima yeb
ortidan nima ichishingizga
o‘zim qaror beraman
deb o‘ylaysizmi

sizga nima kerakligiga
nimani olib olmasligingizga
yo‘q yo‘q nimani olishingizga
qaysisini olsangiz
do‘st-u yorni qizg‘ontirib
yoqib-kuydirishingizga
o‘zim qaror beraman
deb o‘ylaysizmi

kimni ko‘rib kelishingizga
kim bilan o‘tirib-turishingizga
qayerda qanday ishlab
qancha ishlab qancha dam olib
neni qachon va nega iste’mol qilishingizga
o‘zim qaror beraman
deb o‘ylaysizmi

kimni tanlab-tanlamasligingizga
neni o‘ylab-o‘ylamasligingizga
televizor oldida o‘tirib
nimani qanday tomosha qilishingizga
qayerda qancha kulib
qayerda kimga tupurishingizga
o‘zim qaror beraman
deb o‘ylaysizmi

siz keyin
butun bu o‘ylaganlaringizni
o‘zimning qarorlarim
deb o‘ylaysizmi
siz hatto Ollohni bilgan holda
o‘zingizni hali ham
o‘zimga oidman deb o‘ylayotgan
bo‘lsangiz kerak

Xudo haqqi unday deb o‘ylamang
siz o‘zingizni
nima deb o‘ylayapsiz

O‘LIMNING HAM TOTI QOLMADI

o‘limning ham bir toti bor edi albat
o‘tgan zamonlar sevgili Berdan
tuproq ostida qolmasdik bunday
bir yo‘lini topib
bo‘y otardik yanada

ammo gul
ammo tikan
nima dey tag‘in
ko‘kyuzini ko‘rish bor edi
u cheksiz moviylikni

xo‘sh hozir shundaymi
beton binolar ostida
suv to‘la yerto‘lalar tubida
abadiy qolmoq qo‘rquvi

o‘limning ham bir toti qolmadi
o‘limning ham

XO‘SH, O‘LDIK HAM DEYLIK

o‘ldik ham deylik
muammo emas
barcha o‘ladi

ammo shu nigohlar ne bo‘lajak

yurak otishlari duk-duk
seni sevaman deyishlar
so‘ngra intiq kutishlar

sog‘inchlar ne bo‘lajak

xo‘sh, o‘ldik ham deylik
muammo emas
barcha o‘ladi

tolishlar ne bo‘lajak so‘ngra
toliqishlar nihoyat
bir olmosning ikkiga bo‘lgan
shishadan tabassum

huzunlar ne bo‘lajak
shamol ne bo‘lajak
quyosh, oy, yulduzlar
bulutlar ne bo‘lajak

shalabbo bo‘lmoq yomg‘irda
doim sen uchun
ular ne bo‘lajak

xo‘sh, o‘ldik deylik
muammo emas
barcha o‘ladi

meni injitolmaysan
ranjitolmaysan aslo
sen qanday bo‘lsang
shundan yonaman
xo‘sh o‘ldik ham deylik...

KELMOQDALAR KETMOQDAMIZ

ichimiz bir tug‘ruqxona
tashimiz musallo toshi
o‘liklarni tug‘moqdamiz ichimizda
o‘zimiz o‘lmoqdamiz
damba-dam

kelmoqdalar ketganlar bir-bir
non bo‘lmoqda
salat
pomidor
qovun tarvuz bo‘lmoqda
hujralarimizga o‘rnashib
aylanmoqdalar tomirlarimizda

marhumlar yashamoqda ichimizda
biz har dam o‘lmoqdamiz
minglarcha
to‘karoq o‘liklarimizni
hammom toslariga

yashayotgan bo‘lsa o‘liklar ichimizda
biz o‘layotgan bo‘lsak yasharkan
o‘lmoq ne yashamoq ne
o‘lgan kim yashagan kim

o‘lim biroz yashamoq
yashamoq o‘lmoq bo‘lsa ozor-ozor
va yasharkan o‘lmoqda
o‘larkan yashamoqda bo‘lsak mudom
ham o‘lib ham yashayotgan bo‘lsak
bunchalik qo‘rqish nega o‘limdan
va yashaganimizga sevinmoq
nega

PARHEZLI SHE’R

olib ketsa
bu shakar olib ketadi meni
ey g‘arib yolg‘on dunyo
men ketsam
totim qoladi

HARFIYOT

eski so‘zlardan
yangi she’rlar bitaman
harfiyot ishlari boshlandi mana
kelmoqda yangi she’rlar

ENG YOMONI

o‘lim
barchaning o‘z yolg‘izligiga
surgun qilinishidir

yasharkan ham yolg‘iz edik
o‘z qo‘limiz bilan yaratgan
bulut ko‘zli g‘urbatlarda

ne ajabki
bu cheksiz yolg‘izligimiz
bir zolim sevgili sitami edi
va mumkatak bol totida edi alami

o‘lim
qaysi ayriliqning yolg‘izligi
so‘rayman
bu abadiy surgunda
bu cheksiz yolg‘izlikda
kimga sitam qilamiz Tangrim

o‘limdan ham qiyin bo‘lgan
yashay ol-mas-lik
yolg‘izlikning alamidan
qo‘rqaman

HAYOT TAYANCHI

hayotga tayanish
chidab bo‘lmas damda
ko‘nikishni udalashdir ko‘p narsaga

soflikning qo‘ldan ketishi
tilla raqami ko‘rsatkichining
tushishidir yarmiga

sevinch dardni
go‘zallik xunuklikni
yaxshilik yomonlikni
qadr qadrsizlikni

mardlik nomardlikni
bag‘riga bosishidir
g‘ira-shira bir dunyoda
birga yashashga
rizo ko‘rsatishidir

hayotga tayanish
tabiatingga zid iste’mol mollarini
ham hazm qilishdir
o‘zni yaratishdir so‘ngida

xullas
o‘lish kerak bo‘lgan bema’ni
harqanday holga
tupurib ichingdan
hayotingga hayot qo‘shishdir
po‘latga suv bergandek

HAYOT MAZMUNI

tuproqdan kelibmiz
tuproqqa ketamiz

yomg‘ir yog‘arkan
loyga botar kimdir
yopishib qolar
birovga qolmasin aslo
faqat o‘zimga qolsin deya bari
biriktirayin derkan
bir chelak
tag‘in bir chelak

tozalab kimdir
manglay terisi ila
suvni nurga aylantirar

yorug‘ bo‘lsin deya dunyo
bir chiroq
tag‘in bir chiroq

ne ajab
tuproqqa ketar ikkalasi ham
birining ortida loy izlari
boshqasi nurlar ichida
oldinni ko‘ra olsin inson
loyga botmasdan avval

KO‘K YUZINI TARAMOQ

tashiga chiqaman ba’zan
boqaman vaqtga
kechadi ko‘zim oldidan
men qolaman kechadi vaqt

negadir so‘ngra
kelib urilar u dam
vaqt to‘xtar
men kechaman

bir kapalakning qanot qoqishi ila
yoraman vaqtni
ko‘k yuzini tarayman
ko‘zlarida bir qushning
boqaman ortga
na turgan bor na kechgan
turgan ham men
kechgan ham
vaqt deya bilganim
biroz tuproq biroz men
ba’zan tuproq ba’zan men
tushunaman...

SHE'R VA MEN

har she'rning tug'ilishi
biroz mening o'limimdir
kundan-kun

tuproq bo'lar bir yerlarim
yig'layman ustida
she'rimni yoshartiraman
ko'zyoshlarim ila

men endi u she'rlarda borman
ruhning kechishidir bu
o'limlidan o'limsizga

bir guldir she'r
suvi tuprog'i mendan
o'xshamas o'lim tuprog'iga

yolvoraman
uzmang gullarni
bosmang ustidan nima bo'lsa ham
jonim yonadi

SHE'RIM MENGA O'XSHAYDI

derlarki
she'r
qisqa
o'z
va jozibali bo'lishi lozim
arinishi lozim takrorlardan
keraksiz ortiqchaliklardan

ramzlarga o'ralgan bo'lishi lozim satrlar
har o'qilishida

yangi tasavvurlar uyg‘otgan
hamda asl va jozibali
har tong uyg‘onganimda
boshqa bir men topaman
yangi totlar baxsh etgan

yo‘qsa
yo‘qsa men she’rmanmi

YOZIQ

bulutlarning to‘qnashuvi
o‘z o‘limlaridir
yerga tushgan har tomchida
jon talvasasi bordir bulutning

tuproq yosharayotgan bo‘lsa
ochilayotgan bo‘lsa gullar
bayramidir tuproqning
hino sursin o‘ynasin

qo‘shiqlar gulga aytilar
maqtalgan tuproqdir negadir
sevgiliga sunilgan har gulda
bir bulutning ko‘zyoshlari yashirin
biroz-da shundandir balki
har gal gul berilishida
ko‘zimizning to‘lishi...

HAYOT SEVINCHI

ichimda senga ochilgan
bir necha deraza
qaysisidan uzatsam boshimni
menga boqmoqdasan kulgan yuzing-la

mis taralgan bahorlar kabi
rang-barang gullar kabi

ichimga to‘lmoqda nigohing
sochlaring uchmoqda yengil
unutib xayol surganimni
qo‘limni uzatmoqdaman birdan

go‘yo tutadigandek
go‘yo tutadigandek

SENI O‘YLAGAN SARI

shunchalar injalashtirmoqdasanki meni
sevgiga to‘lmoqdaman yana bir

go‘zal xunuk farqi yo‘q
bir go‘zallik topmoqdaman
jonli jonsiz neki bor bo‘lsa

mahzun boqqan bir bolaning
yuziga do‘nmoqda har ne
taramoqdaman sochlaringni asta

shunchalar arintirmoqdasanki
shunchaki yuvinmoqdaman
Gerakl ham necha bor yuvindi-da
suzilgan suvlarimda
suv qushi bo‘lib chiqdi

ARMONIM QUYOSH

biriktirganim qordir bir uyum
qor odamlarga xizmat badali

buncha yil
bir shamol esmay ko‘rsin
qor bo‘ronlari esar ichimda
ko‘z-ko‘zni ko‘rmas

qotaman qolaman ayozli kechalar
quyoshdan ham qo‘rqaman
buning ustiga

XAYOLIMDA SEN

sen bir ummonsan
turasan shunday
top-toza, moviy

men
quyosh eritgan qor suvi
kelmoqdaman sen tomon
bebosh
bo‘z loylar bilan birga

bo‘ladi-ku
uchib ketsam
yetolmay senga
yo‘qotsam yo‘limni yoki
ko‘kyuziga boq u yerda
bir bulut ko‘rasan
huzun to‘la va yolg‘iz
ikki tomchi ko‘zyosh keltirgan
zo‘rg‘a
yaxshilab qara hayron qolasan

juda ham moviy!

MEN BO‘LMASAM

sevgi ila ma’no kasb etar
dengiz moviysi
ilk yozda yashillikka burkanmasi
tabiatning

sevgili bor bo‘lsa go‘zaldir
sentyabrda huzunlanmoq
sovurilgan yaproqlarning ortidan

sen bo‘lmasang
na bo‘ron, na shamol
to‘lqinlarning qoyalarga urilishi
na-da oy, yulduzlar va quyosh
qichqirib yig‘lashi bulutning
sasi chiqmas yetimlarga do‘narlar
ma’nosi yo‘q sevgisiz
na tabiat na sen
men bo‘lmasam sevgi ham yo‘q
go‘zalim

NE QIPTI

qumloq bir suvda topdim o‘zimni
og‘zim loy to‘la
hayqirmoqchi bo‘laman ichdan
bug‘ilaman
sasim chiqmas buning ustiga
ketmoqdaman deyman ey voh
ko‘z ko‘ra-ko‘ra

bug‘ilmoq yoziq esa
tubi ko‘ringan shaffof moviy
chuqur dengizlar bo‘lishi kerak

hatto ummonlar bo‘lishi kerak deyman
bug‘ilar joyim

ne ajabki
qo‘lga ilinar qadar qumloq
va loyli bir suvda
eshak baliqlar ham yashamagan
sassiq jonzot-u o‘tlar chiday olmagan hidli
loy to‘la bir suvda
bug‘ilmoqdaman
sassiz sadosiz

bir yomg‘ir yog‘sa nogoh
bir sel bossa deyman
ummonga qorishsam
va tubidan topsalar meni
moviy kafan ichra
u yerda o‘lgan deb bilsalar
ne qipti

O‘ZIMGA NASIHAT

“qulamayman” deb kekkayma
bir kun kelar
qulaysan

qulaganingda
naq qulagan joyingdan
yana o‘z qo‘llaring bilan turasan
qo‘llaringni avaylashni
unutma

qo‘l berishni istama aslo
na do‘st-u yor
na bola-chaqaga

ehtiyot bo‘l ha
tutsinlar deya
qo‘llaringni uzatma aslo birovga
tutish u yoqda tursin
qo‘llaringni qo‘porarlar to ildizidan
turolmazsan o‘rningdan valloh

bir-da
qulaganingni ma’lum qilma birovga
bir narsalarni izlar kabi chalg‘it o‘zingni

bir ajab hol bor deya
xavotirga tushsinlar

QUZG‘UNLAR CHO‘LI

quzg‘unlar cho‘lida vaqt sariq yaproq rangidadir
oqarmish soch-soqol
bir qarich tuz qonagan bekatlarida
endi men sizlarni o‘polmayman qizlar

sap-sariq yo‘llar nurlarin quyosh
mingbir tuhmat bilan yalqov so‘lg‘in
nazarimda go‘yo
dudoqlarim qonamoqda
bir tutam sevgili yetardi holbuki
ko‘k vodiysidan olib kelingan yor boqishlarining
quzg‘unlar cho‘lida balki-da chang bois
bir rang o‘zgarishidir vaqt
bir tomonda sarg‘aymoqdadir tanim
bir tomonda sening moviy ko‘zlaring
tikilib qolibman

vaqt nimadir
kecha bugun erta

sevgi ila qo‘lni qo‘lga berishdir ko‘zlaring
nigohlar dengizida
yakamozlar[1] tomosha qilishdir rang-barang
uni go‘zalim demasman va lek
tut qo‘llarimni qo‘yib yuborma sira
ol senda qolsin ko‘zlarim

so‘ngra oshiq bo‘lishi
sevganini qizg‘onishi
yeyishdan ichishdan uzilib
kunlarcha betob yotishi

o‘limni bila turib insonning
sevganiga qovushgach
sevinchdan havoga uchishi
qanday yaxshi

kattalarning qo‘llaridan
kichiklarning ko‘zlaridan
do‘stlarining yonog‘idan
sevganining naq manglayidan

o‘pishlardan hatto
ma’nolar yaratishi
qanday yaxshi

sevinchlarni, dardlarni
do‘stlari bilan nonini bo‘lishishi
ochidan o‘lishini bilsa
nomardga minnat qilmasdan
tim-tik turishi insonning
qanday yaxshi

onasiga otasiga
o‘lgandan keyin ham ega chiqishi

[1] **Yakamoz** — dengizning fosfordek tovlanishi

yettisi, qirqi, ellik ikkisi
har fursatda duo qilib
o‘limni ham hayotga dohil qilishi

o‘limni bila turib insonning
hayotni quvonchga to‘ldirishi
qanday yaxshi

NIQOB

har uyda ishxonada
rang-barang maskalar
hech kim
maskasiz ko‘chaga chiqmasdi
avvaldan

shu sababli
o‘z yuzlarini hatto
unutgandi insonlar

bu qanday hayot
buncha maska bilan
qanday yashab bo‘ladi deb
o‘ylab qolardim doim

bugunlarga hozirlik ekan bilsam
inson yashagan sari anglar

bu qanday oldinni ko‘rish ekan ey do‘st
hayron qoldim to‘g‘risi

meni
uzoqlardan ta'qib qilib
"har kun yo'qlama olaman"
deysan

qo'rqmayman men bundan
nega bo'lmasin
sen mening yo'qlamamni ol
men sendan izoh

o'ynab-kulib
yo'l olamiz
yomonmi

QO'LLAR

"hozirgacha"
qo'llarimni kirlatmadim
shukrlar bo'lsin"

endi
virus yuqtirmay deya
dezinfeksiya u bu derkan
soatlarcha yuvsam
ko'ngillarni og'ritgan
hurmatsizlik qilgan bo'laman

yuvaman yana-da albatta
azalda nima bo'lsa shu...

TA'MIN

"seni ta'minlayapman-ku"
derding har doim

hozirgacha
nimani ta'minladingki
iforingga zorman axir
insofing bormi?!.

TA'TIL

puli borga
sayyohlik mavsumi boshlanadi
keyingi haftadan ochilar
mehmonxonalar

tizim o'sha tizim
hamma narsa dohil
"Afrikadan tashqari"

JOYINGDA TUR

bekorga hech
ustga chiqishga
urinma

sening joying
mening shuur ostim

o'tir o'tirgan joyingda zavq ol
sovumasin
o'tirgan joying

O‘RMON

arslonlar ketib qolgan
shoqollar raqsga tushmoqda
tuyaqush bilan

BOQIY QOLGAN

“bu dunyoda boqiy qolgan
xush bir sado ekan”
shunday demish buyuk shoir

bir-da
nigohlaringiz qolar menda
xayolga tolgan
o‘ychan-o‘ychan
asl nigohlaringiz

hali ham
bulut-bulut
yomg‘ir totida

tag‘in ne qolsin
tag‘in ne qolsin
hali ham yomg‘ir totida

NE AJAB?

demak
o‘zingga qaytishga
qaror qilding
nihoyat

ne ajab
marhamat kel
eshigim ochiqdir senga
mudom

UCHISH JAZOSI

qanotlarimni yozib
uchmoqdaman ko‘k yuzida
necha kundir
dam olish uchun
yerga qo‘naman ba’zan
tolaman uyquga

u yerdan bu yerdan suhbat
biroz-da undan bundan derkan
arazlar qanotlarim
ko‘nikolmaydilar hech
mendan ayro qolishga

ko‘ngillarini olguncha
ko‘k yuzi ma’n qilingan menga

VOQEAYI XAYRIYA

“sevgining ko‘zi cho‘g‘dir”
deganlaridek

bu cho‘g‘ ham
sevgi virusi kabi moshalloh

“karona-karona” dedilar
na unga na bunga
bir yaxshilik qildi cho‘g‘
tutib seni menga yetkazdi

TILIM

seni naqadar sevganimni
anglatmoqdaman mana
tilim aylanganicha

tilimning qanchalar aylanganini
ko‘rolmayotgan bo‘lsang
men nima qilay axir

ICHLI SHE’R

Menga qarata
“ichikuvchi” deydilar
ha qo‘limda emas bu
seni o‘ylarkan
ichikmay turolmasam
nima qilay axir

DORI

yo‘riqnomangni
hali o‘qish imkoni
bo‘lmadi biroq
juda yaxshi ta’sir qilding menga

QO‘RONA

“menga hech nima bo‘lmaydi”
demang
bu “qo‘r”ning hazili yo‘q
bilasiz
“qo‘r tutganini...”

ko‘chalar bo‘m-bo‘sh
tashqari yolg‘izlik

seni o‘ylarkan
shunchalar ko‘paytiryapsanki meni
ko‘paytirganing sari
nina otsang
yerga tushmas ichimda

TO‘YISH MA’N QILINGAN

“aslo parhezni tark etma
ora parhezlarni unutma
tez-tez ammo kam ye
dasturxondan to‘ymay tur!”

qandga kasalman-ku
bulardanko‘p qo‘llandim yillarcha

shu sababli ham
senga sira
to‘yolmadim

BOLA-CHAQA

zotan ichimda yillardir
hech ulg‘aymagan bir bola
yetmayotgandek go‘yo
hozir ham tashimdagi bola
boshladimi ingrashga
bola-chaqa orasida
qay biriga yugurishni
bilmay shoshiraman

TEST

hid tuyg‘usini yo‘qotish ham
virusdan darakmish

test o‘tkazish uchun
burnimni yuragimga tutmoqdaman

mushki anbardek hid taratsa
shunday bir sevinch chulg‘aydiki
hech so‘ramang
“mana, bugun ham yaxshimiz
eh, shukrlar bo‘lsin
shukrlar”

OB-HAVO

havo quyoshli
o‘tiribman balkonda
quyosh ila yuzma-yuz

tashimda quyosh
ichimda sen
haroratim ming besh yuz

bunday havoda
virus qoladimi
Xudo haqqi ayt!

KOGITO ERGO SU

o‘ylayapsan
demak borsan

sen bor ekan
dard bor ko‘zyosh bor
men borman demak

"ANJIR DANAGI" kitobidan

ANJIR DANAGI

negadir
dunyoning arzimas bisoti kabi
kamsitilar doim
anjir danagi

holbuki
necha insonlar ko'rdim
butun dunyolari
teng kelmaydi birgina
anjir danagiga

O'TINCH

kecha tasodifan
do'koningiz oldidan o'tarkan
ko'rib qoldim qalbimni nogoh
otash ichida...

qalbimga bunchalar ko'p
ozor yetishin boisi ne ajabo
deya uzoq o'yga toldim so'ng

anglaganim shu bo'ldi
oxir-oqibat
o'tli do'koningiz bor ekan
baraka bersin...

ERTAK

Bir sevganim bor
na sevgani ma'lum
na sevmagani
bir kun yaxshi bo'lsak
uch kun arazda

yaxshi she'r yozsin deya
ozor beradi go'yo

agar dard chekish bo'lsa bu ish
yaxshisi
she'r yozishni tashlab
nasrga o'tay
zero
she'r deya yozganlarim
ertakdir bari...

MA'NOLI BOQISH

moling kam bo'pti ko'p bo'pti
hech ham ahamiyati yo'q buningl
muhimi ko'zing to'q bo'lsin
xullas yashamoqda inson
shunday yoki-da unday
baxtli omadli

barcha boqqan
o'z derazasiga ko'ra
bir ma'nasi bor hayotning
shunday yoki-da unday

ayniqsa
sening derazangdan boqqanda

yanada monolikmi bu hayot
naryog‘i yo‘q...

ZAMHARI

go‘yo
fasllar kabisan
yoz-u qishing
bahoring go‘zal

jon baxsh etarkansan
gullar ochilar ko‘nglimda
qalbim yoritar
nurli quyoshing

so‘nga bir qarabsanki kuz
qulay deydi
hu ulkan chinor
bargin to‘kar novdalar

qorqish ayoz kabidir
sening shu zamharing
qanday ajoyib manzara
jazb etguchi go‘zallik
boqgayman lol-u hayron

bu ne hayratkim
ochilib qolar og‘zim...

MAG‘LUBIYAT MUKOFOTI

doim yengildim
hayotda

bunchalar ko‘p yengilishning ham
mukofoti bor ekan
ne tong

ayniqsa
mukofoti sen bo‘lgach
bunchalar yengilishning

yaxshi hamki yengilibman doim
shukrlar bo‘lsin

aytganlar haqli ekan
“g‘olibdir
bu yo‘lda mag‘lub”.
shukrlar bo‘lsin

HOLIMIZ

hech narsaning
ta’mi tuzi qolmadi
birgina hidi qoldi

u ham bo‘lsa
uch kun o‘tib ayon bo‘ladi
bor-yo‘q

TOJ TOZALIGI

uyda o‘tirishdan zerikdim
so‘ngra
ozod etdim
bola-chaqaning barin...

ko‘rdimki bari ovora
o‘zi bilan o‘zi

ijtimoiy masofadan foydalanib
karantin deya
uy-uyiga jo‘natdim bexos
endi faqat
sen borsan qalbim to‘rida
o‘tir unda
istaganingcha

O‘Z-O‘ZIMGA

hammani baxtli qilish dardida
o‘zimni unutaman
ko‘p hollarda

bundan keyin
ko‘pga qanday bo‘lsa
o‘zimga shunday

baxtli bo‘lish
mening ham haqqim

qadr-qiymatni ham bilgumdir bori
hech bo‘lmasa
birgina tabassum qilishni
kanda qilmam yuzimdan

ICH-ICHIMGA

mooshalloh
shunday joy olgansanki ichimdan

qachon xayolimga kelsang
sig‘may qolar
ichim-ichimga

EHTIMOL

men seni sevaman
sening ham
“meni sevish ehtimolingni”
juda sevaman

ehtimol
dunyodagi barcha ishqlarning
yagona umididir
ayni ehtimol

SHE’R KABI

ko‘p bilingan
qo‘llanila-qo‘llanila
tilga o‘rnashib qolgan
eski so‘zlardan
yangi so‘zlar yaratdim
ishim shu

ayni damda
o‘zimni ham...
eskirgan mendan
yangi aytimlar yaratdim
she’r kabi
she’r kabi

* * *

MEN NIMA BO‘LSAM HAM

sendan olaman kuch-qudratni
kuch-qudrat kelmagach

u yerdan bu yerga odim otajak
holim qolmaydi inon

xo‘sh
kuch-qudrat yo‘llari kesildi deylik
nima bo‘lar so‘ng
qotaman-qolaman shundoq
qolgan joyimda

qolganda qolaman
muammo emas bu
biroq
hech bir ishga qo‘l urgim kelmas
yurak tinmay urgani bilan

qush yem kutar
it-u mushuk sut kutar
e’tibor kutar ular
kutadi mehr
ammo ichdan kelmas hafsala

sen kuch-qudrat bermas esang
tayangayman shunda
ham yolg‘iz
sovuqda dir-dir
tayangan kabi
issiq nafasingga

aytay biroq
holi ne kechar
bu jonzotlarning
yem va suvin kim berar
kim berar mehr
silab boshini

SUTLIMAN[1]

kechani kecha
kunduzni kunduz demay
tinim bilmay yomg‘irlarda
yuzni kesgan
sovuq muz kabi po‘rtanalarda
panoh topgan go‘shamsan
istaymanki ayni damda
qazo-balo kelmasdan
borishga kuchim yetsin

endi
na po‘rtana na shamol
na-da bo‘yimni oshgan
ulkan dolg‘alar
huzur va ishonch bor xolos
faqat va faqat

butun bular yaxshi
shukrlar bo‘lsin
birda
biroz non pishloq
bir-ikki qultum sut
qornim to‘q bo‘lsa
yupun bo‘lsa ust-boshim

ana shunda
bari mazza
va
har yer sutliman

[1] Joy nomi

SENING O‘LKANGGA BORAYLIK

qani qalq ketdik
qolib bo‘lmas endi bu yerda
qani tez bo‘l

na toti qoldi na tuzi
moviysiz qoldi bu yerlar
ko‘kda izlaganim hamma narsa
yerlarda sabil
zotan ko‘kligi ham qolmapti
bu yerlarning

nafas ololmay qoldim
qani qalq
sening o‘lkangga boraylik
qani tez bo‘l

BAXTIYORLIK JAZOSI

bolalikdir bu
baxtli bo‘lardim o‘ynarkan
o‘yinga tolishdan soatlarcha
uyga kech kelardim
ko‘pincha

“shu vaqtgacha qayerda eding?”
deya-deya
ancha tayoq yerdim
bu qadar baxtiyorlik ortidan

ha, ana shunday ulg‘aydik mana
ulg‘aydik biroq
qo‘rqar bo‘ldim baxtiyorlikdan

boshga g‘avg‘o tushmasin deya
sir saqladim doim
baxtiyorligim

hozir shunday baxtlimanki yana-da
bolalar kabi go‘yo
ammo yashirdim bu gal
sendan boshqa
ko‘rgan bo‘lmasin

sendan boshqa boshimga
o‘zga bir hol kelmasin deya

BERGAN QO‘L

“bergan qo‘l olgan qo‘ldan ustundir”
degan ekan otalarimiz

Necha yilkim ozaman
“oz-oz”lar bitmaydi
bitmaydi “oz-oz”lar

bu qanday barakatmish muborak

shu sayrbop dunyoda
nur ila soya aro
borib-kelib turasan

nomini umr deysan
umrsiz valloh...

ORZU DUNYOSI

doim orzu qilardim
Seni o‘pmoq hidlamoq

Soatlarcha quchoqlab
Quchog‘ingda uxlamoq

Orzularim chin bo‘ldi
Orzuga aylandi bari...

TUSHUNCHALI SHE’R

seni o‘ylamoq na go‘zal
sening meni o‘ylashing
undan-da go‘zal

sening meni o‘ylashingni
o‘ylamoq esa
yana-da go‘zal

ammo baridan go‘zali
sening meni o‘ylashingni
o‘ylashimni o‘ylashing

SEN BORSAN

sensiz bo‘lgan hech narsaning
na toti bor na tuzi
na-da bir ma’nosi bor
seniki bo‘lmagan hayotning

meni
sensizlik bilan sinamasang
ne qipti...

SENSIZ VAQT

Sensiz o‘tmas vaqt
qachon soatga boqsam
soat o‘sha — kechagi vaqt...

TEGADIGAN SHE’R

bu epidemiya
qanday bir balo ekan

qalb, shakar, qon bosimi derkan
senga yetsa qani qo‘llarim Olloh
yetmasa yondim ey Olloh

bilganing
senga tegsam teginar menga
tegmasam yanada battar teginar

YIG‘LATGAN SHOIR

ma’nosiz bo‘sh she’rlar yozardi
yoki biz tushunmasdik
Shu sababli
Yoqtirmasdik bir navi
she’rlarini

zotan
“siz she’rni tushunmaysiz
onalaringiz yanada yaxshi tushunishadi”
deya (mazax qilardi) kulgiga olardi

chindan ham
qachon she’r o‘qisa
onamizni yig‘latardi

O‘TGAN O‘TGANGA

yaxshi yo yomon
hayot davom etmoqda
Bir maromda o‘tmoqda vaqt

ba’zan men to‘xtayman o‘tadi vaqt
ba’zan vaqt to‘xtaydi men o‘taman

ba’zan esa to‘xtar hamma-hammasi
sen o‘tasan
sen o‘tgach men to‘xtarmidim
men ham ma’yus tortaman...

o‘tib ketmoqda shu tarzda hayot

ESHIK

Naqadar ajoyib so‘ylagan ekan
Vaysal
“Ikki eshikli bir mehmonxonada
Ketmoqdaman kecha-kunduz.”

ochilgan eshiklar yopilgan eshiklar
biri yopilishi bilan biri
ochilgan eshiklar

o‘zi ochilsa xay-xay biroq
boshqasi ochgan eshikni
Olloh ko‘rsatmasin
kirgan “gullatmas” aslo

do‘st eshigi el eshigi bari bir
o‘z eshigin bo‘lsin lek

mayli oddiy yo siniq
taxtadandir u
eshik-meshik derkan

gapni senga taqayman
qayerdan kirayin deya
ochiq eshik izlayman
o‘tsa-da necha soat

juda sog‘inib-da seni
qani bir ko‘rsam derdim
yorilsan-chi ey eshik

TOSH

“tosh o‘z o‘rnida og‘ir”
deganlaridek
birov surgan tosh
tinch turmas aslo

kimdir tosh otar
meva bergan daraxtga
kimdir esa
oldda yurganga...

tosh qo‘zg‘atishni
yoqtirar ekansan garchi
u yoqqa bu yoqqa siljitib
ozor bermay sira
chuqur joyga qo‘ygin-ki
tosh ham tinch
sen ham tinch

YO‘LIM TO‘G‘RI SEN TOMON

yo‘llari doim
yuqoriga ildamlagandir
shaddod hayotimning
tushsa faqat sen tomon

ayni damda
besh yuz metr o‘ngga yur
so‘ng chapga buril desa-da
navigatordagi
go‘zal qizning ovozi

yo‘lim to‘g‘ri sen tomon
chapga-o‘ngga burilmas

YURAK SIQILISHI

oxirgi chiqqan
eshikni ochiq qoldirgach
yelvizakka qolmish yuragim

shunaqa bir azob
shunaqa dardki
so‘ramang aslo

Oqyoqalik bir do‘stim
SPA toshlari jo‘natmish
shamollaganga qarshi
foydali emish

tosh bostim yuragimga
foydasi bo‘larmi ajabo

QISQA YORUG‘LIK

naqadar kuchli
quvvatli eding
qalbim yoritgan

so‘ngra xira tortdi
yongan bu chiroq

bir yonib bir o‘chdi-da
so‘ndi so‘ng oxir-oqibat

ISHONCH

bir tomonda yer yuzi
Gullar ochilar unda
daraxtlarda mevalar g‘uj-g‘uj
To‘rt mavsumda ham

naryog‘i esa ko‘k yuzi
biror bir daraxt yo‘q
ne ajabki

olsalar-da ozuqa yerdan
quchsalar-da uzanib mahkam
ko‘kka uzatilar qo‘llar

SOG‘INCH

Kidrakka uzangan yo‘lning
baland bir joyida o‘tirib
seni o‘ylayapman
o‘lik dengizga boqib

shunchalar xayolga tolibmanki
tobora sening yuzingga aylanardi bari
so‘ngra qanday bo‘ldi bilmam
sen deb o‘ylab

egilib yonoqlaridan o‘pdim dengizning
endi
qachon o‘tsam O‘lik dengizidan
tilimda sho‘r dengiz
hamda sening toting
lablarimda baliqlarning qo‘shig‘i
seni unutolmadim

KELIB-KETISH

naqadar ko‘p inson
keladi
va ketadi
ezgu amal qoldirib ortda
kimdir ko‘p
kimdir oz

ko‘p yoki ozga ishi yo‘q vaqning
kelib-ketsa bas...

ODAMOXUN


Hamma pulga chaqsa barcha narsani
Men chaqaman pulni bariga
Bariga deganim
Ichiga biroz sevgi
Biroz tabassum qo‘shib
O‘zimga o‘xshataman
Odamoxun!!!


OXIRI HAZIN DEYA

hayotdan voz kechmaymiz-ku
o‘lim bor deya
oxir-oqibat

nega voz kechaylik endi sevgidan
oxiri hazin deya

ALI OQBOSH
KO‘ZIMDAGI SO‘ZLAR





O‘CHMAS CHO‘G‘

Kuzda turnalarning ko‘chishi tabiiy bir hodisa. Bu bir mavsumning tugashi. Ularning ortdagi qadrdon hayotni tark etib ketishida sanchiqli bir hazinlik, tuganmas bir dard bor. Shoir bu manzarani chizarkan, turnalarday ko‘zga uzoq-yaqin bo‘lgan zamondoshlarini o‘ylaydi, ularning qiyofasini, ruhini, ko‘nglining na’ralari-yu inglog‘larini jonlantirishga intiladi.

Ali Oqbosh ham barcha haqiqiy shoirlar kabi o‘z yurtining oshig‘i, ona tabiatini, millatini, madaniyatini, shonli tarixini, davrining fidokor insonlarini sevadi va she’rlarida ularni tarannum etadi. Uning she’rlarini o‘qirkan, kitobxon Turkiyaning buguni va o‘tmishidan xabardor bo‘lishi bilan birga, u o‘lka insonlarining tafakkuri va ruhi bilan ham tanishadi.

Shoir ijodida qardosh turkiy xalqlar mavzusi alohida o‘rin tutishini ta’kidlashimiz lozim. Uning ozarbayjon, tatar, qozoq, o‘zbek, turkman, qirg‘iz, yoqut-saxa o‘lkalarining go‘zal tabiati, ulug‘ va fidokor insonlari haqida bitgan she’rlari samimiy, teran fikr-u mushohadalarga, tuyg‘uli manzaralarga boy. Shoir bunday she’rlarini ba’zilarday kitoblardan ta’sirlanib emas, balki o‘sha yurtlarni kezib, tabiatidan, madaniyatidan, tarixidan, xalqning hayotidan ilhomlanib, to‘lqinlanib yozgan. Masalan, O‘zbekistonni kezarkan, “Orol”, “Cho‘lpon” kabi o‘tmish va bugunning muhim mavzularini tutashtiruvchi she’rlarini bitgan. Ozarbayjonning shimolini, janubini sayr etarkan, “Ko‘kko‘l”, “Shahriyor” mavzusidagi vatan va millat taqdirini aks ettirgan she’rlari yaralgan. Qozon tatarlari va yoqut qardoshlar vatanini ko‘rganidan keyin esa, “To‘qay” she’ri, “O‘yinskiy” dostoni daftarga tushgan. Shimoliy Qibrisda va buyuk Fuzuliyni yetishtirgan Bag‘dod-u Karkukdagi kitobxonlar bilan uchrashuvlardan keyin, ularning fikr-u tuyg‘ulariga hamohang “Bag‘dod o‘t ichida”, “Karkuk”, “Bir turkman”, “Fuzuliy” kabi she’rlar qalamga olingan. “Qutlug‘ tosh” she’ri

o‘quvchini O‘rxun-Enisey yodgorliklari, turkiylarning qadimgi yozuvlari va umummadaniyatlari timsoliga aylangan muqaddas makonlarga yetaklaydi. “Sindi qalamim” she’ri turk dunyosining buyuk adibi Chingiz Aytmatov siymosini gavdalantirsa, “Bizning qo‘shiqlar”, “Armug‘on”, “Sardan kechdi” kabi she’rlar zamondosh turk san’atchilarini, atoqli va jasur ijodkorlarini she’rxonlarga tanitadi. “Qozoq cho‘llarida” she’rini o‘qirkanmiz, Turkistonning qadimiy kengliklari ko‘nglimizni yanada kengaytirganini his etamiz.

Qisqasi, Ali Oqbosh she’rlari kitobxon ko‘z o‘ngida turkiy xalqlar yashayotgan go‘zal va shonli yurtlarning xaritasini, ularning shuhratli insonlari, ibratli shaxslari siymosini jonlantiradi, she’rxonning zavqu shuurini orttiradi, ruhlantiradi. Bu, albatta, asarning badiiy-estetik qimmatini bildirishi barobarida, shoirning mahoratini, o‘ziga xosligini ham anglatadi.

Shu o‘rinda Ali Oqboshning o‘ziga xos yana bir xislatini aytib o‘tish joiz. U she’riyatning barcha yo‘nalishida qalam tebratadi; jumladan, she’rlarining yarmi barmoqda va yarmi sarbastda bitilgan; g‘azallari, tuyuqlari ham bor. Ba’zi to‘plamlaridagi she’rlar tinish belgilarsiz beriladi, bu hol she’rxonni o‘ylashga, she’rga qattiqroq bog‘lanishga undaydi. Goho barmoqni sarbast bilan aralashtirib, goho bir she’rning o‘zida yetti, sakkiz, o‘n bir bo‘g‘inli satrlarni yondosh tizarkan, bu bilan eski tartiblarni buzgan tarzda, zerikarli birxayllilikdan qochib, yangicha ohanglar tuzmoqqa intiladi. Biz bu kitobdagi “Sentabr taronasi” bo‘limida shoirning ana shunga o‘xshash o‘ziga xosliklarini saqlashga intildik.

Ali Oqbosh — taniqli turk shoiri. U 1942-yilda Qahramonmarash viloyatidagi Albiston tumanida tug‘ilgan; qishloq maktabini bitirgach, Istanbul universitetining adabiyot fakultetida ta’lim olgan, ko‘p yillar maorif va matbuot sohasida ishlagan, Anqaradagi G‘oziy universitetida dars bergan.

U o‘tgan asrning saksoninchi yillaridayoq bolalarga yozgan she’rlari bilan tanilgan. Shoirning “Ertak zamoni”, “Qush dasturxoni”, “Ko‘kda oy po‘rtaxoldir” kabi she’riy to‘plamlari turk bolalar adabiyotida alohida qimmatga egadir. “Qush dasturxoni” to‘plami Makedo‘niyada (2000) Mariya Leontich, O‘zbekistonda

(2013) Miraziz A'zam tarjimasida bosildi. Ramiz Askar ozarbayjonchaga o'girgan "Tanlangan she'rlar"i 2011-yilda Bokuda nashr bo'ldi. Uchinchi Turk dunyosi adabiy jurnallar qurultoyi tarafidan "Turk dunyosida yilning eng yaxshi ijodkori" deya e'lon qilingach, she'rlari o'nlarcha turkiy ellar matbuotida qardoshlarimizga tanitildi. Jumladan, O'zbekistonda ham bir necha she'riy turkumlari tarjimamizda "Jahon adabiyoti", "Guliston" jurnallari va qator gazetalarimizda she'rxonlarimizga taqdim etildi.

Ali Oqbosh ayni paytda Ovruosiyo Yozuvchilari uyushmasida rais o'rinbosari va "Qardosh qalamlar" jurnalining bosh muharriri sifatida ishlamoqda, turkiy dunyo adabiyotining, jumladan, o'zbek adabiyotining ham Turkiyada va jahonga tanitilishida xizmatini davom ettirmoqda.

Yetmish yoshdan oshgan, dunyo dardi bilan to'lib-toshgan shoir bir she'rida, "umrimning so'ngida sigaram yoniq qoladi, men o'tamanu u damlarda uning cho'g'i o'chmaydi, mening nafasim to'xtaydi-yu uning tutuni nafas kabi buram-buram taralaveradi", degan fikrni aytadi. Menimcha, shoirning har bir yaxshi she'ri uning cho'g'i o'chmas sigarasidir, uning mo'jazgina cho'g'ida, ojiz-u ingichka taralguvchi oqish tutunida bir olam mo'jiza bor. Shoir Ali Oqbosh she'riyatining cho'g'i o'chmasdir.

Tohir Qahhor,

O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasi a'zosi

“KO‘CHAYOTGAN TURNALAR” kitobidan

SHE’RIM

She’rim, sen qonagan eski yaramsan,
Ko‘ksimda tashiyman, ko‘rgan gul deydir.
Marsiyam, faryodim, o‘tli na’ramsan,
Uzoqdan tuyganlar, bir bulbul, deydir.

Chekimga so‘z tushmish bazmi alastda,
Vafosiz bir yorga bo‘ldim dilbasta,
Hamon o‘rtanurmen bu tor qafasda,
Dardimni aytmasmen, yot: u — qul, deydir.

ERTAK

Moviy, tumanli ko‘rfazda
Uxlar ovul, olar orom.
Kumush suvli soyda qizlar
Sholcha yuvar, yuvar gilam.

Qo‘shiqlarin, tovushlarin
Aks sadosi tog‘dan kelar.
Qizlar uch quloch sochlarin
Suv — ko‘zguda tarar, kular.

Oq suvdek oqbilak qizlar,
Kunda qoraygan yuzingiz,
Ko‘ngil yozing bir oz sizlar,
Yo‘qmi yozingiz, kuzingiz?..

Hey, shu tepadan kechmangiz,
Soy loyqadir, suv ichmangiz,

Go‘zallikdan boj olarlar,
Guldek yuzni hech ochmangiz!

Bolalikda men suzgan soy,
O‘smirligim o‘tgan yayloq,
Tushlarimga kirmang aslo,
Qiynamanglar meni mundoq!

Bir idishdan ichdik choying,
Bir lagandan yedik oshing,
Oh, qishlog‘im, ota uyim,
Suving zamzam, oltin toshing!

Oqsoch cholday tog‘ tin olar.
Cho‘qqilar qor, ola-bula.
Dalalar qirda joynamoz,
Toshcho‘p isli keng dalalar.

Ana, uyim, huv narilar...
Madad bering, ey parilar!
Tanimaydir yoshlar meni,
O‘lgan emish bor qarilar...

Zaynab, Alif, So‘na, Gulchin,
Ko‘ylagingiz bichim-bichim,
Bir kuni hasharga keling,
Men g‘arib-la bir choy iching!

Unutmanglar meni lekin,
Oshiqqa ne uzoq-yaqin,
Yo‘qotdim-ku qishloq yo‘lin,
Tepalarga gulxan yoqing!

So‘rmang hech, qayerda qoldim,
Har yil bir diyorda qoldim,

Bir dev tuzog‘iga tushdim,
Qushday qafaslarda qoldim...

Buzurman shu eski uyni,
Siqar meni shu to‘rt devor,
Nechun men kuylagan kuyni
Yetkazmaslar yorga dovur?!.

Qushlar o‘tar qator-qator,
Qo‘shilib men ham ketayin.
Qanot bermasa turnalar,
Qo‘limni qanot etayin.

Chamlibelni bosganda qor,
Tog‘da ulur och bo‘rilar,
Bulutlar goh bir qush bo‘lar,
Malak bo‘lar, goh hurilar.

Charchagan kichik shahzoda
Yiqilmish otdan maydonda,
Kelmaydir kimsa imdoda,
Boyqush sayraydir ayvonda.

Buvim o‘tdi,
Ertak bitdi,
Tilidan bol tomardi, bol.
Xush qol, arslon bolaligim,
Men qaytmasman endi, xush qol!..

QO‘SHIQ

Yot ellarda boshim dardda,
Yetti yerdan yaradirman,
Yo‘lga qarar yorim yurtda,
O‘la-o‘la boradirman.

Shu tog‘larning oq do‘liman,
Yaylovning tuproq yo‘liman,
Yor manglayinda xoliman,
Taqinchog‘i, liradirman[1].

Xirmondirman, sovur meni,
Bug‘doy qilib qovur meni,
Yoqding og‘ir-og‘ir meni,
Lov-lov yonib turadirman.
Yung qirqib, ip yigirganim,
Dala, bog‘ deb yugurganim,
Qora qiz, jondan urganim,
Qora soching taraydirman.

Menga tegib, xamir qorsang,
To‘qqiz o‘g‘il tug‘ib bersang,
Jonim beray kiyib yursang,
Senbop saroy quradirman.
Oqbosh deydir, kel, Marashlim,
Qaldirg‘ochim, qora qoshim,
Boshoq sochlim, mag‘rur boshlim,
Soying o‘tar daradirman.

TOG‘LAR

Go‘zllarning yaylog‘idir,
Yigitlarning ovlog‘idir,
Yel esgan orom chog‘idir,
Sozi quchoqda tog‘larning.
Izlab buloq tomonlardan,
O‘pich oldim nozli yordan,
Qishda holva qilar qordan,
Ko‘zi o‘choqda tog‘larning.
Chaqmoqlar yalar to‘shini,

[1] **Lira** — Turkiya pul birligi; lira tangalari taqinchoq sifatida ham taqiladi *(tarj.)*.

Olmos aylar har toshini,
Ranjitsang, kerar qoshini,
Qo‘li pichoqda tog‘larning.
Bo‘lmagan bunday shahsuvor,
Qo‘shiq aytar, chaladir tor,
Ko‘ro‘g‘lidek mard o‘g‘li bor
Har bir burchakda tog‘larning.
Tog‘larning boshi baloli,
Farhod teshar bag‘rin hali,
Kun tushib, porlar jamoli
Ola shafaqda tog‘larning.
Etagi Ko‘ksun o‘vasi,
Tepasi burgut uyasi,
Dardga davodir havosi
Yozda, issiqda tog‘larning.
Yoroni bor, yo‘ldoshi bor,
Bilinmas qancha yoshi bor,
Mening kabi Oqboshi bor,
Yig‘lar uzoqda, tog‘larning.

BIZNING QO‘SHIQLAR

Yetik O‘zanning aziz xotirasiga[1]

Ming yillab pishitdik so‘z, turog‘ini,
Uzukka qosh etdik Ag‘ri tog‘ini,
Dunyoga alishmam bir oqsog‘ini,[2]
Ko‘nglimga ko‘radir bizning qo‘shiqlar.

Qo‘shiqlar odamdek, Vanlik, Yamanlik,
Yamanning yo‘llari gullik, chamanlik,
Kelinlar kuylamish ko‘zlari namlik,
Kunyadir, qur’adir bizning qo‘shiqlar.

[1] **Y. O‘zan** — taniqli shoir, muallifning do‘sti *(tarj.)*.

[2] **Oqsoq** — turk musiqasidagi usul *(tarj.)*.

Otashda yondim-u bo‘g‘ildim g‘amda,
Kuyladim ming ohang va ming maqomda,
Bir kuni sel olib ketmish Mug‘onda,
Sellarda Soradir bizning qo‘shiqlar.

Bog‘bonni dard chalmish, buzilmish bog‘lar,
Dovullar oh chekar, surnaylar yig‘lar,
Bu kelin ko‘ngilsiz, rahm eting, tog‘lar,
Bir baxti qoradir bizning qo‘shiqlar.

Bizning qizlar topmaguncha tengini,
Kuydirar qo‘shiqni, yo qo‘shiq uni;
Bahorgi seldayin buzar bandini,
Bir qonli daradir bizning qo‘shiqlar.

Yolg‘iz oy yo‘qotmish tunda yo‘lini,
Safarbarlik yomon bukmish belini,
Tundagi gulxanning o‘tli tilini
Tongga yuboradir bizning qo‘shiqlar.

Yillardir o‘rtaydi eski bir og‘riq,
Har tong azob berar buroq-burog‘li,
Shovullab turadir tog‘larning bag‘ri,
Sirli mog‘oradir bizning qo‘shiqlar.

Ekinlar yig‘ilgach, to‘y payti kelar,
Kuz kuni qisqarib, bir qatim bo‘lar,
Har buloq boshida qirq ko‘za, xum bor,
Navbatdir, siradir[1] bizning qo‘shiqlar.

Bir qiz o‘rdak bo‘lib ko‘llarda suzar,
Suvlar oynasida sochini tuzar,
Jayronlar ortida ovchilar kezar,
Qo‘riqlab-qaraydir bizning qo‘shiqlar.

[1] **Sira** — turklarning o‘zbeklardagi gapga o‘xshash milliy udumi *(tarj.)*.

Ko‘lni seskantirgan bir Nido bo‘lur,
Oltintog‘ kuylarkan aks sado bo‘lur,[1]
Assalom bo‘lur va alvido bo‘lur,
Na qutlug‘ to‘radir bizning qo‘shiqlar.

Vaysal to‘xtar,
Dovud Suvlariy so‘ylar,
Qrimdan kelarkan, sardori so‘ylar,
Podshosi, omisi, har bori so‘ylar,
Farmonda tug‘rodir bizning qo‘shiqlar.

Ming daradan suv tashimish elak-la,
Ming yildirki, g‘avg‘osi bor falak-la,
Yashar yelkasida yukli chelak-la,
Ag‘ritog‘, Xiradir bizning qo‘shiqlar.

Bulbuldayin gul shoxida dam chekar,
Qora kunda g‘amxo‘r bo‘lib,
g‘am chekar,
Qo‘shiq chekkan azoblarni kim chekar,
Karvonda bug‘radir bizning qo‘shiqlar.

To‘plansin baxshilar chaqirim uzra,
Tag‘in og‘riq bormi og‘rig‘im uzra,
Qora sopli pichoq shu bag‘rim uzra,
Hech bitmas yaradir bizning qo‘shiqlar.

Nag‘ma ishqibozi Saris o‘zani
Sozin sozlaguncha buzmang tuzanni,
Qo‘shiq deb dunyoni kezmish Fizoniy,
Balx-u Buxorodir bizning qo‘shiqlar.

---

[1] Bu va boshqa ko‘shiqchilarga keyingi she’rda izoh berilgan *(tarj.)*.

Ko‘ro‘g‘li tog‘larda qolurmi nochor,
Xizr himmat etar, qush bo‘lar, uchar;
“Ochildasturxon”ni Kalo‘g‘lon ochar —
Beklarni qaratir bizning qo‘shiqlar.

Bog‘lama — bir cholg‘u, uch sim, bir taxta,
Na shoxga bosh egmish, na toju taxtga,
Jamlamish bor dardni birgina “oh”ga,
Qirlarda na’radir bizning qo‘shiqlar.

ARMUG‘ON

Mehmet O‘zbekka[1]

Qo‘lga ol elning bu o‘ksiz sozini,
Sayratib chalganing tursin bilinib.
San’atkor ko‘tarar sozning nozini,
Simlar esa o‘pgay uning qo‘lini.

San’atchining yuki tog‘lardan og‘ir,
Insonlar vafosiz, g‘ofil, ko‘r, sag‘ir;
Balki uyg‘onarlar, yana bir chaqir,
Qanday unutdilar ishqning tilini?!.

Urfadan, Karkukdan, Iroqdan so‘yla,
Jo‘r bo‘l Qiziloy[2]ga, firoqdan so‘yla,
Ko‘zingga jonim, sen yurakdan so‘yla,
Tovushing eslatar sahar yelini.

Turkining qadrini eranlar bilar,
Qo‘shiq deb umrini berganlar bilar,
Odamlar ne bilsin, ko‘rganlar bilar,
Alamlar yulmasin g‘uncha gulini.

---

[1] **Mehmet O‘zbek** — Turkiyaning mashhur qo‘shiqchisi, urfalik; shoirning dorilfunundosh do‘sti *(tarj)*.

[2] **Abdurrahmon Qiziloy** — Karkukdan, Iroq turkmanlarining mashhur qo‘shiqchisi *(tarj.)*.

Vaysal[1]ning nafasi, Bilqis[2]ning sasi,
Mahzun[3] ko'ngillarda bulbul nag'masi,
Endi Oqgilos[4]ni qayg'u bo'g'masin,
Surma etsin Arg'uvonning kulini.

Lola — cho'lga bezak, olov — ko'ngilga,
Qo'shiqlarga siqqan sig'mas xayolga,
San'atkor bosh egmas yetti duvol[5]ga,
Ammo unutilmoq bukar belini.

Qo'shiqning sumbulli dasta, bog'i bor,
O'lmas Nidosi bor, Oltintog'i bor,
Nazohat Bayrami, Orif Sog'i bor,
Xayol Xos — yurtimning nozli kelini.[6]

Tug'basi, Zarasi, tug'li zari bor,
Sayroq bog'lamasi, jo'shqin tori bor,
Shohsanam, G'aribning intizori bor,
Balki kelar deya qarar yo'lini.

Eranlar sozini devorga osar,
Bir eslab o'tmasam, Mahzuniy kular,
Oysun kuylaganda, to'xtar turnalar,
Sarvqad ko'zko'zlar guljamolini.

Bir Zafar qozondik, yana Kuntug'di,
Nashotning nag'masi qaynar bulog'dir,
Tashna ko'ngillarga barakat yog'di,
Pari nomahramga tutmas bolini.

---

[1] **Oshiq Vaysal** — Sivasdan, atoqli qo'qshiqchi-shoir *(tarj)*.

[2] **Bilqis Oqqal'a** — Sivasdan, mashhur qo'shiqchi *(tarj.)*.

[3] **Mashhur baxshi** — qo'shiqchi Oshiq Mahzuniy *(tarj.)*.

[4] **Oqkiraz** — Oqgilos, Malatyaning Arg'uvon tumanidan, qo'shiqchi *(tarj.)*.

[5] **Duvol** —dunyodagi eng kuchli davlatlar anglamida *(tarj)*.

[6] Yo'zg'artlik Nido To'fakchi va uning xotini Oltintog';
Arzirumdan Orifsog' va Nazohat xonim Bayram;
Elazig'dan Xayol Xos xonim — Turkiyada tanilgan qo'shiqchilar *(tarj.)*.

Bizning Ero‘g‘limiz, To‘qjonimiz bor,
Qirlarni to‘ldirgan bizning oh-u zor,
Dardli qo‘shiqlarga osmonlar ham tor,
Qo‘msar Cho‘pono‘g‘li Chamlibelini.

Olloh Muzaffarni etsin muzaffar,
Mohir do‘stlarini aylab safarbar,
U ham so‘ng kunlarda ochdi bir daftar,
Kimsa so‘rmas Temirbog‘ning holini.

Amal, Nursoch,
Gulshan — uchi bir yerda[1],
Ularning qo‘shig‘i davo har dardga,
Mukarram[2] o‘qir, deb xat qo‘ydim zarfga,
Yopishtirmapman-ku maktub pulini.[3]

Aziza Karkukdan bir qo‘shiq sunar,
Yaylovda Xola Gur[4] chashmaday qaynar,
Buloqdan suv ichib, jayronlar qonar,
Qoraqosh so‘ylasin u “Rumeli”ni.

Rojiy Olqir, Ali Gurlu bor bo‘lsin,
Oyseli Badriymiz baxtiyor bo‘lsin,
Qo‘shiq aytsin Birjon,
navbahor bo‘lsin,
So‘ldirmasin yashilini, olini.

Uchratib Bayramni[5], bayram etarmiz,
Majlisda yoronni hayron etarmiz,

---

[1] Uch qo‘shiqchi xonimning TVda “Uchi bir yerda” nomli ko‘rsatuvi bor *(tarj.)*.

[2] Arzirumlik san’atchi *(tarj.)*.

[3] **Pul** — konvertga yopishtiriladigan marka *(tarj)*.

[4] **Xola Gur** — taniqli qo‘shiqchi, “xola” o‘zbekchadagi xola emas, oy gardishi anglamida *(tarj.)*.

[5] **Bilga To‘qer Bayram** — atoqli qo‘shiqchi shoir *(tarj.)*.

Irfon[1]-la Turonni sayron etarmiz,
Arilar o'g'rincha yig'ar bolini.

Xarputda mustahzod, Urfada xo'yrat[2],
Qiyomatga qadar o'lmas bu san'at,
Qo'shiq bilan go'zallashar koinot,
Gulshan[3] aylar vodiysini, cho'lini.

SARDANKECHDI

Tog'dan oqqan ulki seli
Ko'r, sag'ir mahshardan kechdi,
Elimga el bo'lgan o'g'li —
Usmon Yuksal Sardankechdi.[4]

Ko'ro'g'limi, yo Yunusmi,
Haq oshig'i, zolim xasmi,
O'zi ketdi, qoldi ismi,
Keng yo'l topmay, tordan kechdi.

Yolg'izlar buyuk yolg'izlar,
Samoda otsiz yulduzlar,
Anglamas sizni g'amsizlar;
Borin berdi, bordan kechdi.

Dunyo qurilgandan beri
Shunday ko'ngil askarlari:

---

[1] "Turk musiqasi" ansanbli rahbari, qo'shiqchi va cholg'uchi; bu ansambl san'atchilari turkiy tillardagi qo'shiqlarni o'sha xalqlarning milliy cholg'usida ijro etishadi *(tarj.)*.

[2] **Xo'yrat** — turk xalq qo'shiqlarining bir turi *(tarj.)*.

[3] **Gulshan** — taniqli qo'shiqchi *(tarj.)*.

[4] XX asrda yashagan turkchi shoir Usmon Yuksal, Turkiya hukumati parlamentida deputat ham bo'lgan. Taxallusi Sardankechdi (boshidan voz kechdi, boshdan kechdi). "Sardankechdi" nomli gazetaning noshiri va boshmuharriri; gazetaning shiori "qamalmaganda chiqadi" *(tarj.)*.

Yo dali, yo valiy bari,
Barin yo‘li dordan kechdi.

Chaqmoqlar cho‘qqiga tushar,
Til tutilar, aql shoshar,
O‘lim yo‘li bu yil magar
Arbobi hunardan kechdi.

Uchrarmidik munday rindga
Ko‘ngillar teranliginda?..
Fotiha sarinliginda
Uning ruhi nurdan kechdi.

Bunda yongan unda yonmas,
Haq degan do‘zaxda qolmas,
Bunga samandar chidolmas,
U chidadi, qo‘rdan kechdi.

Dong‘i bor-u, bo‘sh kissasi,
Oshiq edi u, qisqasi,
Hafta o‘tmay, voh, bu nesi,
Xayol-u xotirdan kechdi.

Fayz olib Xoji Bayramdan,
Tushdi dunyo degan tomdan,
Kechdi zamondan, makondan,
Ilohiy manshur[1]dan kechdi.

Ma’bus[2] Usmon, mahbus Usmon,
Anglamadik, afsus, Usmon,
Tilingni tiy birpas, Usmon,
Bu jamiyat ordan kechdi.

---

[1] **Manshur** — linza ma’nosida *(tarj.)*.

[2] **Ma’bus** — deputat *(tarj.)*.

KELMASIN BUNDAY BAHOR

Ero'l Kunko'rga marsiya[1]

Kelmasin bunday bahor,
Bog'lar xor-u tor-u mor.
Ko'klamning ko'zi yoshli,
G'amli, tumanli tog'lar,
Daralar qon yig'lasin,
Abri nayson yig'lasin.

"Bir olimning o'limi —
Bir olamning o'limi",
Shoximda gul qolmadi,
Esgan samum yelimi?
Mahzun vatan yig'lasin,
Abri nayson yig'lasin.

Olim va ahli dildi,
Ilmimizga kafildi,
Yetim qoldi bir nasl;
Jahonga xizmat qildi —
Jumla jahon yig'lasin,
Abri nayson yig'lasin.

Ruhimiz, o'zimizdi,
Ko'rgan jon ko'zimizdi,
Xalq ichra oq yuzimiz,
Majlisda so'zimizdi —
Tindi... lison yig'lasin,
Abri nayson yig'lasin.

Yo, hazrati Mavlono,
Ko'chdi u ahli ma'no,

[1] **Ero'l Kunko'r** — olim; Qo'nyodagi Saljuq universitetining rektori edi.

Er ko‘rsin qora tuproq,
Senga keldi “Hu!” deya;
Qarg‘a davron yig‘lasin,
Abri nayson yig‘lasin.

SHAHRIYORGA SALOM

She’ringni o‘qirkan, ko‘zim yoshlandi,
To‘liqinlanib, men ham yoza boshladim,
Javob bersin Samarqandim, Toshkentim,
Bir g‘irillab esib o‘tgan yelmizmi?
Kimsa bilmas, kichkinâ bir elmizmi?

Turkcha so‘yla, Haydarbobo ha, desin,
Do‘st bog‘ida alam yeli esmasin,
Istanbuldan eshitilar gur sasing,
So‘yla o‘zing, hey, tilingga jon qurbon!
Yering, yurting ham elingga jon qurbon!

She’rlaringda shavq bor, asriy hasrat bor,
O‘qiganda ona yurt isi kelar,
Haydarbobo bizlarga yolg‘iz yodgor,
Tilarmen, shoirim, umring uzaysin,
Ulug‘ millatingga doston yozasen!

So‘yla, bulbul tilli shoir Shahriyor!
Yo‘l uzoq, orada to‘siq tog‘lar bor,
Tog‘lar ne, bo‘g‘ovlar — kishan, bog‘lar bor,
Ko‘r bo‘lsin-ey, meni menga yot aylar,
Ko‘ngil istar, qo‘l qisqa... dil dod aylar.

Qirg‘iz, qozoq deyaversang, el bo‘lmas,
Uch kunlik dunyoda qulga qul bo‘lmas,
Oltin yerga tushsa, qog‘oz pul bo‘lmas,

Yigit otdan tushar, yana otlanar,
Qafaslar sinadir, qush qanotlanar!..

Yaxshi yigit umid uzmas yoridan,
Gul tera biladir qishning qorida,
Kun kelar, Chamlibel ufqlarida
Ko‘ro‘g‘li G‘irotin yeldirib uchar,
Yetimlar yig‘isi, faryodi o‘char.

SHAHRIYORGA VIDO

Dunyo dohiylarga doim tor kelar,
Dohiy ko‘kyuziga — maydonga chiqar,
Bor xilqatga qarshi, qurbonga chiqar,
Bir dovul qanotin sindirar, o‘lar.

Qaylarga ketdi ul shoiri zamon?
Nega jim bulbul-la tillashgan inson?..
So‘nggi she’r bitmasdan qoldi parishon,
Kutar so‘ng zarbani, san’atkor o‘lar.

Yomg‘ir bilan yuving, bulutga o‘rang,
Avval ketgan ahbob, duoda turing,
Fuzuliyga qo‘shni maqbara quring,
Qo‘rqut Ota o‘g‘li Shahriyor o‘lar.

Shoir ko‘k yuzini moviyga bo‘yar,
Bevaqt uchgan yulduz ko‘zdan yo‘qolar,
Shahriyor yo‘q deya vaqtli yog‘di qor,
Bog‘dagi chechaklar torumor o‘lar.

G‘arib bulbul yig‘lar, bog‘ g‘amga to‘lar,
Bog‘bon-u bog‘ yig‘lar, zo‘r motam bo‘lar,
Ko‘zyoshlar chamanda billur g‘am bo‘lar,
Sochlari oqargan bir bahor o‘lar.

Ko‘ngillar do‘stiga rahmat, sharaf-shon,
Unga motam tutdi Eron-u Turon;

So‘rog‘iga javob bermagach osmon,
Ko‘klarda bo‘zlashib turnalar o‘lar.

To‘rt tomon motamda, tor sasi kelmas,
Shahriyor tovushi hech eshitilmas,
“O‘lgan bir badandir, shoirlar o‘lmas”,
Yolg‘ondir kim desa: “Shahriyor o‘lar”.

Umrda so‘ng soat kelar begumon,
Bir gul dastasiga o‘xshaydir bu jon,
Haqqa omonatin taslim etgan on,
Rindlar so‘ng nafasda baxtiyor o‘lar.

Tabrizga borurmiz, yo‘l bering, tog‘lar,
Otasi o‘lganda, el qora bog‘lar;
Oqbosh o‘lsa, yolg‘iz onasi yig‘lar,
Shahriyor o‘lganda, bir diyor o‘lar.

BIR TURKMAN

Najdat Qo‘choqbekka marsiya[1]

Og‘am, ketma Iroqqa,
Meni otma firoqqa,
Sening toza qoningdan
Yog‘ quyarlar chiroqqa.

Yig‘larman, og‘am, og‘am,
Boshga tushgani shu g‘am,

[1] **Najdat Qo‘choq** — Iroq turkmani. Karkukdan Turkiyaga kelib, uni versitetda dars bergan ziroatchi olim; mustabid Saddam uni Turkiya tarafdorisan deb o‘nlarcha turkman ziyolilari qatorida qatl ettirgan *(tarj.)*.

Yetim qoldi-ku bolam,
Sochi kirmas taroqqa.

Tosh yog‘sin yov boshiga,
Ko‘mildim ko‘zyoshiga,
Boq falakning ishiga,
Bizni otdi qirg‘oqqa.

Yoshdi og‘amning yoshi,
Yanchidi ajal toshi,
Qayda eshi, yo‘ldoshi,
Kimga boray so‘roqqa?

G‘avg‘oga solding, falak,
Boshimda qolding, falak,
Og‘amni olding, falak,
Iroqdan-da iroqqa.

BUVAK

Seni menga onang armug‘on etdi,
Onang hech hormasin, tolmasin, buvak.
Tangrim uyimizni shodumon etdi,
Quvonchimiz qaytib olmasin, buvak.

Isiriq tutatib, taqaylik munchoq,
Tumor yomon ko‘zdan asrasin har choq,
Men keksa chinorman, sen yaproq, butoq,
Seni izg‘irinlar yulmasin, buvak.

Shohi atlaslarga belasin onang,
Goh ertak aytsin, goh kuylasin onang,
Eng shirin allani so‘ylasin onang,
Qaldiroq uyqungni bo‘lmasin, buvak.

Qo‘zim, shu qo‘zichoq sening atog‘ing,
Kul, kulsang gullarga to‘lar quchog‘ing,
Tushunmayman ne der bulbul dudog‘ing;
Hech qachon gul kabi so‘lmasin buvak.

Ulg‘ayib, mard askar, yaroqdor bo‘lgin,
Qo‘shinda qo‘mondon, bayroqdor bo‘lgin,
Turklikka yarashiq xizmatkor bo‘lgin,
Ko‘zimiz orqada qolmasin, buvak!..

HAYRATLAR

* * *

Gul dami
Bulbul dami, gul dami
Esimdan ozdirgan is
Ko‘ksingdami guldami

* * *

Oy yarimi
Yanog‘ing oy yarimi
Oylar kechdi oradan
Ko‘rmadim oy yorimi

* * *

Ko‘k suvdadir
Oy ko‘kda ko‘ksuvdadir
Chiqma jaylonim chiqma
Ovchilar pisuvdadir

YALDO KECHASI

Bizdan o‘limni so‘rarlar,
Do‘stlarga vidodir o‘lim.
So‘rab sinabmi ko‘rarlar?
Bir sirri Xudodir o‘lim.

Falak qo‘ymas, yayrab-kulsak,
Dunyoda kom, orom olsak,
Kim bo‘ldikki bizlar bilsak,
G‘oyibdan nidodir o‘lim.

U tarafdan chaqirarlar,
El-u yurtdan ayirarlar,
Yo‘ldan tamom qayirarlar,
Bag‘rimizda dog‘dir o‘lim.

Bugun-erta, ne farqi bor,
Mehmon qilar bizni diyor;
Tangriman deb o‘ylar g‘addor,
Oyog‘iga bog‘dir o‘lim.

O‘ylaydirman ne bor bunda,
Eshikni qoqar yaqinda,
U qosh-u ko‘z orasinda,
Bir burchni adodir o‘lim.

Gul-u bog‘lar so‘lib bitar,
Quyoshni bulutlar yutar,
To qiyomat davom etar,
Bir shabi yaldodir o‘lim.

MOZORTOSH BITIKLARI

I

"Masnaviy" tarjimoni
Abdulboqiy Ko'lpinorliga

Bazmimizda ajal soqiy,[1]
Bo'lurmiz haq-la muloqiy,[2]
Boqiy emas Abdulboqiy,
Olloh boqiy — "Huvalboqiy".

II

O'qituvchi qardoshim Kamol Qoraxonga
Sen ketding; keturmiz, Kamolimiz yo'q,
Hasbi hol aylarga hamholimiz yo'q,
Ko'zimiz yo'llarda qoldi, azizim,
O'ynab-kularga ham majolimiz yo'q.

VIDO

I

Ko'nglim sezar, so'ng ko'z yumish
Yozinmas, kuzin bo'ladir.
Sen uzulma — xafa bo'lma,
Uzulish uzun bo'ladir.

Shudring tushar chamanlarga,
Qirov qo'nar o'r-qirlarga,
Qushlar ketadir safarga,
Bog'larda uzum bo'ladir.

Yana sharqdan chiqadir kun,
Davom etadir to'y-tugun,

[1] Marhum Abdulboqiy Ko'lpinorlining vafoti tufayli yozilgan bu to'rtlik xattot Ali Alparslonbek tarafidan hazratning mozortoshiga bitilgan *(mual.)*.

[2] Suhbatdosh *(tarj.)*.

Faqat shamol yig‘lar mahzun,
Shamolda huzun bo‘ladir.

Oq taboshir, qora taxta
Meni kutar so‘ng sabohda;
O‘quvchilar chekkan ohda
Ilk motam, to‘zum bo‘ladir.

Kelganida uchish siram,
Yoniq qoladir sigaram,
Na og‘riq qolar, na yaram,
Eng so‘nggi buzum bo‘ladir.

II

Umrimiz bir qum soati,
Bir hovuch qum zamon unda.
Yetib qoldi so‘ng fursati,
Uch kundan so‘ng yo‘qman bunda.

Go‘yo qumga yozuv yozdim,
Go‘yo chizgi chizdim suvga,
Unutilar otim, sonim,
Ketganimda so‘ng uyquga.

G‘imirlaydir har tirik jon,
Shahar yana qaynab yotar.
Qayiqchi, esh eshkaklarni,
Bu daryo dengizga ketar.

Nasibimni oldim, shukur,
To‘ydim dunyo hayotiga,
O‘qilganda mana shu she’r,
O‘qib qo‘ying bir fotiha.

So‘ng makonim, bilmam, qayer —
Qaysi diyor, qaysi mozor;
Men kabi bir g‘arib shoir
Marsiyasin o‘zi yozar.

EGRILAR

Har kelganga yoqayin deb
Bo‘yin egding har xaringa
Sen yozding bu egrilarni
He ro‘yxating, pargaringa

HASBI HOL

Endi xayollar ham tark etdi meni
Oqqushlar tark etgan ko‘lga o‘xshayman
Kimsan ey ko‘zgudan boqib turgan chol
O‘zimga begona cholga o‘xshayman

CHIN ERTAGI

Aldanmam yolg‘ondir bunday taqvim ham
Bu bir Chin ertagi boshqa hech nima
Chorshanba payshanba va yoki juma
Bir marta bayramda kelmadi bayram

HIYLANOMA

Bu yurtda hiyla bor hiyla ichinda
Harom bor uylarning har kirpichinda[1]
Afsus o‘zimizdan boltaning sopi
Gunohsiz emishlar haromi kofir

FIKRI SOBIT

Qayerga bormayin yonimda dori
O‘lim endilikda bir fikri sobit
O‘yimdan ko‘zimdan hech ketmas nari
Eshikda kutar u qorovul-zobit

[1] **Kirpich** — eski turkiy so‘z; forsiy xisht, ya’ni g‘isht ma’nosida *(tarj.)*.

"SENTABR TARONASI" kitobidan

SENTABR TARONASI

Serenada[1] erur hayot
Botgan kunga o'qi la'nat
Umr uch kunlik saltanat
Kunlar bo'lik oylar oloy[2]
Namuncha tez o'tar-a oy

Egil tag'in tin bir nafas
Uchgan u qush bu jon emas
Oqqan u qon bu qon emas
Oqib ketgan zamon emas
Shildir-shildir bir tentak soy

Zamon o'lik ko'ylagidir
Marhum Numrud chorig'idir
Tavrotning bir varag'idir
Oqib ketgan zamon emas
Ko'kdagi oy u eski oy

To'y tugadi tindi xalay
Kulgi ketdi qoldi huzun
Taqvimda ham qisqardi kun
Oqib ketgan zamon emas
Chopayotgan bir chopqir toy

Ilimiliq o'tar-ketar
Yoz yomg'iri ana tindi

---

[1] **Serenada** — musiqiy asar; kechalari sevgili jonon uchun alohida atab chaldirilgan tarona *(tarj.)*.

[2] **Oloy** — o'zbekcha va turkchadagi eski harbiy atama; ruschadagi polk, ya'ni bo'lik anglamida *(tarj.)*.

Buvim ham bir payt kelin-di
Oqib yitgan zamon emas
Yitgan bizmiz voy onam voy

KO‘ZIMDAGI SO‘ZLAR

Laylining oq harir ro‘moli kabi
Bulutga to‘linoy bosadir labin
Bu dam bir she’rdir

Qirg‘oqda qumloqda iliq to‘lqinlar
Charchoq oyog‘imni mushukday yalar
Bu dam bir she’rdir

Bog‘da chol yam-yashil o‘tlarni o‘rar
O‘rilgan o‘t isi dimoqqa to‘lar
Bu dam bir she’rdir

Qorong‘i kechada bir yulduz uchar
U yulduz oydin ko‘k ko‘ngilga ko‘char
Bu dam bir she’rdir

Og‘ochlar chechaklar so‘lgan chog‘larda
Chetanlar buzilar eski bog‘larda
Bu dam bir she’rdir

So‘zlar ko‘zlarimda bir hovuch qumdir
Ey so‘zlar ey qumlar ko‘zimni yumdir
Bu dam bir she’rdir

YANGIDAN

Har she'rda tilsiz qolib
Yana tilli bo'lgayman
Har she'rimda
Yangidan jannatdan quvilgayman
Yasoqlangan mevani yegan kunga qaytarman
Yangidan
Qaytgan dardni yana she'rda aytarman

Har she'rimda zolimlar
Chormixga meni tortar
Masihga hamdam bo'lib ko'klarda zavqim ortar
Har she'rimda o'zimni bardor
Barbod etarman
O'larman
Tirilarman, yana faryod etarman

Quddusda bir ruhbonman,
Makkada bir hojiman,
Farhodman qo'lda cho'kich
Tog' teshib yo'l ochaman
Qancha isyon qilsam-da
Tangrim men-da rojiyman
Senga duo etarman
Yangidan hamd bitarman

Nasimiyman
Halabning bozorida tong chog'i
Kaloming badalini jonim bilan o'tarman
Qo'limda dil bayrog'i
Qo'limda til bayrog'i
Haqiqatning yo'lida yana Haqqa ketarman

Men Hobilni o'ldirib
O'ligini siylarman

Men hazrati Yusufga tuhmat bo‘hton aylarman
Yuz burib Zulayxoni yana hayron aylarman
Eski ishqni
Yangidan yana yashab o‘tarman

LAYLAKLAR QO‘SHIG‘I

Selchuq Uysalga

Qayga ketdi anor yuzlilar
Qani o‘sha qora ko‘zlilar
Qayda endi kechagi u go‘zallar

Avgust laylaklar ketar
Yurakka qayg‘u botar
O‘lgungacha kim bilar
Kim o‘lar-u kim qolar

Qor yog‘ar erib ketar
Buvaklar yurib ketar
Buvim
balki ketajak
Qushlar ketgan diyorga

Laylaklar
Ulug‘ qushlar
Ne bo‘lar birin-birin
Ketganlarni keltiring

Balki yasharlar ular
Uzoqda bir yulduzda
Shu bahor
Ko‘zingizda
Olib keling ularni

TEGIRMONDA BIR KECHA

Eski eshikda fonar
Ikki yonar bir so‘nar

Suv oqar tosh aylanar
Tosh bilan bosh aylanar
Tegirmonchi Xayrulloh
Bismilloh
Bismilloh

Shivirlashib jinlari
Kimdadir bor kinlari
Eshaklarga mindilar
Buni ko‘rib dehqonlar
Uylarga berkindilar
Tegirmonchi Xayrulloh
Bismilloh
Bismilloh

Xayrullohning miyig‘i
Tulkining tik quyrug‘i
Nonushtasi qush eti
Faqat tinch qo‘ymas biti
Sichqon to‘la savati
Tegirmonchi Xayrulloh
Bismilloh
Bismilloh

Hosil yig‘ish zamoni
Zamonning yo‘q omoni
Oltin qildik somonni
Keyin chiqqay tumani
Tegirmonchi Xayrulloh
Bismilloh
Bismilloh

BAYRAMLIK

Bugun bayram ko‘shklar saroylar gavjum
Mung‘aygan uylarda mungli yonar mum
Go‘sht emas dard qaynar qozonlarida
Quvonch yo‘q ko‘cha-yu maydonlarida

Shom tushdi
Izg‘iydir it-u mushuklar
Yo‘qsil qari xotin bozordan qaytar
Qayg‘usi yosh bo‘lib to‘lar ko‘ziga
Yamoq ro‘molini tortar yuziga
Qo‘ldagi xaltada chirik mevalar
Uyda kutar uni och yetimchalar

Yo‘qsillik ayb emas uyalma onam
Uyalsin seni shu kunga solganlar
O‘g‘ri vazirlar-u orsiz a’yonlar
Uyalsin o‘lkani talab yeganlar
Uyalmay shu xalqni poda deganlar

Bugun bayram ko‘shklar saroylar gavjum
Mung‘aygan uylarda mungli yonar mum

UXLAMAS UXLARKAN

Oy bulut ardog‘ida
Baliq suv quchog‘ida
Javlon uratursin

Bola ertak bog‘ida
Kiyik ko‘ngil tog‘ida
Sakrab yuratursin

Terakda bir qarg‘acha
Shu ovloqda darg‘acha
Taxtin quratursin

Shu falak nelar demish
Shu qora yer ne yemish
So‘zsiz turatursin

Yo‘lchi uch ayrilishda
Fikr kuch ayrilishda
Ko‘zsiz turatursin

HAYOT

Farhod
Oqimga qarshi suzmoqdir hayot
Barbod bir havoda
Vahshiy to‘lqinlarda quloch otmoqdir
Kir ko‘lchada shapuam ham suzar

Farhod
Muzlamaslik uchun qora sovuqda
Shamolda o‘t yoqmoqdir hayot
Shamol o‘chiradir yigit yoqadir
Uydagi o‘choqni kampir ham yoqar

Farhod
To‘ppa-to‘g‘ri chopgan ot hayot
Tuyog‘idan o‘tlar sachragan
O‘zg‘ir to‘riq ot
U qo‘tir eshakni Sancho ham minar

Farhod
O‘ta nozik san’atdir hayot
Raqiblarni chalib-boplamay

Biror kimga qora chaplamay
Yashab o‘tmoq hayot deyilar
Elu yurtni talab o‘g‘ri-da yashar

QUSH DASTURXONI

Bir yutum yomg‘ir suvi
Bir tilim shu to‘lin oy
Bu qush dasturxonidar
Tingla alla aytar soy
Bu qush dasturxonidir

Ustimiz yaylov ko‘ki
Ostimiz yurt tuprog‘i
Ulg‘ay bolam o‘s o‘qi
Noningdir gul yaprog‘i
Bizning qush dasturxoni

Ichdik quyosh tomchisin
U mangulik suvidir
Chaqirdik jon emchisin
Duo etsin Yunus pir
Bu qush dasturxonidir

Osmondan moviylik qut
Bulutdan sut sog‘amiz
Keling yetimlar keling
Qirqimiz ham sig‘amiz
Bu qush dasturxonidir

SHOIR VA KO‘L

O‘xrida
Go‘zal ko‘l
Nozanin bir nozli ko‘l
Midya bag‘rida inju
Bolqondagi jaylonlarning suvlog‘i
Turnalarning sevinchi

Bunda har yoz
To‘planadi yuzlarcha shoir[1]
Yuzlab tilda o‘qiladi she’r
Tinglar Qorao‘rmon tog‘larin qori
Qoradirim irmog‘ini ichib ulg‘aygan
Sirli oyna O‘xrida ko‘li

Lekin
Shunday kichik ko‘lga sig‘armi hech
She’rlari-la falsafasi-la
Jahonda bir jahon bo‘lgan
Shoirimiz Farhod Muhich

BOLALAR ALAHSIRAR

Xotin haqlari dedik
Yedik bola haqlarin
Onasiz qancha go‘dak
Emdilar barmoqlarin

Ey to‘linoy yo‘ldosh bo‘l
Quv qora bulutni kel
Mehrga zor bolaning
O‘p kir-chir yonoqlarin

[1] Struge shahrida, O‘xrida ko‘li yoqasida har yili jahon shoirlari qatnashadigan xalqaro she’riyat bayrami ko‘zda tutilmoqda *(tarj.)*.

Bolalar alahsirar
Duo qilsang ne bo‘lar
Jimlik va vahimalar
Bosadi quloqlarin

Onalari qaydadir
Partiyada choydadir
Yeching go‘dak qo‘lini
Bo‘shating qo‘ndoqlarin

Bola yarali jayron
Suvin ichar u qachon
Ilonli quduq uyqu
Qo‘yar u tuzoqlarin

Sizni hoy sho‘x bolalar
Kutar qir-u lolalar
Sindiring atir yuqi
Choynag-u bardaq[1]larin

Iffat qizga onadan
Qolgan qutlug‘ armug‘on
Zamona kelinlari
Ne qildi yoshmoq[2]larin

ALVIDO USKUP[3]

Seldaga

“Bilmasam shu...”
Deya boshlar nutqini Selda
Bir malakning tilidan
Turkcha qanot qoqadir

---

[1] **Bardaq** — Turkiyada choy ichiladigan shisha idish *(tarj.)*.

[2] **Yoshmoq** — ro‘mol *(tarj.)*.

[3] **Uskup** — Makedoniyaning poytaxti Skopye; u o‘lkada yashagan turklar tilida Uskup *(tarj.)*.

Aks sado berar Vo‘dno‘ tepalaridan
Bir titroq tovush bu samimiy sado
Qizil qo‘rday biz tomonga oqadir
Va har kimni otashida yoqadir

Kim bilmishki sen bilsang qiz
Kim bildi-yu sen bilasan
Bu til senga ilk buvingdan armug‘on
Sen ham ulardan qolgan
Bir silsilasan

“Unutmangki o‘lmaylik”
Deb tugatar nutqini Selda
“Unutmangki o‘lmaylik”
So‘zlarning sehri bilan
Ko‘zlarni bulut qoplar

Ha hozir ham
O‘sha tovush qulog‘imda sado berar
G‘urbat nedir anglamoqdaman
Hasrat nedir tinglamoqdaman
Azali Dunayning ey mahzun nasli
Laylo Selda Ziko‘ Nihod Oylin
Bilmayman nechun
Shunday aks sado berar ismlaringiz
Sadolanar qulog‘imda qo‘shiqlaringiz
Nechun buncha yuraklarni to‘lqinlatadir
Yoki hazin faryodingiz
Uzoq-uzoqqa
To Bolqondan eshitilsin deya bizlarga
Aks sado mavjlariga aylanganmi yo

Alvido ey mening jondosh qondoshlarim
Orada bir shamollar-la salom yo‘llang
Bulutlar-u qushlar bilan
Salom yo‘llang

Alvido

MANGLAY TERIDAN YARALGAN DENGIZ

Derinerda qurilgan suv omborida ishlagan qahramon ishchilarimizga, muhandislarimizga va qiymatli davlat arbobi, Artvin voliysi muhtaram

Chingiz Oyto'ldiga

Derinerda reja tuzib
Yetti qavat yerni qazib
Neni axtaradilar

Behudaga oqmasin deb
Cho'rux bandin yiqmasin deb
Unga to'g'on quradilar

Hasan Murod Mamadali
Bari Cho'ruxdan ham dali
Selga qarshi turadilar

Manglay teridan bir dengiz
Bo'pti dersiz bir ko'rsangiz
Shon olib jon beradilar

Yiqiladir tog'lar qat-qat
Biri Mansur biri Farhod
Qoyalarni suradilar

Ostinda yomg'ir-u qorning
Yorug' nurli ertalarning
Tushlarini ko'radilar

Ularning maskani tog'lar
O'z yurtida xasta sog'lar
Mag'rur davron suradilar

Ishlari ulkanmi ulkan
Yarador shu ona o'lka
Unga malham suradilar

ALAM

Qo‘shig‘imni unuttirding sen
Jon jon deya tinglangan qo‘shig‘imni
Meni endi qishlog‘imga qo‘ymaslar
Qushlar nomin hech kim menday bilmasdi
Fol ochganda toshim edi yulduzlar
Nomsiz qolda yuzlab giyoh qurt-u qush
Qo‘shig‘imni unuttirding sen

Qayda endi ot o‘ynatish o‘t o‘rish
Menga berding bir nelar-u bir nelar olding
O‘z ko‘chamda endi meni it ham tanimas
Chopolmasman qo‘y qo‘zining ortidan endi
Ular bilan tillashishini bilmayman endi
Yotman endi bu qishloqqa bu vodiylarga
Qo‘shig‘imni unuttirding sen

NAVRO‘Z

Chopib keldi sahar yeli
Bugun navro‘z navro‘z dedi
Xumorgulning qulog‘iga
Uyg‘on sariq qiz tez dedi

Havolar ham ilib qoldi
Suv bo‘ylari iliq so‘lim
Taftli vodiy to‘lib qoldi
Qurt-u qushlar bilan gavjum

Qizlarini tuproq ona
Yasantirar kular gullar
Kelinchaklar qo‘yar xina
Ko‘zlariga surma surar

Lola olov ro‘mol o‘rar
Xalay o‘ynay deb saf turar
Ko‘k gurlaydi chaqmoq chaqar
Qaynab oqar soy quturar

Tog‘ga qochdi qorbobo
Dara g‘orga bo‘yladi
Uzoqdan ko‘rib cho‘pon
Uni qo‘y deb o‘yladi

Ko‘chatlarni o‘par ari
Qitiqlanib barglar kular
Butoqlarda gullar pari
Kabi boqar sal uyalar

Shoir sozin yangratar
Hey bugun navro‘z deydi
O‘ynasin qiz yigitlar
Yangrasin qo‘buz deydi

MO‘MINA XOTUN[1]

Qaniydi yosh bo‘lsam hayroni bo‘lsam
Naxchivon bog‘ida bog‘boni bo‘lsam

Gul tutsam har sahar malikamga gul
Kulsa ul men-da bir xandoni bo‘lsam

Shohona sha’niga bitsam qasida
Goh uning orzusi armoni bo‘lsam

[1] **Mo‘mina Xotun** — Jaloliddin Rumiyning onasi, Xorazmshohlar saltanatining mashhur shaharlaridan biri Balx amiri Rukniddinning qizi. 1224-yilda Qaramanda vafot etgan, Oqtakya maqbarasiga dafn qilingan *(tarj.)*.

Guldayin so‘lgan ul mohiliqoga
Bir chora topsamu darmoni bo‘lsam

Sultonlar onasi xayrunnisoning
Ostonasinda bir posboni bo‘lsam

Oq boshimni egib poyin o‘pardim
Bir kun saroyinda mehmoni bo‘lsam

UYQU

Onaginam
Tushimda bir qushmishman
Quchog‘ingdan uchmishman

Onaginam
Tushimda bir xatmishman
Manzilni unutmishman

Onaginam
Och meni o‘qi meni
Bosmasdan uyqu meni

Onaginam
Olloh yaqin naqadar
So‘ylasam so‘zim tuyar

Onaginam
Chaqirar meni bu dam
Qushlar
Yo‘llar chaqirar
Shamollar chaqiradi
Uyqu
Tinch suv chaqirar

PARADOKS

Hey
Qariya qariya
Tupur bari doriga
Kasallikdan emas yo‘q
Parhezdan o‘lasan sen
Og‘riqni qoldiruvchi
Dorilardan o‘lasan

Tur
Qirlarni kezib ko‘r
Shamol o‘tsin chotingdan
Tingla soy tovushini
Qushlarning nolishini

Angla
Ne der ovora bulbul
“Qo‘y
Dunyoni o‘t olsa olsin
Sen netarding ey o‘lmagan qul
Yetsa vaqti soati bilgil
Dori tabib barisi bir pul
Qo‘l silta
Har tashvish yukin ot
Sigarangni parvosiz tutat
Kiyganing shu so‘nggi kiyimlar
So‘ng bor olgan chaqmoqtoshing bil
Sendan ko‘ra uzoqroq yashar”

TEZ AYTISH

Dunyo eski
Sinog‘ peski[1]
Birar birar
Chiqar kirar

[1] Eski-peski degan ma’noda *(tarj.)*.

G‘alvir kabi
Teshik tubi
Navbat kutar
O‘tar ketar

Baxti qaro
Eski dunyo
Unga zahar
Bunga shakar

Tur qovunchim
El sevinchin
Qalamdan so‘r
U der: “Zo‘r! Zo‘r!”

Har inqilob
Fitna yo lof
Sharqdan olib
G‘arbga to‘kar
G‘arbdan olib
Sharqqa to‘kar
Oqardi soch
Ustunda toj
Qolmas o‘lar

Dunyo ila
Bir silsila
Qolar inonch

HAZIL

Ko‘lga tushmish bir bulut
Quyoshga yoy-da qurut
Buvim uni o‘rasin
Yirtilmasin

Mahkam tut
Arang tortdik qirg‘oqqa

Ko‘k yirtildi
Yamadik
Yer uzildi
Uladik
Lof jangida quladik
Kuchimizni sinadik
Bu bir hazil shunaqa

Dalalarga tuz ekdik
U quridi
Biz ekdik
Qo‘ridik chivinlardan
So‘rmang xo‘p azob chekdik
Boqmadik aqa-baqa

It bormikin shunaqa
Quyrug‘ida tunuka
Yurib borar shilqillab
Shaq-shaqa-yu
Shaq-shaqa

KUZ G‘AZALI

Jonsiz og‘aga

Qisqarib kunlar, mudom tillardadir alfozi kuz
So‘ldirar gullar kabi har chehrani amrozi[1] kuz

Gul so‘lar bulbul tinar har bog‘da ming faryod kezar
Yuksalar tog‘lar aro oh bir hazin ovozi kuz

[1] **Amroz (arabcha ضارما)** — maraz so‘zining ko‘pligi *(tarj.)*.

Bir o‘lim raqsindadirlar qurt-u qush yaproq chechak
Tin olib tinglar shamol ingrar erkan sozi kuz

Behuda oh urma ey dil arzi shikva aylama
Ming bahordan mo‘tabardir mahsuli-la bazi kuz

Boda daryosinda suzdik arg‘uvon oqshomlari
Biz-da bir shoir bo‘libmiz ismi pinhon rozi kuz

Qutqar o‘zni tandan Oqbosh yerda yaproq hamdaming
Ul shamol olsin-da uchsin boshlanib parvozi kuz

"AVLIYOLAR DARGOHIDA" kitobidan

AVLIYOLAR DARGOHIDA

Afandi Borutchiga[1]

Uxlarkanman,
Tun va dunyo chekinar ekan,
Ilohiylar
Va axiylar
Kirdi tushimga.
Kulohlari ko'kda,
Harmoniy[2]si yerda axiylar.

Yetakladi pir Axiy Evran.
Tashga chiqdik zamonning tor eshigidan.
Qabristonma-qabriston kezdik,
Tavof etdik ulug'larning mozorlarini,
Salom berdik arvohlariga,
Yuzni surdik dargohlariga.

Yuz yillardan,
Ming yillardan g'olib eranlar,
Zolimlarni pisand qilmay javlon urganlar —

Uch avliyo, yonlarida Yetti avliyo,
Sal narida Qirq avliyo kelmoqda bu yon...
Karvon-karvon avliyolar
Kelur biz tomon,
Bir og'izdan aytar ular:
" Yuring, podshohga boraylik,
Qo'l qovushtirib turaylik,

---

[1] Millatsevar, Turonchi inson, shoirning eski do'stlaridan biri *(tarj.)*.

[2] Butun vujudni qoplagan yengsiz ust kiyim *(tarj.)*.

Ulug‘ bir kengash quraylik,
Bilaylik, ne deydir Qur’on”.

Bir “Masnaviy” epkini esdi,
Uning ruhi ruhimiz bosdi.
Qubbalari ko‘kning sinig‘i
O‘sha Saljuq shahriga bordik,
Marhamatlar bahriga bordik,
Bu yer — Qo‘nyo.
Qo‘nyo — dunyo ichra dunyo.
Dunyo etar raqsi samo,
Shamsining atrofida:
“Mavlono,
Mavlono,
Mavlono!..”

Ishq — bir olov, ko‘ngil — fonus,
Eshiting, ne deydir Yunus:
“Ko‘kda oy to‘lg‘un.
Eranlar shoni.
Nay kuyi mahzun,
Tutdi samoni.
Minglarcha malak
Keldi — yer, falak
Bo‘ldi bir dernak[1],
Tinglab navoni.
Avjda raqs-samo,
Ingraydir samo,
Ollohga derlar
Madh-u sanoni.
Yunus xushu-la,
Oppoq boshi-la,
Ishq yo‘ldoshi-la
Chekar savdoni”.

[1] **Dernak** — uyushma anglamida; Turkiston jadid matbuotida “tirnoq” deya ishlatilgan *(tarj.)*.

Anqarada Xoji Bayram,[1]
Uchgan qushlar amriga rom,
Shamol birla so‘zlashadir —
Bundayin ko‘rmagan davron.
Yana qancha-qancha diyordan
Kelmish avliyoi kirom.
Men bir faqir,
Gunohkor banda,
Etaklarin o‘pdim ularning,
“Yo madad!” deb tilak tiladim:
“Ey, avliyo otalar,
Xuroson botirlari,
Yassi kabutarlari!
Ey siz, Turkiston piri!
Muhammad haqqi, so‘zlay,
Biz — murid, devonangiz,
Sizlarni izlay-izlay,
Topmadik xilxonangiz...
Qayda qoldi izingiz?
Bu yurt — Usmonlar yurti,
Boshi osmonlar yurti —
Edi, ammo egildi...
Bizlarni duo eting,
Sizga bosh urib keldik!”

Sajdaga bosh qo‘yibdir bir pir.
Dedilar: “Bu Oqshamsiddin[2]dir.”
U bir hovuch oldi tuproqdan,
Ne tiladi, bilmam, u Haqdan.

Kuf-suf dedi so‘l-u sog‘ga,
Dam solib, dedi tuproqqa:

---

[1] **Xoji Bayram** — Turkiyadagi mashhur avliyo-eranlardan, Yassaviy muridlaridan *(tarj.)*.

[2] **Oqshamsiddin** — Istanbul fotihi Fotih Mahmatning ustozi, piri *(tarj.)*.

“Bo‘zqir mening beshigimdir,
Mozorimdir,
Chodirim ham qotgan nonim,
yovg‘on oshim,
Gar sajdaga qo‘ysam boshim —
Joynamozim.

Sulton Yovuz mingan oq ot,
Qalq shu zahot!
Uch bo‘ronlar nafasi kabi,
Toho surasi kabi

Ko‘klarni quch,
Duo bo‘lib Olloh sari uch!
Duolar, ominlar-la,
Xo‘ro‘nlar,[1] gulxanlar-la,
Ortingda yuz minglar-la

Kelsin endi Qof tog‘idan
Kutilgan u shahzodam!..” dedi.

“Omin!..” dedi avliyolar.
Xoji Bektosh

Asta egib bosh,
Oq soqolin silaganicha,
O‘yga toldi.
So‘ng dedi menga:

“Ko‘nglingizni to‘q tuting.
Iymoningiz but tuting,
Sig‘ininglar faqat Ollohga.
Diyori Rum egasiz

[1] **Xo‘ro‘n** — Qora dengiz turklarining qo‘l ushlashib, qo‘ltiqlashib o‘ynaydigan o‘yini *(tarj.)*.

Qoldimi deb o‘ylarsiz?
Yanglishursiz, shubhani oting!

Hali Bo‘zqir — Ona ko‘ksini
Emib yotur bu bola tog‘lar.
Kelur chog‘lar,
Ko‘ksin kerarlar,
Qo‘llarini qo‘lga berarlar,
Maydonlarni to‘ldirib, o‘ynab,
Xalay[1] chekib, hayqirib, kuylab,
Shunday o‘yin ko‘rsatsinlarki...

Bo‘zqir — Ona.
Bo‘zqir — Tobut”,
Dedi, so‘ngra
Cho‘kdi sukut.

Eranlar to‘p-to‘p keldilar,
Yig‘ilib, yuz ming bo‘ldilar,

Kabutarday uchib-eldilar,
Ko‘klarni etdilar sayron,
Bir burchakda qoldim hayron.

Ko‘rdimki,
Har shaharning bir sohibi bor,
Har sohibning bir noibi bor.

Xoji Bayram,
Xoji Bektosh
Qadam-qadam
Va toshma-tosh
Bu mulkni xatga bitmishlar,
Bizlarga meros etmishlar.

[1] **Xalay** — surnay jo‘rligida o‘ynaladigan xalq o‘yini *(tarj.)*.

ONA SHAHAR

Ey, Quddus[1],
Ey, Baytulmaqdis,
Ilk qiblamiz, qadim shahar, hey!
Masjidi Aqso senda,
Qubbatus-sahro senda,
Mozori Iso senda,
Turli din-u e'tiqod yashar ko'ksingda,
Asrlardir ufqimizni yoritar kumush shamdon,
Kalisoyu masjid yonma-yon,
Osmoningda yangra har zamon
Jom sadosi, ilohiy azon,
Hey, shaharlar onasi, Baytulmuqaddas!

Nafas-nafas kelur nafasi,
Kelur sasi farishtalarning,
U dunyoning nafasi kelur.
Kirib kelur yamoq kiyimli
Mo''minlarning amiri, ana...
Har kim bilur,
Qullarni sulton, sultonlarni qul qilgan bu din.
Bir maktabdan olmish adabni
Salohiddin Ayyubiy,
Yovuz Sulton Salim qahramon.

Shu yerda so'ylashmish Tur ila Muso,
Shu yerda chormixga tortilmish Iso,
Golgofa[2] tepasi — jallod kundasi,
Hech qonga to'ymaydir bani Isroil,

---

[1] Bu she'r 2009-yili Quddusning Islom dunyosining madaniyat poytaxti deya e'lon qilinishi sababli yozilgan va Shomdagi tantanali anjumanda o'qilgan *(mual.)*.

[2] **Golgofa** *(oromiy tilida)* — Urushalim (Yerusalim) shahri yaqinidagi tepalik, jazo maydoni; "Injil"ga ko'ra, Iso payg'ambar o'sha tepalikda chormixga tortilgan *(tarj.)*.

Qon kechib,
Qon ichib, qonganday bo‘lar,
So‘ng tashna tovushi:
– Yana!
Yana!.. — der.

Takror bani Isroil birla
Bu vodiyga fisq-fasod keldi,
Qanoat ketdi, hasad keldi,
Zulmlar-u istibdod keldi.
Bular — Mefisto‘ning to‘ymas avlodi,
Ishi, o‘ylagani harom-foydadir,
Bular Haqdan qo‘rqmas,
Kuchdan qo‘rqadir,
Ha, bular xurmodan sharob qilarlar,
Bulbul yuragidan kabob qilarlar.

Oh, Falastin! Falastin!
Taqdiring Andalusga hech o‘xshamasin!

Yo, Rabbim!
Shu zulm-u dag‘dag‘a bitsin!
Faryodlar tinsin,
Bor yotlar yo‘qolsin, yitsin!
Yillardir kulishni unutgan tullar,
Shu yetim qullar
Biroz sevinsin!

To‘plarning, o‘qlarning ovozi o‘chsin,
Qushlar uchsin
Osmoningda endi, ey Quddus!
Shoirlar har tilda o‘qisin she’rlar,
Hofizlar Qur’ondan o‘qisin oyat,
Hazrat Dovud “Zabur”dan aytsin mazmurlar[1].

[1] **Mazmur** — “Zabur”dagi qutlug‘ jumlalar *(tarj.)*.

Qizil qonmas, yashil ranglar yarashar
Senga, ey, qutlug‘ shahar!
Zulhijjang muharram bo‘lmish —
Bayram oying motam bo‘lmish,
Ey, muqaddas me’roj yeri,
Ey, qadim shahar!

BAG‘DOD O‘T ICHIDA

Jurnalist Muntazar Zaydiyga

Xafa bo‘lmang, bolalar,
Urushgani kelmagan bular,
Sem tog‘a yurtingizga tinchlik keltirdi,
Sizlarga shirinlik, o‘yinchoq berdi,
Ular neftingizning lov-lov o‘tidan
Sigarasin tutashtirmoq uchun keldilar.

Ammo nechun
Yo‘llar to‘la qush o‘liklari?
Ammo nechun qondir tanklar,
G‘ildiraklari
Chaynab borur bolalarning jasadlarini?

Yo‘q, yo‘q! To‘xta,
Janob Bush,
Gaping yolg‘on,
Tagi bo‘sh.
Jo‘nilar[1]ning fikri yomon,
Niyati noxush.

Qarang, yana qonga bulandi Ummon,
Bag‘dodga, Basraga har kun erta-kech
Aqlli bo‘mbalar yog‘dirar dushman.

[1] **Jo‘ni (Coni)** — AQSH askari *(tarj.)*.

Bular bari bolalarning ovchilaridir,
Bular qirg'in tashkiloti — "Ku Kluks Klan"[1]

O'zlariga o'xshamagan har bir insonni
Qirar bular — do'stmas,
bari eng qonxo'r dushman.
Bularning ustodi — maymunparast Darvin.
Kitoblari "Seleksiyon Natüral",
Dinlaridir dushmanlik va kin...

Qo'llaringga bir boq, janob Bush,
Qo'llaringdan ehtiyot bo'l har zamon,
Qo'llaringdan qon oqmoqda,
Qon!..

QOZOQ MOZORLARI

Yo'lga chiqsang Olmaotadan,
Jambulga, Chimkentga qarab yo'nalsang,
Ufqqa tutash so'ngsiz yo'llar sirli, rang-barang.
Jimirlaydir sirli sarob,
Yaltirar mozorda kumush hilollar.

Nedir yiltiragan?
Balki mahv etilgan o'rduning
Ko'kni yorgan nayzalarin porlashidir yaltirab?
Balki yangi jangdan qaytib kelmoqda Abulayxon?
Mozorlari — ruhlar shahri erur qozoq yurtining...

Marmartoshga o'yilgan ul hilol ostida
"Huvalboqiy" — "Boqiy bo'lgan Udir" so'zi bor.
Ruhlar shahri bunda har mozor.

[1] Amerikada qoralarni qirg'in qilish (genotsid) uchun tuzilgan qora niqoblilar tashkiloti *(tarj)*.

Qabr ahlining bor boyligi birgina kafan,
Hech bir o‘g‘ri bu boylikni o‘g‘irlay olmas,
Ularning chirigan etlarin zotan
Yeb bitirgan
Ilon-u chayon.

Ochlikdan, qirg‘indan,
Alamidan o‘lgan o‘lganlar.

Yurt tuprog‘i — to‘shaklari,
Ko‘rpalari qordir,
Ular soni ko‘klardagi yulduzlar qadardir.
Mozorlari ruhlar shahri,
Qabriston diyor.

Endi hech ne qo‘rqitolmas ularni ortiq,
Na yomg‘ir, na qor.
Na Stalin, na Lenin,
Na chorga bo‘ysungay ular.

Ular ko‘rinmas qo‘shindir.
Suyakdan pichoqlari,
Kafandan bayroqlari.

Navro‘zboy va Kenesari
Ularga qo‘mondondir,
Ular — qo‘rqinch,
Eng dahshatli intiqom qo‘shinidir!
Zotan ruhlar diyoridir bu yurtda mozorliklar...

Omonsiz u o‘tli shamolda,
O‘tmishda Samayda o‘lganlar,
Yo yaqinda,
Jilto‘qsanda qurbon bo‘lganlar,
Bari ketdi,

Ulardan bir muhabbat qoldi,
Ota-ona,
Yetim bola,
Dard, g‘urbat qoldi;
Ochiq yara,
Mangu doston,
Shon-shuhrat qoldi.
Otsiz yulduz kabi uchdilar ko‘kdan,
Ulardan moviy bayroq,
So‘ngsiz tuproq qoldi bizlarga,
Mozorlari ruhlar shahri, mozor diyor bu...

Ne yillardir fotihasiz yotgan, ey, qarindoshlar!
Ruhlaringiz shod bo‘lsin!
Jilto‘qsanda uyg‘ongan
O‘lkangiz obod bo‘lsin!

Hech behuda ketmagay sizlar to‘kkan u qonlar,
Osmonimiz ostida hech tinmagay azonlar,
Shokarimlar, Sayfulinlar,
Mag‘jonlar,
Mozorlari ruhlar shahri, mozor diyor bu.

Tovushingiz shamollarga,
Qonlaringiz suvlarga allaqachon qorishmishdir,
Endi sizga farqi yo‘q to‘fonmi, yozmi, qishdir.
Shahidlarga har mavsum mangu so‘lmas bahordir.

Uzoq yurtda siz deb yig‘lagan,
Motam tutgan,
Duo etgan qondoshlar bordir,
Mozorlari ruhlar shahri, hey, mozor diyor!..

— He-ey, To‘raqul!
Uyg‘on, tura qol!
Qara, o‘g‘ling keldi,
O‘g‘limiz keldi! — der Naima ona nogahon. —
Sen zindonga tushganing zamon,
Ona bo‘ri kabi asradim uni,
Tishlab qochdim Olatog‘ tomon.
Otasini topay deb bolam
Oq kemaga minib, qochgancha keldi,
Iliq sut daryosin kechgancha keldi...

Tangrining huzuriga
Oq yuz bilan boray deb,
Nomingni yashatay deb,
Pok so‘z bilan boray deb,
Qorachiqday saqladim uni,
Qo‘riqladim omonatingni...

Fitratini Manasdan olgan,
Mangu qolar kitob yozgan,
O‘g‘ling keldi, tanimadingmi?
Chingiz keldi... Chingizimiz!.. — der.

To‘raqul-chi,
Hamon qonab turgan yarasin
Asta silab uyg‘onajakdir
Asirlikning asriy, mudhish uyqusidan...
So‘ng deydi:
“E, Issiqko‘lning qirg‘og‘ida
O‘ynab o‘sgan mitti bola mana shumi?
O‘h-ho‘, qanday katta bo‘lib ketibdi-ya!
Menga o‘xshar ekan, qara, o‘zi juda ham!
Baxtli bo‘l, bolam!
Bolalarin ne qilganlari

Shahidlarga ayon bo‘lgay, bil...”
Der To‘raqul ota o‘g‘lining
O‘par ekan peshonasidan.

Shunda Chingiz asriy sog‘inch-la
Otasini qattiq quchajak...
Otabaytda boshlanar bayram,
Qatnashar unda shahidlar ham,
Har tomonga sochilar chechak...

O‘YUNSKIY MARSIYASI

Turkum

1. ARMUG‘ON

He-ey!..
Verxo‘yan tog‘larinda kiyik podasin yoygan,
Manglay teridan boshqa hech narsa orttirmagan,
Qisiq ko‘zli, issiq yuzli cho‘pon qondoshlarim!
Muzliklar orasinda binafsha kabi o‘sgan,
Saxa Yurt bolalari, bu she’r sizga armug‘on.

U — shoir, o‘zan edi.
Qam edi — shaman edi.
Muzlar ichida yongan
O‘tyurak odam edi.
Qo‘buzining torida ming-ming doston bor edi,
Qo‘shiqlar yangrar edi,
O‘tmish jaranglar edi.
U gulxanday yonib o‘tdi,
Nuri tunlarni yoritdi.
Kitoblari — yonib bitmas bir gulxan,
Sizlar unga isinib,
Yashang doim u bilan.

Agar yerga tushmasa, urug‘ hech unib chiqmas,
Ulug‘ O‘yunskiyning[1] tuprog‘i nurga to‘lug‘,
Undan yangi nihollar, shoirlar unib chiqar.

[1] **O‘yunskiy** — Yoqutiston (Saxa Yurt)ning buyuk shoiri va davlat arbobi, maorif vaziri (1883–1939). Stalin qatag‘oni qurbonlaridan biri.

2. TUSHGA KIRGAN ARVOH

He-ey,
Jabjakey!
Mening aziz onam,
Yagona onam!
O‘g‘lini doston aytib,
O‘stirgan dono onam!

Hey, mening jon yo‘ldoshim,
Xor-zor bo‘lgan xotinim!

Sen yoqqan sham nurida
Men “O‘lo‘nxo‘”[1] dostonini yozgandim.
Shafaq yig‘larkan qon-qon,
Meni o‘ldirdilar,
Meni osdilar.

Qish mavsumi,
Har taraf qor,
Qo‘limda zanjir,
Tilimda “O‘lo‘nxo‘”dan misralar takror.
Qarshimda jallodlar — soldatlar,
Ular menga qarab o‘q otar,
O‘qlar yuragimga zahar qusdilar.

Lena suvi og‘ir-og‘ir oqardi,
Ko‘k — bir ko‘z bo‘lib bizga boqardi,
Ko‘rganlarin yozdi moviy daftariga,
Qalami chaqmoq edi,
Siyohi sutday oq edi,
Ko‘rganlari insonlikdan yiroq edi,
Farishtalar yer yuzidan yuz burgancha uchdilar.

---

[1] **“O‘lo‘nxo‘”** — O‘yunskiy yozuvga tushirgan, 36 ming misralik yoqut xalq dostoni; O‘yunskiy bu dostonni yod bilgan.

Ont bo‘lsinkim Tangrimga,
Yolbormadim hech kimga,
O‘lgungacha tik tutdim
Qaddimni va boshimni.

Bilmam, qayga otdilar
Jasadimni, loshimni
Qay chuqurga bosdilar...

Yillar — qarg‘ish yillari zotan.
Qonsiragan askarlar, zamon.
Qilt etmasdan bir tuki,
Shoir, adib, qahramon —
Ming-ming boshni kesdilar.

Garmselday esdilar
Dunyomizning ustidan,
KGB edi ular,
Gestapo edi ular,
Barchasi “EsEs”tilar.

3. QIZCHASI SARDANAGA AYTGANI

Sardana!
Malak qizim,
Muzliklarning orasida
Yuz ochgan qorchechak qizim!
Qo‘qma, hali o‘lmadim,
Laqillatdim ularni,
Askarlarni aldatdim,
Yada toshin ko‘kka otdim,
Tovushimni shamolga qotdim.

Tuproqdan bo‘lganni
Tuproqqa berdim,

Og‘irlikdan qutuldim:
Uch-besh litr qon,
Bir to‘rva suyak —
Yerdan olgan edim,
Yerga topshirdim.

Menga qoldi
Ko‘kdan olganim:
Bir hovuch nur,
Bir quchoq moviylik.

Qara, endi
U qafas sindi.

Jon qushi uchdi.
Baland, pastlik yo‘q endi.

Tovush bo‘ldim,
Nur bo‘ldim,

Ufqlardan oshaman,
Shamol bilan shoshaman,
Diyor-diyor kezaman,
Bolalarning tushlarini nur-la bezayman.
Yashaydirman qo‘buzlarning torida,
Shoirlarning she’rida.

Sardanam, nur chechagim!
Qisiq ko‘zli,
Issiq yuzli malagim!

Bir bahor tongida,
Borliq uxlarkan,
Verxo‘yan tog‘ida quyosh chiqarkan,
Men ham yo‘l olaman sening to‘yingga.
Kelganimni bildirib, eshigingizga

Qizil latta bog‘lab qo‘yaman.
Kelinlik oq kiyimingda
Kularkansan sen,
Sevinchimdan yig‘lagayman men.

4. OQ SHAMANNNING SO‘ZLARI

Do‘m-do‘m, ere do‘m,
Bunda sinalar ato‘m,
Havo kirli, suv kirli,
Tog‘-u tosh radyasyo‘n!

Do‘m-do‘m, ere do‘m,
Bu yerda Ergeneko‘n,
Chordan qorga sig‘indik,
Yo‘qdan borga sig‘indik,
Sibirya bir po‘ligo‘n!

Do‘m-do‘m, ere do‘m,
Insonlar otsiz qoldi,
Ma’badlar qutsiz qoldi,
Osiyo Yoqutsiz qoldi,
Mazlumlar yig‘lar yum-yum.

5. YOQUT QIZLARI QO‘SHIG‘I

Endi u she’r aytib kelmas,
Ketganlar hech qaytib kelmas,
Hech kim o‘rnin to‘ldirolmas,
Vaqtli o‘ldi O‘yunskiy.

Qor ustida qizil qonlar,
Qon-qon yig‘lar, yonar jonlar,

Sen ketding-u u dostonlar
Yarim qoldi, O‘yunskiy.

Lena suvi, hey ulug‘ suv,
Yovlaringga yurt to‘lug‘, suv,
Endi shu Saxa ulusi
Yetim qoldi, O‘yunskiy.

Uzun bo‘lur qishimiz, hey,
Og‘ulidir oshimiz, hey,
Tinmadi ko‘z yoshimiz, hey,
Shoxda so‘ldi O‘yunskiy.

6. QORA SHAMAN SO‘ZLARI

Bu yurt bir temir parda,
So‘ylashmangiz har yerda,
Hukumat jallodlarda —
Uyingizni bosarlar,
Boshingizni kesarlar,
Bir og‘ochga osarlar.

Qor yog‘ar, kafan bo‘lar,
Sel kelar, to‘fon bo‘lar,
Dingquloqdir Stalin,
Gapirgan pushmon bo‘lar,
Qatliga farmon bo‘lar.

7. YOSH SHOIRNING NIDOSI

Muz dengizin ichinda
Ko‘karmas nor og‘ochi.
Har daraxt ko‘karsa-da,
Ko‘karmas dor og‘ochi.

Ishonmanglar madhiga,
La'nat adolatiga!
To'ymas inson etiga,
Ko'karar chor og'ochi.

Qirq beshda edi yoshi,
Yiqitdi ajal toshi,
Shumi falakning ishi —
Toshlandi shoir boshi!..

8. ONA SHAMAN DA'VATI

Huuuu!
Hey, ko'klarning shukuhi,
Qora bulutlar ruhi,
Bir po'rtana bo'l-da kel,
Dovulingni chal-da kel,
Titrasin yov guruhi!

Huuuu!
Umay[1] onamiz ruhi,
Ko'k yuzidan in-da kel,
Bir oqqush bo'lgin-da kel,
Qanoting yoy, posbon bo'l,
Bizlarni qo'ri!

Huuuu!
Dengiz, oylarning ruhi,
Shoshqin soylarning ruhi,
Jo'shqin bir sel bo'l-da kel,
Vodiylarga to'l-da kel,
Shu qonlarni yuv!

[1] Eski turk diniga ko'ra, ona tug'ayotganda unga ko'makka kelgan malak *(tarj.)*.

Huuuu!
To‘zon-g‘uborlar ruhi,
Qorong‘u g‘orlar ruhi,
Jinlaringni ol-da kel,
Shovqin-suron sol-da kel,
Bitsin shu uyqu!

9. KEKSA SHOIR O‘GITI

O‘ldi-o‘chdi, deb o‘ylamang,
Tuproq bo‘ldi O‘yunskiy.
O‘rmonda qayinlarga
Yaproq bo‘ldi O‘yunskiy.

Shoirlarni tilida,
Qo‘buz, qo‘shiq selida,
Erk, erkinlik yo‘lida
Bayroq bo‘ldi O‘yunskiy.

Avlodi chiroq yoqar,
Ruhi ko‘klarda oqar,
Goh tongda kunday chiqar,
Shafaq bo‘ldi O‘yunskiy.

Xun to‘lar dushmanlari,
Do‘zax borur jonlari,
Unutilar sonlari —
Ontu qasam O‘yunskiy,
O‘ch-intiqom O‘yunskiy!

KO‘KKO‘L

Ozar shoiri Ahmad Javodning
aziz xotirasiga[1]

Sahar chog‘i yo‘lim tushdi Ko‘kko‘lga,
Ko‘rdim, qizlar gul taqardi kokilga,
Olov— olov bir gul otdim — suv yondi,
Sanam uzoq uyqusidan uyg‘ondi.
Asta-asta oldi yuzdan pardani,
Ko‘nglim — ko‘lga tushgan yobon o‘rdagi,
Rahm et, ey, malaklar cho‘milgan Ko‘kko‘l,
Ipak pardalarga ko‘milgan Ko‘kko‘l!

Muncha mo‘jizakor xilqatning qo‘li,
Zilzila qizi bu, yaylov go‘zali!
Allalar tinglamish shamoldan, qordan,
Chanqog‘in qondirmish tiniq yomg‘irdan,
Shunday chiroy ochmish ofati davron,
Unday suv icharmish oshiq bo‘lgan jon;
U bir tiniq oyna — oynayi falak,
Ko‘kko‘ldan boshqasi —kirli bir ko‘lmak!

Ko‘k moviy, ko‘l moviy, har ne samoviy,
Arshga chiqar Otashgohning olovi,
Bu yer Qof tog‘idir, qoyalar roviy,
Har odimda uchrar bir ertak devi...
Bunda tog‘lar — tuya, bulut — oq kaptar,
Jinlar echki bo‘lib, sakrashib o‘ynar.
Yanglishib Ko‘kko‘lni suv deb o‘ylamang,
Bismillo demasdan boqmang, bo‘ylamang.

---

[1] **Ahmad Javod** — Ozarbayjonning atoqli milliy shoiri (1892–1937-y.), 1912-yil Bolqon urushi qatnashchisi; mustamlakachilarga qarshi qo‘lda quroli va qalami bilan kurashgan qahramon. Qatag‘on qurboni. Ayrim she’rlari bizning tarafimizdan o‘zbekchaga o‘girilgan, matbuotda va “XX asr Ozarbayjon she’riyati antologiyasi”da (2013-y.) bosilgan *(tarj.)*.

Yulduzlar shivirlab har tun so‘ylashar,
Oy nuri parilar bilan o‘ynashar,
Asrlardir ishqqa asir ko‘ngillar
Otashgohda yonar, sal orom olar;
Ko‘kko‘lga aytarlar afsonalarin,
Shu ko‘lda yaralmish Xusravu Shirin,
Qo‘rqut Ota bunda kezgan botirmish,
Ochiqsa, shu suvga nonin botirmish...

Bir tong Ko‘kko‘ldagi pari qizlari
Cho‘milar ekanlar, hirsdan bo‘zarib,
Bostirib kelibdir bir tentak cho‘pon,
Oq papaq kiygan bir xurjunli hayvon.
Bir pari ustiga otmish chakmonni,
Bulg‘atmish lahzada bu pok makonni.
Zamoni g‘aflatda tug‘mish Tepako‘z,
O‘g‘uzni uyquda bo‘g‘mish Tepako‘z.[1]

Bir kecha Oy ko‘lga, suvloqqa tushmish,
Bir jaylon cho‘llarda tuzoqqa tushmish.
Har yonni bosarkan to‘p, o‘q tovushi,
Ko‘l tinmay yig‘larmish... shudir yov ishi.
Chamanlar ustinda tomchi-tomchi qon,
Ko‘zlarin nafrat-la yumadir jaylon...
Og‘zida bir chimdim toshcho‘p o‘ti bor,
Oh, yana ovchining qancha o‘qi bor!..

Yaylovlar sarg‘ardi, kuz keldi endi,
Tog‘lar sut hovuri bilan qoplandi,
Oqqushlarsiz yolg‘iz qolmishdir Ko‘kko‘l,
Yig‘iga, qayg‘iga to‘lmishdir Ko‘kko‘l.
Qirg‘oqda o‘y surar bir tilsiz qamish,
Suvdagi aksiga boqar yozu qish.
Shimoldan sovuq qor kelar bu chog‘lar!
Mening jon qushimni qo‘riqlang, tog‘lar!

[1] Tepako‘z timsolida Qofqozning bosib olinishi va bosqinchilar ko‘zda tutilmoqda *(tarj.)*.

Tog‘ binafshasiga dedim: “Darding ayt”.
Dedi: “Ucha olsam qushdayin har payt!
Bilmam, qanday sig‘dim axir bu bandga,
Mirrixning, Zuhroning dardi bor manda...
Yuzimni silarkan yaylov epkini,
Xayolan ko‘rurmen bir oq kemani,
Suzadir suvlarni u yora-yora,
Men orzu etgan ul diyorga borar...”

Kapazxon[1] oladir oltin tojini,
Ko‘kko‘l ko‘zgusida tarar sochini,
Ko‘ro‘g‘li yo‘l to‘sar, olar bojini,
Qochoq Nabi unutarmi o‘chini?..
Dali shamol tepalarda tor chalar,
Bog‘ oralab olma uzar, nor olar,
Turna patlariday uchar yaproqlar,
Bulutdan oq yelak kiyibdir tog‘lar...

Bir Navro‘z tongida, kunchiqar chog‘da,
Seni uyg‘otmoqqa kelar shahzoda —
Buzar ot kishnashi asriy uyqungni,
O‘par u, ochursan ko‘k ko‘zlaringni...
O, pari Ko‘kko‘lim! Pardangni ochma!
Qish o‘tsin, yoz kelsin... Siringni sochma.
Uxla, notavonim, yaralim, uxla!
Uxla, baxti qora maralim,[2] uxla!..

Bir g‘arib yo‘lchini unutma, deya
Sen uchun she’r bitdim, bo‘lsin hadiya.
Shu keksa chinorlar guvohdir bu dam,
Kun kelur, eslarlar albat bizni ham...
So‘zimni shu buloq chinorga so‘ylar,
Chinor ustoz adib Anorga so‘ylar,
Shu tarzda tarqalar, el-u xalq uqar,
Ehtimol nomimiz shoirga chiqar.

[1] **Kapaz** — Ganjadagi, Ko‘kko‘l tepasidagi tog‘ *(tarj.)*.

[2] **Maral** — urg‘ochi kiyik *(tarj.)*.

Masnaviy o‘qirkan, Ganjadan o‘tdik,
Ichimni ayriliq qayg‘usi tutdi.
Alvido, bog‘larda uzum terganlar,
Uzumni unutib, huzun terganlar!
Otini unutgan shahrim, alvido!
Oqishni unutgan nahrim, alvido!
Alvido, otalar yodgori Ganja!
Alvido, ochilmay qurigan g‘uncha!..

QUTLUG‘ TOSH[1]

Bu kecha ko‘k tiniq, to‘linoy oppoq,
Uzoq dunyolarga qarab uchaylik —
Qanot qoq, xayolim, qo‘zg‘ol, qanot qoq,
Zamondan zamonlar osha qochaylik,
Bir-bir Chin, Mochinni kezib qaytgan choq,
YO Rabbim, deya Qof tog‘in kechaylik,
O‘tukanda bangu boda ichaylik!
Mana shu eski yo‘l borar Turonga,
Bu — nayza o‘rmoni, tug‘lar ko‘lkasi,
Bu urush maydoni to‘la suronga,
Tinmas o‘q viz-vizi, tuyoqlar sasi,
Bir arzi holim bor Bahodirxonga,
Qalqsin oradagi zamon pardasi,
Tarixni berkitgan tuman pardasi!
Ufqda yog‘duday yoyilmish cherik,
Ko‘ngillari ipak, yoylari qattiq,
O‘rduga tordir bu jahonning yeri,
Kishnaydir qo‘shinning samoviy oti,
Otamiz Tangriqut Metedan beri
Dunyo ko‘rmagandi Yer Saltanatin,
Qanotli otlarning hur saltanatin.

[1] Bu she’r Sharqiy Turkistondan, Tangri tog‘larining tepasida joylashgan Erganako‘ndagi Ko‘kko‘ldan professor Shukri Elchin olib kelib, bir she’r yozgin, deya menga armug‘on aylagan qora tosh bo‘lagi tufayli bitilgan *(mual.)*.

Kezib bu tog‘larda zir-zir titrar jon,
Har yildan uch yarash, besh savash chiqar;
Ular qilich bilan yozgandi doston,
Qalam bilan yozsang, chalavash chiqar,
Qo‘y, to‘xta, ichimdan bir otash chiqar!..
Oqsochli Elchinbek keltirgan bir tosh,
Hajarul asvadday, muqaddas qoya;
Balki u Kurshadxon o‘tirgan bir tosh,
Shu toshdan boqqandir yulduzga, oyga,
Shu yerda bo‘lgandir minglarcha savash,
Shunday hukm etilgan O‘rol, Oltoyga,
Shunday yo‘l ochilgan Qizilolmaga.
Tangritog‘ — bizlarni tug‘gan bir ona,
Har elni bo‘yagan u o‘z rangiga,
Yillardir qilichlar kirmay qiniga,
Goh Chinga sovrilmish, goh Mochiniga,
Tangritog‘dan toshgan turkiy po‘rtana
Islom vodiysida tiniqmish yana,
Bizlarni chorlamish Makka, Madina.
Qadrini bilurmiz tuprog‘-u toshning,
Uchgan qushning, esgan yelning qadrini,
Qadrini bilurmiz qavm-u qondoshning,
Ko‘chgan elning, qolgan elning qadrini.
Qadrini bilurmiz sulh-u savashning,
Tikanning qadrini, gulning qadrini,
Olloh yaratgan har qulning qadrini.
Men shoir bir turkman, tilimda turki[1],
Otim qoqilmishdir, ayrildim otdan.
O‘g‘rilar o‘mardi boyligim, bo‘rkim,
Ayrildim shon-shuhrat, u saltanatdan.
Ters aylanaverdi falakning charxi,
Boshim chiqmas hamon dard, falokatdan,
Oh, axir ingandim men samovotdan!..
Kelib-ketmish ipak yukli karvonlar,

[1] **Turki** — turku; xalq she’rlari va barmoqdagi she’rlar bilan aytiladigan qo‘shiq; aruzdagi she’rlar bilan aytiladigani sharqi *(tarj.)*.

Bir payt uyg‘onsamki, yaqindir tushlik.
Qarshimda jonlanar kechmish zamonlar,
Bir yonda zavqu ishq, bir yonda ochlik.
Yo‘limiz ko‘p yiroq, vaqt oz, imkon tor,
Vodiylar yo‘l bermas — qoyalik, toshlik,
Chopag‘on otim, uch, ayla yo‘ldoshlik!
Koinot asri bu, boshqadir dunyo,
U ulkan bo‘mbaday xavfga to‘ladir.
Loqayd yashab bo‘lmas,
bo‘sh kelsang ammo,
Bir pashsha filni ham yiqa oladir;
Yaxshiki Tangritog‘, u mangu ma’vo
Tarixu shonimiz saqlay oladir,
Har zamon bizlarni oqlay oladir.
Yomon bir yo‘ldoshdir insonning aqli,
U goh erka, tantiq; goh zolim, olchoq.
Olam — ikki yovdir qonxo‘r, pichoqli,
Johilni har zamon yutar bu botqoq,
Olmani o‘z qurti chiritar, biroq
Har yangi kun esa, Haqdan xabar, boq,
U ulkan gul kabi sehrli, yashnoq,
Quyosh kunchiqardan chiqajak har choq...

YOLG‘IZ YURT

Ahmad Qovoqli[1] bekka

Xarputda, eski yurtdaman,
U dunyo-la hududdaman,
Goh yerda, goh bulutdaman,
Ajib hislar oldi hushim,
Aralashdi o‘ng-u tushim.

[1] **Ahmad Qovoqli** — mashhur turk adabiyotshunos olimi, “Turk adabiyoti” jurnalining noshiri va muharriri *(tarj.)*.

Ko‘kka tutash Bolqoyasi,
Bu tog‘lar burgut uyasi,
Balak G‘oziyning ro‘yosi
Amal topdi shu makonda,
Gul, tikanli shu chamanda.

Hey, bu yerga ilk kelganlar,
Suvga joynamoz solganlar,
Qal’ada bayroq bo‘lganlar,
Mansur Bobo, Uryon Bobo,
Marhabo, mirim, marhabo!

Qubbasi yiqiq ma’badda
Balak G‘oziy tilovatda,
Vajdga kelar har oyatda,
Bu qal’a Qur’on qal’asi,
Bu vodiy urush sahnasi.

Murod kelar, Firot bo‘lar,
Firot kishnar, G‘irot bo‘lar,
Bag‘dodga borar shod bo‘lar,
Bu ot bir shahsuvor istar,
Sakrarga tosh devor istar...

Bu tog‘larda o‘lmas odam,
Qochib, bir g‘orda saqlansam,
So‘ngra o‘lsam o‘lay, ne g‘am,
Meni kim ham izlar, so‘rar,
Bunda o‘lgan ham baxtiyor.

Ufqimdan turnalar ko‘char,
Ul yuzimni yalar, kechar,
Boshimda nargiz yuz ochar

Qona-qona qor suviga,
Yo‘l olurlar do‘st uyiga.

Qarshi essa hamki yellar,
Hanuz holim so‘rab kelar —
Insonlar bor, meni anglar,
Biri Farhod, biri Shirin,
Sirlashamiz birin-birin.

Tovushdan qanotlari-la,
Anvarning faryodlari-la,
Sehrli xo‘yratlari-la
To‘lg‘onar va qonar Firot,
Osmonlarga uchar faryod.

Chetanli bir boqqa o‘tdim,
Yo‘lakay gul tera ketdim,
Yorga bersam,
deb ko‘p kutdim...
Gulsiz gulni netay, gulim,
Gul Tabrizga yetay, gulim!..

Qator tog‘lar, qor ufqlar,
Ko‘nglimizga tor ufqlar,
Ul yaylovda yorim uxlar,
Bulutlarni yora-yora,
Bundan ko‘nglim Xazar borar.

Dali ko‘nglim ko‘lga asir,
Otsa yuzindan pardasin,
Ko‘llarning eng nash’alisi
Bo‘lsa-bo‘lsa, Xazar bo‘lar,
Ko‘z tegmasin, degim kelar.

Ko‘zi moviy, ko‘ksi kumush,
Ko‘zi tushgan bo‘lgay xomush,
Juftini izlagan oqqush —
Kabi tushmish bu tog‘larga,..
Xazar, qo‘zg‘ol! Boq, Xazarga!

Suvsagandir qari chinor?
Buloq toshlar ichra ingrar.
Qo'lim tegsa, qo'lim yonar,
Buloq, bizga bir oz suv ber!
Chinor, bizga tinch uyqu ber!

Shahar ko'chmish, ko'li qolmish,
Saroy yonmish, kuli qolmish,
Tarixlar ko'muli qolmish,
Xarput — Saljuqlarning shahri,
Tinch uxlasin bari, bari...

Ko'nglimning shaydo paytidir,
Bir do'stga vido paytidir,
Bir qarzni ado paytidir,
Fatahmadga[1] yuz suraylik,
Yorab, himmatin ko'raylik!

O'KSIZ YURT[2]

Zuhal Yuksalga[3]

Ola otni minib ketsam Qrimga,
Qrim qo'l uzatsa diyori Rumga,
Anqaraga, Arzirumga, Cho'rumga.
Ey, dengiz shamoli, Qrimlimisan?
Qo'ling sovqotibdi, kel, bir oz isin.
Tuman yo'l bermaski, Qrim ko'rinsin,
Mening qora ko'zli yorim ko'rinsin,
Seni surgan surum-surum surunsin!
Bulut, qora bulut, Qrimlimisan?

---

[1] **Fatahmad** — Onado'li avliyolaridan biri, maqbarasi Elazig' shahrida (Elaziz, eski Xarput).

[2] Olmos Yildirimning "Qora doston" she'riga nazira.

[3] **Z. Yuksal** — Turkiyadagi Qrimlik olima *(tarj.)*.

Qrimning dardidan so‘rimlimisan?
Millatni otdilar, dinni surdilar,
Tinchlik kaptarini ovlab-qirdilar,
Oq yurtlarda qizil tuzum qurdilar,
Ko‘nglim bir qush bo‘lib Qrimga ketar,
Qrimning holati meni qiynatar.
Yurt talagan Tepako‘z bor, Bosot yo‘q,
Shirin o‘lgan, tog‘ qo‘parar Farhod yo‘q,
Tutqunlarni qutqargani Kurshad yo‘q,
Jomelar yiqilmish, tinmish azonlar,
Yetim qolmish Buxorolar, Qozonlar.
Qrimda qirim bor, Qozonda qirim,
Turkcha unutilgan, qo‘shiqlar yarim,
Irqim, erkim, dinim, nomusim-orim
Yov, chorlar qo‘lida talonda qoldi,
Toshkentda, Darbandda, bilmam, ne bo‘ldi?
Bir payt bu yerda ham quyosh chiqardi,
Oydayin kelinlar sigir sog‘ardi,
Qora bulut bosdi, osmon qorardi;
Qani ulug‘ Qirim, xonlar, Giroylar,
Bog‘chasaroydagi yuksak saroylar?!.
Ko‘r bo‘lsin, ko‘r bo‘lsin falakning ko‘zi,
To‘kilsin yulduzlar, cho‘ksin ko‘kyuzi!
Quyosh so‘nsin! Kecha bo‘lsin kunduzi —
Qul tug‘ilar bodomqovoq bolalar,
Bu yurtni yiqmoqda yurtsiz balolar!
Oltoydan yo‘l boshlab, qancha tog‘ oshdik,
Eski chog‘ o‘rnida yangi chog‘ ochdik,
Sen uchun kurashdik, bir o‘qday uchdik,
Tangrim, saqla indirganing o‘rdungni,
Shaqallarga talatma Ko‘kbo‘ringni!
Turonga borurmiz, yo‘lboshchi Qur’on,
Albat bir kun bizga kulajak davron,
Qo‘zg‘ol, tong otmoqda, botirim, chaqqon,
Tuz bosamiz qonasa ham yaramiz,
Vayron bo‘lgan yurtimizga boramiz!

Bo‘riday kuchli irq o‘lib-tirilar,
O‘tukanda qurultoylar qurilar,
Qizildan, qoradan hisob so‘ralar;
Elim g‘am yemay, tosh yostiqda yotar,
Qorong‘u kechaning so‘ngi —tongotar.

CHANOQQAL’A

Chanoqqal’a[1] —bir hayqiriq,
Ko‘k-hayqiriq, Yer-hayqiriq.
“Qutqar!” degan bir chaqiriq,
Tosh ustida tosh qolmadi.

Ko‘rmagandir tarix tengin,
Dushmanlarning qoqdik changin,
Yutib chiqdik Bo‘g‘oz jangin,
So‘g‘ishmagan yosh qolmadi.

Daralarda oqdi qonlar,
Qurbon bo‘ldi qancha jonlar,
Qora kiydi onajonlar,
Ko‘zlarida yosh qolmadi.

Ming qo‘mondon,
ming-ming askar
Urushdilar va o‘ldilar,
Qurt-u qushga yem bo‘ldilar,
Ko‘mmoq uchun losh qolmadi.

“Olloh! Olloh!” deya-deya,
Jonlarni etdik hadiya;

[1] **Chanoqqal’a** — o‘tgan asrda turklarning Ovrupo mustamlakachilariga qarshi urushda yuz minglarcha shahid bergan, qahramonlarcha zafar qozongan faxrli makoni *(tarj.)*.

Azoni Muhammadiya —
Egilmagan bosh qolmadi.

Yigitlar jon bergan chog‘lar
Tog‘larga qochdi qochoqlar,
O‘chdi uylarda o‘choqlar,
Yonarga otash qolmadi.

Bu qirg‘inga yer-ko‘k shohid,
Chiqdi besh yuz ming mujohid,
Uch yuz mingi bo‘ldi shahid,
Yig‘larga qardosh qolmadi.

Tul kelinlar, qo‘lda xina,
O‘tdi to‘lg‘ona-to‘lg‘ona;
Tug‘di yana ming-ming ona —
Shukur, o‘rni bo‘sh qolmadi.

TUNA DARYOSI

Oytil Ero‘l[1]ga

1

So‘yla menga, so‘yla menga,
Og‘ir-og‘ir oqqan Tuna[2],
Necha marta botding qonga,
So‘yla u kunlar haqqi-chun.

O‘sha besh yuz otliq birdan
Qanday o‘tdi, ayt, bu yerdan?
Ayt, u xanjar minorlardan —
Kelgan azonlar haqqi-chun.

---

[1] Turkiyalik shoir.

[2] Daryo; turklar Tuna, slavyanlar Dunay deydi *(tarj.)*.

Aytgin, kimlar o‘tdi sendan?
Ayt, necha yuz ming tunjbadan
Mahrum yotar kafanidan,
Ul shahid jonlar haqqi-chun.

Ayt, nayzasi ko‘kni yorgan,
Yovni urushda o‘ldirgan,
Yurtlar olgan, yurtlar qurgan
Bahodir xonlar haqqi-chun.

Tuna, yetim qizimizsan,
Tarixdagi izimizsan,
Sen ham bir oq yuzimizsan,
Ayt, qahramonlar haqqi-chun.

2

O‘rtog‘i Sayxun, Jayxunning —
Tuna, qutlug‘ suving, quming,
Bir uchi senda yurtimning,
U bir uchi — to saddi Chin.

Moviy Merij, yashil Arda[1]
O‘tgan kunni xotirlar-da,
Qaynab-toshib har bahorda
Yig‘lar g‘amgin, yig‘lar g‘amgin.

O‘g‘uz, Chingiz emasmi biz?
Ulardan iz emasmi biz?
Endi biz — biz emasmi biz?
Bugun aytgin,
Nechun?
Nechun?!

[1] Bolqon orollarining turklar yashaydigan viloyatlaridagi daryolar *(tarj.)*.

OROL MARSIYASI

Yoqub Umaro‘g‘li[1]ga

Tushimda ko‘rdim Orolni,
Ko‘rdim, u og‘ir yarali,
Mag‘jon kabi, Cho‘lpon kabi
U ham bir baxti qorali.

Qora yerda qoq qayiqlar,
Suzar suv yo‘q, qotib uxlar.
Inju, marjon sochgan Orol,
Qani o‘sha marjonliqlar?..

Orolning suvi qon kabi,
Yarali bir jayron kabi.
Qarang, ko‘llar ham o‘larmish
Oqqush kabi, inson kabi.

O‘roldan kelgan marallar
Orolda sochin tararlar;
Cho‘milgani ko‘l qoldimi,
Bilmadim, qayga qararlar.

So‘lim Hazar, sog‘im Edil,
Mening ikki bog‘im edi,
Qurib borar Orolginam,
Bir qoqsuyak, qochmish eti...

Orol ko‘lmas, oq qimizdir,
Orol bir iffatli qizdir.
Qo‘y, kofirga xor bo‘lguncha.
Orol, o‘zni yerga sizdir!!!

[1] Ovroosiyo Yozuvchilar uyushmasi raisi, shoirning do‘sti *(tarj.)*.

Davron kechmish,
karvon ko‘chmish,
Orolni bir jahon ichmish.
Bu yerga kim mehr qo‘ysa,
Boshida zulm-u qilichmish!..

CHO‘LPON

Husayn O‘zboyga[1]

To‘lg‘on, ey Sir! Amu, to‘lg‘on!
Tug‘ilarmi tag‘in Cho‘lpon?
Chalg‘i tutgan zolim zamon
O‘t o‘rniga o‘rdi inson!..

Cho‘lpon — yorug‘ erk yulduzi.
Cho‘lpon — bir ishq, dard dengizi.
Qutlug‘ ulku-sevgi uchun
U unutmish sevgan qizin.

Cho‘lpon balqar, Cho‘lpon og‘ar,
Yomg‘ir bo‘lib yerga yog‘ar.
Qorong‘ini yeng, deb uni
Ona shafaq har tong tug‘ar.

Osiyoda osmon kengdir,
Yulduzlarning holi tangdir.
Shoir qonin ichib ungan
Chechaklari rango-rangdir.

Yig‘la, Samarqand, Buxoro,
Paxtang oppoq, baxting qora,
Cho‘lponlaring, Fitratlaring
O‘ldirildi ming-ming bora!

[1] **Husayn O‘zboy** — adabiyotshunos olim va tarjimon; o‘zbek adabiyotining Turkiyadagi taniqli tadqiqotchisi va targ‘ibotchisi, Cho‘lponning hayoti va ijodi haqidagi kitob muallifi *(tarj.)*.

Qalam tutgan u botirlar,
Kalom tutgan u botirlar
Ko‘kda yashar duo kabi,
Barin mangu el xotirlar.

Shahidlarim qator-qator,
Biri o‘zbek, biri tatar.
Bir fotiha o‘qi, yo‘lchi,
Cho‘lponlarim go‘rsiz yotar.

TO‘QAY

Tilida so‘z injusi
Yosh bir dohiy-di To‘qay.
Ko‘pkari birinchisi,
Bir yetim toy-di To‘qay.

Soz etti siynasini,
Sozga qo‘shdi sasini,
Ko‘ngil xazinasini
Olamga yoydi To‘qay.

U o‘zin Yusuf etdi,
Bozorda jonin sotdi,
Barcha g‘am, dardni totdi,
Tunda bir oy-di To‘qay.

Edil bilan to‘lg‘ondi,
Ona tili deb yondi,
Toshlar ichra uyg‘ondi,
Bir jo‘shqin soy-di To‘qay.

Bir naydayin jonsizdi,
Dardi ko‘p omonsizdi,
Ko‘klarda bir yulduz-di,
Zulmatda toy-di To‘qay.

Xabardor oq-qoradan,
Tanni quvib oradan,
Chiqdi-da mog‘oradan,
Yeldek ot qo‘ydi To‘qay.

To‘kildi oltin yaproq,
Voh, bo‘ldi qora tuproq...
Ko‘ngli ochiq, yuzi oq,
Baxti qoraydi To‘qay.

Hey, Qozon! Aziz Qozon!
O‘g‘illar ko‘r, shon qozon!
Qayda u shoir — o‘zan?..
Uchdi... Xumoy-di To‘qay.

ZAFAR KABUTARLARI

Kema darg‘asi, do‘stim
Fuod Qusho‘g‘li xotirasiga

Ko‘ksini yelkan kabi shamolga kera-kera,
Temir tanli yigitlar otlanmoqda safarga,
Balki yetib borgaylar oy, quyosh botgan yerga,
Tuz isli, yo‘sin isli suvlardadir barakat,
“Yo bismilloh!” degancha boshlanadir harakat.

Hindu Chinga yetarmiz yo‘l boshlab Marmaradan,
Oy-yulduzdi tug‘imiz asragaydir yaratgan,
Bizni qora yer emas, dengizdir asir etgan,
Asta yo‘qolar tundlik ufqdan va yuzlardan,
Qaldirg‘ochlar, salom deng sohillarga bizlardan.

Oq dengiz, ona dengiz, qadim chog‘lardan beri
Bizni tanir po‘rtana, to‘fonli ufq, tongeri.
Salom, yuksak yulduzlar! Salom, dengiz fonari!

Qonimda qoni qaynar O‘rujning, Barbaro‘sning,
Biz eski fotihlari Jazoirning, Ro‘do‘sning.

Faqat mo‘to‘r guvlashi, poyonsiz, ayonsiz suv —
U darg‘aning bir umr ko‘rgani-bilgani shu,
Dahshatli po‘rtanalar yo‘limizda tuzoq-ku,
Mayli, qutursin dengiz! To‘fonda ham ketarmiz,
Ko‘nglimiz safar istar, manzillarga yetarmiz.

Biqindan yaralanmish oy-yulduzli bu darg‘a,
“Bizday olg‘ir burgutni qanday yengsin bir qarg‘a!
Bos endi, bo‘rilarim! Olg‘a va faqat olg‘a!” —
Hanuz Buroq Raisning sasi sado beradir,
Kenglikda tutun, tuman — kema yonib boradir...

O‘pilgay bu yelkanlar — zafar kabutarlari,
Ming xochlini cho‘ktirdi Barbaro‘s, qirq botiri,
Chayqalib yotar dengiz ulug‘ safardan beri,
Suzar turklar kemasi, yo‘l ber, ey, dali dengiz,
Shamol suhbatdoshimiz, pirimiz — piri Rais!..

USMONLI SALTANATINING YETTI YUZINCHI YILI

Tarixchi olim Elber O‘rtayliga

Arvohing shod bo‘lsin, ey, G‘oziy Usmon,
Hanuz duolardan yangraydir osmon,
Abad muddat davlatingga zavol yo‘q,
Saroyingda xonlar, qirollar posbon.

Qondoshday oqadir Merich va Arda,
Harbiy kemalaring suzar suvlarda,
Safarga chiqarkan har yil bahorda,
Barbaro‘s kelarmish Tunisdan, Fasdan.

Kel, yana Tunada sug‘or otingni,
Sharqdan g‘arbga qadar ker qanotingni,
Mazlum qavmlarga ber barotingni,
Kirgan yurtlaringni ayla guliston.

Sultonim, xayoldan uchqurmish oting,
Davringda bir bo‘lmish zohir-la botin,
Hech tengi yo‘q erur u saltanatning,
Toleying sarnigun, tarixing doston!

TILAK

Avliyolar, keling, yana,
Daryoga joynamoz soling!
Bizga rahbar bo‘ling yana,
Ko‘ngil so‘rang, ko‘ngil oling —
Saljuq minoriday chorlab,
Iznik chinnisiday porlab!

Tuzating, sal ta’mir qiling
Buzuq, churuk ko‘ngillarni,
Shu tulkilar, shaqallarni,
Olmos aylang shag‘allarni,
Uyg‘ontiring shu qullarni!

Narx belgilang behi, norga,
Halol kirsin har bozorga.
Zolimlarni tosh aylarga,
Toshlarni olmos aylarga
Yetardi bir nazaringiz,
Yopildimi bozoringiz?..

Endi butkul yo‘llar tuzoq,
Usti somon, osti suvloq.
Or-nomusga dog‘ tushsa gar,
Poklay olmas okeanlar.

Kamalakni, yetti rangni
Olib ketmish o'tgan karvon,
Sut irmog'in, kuy-ohangni
Ichib qo'ymish och bir jahon.

Devlar bosdi yo'limizni,
Unuttirdi tilimizni,
Charchadik, yo'llarda qoldik,
Qup-quruq cho'llarda qoldik,
Bir g'urbat ellarda qoldik...

Avliyolar, keling, yana,
Daryoga joynamoz soling!
Bizga rahbar bo'ling yana,
Ko'ngil so'rang, ko'ngil oling!..

CHATALAR[1]

Hey botirlar, har ish tamom,
Yo'lboshchimiz Sutchi Imom,[2]
Tong otgandan to vaqti shom
Yovlarni bir bir qiramiz,
Olloh deya o'ldiramiz!

Tog'larda yangraydi "Hoy-hoy!"
Qirq yigitga bosh Arslonboy,
To'rt yoqdan bosar arslonday,
Ota-ota, so'ya-so'ya
Yov qiramiz Olloh deya.

Hayda, ketsin malay dushman,
Kelganiga bo'lsin pushmon,

[1] **Chata** — (çete, chata, bulg'orcha so'z) qo'shinga aloqasiz qurolli guruh (tarj.).

[2] **Sutchi Imom** — Marash viloyatini fransuzlar bosib olganida, dushmanga qarshi ilk o'q otgan imom, xalq qo'zg'oloni qahramoni; Qahramonmarashda uning nomidagi universitet bor *(tarj.)*.

Dara-soyda oqsin ol qon,
Sharaqlat qilichu qinni,
Olloh deya qir dushmanni!

Yovni parcha yurak-la ur,
Cho‘kich, o‘roq, kurak-la ur,
Tuproqni qoning-la yo‘g‘ur,
Ko‘rganni lol qoldiramiz,
Olloh deb yovni qiramiz!

Chatalar, shuhrat-shonlilar,
Chatalar, to‘qqiz jonlilar,
Ko‘ksida o‘q — nishonlilar,
Olloh deb yovni qirarlar,
Bari jannatga kirarlar.

TURKISTON KUNDALIGI

Tur, ey, og‘ay,
Kel, ey, Yoqub,[1]
Bitta gugurt chaqaylik,
Chaqib, tumanga boqaylik...
Chaqilgan boshimizdir,
Boylik, non-oshimizdir,
Boylikki, yesang bitmas,
Daryodar oqar, yitmas.
Bu boylik bir dengizdir,
Mol, qo‘y, qo‘chqor semizdir...
To‘ra kechar har aybni,
Bilar u ham sir, g‘aybni,
Undan xafa emasmiz,
Deyilmasni demasmiz.
Biroq
iplar bo‘ldi chigil,

[1] **Yoqub Umaro‘g‘li** — shoirning do‘sti, yozuvchi, olim, jamoat arbobi *(tarj.)*.

Unga egil, bunga egil;
Bu yer yassi, shahar Yassi,
Odamning bor baland-pasti;
Tamakimdan bo'ldi tuman —
Bu xonami yoki zamon,
Bu yerda kun oyga badal,
G'urbatda siqildim sal-pal.
Tur, ey, og'ay,
Yur, ey, Yoqub,

Bundan chorboqqa qochaylik,
Dalabog'da choy ichaylik.
Bu sarin bahor oqshomi
Olar balki dardu g'amim.
Uzoqda bulbul ovozi,
Bir hazin xasrat navosi...
Qozoqning ham bizga o'xshab
Shirini bor, Farhodi bor,
Qo'buzlarning nag'masida
Mazlumlarning faryodi bor.
Yo'lda uchragan ul shaman
Afsun o'qib, duo etsin.
Ichimda ingragan nadir?
O'g'irlangan izzat, qadr
Qayda, kim qaytaradir?..

OTATURK ARMUG'ONI

(G'oziy[1] universiteti marshi)

G'oziyning armug'oni, ilm-u irfon o'chog'i,
Yurtimga nur taratgan, ey, bilimlar charog'i!
Biz senga intilamiz, davrondir bilim chog'i,

[1] **G'oziy** — Mustafo Kamol Otaturkka Turkiya dushmanlari ustidan qozonilgan g'alabalar tufayli berilgan unvon *(tarj.)*.

Zamon asov daryodir, kelajakka oqadir,
Qorong‘i ufqlarda har on chaqmoq chaqadir.

Boq, ba’zilar ko‘kdadir, biz-chi, yerda-tuprog‘da;
Biz — bir selmiz, toshamiz, oqamiz dala, bog‘da;
Tinmasdan yo‘l bosamiz, Ergeneko‘nda, tog‘da...
Umid to‘la ertamiz, ey, ko‘zi yoshli moziy,
Yana yo‘l ko‘rsatajak bizlarga shonli G‘oziy.

To‘xtama, ishla, o‘rtoq! Yorug‘dir yo‘ling sening,
Bitiktoshga bitilmish mangudir tiling sening,
Yo‘ldoshing manglay tering,
yo‘lboshching ilm sening,
Yana chiqar bizlardan Ulug‘bek, Ibn Sino,
Yuzimiz chiroy bergay har davron oynasina.

Insonlarga mehr ber, olamga mehr tarqat,
Kuchsizlarga qanot bo‘l, Yunusday sehr tarqat,
Kech qahr-u adovatdan, mehrdan so‘zla faqat,
Dunyoning har yerida o‘rtoq til — mehr tili,
Mehru g‘ayrat yor bo‘lsa, ochmoqdir tole yo‘li.

KARKUK

* * *

Karkuk — bir tutam qor cho‘l o‘rtasida,
Onamiz yig‘lar, oh, el o‘rtasida.
Karmisan, ko‘rmisan, qara, Anqara,
O‘ldik kuppa-kunduz yo‘l o‘rtasida!..

* * *

Qachonki yodimga tushsa gar Karkuk,
Yodimga tushadir bo‘g‘izlangan turk;
Fuzuliy bog‘ini talonda ko‘rib,
Zamonning yuziga o‘tdi tupurib.

* * *

Dengizda yuzgan Qibris,
Bag‘ri qon sizgan Qibris,
Kimning dardi yo‘q dersan,
Man Karkukman, san Qibris.

TONGOTAR

Tun-da bitdi, tong otmoqda,
Bir qo‘l ufqni qonatmoqda.

Rabbim, bu chog‘ na qutlug‘ chog‘!
Oy bulutga aytar vido
Kun ko‘ksini aylarkan dog‘,
Asta-sekin g‘oyib bo‘lar
Eriganday choyda shakar.
Ko‘nglimda g‘am,
Tog‘da tuman.
Suvlar oppoq bo‘lgan zamon,
Xabar bergay kun: “Tong otar!”

Har qush qushdan bergay xabar,
Yana baxtli bir tongotar,
Deb ayvonda sayrar kaptar,
Ko‘kda yellar,
Buloqda suv
Takror aylar ekan “Huv! Huv!”
Arshda uchar
Nur — sajdalar...

MUNDARIJA

SAZOIY QORAQO'CH

So'z tarovati *(Shermurod Subhon)* 4

Shermurod Subhon tarjimalari

Ey sevgili..... 7
Sulton Ahmad chashmasi..... 9
Yon..... 9
Ko'pikdan 10
Yopiq chorsu..... 11
Yana oqshom..... 12
Sen qish quyoshimisan..... 13
Chashmalar 14

"LAYLI VA MAJNUN"

Yo'llar taqdim etgan..... 23

I BOB

Tug'ilish..... 27
Sara..... 29
Parili she'r..... 30
Alla..... 31
Tug'ilish..... 32
Kunlar..... 37
Qaysning ishq ko'yida majnun deb nom olishi..... 41
Ota-onaning holi — Qaysni tushunishlari..... 42
Onaning o'g'li ko'ngliga qo'l solishi..... 44
Ota umidi..... 45
Noxush tush..... 48
Yulduz foli..... 51

Navfal

Taqdir devorlari oldida qilichlar..... 53

II BOB

1. Cho'l hikoyasi..... 60
2. Shoirning shubhasi..... 63

3. Qavs.....67
4. Qaytish.....70
Majnun tag'in cho'lda.....73
O'zgarish.....75
Majnun va qaroqchi.....76
Majnun va rohib.....78
Majnun va chang-to'zon buluti.....81
Majnun, mum va parvona.....81
Karvon.....82
Layli tomonda.....85

III BOB

O'lim.....87
Majnunning nurga aylanishi.....88
Laylining nurga aylanishi.....89
Nazr nuri.....89
Xizr bilan qirq soat.....90
Hisobot.....93
Obi hayot xori.....98
Boshqa joyda qo'llanilmaydi.....119

JO'SHQIN QORABULUT

Shuur osti epkinlari *(Shermurod Subhon)* 178
Chizgi.....181
Yolg'izlik.....181
Har yonim somon.....182
G'iq.....182
Adolat.....182
Ishq.....182
Ishq sho'rvasi.....183
Badal.....183
Iste'fodagi elak.....183
Bir ishq ertagi.....184
Chunki sen.....184
Tafovut.....185
Ilg'or.....185

To‘lg‘oq.....185
Tegadigan she’rlar.....186
Teginish.....186
Qo‘lim bir holda.....187
Dimyatga sayohat.....187
Keyinga surilgan orzular.....187
Farq.....188
Kechalar.....188
Havo olish.....188
Ey Ollohim!.....189
Doim bir xil.....189
Shaddod.....189
Ayolning ismi bor.....190
Bekinmachoq.....190
Shuur osti.....191
O‘yinlar.....191
Sariqamish sog‘inchi.....191
Ishoralar.....192
So‘z tikuvchisi.....192

“SHE’RIM MENGA O‘XSHAYDI” kitobidan

Ket.....193
Doim sen bilan.....193
Bu ishq ham bitadi bir kun.....194
Bizga oid nima borki.....194
Nima deb o‘ylayapsiz.....197
O‘limning ham toti qolmadi.....198
Xo‘sh, o‘ldik ham deylik.....198
Kelmoqdalar ketmoqdamiz.....200
Parhezli she’r.....201
Harfiyot.....201
Eng yomoni.....201
Hayot tayanchi.....202
Hayot mazmuni.....203
Ko‘k yuzini taramoq.....204
She’r va men.....205

She'rim menga o'xshaydi....205
Yoziq....206
Hayot sevinchi....206
Seni o'ylagan sari....207
Armonim quyosh....207
Xayolimda sen....208
Men bo'lmasam....209
Ne qipti....209
O'zimga nasihat....210
Quzg'unlar cho'li....211
Niqob....213
Bor-kul dunyosi....213
Qo'llar....214
Ta'min....214
Ta'til....215
Joyingda tur....215
O'rmon....215
Boqiy qolgan....216
Ne ajab....216
Uchish jazosi....216
Voqeayi xayriya....217
Tilim....217
Ichli she'r....218
Dori....218
Qo'rona....218
To'yish ma'n qilingan....219
Bola-chaqa....219
Test....219
Ob-havo....220
Kogito Ergo Su....220

"ANJIR DANAGI" kitobidan

Anjir danagi....221
O'tinch....221
Ertak....222
Ma'noli boqish....222
Zamhari....223
Mag'lubiyat mukofoti....223

Holimiz.....224
Toj tozaligi.....224
O‘z-o‘zimga.....225
Ich-ichimga.....225
Ehtimol.....226
She’r kabi.....226
Men nima bo‘lsam ham.....226
Sutliman.....228
Sening o‘lkangga boraylik.....229
Baxtiyorlik jazosi.....229
Bergan qo‘l.....230
Orzu dunyosi.....230
Tushunchali she’r.....231
Sen borsan.....231
Sensiz vaqt.....232
Tegadigan she’r.....232
Yig‘latgan shoir.....232
O‘tgan o‘tganga.....233
Eshik.....233
Tosh.....234
Yo‘lim to‘g‘ri sen tomon.....235
Yurak siqilishi.....235
Qisqa yorug‘lik.....236
Ishonch.....236
Sog‘ing.....236
Kelib ketish.....237
Odamoxun.....237
Oxiri hazin deya.....238

ALI OQBOSH

O‘chmas cho‘g‘ *(Tohir Qahhor)* 240

Tohir Qahhor tarjimalari

“KO‘CHAYOTGAN TURNALAR” kitobidan

She’rim 243
Ertak 243
Qo‘shiq 245

Tog‘lar 246
Bizning qo‘shiqlar 247
Armug‘on 250
Sardankechdi 253
Kelmasin bunday bahor 255
Shahriyorga salom 256
Shahriyorga vido 257
Bir turkman 258
Buvak 259
Hayratlar 260
Yaldo kechasi 261
Mozortosh bitiklari
Vido 262
Egrilar 264
Hasbi hol 264
Chin ertagi 264
Hiylanoma 264
Fikri sobit 264

“SENTABR TARONASI” kitobidan
Sentabr taronasi 265
Ko‘zimdagi so‘zlar 266
Yangidan 267
Laylaklar qo‘shig‘i 268
Tegirmonda bir kecha 269
Bayramlik 270
Uxlamas uxlarkan 270
Hayot 271
Qush dasturxoni 272
Shoir va ko‘l 273
Bolalar alaxsirar 273
Alvido, Uskup 275
Manglay teridan yaralgan dengiz 276
Alam 277
Navro‘z 277
Mo‘mina Xotun 278
Uyqu 279

Paradoks 280
Tez aytish 280
Hazil 281
Kuz g‘azali 282

“AVLIYOLAR DARGOHIDA” kitobidan

Avliyolar dargohida 284
Ona shahar 289
Bag‘dod o‘t ichida 291
Qozoq mozorlari 292
Sindi oltin qalamim 295
O‘yunskiy *(turkum)* 297
Ko‘kko‘l 305
Qutlug‘ tosh 308
Yolg‘iz yurt 310
O‘ksiz yurt 313
Chanoqqal’a 315
Tuna daryosi 316
Orol marsiyasi 318
Cho‘lpon 319
To‘qay 320
Zafar kabutarlari 321
Usmonli saltanatining yetti yuzinchi yili 322
Tilak 323
Chatalar 324
Turkiston kundaligi 325
Otaturk armug‘oni 326
Karkuk 327
Tongotar 328

S 20 Sazoiy Qoraqo'ch, Jo'shqin Qorabulut, Ali Oqbosh [Matn]: nazm/ to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Lola Fattoyeva. — Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 336 b.
ISBN 978-9943-8725-0-9

UO'K 821.512.161-1
KBK 84(5Turk)-5

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

SAZOIY QORAQO'CH
JO'SHQIN QORABULUT
ALI OQBOSH

53-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Lola Fattoyeva*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Sadoqat Beshimova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 21,0. Nashriyot-hisob tabog'i 18,12.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 120-1/22. Buyurtma raqami № 22-336.

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

SAZOIY
QORAQO'CH

JO'SHQIN
QORABULUT

ALI OQBOSH